

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI BIR MARTALIK
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K:821.512.133.09-3**

BOTIROVA SHAXLO ISAMIDDINOVNANING

**HOZIRGI ZAMON NASRIDA NOAN‘ANAVIY QISSALAR BADIYYATI:
USLUB, JANR VA XRONOTOP TALQINI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

Ilmiy maslahatchi: f.f.d., professor U.Jumanazarov

Jizzax – 2024 yil

MUNDARIJA

| | | |
|------------------|---|------------|
| | KIRISH..... | 3 |
| I. BOB. | JAHON ADABIYOTIDA QISSA JANRI GENEZISI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI | |
| 1.1-§ | Janrning shakllanish bosqichlari va an'anaviylik..... | 13 |
| 1.2-§ | Qissa janrining noan'anaga o'tish tamoyillari..... | 31 |
| 1.3-§ | Noan'anaviy qissalarda uslubiy-shakliy izlanishlar..... | 45 |
| | Birinchi bob bo'yicha xulosa..... | 62 |
| II. BOB. | NOAN'ANAVIY QISSALARDA SYUJET VA KOMPOZITSION YAXLITLIK SINTEZI | |
| 2.1-§ | Syujetga xos unsurlarning qissa poetikasida tutgan o'rni..... | 64 |
| 2.2-§ | Kompozitsiyada yozuvchi falsafiy-estetik idrokining aks etishi..... | 81 |
| 2.3-§ | Noan'anaviy qissalarda mif va metamorfoza uyg'unligi..... | 99 |
| | Ikkinchi bob bo'yicha xulosa..... | 116 |
| III. BOB. | BADIIY PSIXOLOGIZMNING QISSA STRUKTURASIDA ZUHUR ETISH USULLARI | |
| 3.1-§ | Ruhiy tahlilning turlari va usullari..... | 118 |
| 3.2-§ | Badiiy obrazlilikni ta'minlovchi unsurlar dinamikasi..... | 136 |
| 3.3-§ | Ruhiy tahlil va polifonik nutq sintaksisi..... | 153 |
| | Uchinchi bob bo'yicha xulosa..... | 172 |
| IV. BOB. | NOAN'ANAVIY QISSALARDA YOZUVCHI KONSEPSIYASI VA BADIIY XRONOTOPNING ZUHUR ETISHI | |
| 4.1-§ | Yozuvchi ijodiy konsepsiyasida xronotop shakllari talqini..... | 173 |
| 4.2-§ | Ijodiy konsepsiya evolyutsiyasi va talqin ranginligi..... | 193 |
| 4.3-§ | O'zbek noan'anaviy qissalarida G'arb badiiy tafakkuri sintezining roli..... | 212 |
| | To'rtinchi bob bo'yicha xulosa..... | 230 |
| | UMUMIY XULOSA..... | 232 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 235 |

KIRISH (DSc) doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo adabiyotshunosligida noan'anaviy qissa janrining poetikasi, uning ilk adabiy turlar va janrlarning aralashuvi jarayonida yangicha ko'rinishga kelishi borasida ko'plab muhim izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, janr tabiatini shakl, mazmun va uslubdagi o'zgarishlar orqali ijodkor badiiy mahoratining o'ziga xos qirralari sifatida tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qissa o'rta epik turga mansub ekanligi, undagi qahramonlarning ruhiy olami va sarguzashtlari xilma-xil bo'lishi bilan birga, bugungi o'zgarayotgan dunyoda badiiy so'zga, xususan, janrga bo'lgan munosabat ham turli qirralarga ega va noodatiy ekanligi dolzarb ahamiyatga ega.

Jahon adabiyotshunosligida noan'anaviy qissa janrining yangi nazariy asoslari mavjud qoliplar va an'anaviy tushunchalarni o'zgartirib, adabiyotda yangi qirralarni yaratmoqda. Noan'anaviy qissa janridagi uslub va janr uyg'unligi, har bir yozuvchining o'z ijodiy olami va uslubiy o'ziga xosliklari asosida namoyon bo'lishi, adabiyotshunoslikda yanada jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi. Qissa keyingi o'n yilliklarda atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq holda, ijtimoiy va ruhiy o'zgarishlarga mos ravishda yangicha mazmun va shaklga kirib kelmoqda. Bunda janrning poetik tuzilmasi inson ruhiyatida kechayotgan ekologik va ruhiy-falsafiy jarayonlar fonida, xuddi iqlim o'zgarishlari singari, yangicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bu holat esa adabiyotshunoslikda turli xil obyektiv munosabatlar va talqinlarning qaytadan ko'rib chiqilishi dolzarb ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

O'zbek qissachiligida rang-barang mavzulardagi qissalarda, obrazlarning urush davri va urushdan keyingi maishiy turmushi yoritilganida, shunday tasvirlar ishlatilganki, bu asarlar juda chiroyli va samimiy namoyon bo'ladi. Yaqin yillardagi modernistik va postmodernistik yo'nalishlarda esa, bu obrazlar noan'anaviy tasvir yo'sinlari orqali yangi va juda yorqin o'zgarishlarga erishildi. "...Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon "Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan otashin da'vat bilan maydonga

chiqqan edi”¹. A. Qahhor, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh. Xolmirzayev, M. M. Do’st, T. Murod, N. Eshonqul, U. Hamdam, I. Sulton, A. Yo’ldoshev, S. Vafo, Sh. Hamro va M. Chovush kabi yozuvchilarning asarlari adabiy ta’sir va qiyosiy o’sish asosida shakllanib, poetik talqin va uslubiy modifikatsiyalar orqali qissa janrining turfa xususiyatlarini yaqqol namoyon qildilar. Qissa janrining poetik talqin va uslubiy o’zgarishlarini har tomonlama qiyosiy o’rganish o’zbek adabiyotshunosligida ayni kun zarurati hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to’g’risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O’zbekiston – 2030 strategiyasi to’g’risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ-28-29-son “Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy bog’i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to’g’risida”, qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O’zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o’rganish va targ’ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o’tkazish to’g’risida”gi Farmoyishi hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g’oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Noan'anaviy qissa janri poetikasi muammosi va zamonaviy o'zbek qissachiligi haqida dunyoning ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari, xususan, Oxford University (Buyuk Britaniya), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Humboldt Universitat (Germaniya), the University of Sorbonne (Fransiya), Kioto University (Yaponiya), National University of Seoul (Janubiy Koreya), Markaziy-Yevropa universiteti va "Ochiq jamiyat" instituti (Budapesht, Vengriya), Manchester University (Buyuk Britaniya), Jorjiya universitetining ekologiya insitituti (AQSH), Massachusetts Institute of Technology (AQSH), Indiana University (AQSH), Istanbul universiteti, Anqara universiteti, Karabuk universiteti (Turkiya), Rossiya davlat gumanitar universiteti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), Milliy ilmlar akademiyasi Adabiyot instituti, Baku Yevroosiyo universiteti (Ozarbayjon), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida qissaning poetik qiymatiga oid ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning asosiy manbayi Yunon olimi Aristotelning "Poetika" asari hisoblanadi. Rus adabiyotshunosligida esa A.A.Potebnya, D.N.Ovsyanko-Kulikovskiy, A.G.Grofed, L.S.Vigotskiy va M.M.Baxtinlar psixoanalitik nuqtayi nazarda qissa janriga oid ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shu bilan birga, V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Yu.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, L.S.Vigotskiy, R.Bart, Yu.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermexer, V.Diltey, M.Xaydegger va G.G.Gadamer kabi munaqqid-olimlar qissa janrining turli qirralarini tadqiq qilishga katta hissa qo'shganlar. Ularning monografik

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://slc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; <http://www.iaas.msu.ru>; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; <http://www.orient.spbu.ru/ru>; <http://www.orientalstudies.ru>; <http://orientalstudies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institut-yazyka-literatury-vostokovedeniya-ipismennogo-naslediya-imrudaki>; <http://tashgiv.uz/ru>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; <http://www.samdu.uz>; <http://www.fardu.uz> va бошқа манбалар негизда амалга оширилди.

tadqiqotlari noan'anaviy qissachilikda badiiy psixologizm va ijodkor shaxsining mahorat va uslubi qanday tahlil qilinganligi haqidagi masalalarga yordam beradi. Shuningdek, ingliz, rus va turk yozuvchilarining ayrim asarlarini o'rganish natijasida qissa janrining universal va regional xususiyatlari namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunos olimlari, tadqiqotchilaridan M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, D.To'rayev, M.Xolbekov, Q.Yo'ldoshev, A.Xolmurodov, D.Quronov, U.Jo'raqulov, I.Yoqubov, B.Karimov, V.Alimasov, Sh.Doniyorova, M.Boboxonov, U.Rasulova³lar izlanishlarida qissa janrining ko'plab jihatlari haqida so'z yuritiladi. Ammo zamonaviy o'zbek qissachiligida noan'anaviy obrazning qiyosiy tahlili va ijodkor fitrati muammosi alohida tadqiq qilinmagan.

Zamonaviy noan'anaviy qissalarda o'zbek nasrida obrazlarning qiyosiy tadqiqi bo'yicha keng qamrovli monografik tadqiqotlar mavjud emas. Shu bois, ishning strukturasi aniqlashda uchta muhim jihatni e'tiborga olish zarur:

1. O'tgan asr boshlarida yaratilgan qissalarda yangi obrazlarning paydo bo'lish omillari.

2. Urushdan keyingi davrda mehnatkash xalqning ruhiyatida inson matonati va milliy an'analarning aks ettirilishi.

³ Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-маъбаа ижодий уйи, 2010; Қўшжонов М. Ижод масъулияти, – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарқ, 2004; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Солижонов Ў. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Ў. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2015; Умuroв Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016; Раҳимжонов Н. Адиб эстетикаси. – Тошкент: Фан, 2017; Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004; Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Куронов Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018; Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: ЎзМУ кутубхонаси нашриёти, 2008; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016.; Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида янгича талқинлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. –Б.112.; Расулова У. XX аср ўзбек кссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.фан.док...дисс. – Тошкент: 2020. –Б.249.; Бoboxonov М. Ўзбек қиссачилигида бадиий психологизм. – Тошкент: Баёз. 2014. –Б.132.

3. Istiqlol davridan hozirgi davrgacha yaratilgan qissalarda noodatiy obrazlar ruhiyatining rivojlanishi, yozuvchi kredosi va obrazlar sistemasini birlikda shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiy hayotda inson mehnatkash qatlamining yoritilishida qishloq va shahar syujetlari o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatga ega. Insonning muqaddas xilqati, orzulari, umidlari, oilaparvarligi, sabr-u qanoati ko'p qissalarda o'xshash syujetlar orqali namoyon bo'ladi. Odamzodning orzulari bilan yashashga mahkum obrazi istiqloq davri kishisining ziddiyatlararo poetik matn tarkibida ham o'z aksini topadi. Shu bois, tasvirlash usullari ko'p yozuvchilarga xos bo'lgan uslubiy matrisa sifatida ko'rinadi.

Ushbu jihatlar o'zbek qissachiligining noan'anaviy obrazlari, janriy uyg'unlik tamoyillari va qiyosiy tahlili orqali poetik talqinni aniqlashda asosiy tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy noan'anaviy qissalarda uslub va janr, syujet va kompozitsiya, lirik kechinmalar, obraz va obrazlilikni xronotop va badiiy vaqt kategoriyalari nuqtayi nazaridan aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyotida qissa janri genezisi va taraqqiyot tendensiyalari, janrning shakllanish bosqichlari va an'anaviylik, qissa janrining noan'anaga o'tish tamoyillari, noan'anaviy qissalarda uslubiy-shakliy izlanishlar masalalarini ochib berish;

noan'anaviy qissalarda syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi masalasi, syujetga xos unsurlarning qissa poetikasida tutgan o'rni, kompozitsiyada yozuvchi falsafiy-estetik idrokining aks etishi, noan'anaviy qissalarda mif va metamorfoza uyg'unligini aniqlashtirish;

badiiy psixologizmning qissa strukturasi, zuhur etilish usullari, ruhiy tahlilning turlari va usullari, badiiy obrazlilikni ta'minlovchi unsurlar dinamikasi, ruhiy tahlil va polifonik nutq sintaksisini dallillash;

noan'anaviy qissalarda yozuvchi konsepsiyasi va badiiy xronotopning zuhur etilishi, yozuvchi ijodiy konsepsiyasida xronotop shakllari talqini, ijodiy konsepsiya evolyusiyasi va talqin ranginligi, o'zbek noan'anaviy qissalarida g'arb badiiy tafakkuri sintezining rolini aniqlashtirish;

badiiy obraz o'zgaruvchanligini va uning ijtimoiy-madaniy munosabatlar kontekstidagi evolyusiyasini diniy va adabiy manbalardagi aksi orqali o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari", Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik", Isajon Sultonning "Onaizorim", Murod Chovushning "Hech", Shodiqul Hamroning "Suratdagi ayol" qissalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini noan'anaviy zamonaviy qissalarda obrazlilik, janriy-uslubiy, qiyosiy tahlilini aniqlashtirishda poetik matrisa, uslub va badiiy shakl yaxlitligi, psixologizmning syujet hamda kompozitsiyada namoyon bo'lish omillari, shuningdek, xronotop tushunchasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, biografik, struktural analiz usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qissa janri tarixan yangi ifoda shakl-u shamoyilida qisqa vaqtda rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, uning ilk ildizlari payg'ambarlar haqidagi qissalar, Qur'on oyatlarida aks etgan ma'rifiy-diniy qarashlarda namoyon bo'lganligini asoslangan;

qissalarda realistik va noan'anaviy tasvir usullari XX asrning 30-yillaridan boshlanganligi hamda undagi obrazlilikning badiiylik shartlari va qonuniyatlari yangi ifoda usullari bilan boyib borayotganligi dalillangan;

obraz shakllantiruvchi syujet va kompozisiya tizimidagi xarakter individualligini ta'minlashga yordam beradigan omillar turli usullar mohiyatidagi poetik izlanishlar rang-barangligi mahsuli ekanligi isbotlangan;

davrning og'riqli muammolari "Tun panjaralari" va "Yolg'izlik" qissalari yozuvchilarga poetik ilhom berganligi, jahon adiblarining janriy-kompozision jihatdan pishiq asarlari asosida obraz yaratish yo'lidagi xilma-xil urinishlarning farqlari asoslangan;

"Onaizorim", "Qora kitob" qissalaridagi noan'anaviy uslub jahon va rus adabiyotidagi qissalarning ta'siri natijasida yaratilganligi, obrazlarning global mavzularga modifikatsiyasi va janr tabiatidagi evrilishlarda badiiy psixologizm, badiiy kompozisiya, badiiy xronotopning ahamiyati muhim ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qissa kompozitsiyasida obrazning o'rni va ahamiyati janrning tarixiy ildizlaridan oziqlanishi, davrning muhim bo'g'ini sanalmish har qanday yozuvchiga ilhom ato qiluvchi masalalar ekanligi ochib berilgan;

ikkinchi jahon urushidan keyingi davr yozuvchilari yaratgan obrazi maishiy turmushning bir uzvi sifatida qaralgani diqqat bilan o'rganilgan;

istiqlol davr ostonasida va yangi nasrning yuzaga kelishida kecha-bugun-ertaga uchligi miqyosida dalillangan;

"Tun panjaralari", "Yolg'izlik" qissalarida obrazning qator tavsifi, janrga xos o'sish-o'zgarishlarning va uning ruhiy iqlimida ro'y berayotgan maishiy turmush oqovalarining ta'siri sezilarli darajada aks etgani qiyosan tahlil qilinib, badiiy matn transformatsiyasida hal etiluvchi muhim belgilar isbotlangan;

zamonaviy noan'anaviy qissalarda obraz yaratilishida milliy istiqlol ruhiyatining aks ettirilishida jahon xaritasida paydo bo'lgan milliy zamin iqtidorlarining uslubiy-shakliy izlanishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzu va muammoning aniq qo'yilganligi, keltirilgan nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, foydalanilgan tahlil mezonlarining tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, biografik, struktural-analiz tadqiq usullari negizida asoslanishi,

xulosa va tavsiyalarning esa amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning xulosalaridan hozirgi o‘zbek noan’anaviy qissalarda uslub, janr va xronotop talqini, qiyosiy tahlilini aniqlashda obrazlarning davrlarga, davrlarning makon va zamonda aks etish prinsiplarini tayin etishda, poetik syujet va kompozitsiya, uslub va shakl, badiiy xronotopning asar mohiyatidagi rolini belgilashda, jahon adabiyotshunosligida ro‘y berayotgan o‘shish-o‘zgarishlarni chamalashda, falsafiy-estetik qamrov qirralarini tasniflashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi tahlillardan oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, o‘zbek qissalarining janriy-kompozitsiyasini qiyosiy o‘rganishda, shunga aloqador darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda, adabiyotga oid izohli lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi zamon nasrida noan’anaviy qissalar badiiyati: uslub, janr va xronotop talqini tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

qissa janri tarixan yangi ifoda shakl-u shamoyilida qisqa vaqtda rang-barang ko‘rinishlarga ega bo‘lsa-da, uning ilk ildizlari payg‘ambarlar haqidagi qissalar, Qur‘on oyatlarida aks etgan ma‘rifiy-diniy qarashlarda namoyon bo‘lganligi haqidagi qarashlarga oid xulosalardan Termiz davlat universitetida 2023-yilda bajarilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli “Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate’s employability in Central Asia - TRIGGER” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024 yil 24 maydagi 06/12-1838-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy jihatdan boyitilishiga erishilgan;

qissalarda realistik va noan’anaviy tasvir usullari XX asrning 30-yillaridan boshlanganligi hamda undagi obrazlilikning badiiylik shartlari va qonuniyatlari

yangi ifoda usullari bilan boyib borayotganligi asoslangan o‘rinlardan “Теория литературы: Введение в литературоведение” nomli darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan tayyorlangan. Ro‘yxatga olish raqami: 233-0384). Natijada mazkur darslik badiiy nasrning paydo bo‘lishi va genezisi bilan bog‘liq bo‘limlari nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

obraz shakllantiruvchi syujet va kompozisiya tizimidagi xarakter individualligini ta’minlashga yordam beradigan omillar turli usullar mohiyatidagi poetik izlanishlar rang-barangligi mahsuli ekanligi o‘rinlardan “Adabiyot nazariyasini o‘qitish metodikasi” nomli darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan tayyorlangan. Ro‘yxatga olish raqami: 233-0383). Natijada darslikning adabiyot o‘qitishda badiiy nasrning o‘ziga xos xususiyatlarini etkazish bo‘limi mazmunan boyitilgan;

davrning og‘riqli muammolari “Tun panjaralari” va “Yolg‘izlik” qissalari yozuvchilarga poetik ilhom berganligi, jahon adiblarining janriy-kompozision jihatdan pishiq asarlari asosida obraz yaratish yo‘lidagi xilma-xil urinishlarning farqlari o‘rganilgan o‘rinlardan “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan tayyorlangan. Ro‘yxatga olish raqami: 218-400). Natijada mazkur darslikning til o‘rganishda badiiy nasr namunalari bilan foydalanishga doir fasllari o‘zbek qissalaridan olingan tarjima parchalari bilan boyitilgan;

“Onaizorim”, “Qora kitob” qissalaridagi noan’anaviy uslub jahon va rus adabiyotidagi qissalarning ta’siri natijasida yaratilganligi, obrazlarning global mavzularga modifikatsiyasi va janr tabiatidagi evrilishlarda badiiy psixologizm, badiiy kompozisiya, badiiy xronotopning ahamiyati muhim ekanligi asoslangan o‘rinlardan “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi” darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan

tayyorlangan. Ro'yxatga olish raqami: 218-401). Natijada tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyotida noan'anaviy qissalarning paydo bo'lishi va buning o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalariga oydinlik kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ishning asosiy ilmiy xulosalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika miqiyosidagi ilmiy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 15 ta ilmiy maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 230 sahifani tashkil etadi.

I BOB. JAHON ADABIYOTIDA QISSA JANRI GENEZISI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

1.1.§. Janrning shakllanish bosqichlari va an'anaviylik

Tamaddun ilgarilagani sayin inson ma'naviy olami, moddiy va nomoddiy yashash tarzi, maqsadi, maslagi va orzu-umidlarini idroklash, talqin qilish strukturasi ham yangilana boradi. Negaki, bu jarayonda jahonning ilg'or iste'dodlari texnogen olamning o'ziga xos manerasini o'zlashtirib ulgurishi tayin. Bu o'zlashtirish esa osonlikcha kechmaydi: bir xilda mulohaza qilib, mushohada tarozusida fikrlovchi bani bashariyat o'zining nima uchun yashayotganligini, dunyoga kelishning maqsadi nima ekanligini bilish asnosida botinidagi savollarga javob topishi mumkin. Ammo, kuni kecha urf, moda sifatida qaralgan adabiy-badiiy janrlar bugun uchun hech bir kitobxonda qiziqish uyg'otmaganidan xavotirga tushishning hech bir ajablanarli joyi yo'q. XX asrning ibtidosidan intihosiga qadar yashagan an'anaviylik modusi boshqa bir olamga o'tgan dunyoning universal modeli – noan'anaga tomon siljiy boshladi. Misli ko'rilmagan darajada yashash uchun berilgan birgina yer yuzida qanchadan qancha taraqqiyot bosqichlari qisqa va tez sur'atlarda ilgarilab ketdi. Buni hazm qiladigan adabiyotshunoslik ham yaratilayotgan asarlarni talqin qilishning izidan yetolganicha, o'zining munosib bahosini berolganicha yo'q, albatta! Mana shu ilmiy muammo sarhadlarini aniqlash, talqin qilish, qiyoslash va struktur-semantikasini chamalash, kerak bo'lsa, muayyan "chiziq"larda belgilab olish joriy o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

XX asr boshlarida "urf" bo'lgan janriy-kompozitsion izlanishlar sintezi bugungi kunda o'zining umrini ba'zi o'rinlarda yashab bo'ldi desak, haq gapni aytgan bo'lamiz. Chunonchi avtobiografik yo'sinda bo'ladimi, tanqidiy realistik proza shakllaridami, an'anaviy realizm metodi sarchashmalaridan oziqlanadimi, barchasida – inson ruhiy-falsafiy-ijtimoiy-estetik olamini "kashf qilish" vazifasi turadi. Bugun esa bu vazifaning nechog'li ahamiyatga ega ekanligini dalolatlash oldimizga qo'ygan muammoli vaziyatning yechimi sari borishimizni taqozo etmoqda. Jumladan, an'anaviylikdan xoli – noan'anaviylik (modernizm,

postmodernizm) tamoyili yetakchi atribut, talqin qilish manerasi sifatida qaralayotgani, bu jarayonga rosmana naq yigirma yildan oshiq vaqt sinovlarining ta'siri ijodkor quvvayi hofizasining namoyon bo'lish bosqichlarida ko'rinishi tabiiy bir holdir.

Janrning ilk ildizlari va taraqqiy etish omillari. Ma'lumki, qissa janrining nazariy qirralarini o'rgangan rus adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, S.Lixachev, N.Nadejdin, L.Golovenchenko, V.Golovko, V.Kojinov, M.Baxtin izlanishlarida janrning ichki tabiati, tuzilishi, janr qoidalarining roman va hikoya oraliq'idagi poetik funksiyasi, personajlar kechinmalari, roviy nutqi, hikoya qilinishi nazariy asoslangan. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrining I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, A.Abrorov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliyev, H.Umurov, Q.Yo'ldoshev, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karim kabi olimlar, A.Qozixo'jayev, M.Boboxonov, D.Xoldorova, Z.Suvonov singari tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlari o'rganilgan, ularning izlanishlarida qissa poetik strukturasi turli xil adiblar misolida ochib berilgan. Biroq bularning hech biri – noan'anviy qissalar poetikasiga alohida to'xtalgan emas.

Bugun yozuvchilar xuddi she'riyat (modernizm) singari ramziy-majoziy ifoda usullarini o'zlashtirdi va bu borada muayyan hayotiy va badiiy tajriba to'plab ulgurgani ham sir emas. Chunki zamona zayli bilan talqin qilishga botiniy ehtiyoj zarurati ana shu prinsiplarda yondashuvni taqozo qilmoqda. Bugungi inson va uning ahvol ruhiyasini aniqlash, kuchli depressiya va texnogen olamda "siqiq bir muhit"da voyaga yetayotgan avlodning istaklariga monand yozuvchilar ham shu asosda izlanish, intilish va tajribalarini qiyoslash yo'sinida anchayin ko'lamli ishlarni bajarishga ulgurayotgani yuqoridagi fikrlarimizni to'laligicha quvvatlaydi. Demak, *yo'zuvchi-inson-o'quvchi* o'rtasidagi uzviylik, ya'ni badiiy kommunikatsiya to'laqonli ramziy-majoziy ifoda mustaqilligining ham yuzaga chiqishiga zamin hozirladi.

An'ana biz ko'nikkan, moslashgan, muayyan tajribalarni o'zida jo qilgan yo'nalish (konsepsiya) sifatida o'tgan asrning 90-yillariga qadar amalda bo'ldi. Ayni istiqloq sharofati bilan noan'ana (modernizm)ning o'lkamiz emas, butun

dunyo bo‘ylab keng quloqch yoyishi natijasida vujudga kelgan tasvir usulidir. San‘at, madaniyatlar orasidagi birlashuv, uyg‘unlashuv, endilikda olam yagona bir oqim ichida taraqqiy etishi, qoloq, fikrlashdan to‘xtagan, izlanishdan bosh tortgan xalqlar, elatlarni ham o‘zining yo‘rig‘iga solib yuborishi mumkinligini yana bir bor amalda ko‘rsatib berdi. Insoniyat tamaddunining ilk bosqichidan to bugungi kuniga qadar iste‘molchi sifatida hayot kechiruvchi fuqaro tarzining o‘zgarib ketishi o‘sha texnogen olamning ta‘siri deb qarash maqsadga muvofiqdir. Global dunyo esa ilmiy va badiiy bilishning aniq chegarasini qizil chiziq bilan chizib berdi. Bu chiziqalarda o‘tmish ham, yaqin o‘tmish ham, hatto kelajak ham o‘z imzosini, muhrini qoldirajagi shubhasiz. Ayni shu tamoyil – qissa janri poetik strukturasi alohida bir konseptual yo‘nalish ekanligini, uning nazariy-ilmiy qirralari hali ko‘pligini bildiradi. O‘sish-o‘zgarishlar, kechagi muhim sanalgan qadriyat bugun oyoq ostida yanchilib, yo‘q bo‘lib ketsa, bugungi zamonaviy insonning orzulari-yu, umidlari chilparchin bo‘lsa, ertangi kunning shubha-yu, gumon ostida qolishini ko‘rsatib tursa, bundan og‘ir savdoning o‘zi bo‘lmasa kerak. Badiiyat qiymati ana shu mezonlarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirib, yagona estetik markazda aks etish tajribasini namoyon qilib berdi. Bu esa biz tadqiq qilmoqchi bo‘lgan janr – qissaning arxitektonikasini butunligicha idroklash manerasini namoyon etdi. Ana shu ehtiyoj zahirida uslub, shakl, janr va xronotop masalasi turibdi. Buning dolzarbligi shundaki, vaqtida yozilgan asarning talqiniy bahosi vaqtida bo‘lishi va bo‘lmasligi ham mumkin. Bir tomondan o‘zgarayotgan dunyoda so‘z aytish, uni tushunish va tushuntirish uchun yozuvchi-jamiyat-o‘quvchi orasidagi masofalarning qisqarishi (vaqt) tabiiy bir hol ekanligi ma‘lum. Shu ma‘noda, har qanday janrning kelib chiqish omillari, taraqqiyot tendensiyalari va o‘zgarishga, inqirozga yuz tutish jarayoni bo‘ladi. Bularni jiddiy tekshirish hamda ilmiy isbot va bahosini berish bizning oldimizdagi eng muhim masalalardan biri ekanligini alohida ta‘kidlash zarur.

Har qanday janr o‘zining ilk yuzaga kelish, taraqqiy etish, yuksalish, xalqning muayyan ehtiyojiga aylanish, tafakkur va didning rivojiga hissa bo‘lib qo‘shilish bosqichlarini bosib o‘tadi. Ilk qissa Qur‘oni Karimning “Niso” surasidagi

payg‘ambarlar haqidagi qissalar bilan boshlanishini e‘tiborga olsak, juda ko‘plab masalalar ayonlashadi. Birgina Odam ato bilan Momo havoning ta‘qiqlangan mevani yeb Iblis qutqusiga uchrashi hamda yer yuziga quvilishi haqida keltirilgan ma‘lumotlar (oyatlar, suralar)da buyuklik faqat Allohga xosligi, *muqaddas farishta, ojiz va gunohkor inson, hiylagar va makkor shayton* – bu uchliklarning mohiyat-o‘zagi, chuqur mantiqiy mulohaza, hayotiy qonuniyat sifatida talqin qilinib, keng miqyosda ochib beriladi. Bu haqda juda ko‘plab diniy-ma‘rifiy kitoblar avliyolar, din peshvolari tomonidan bot-bot yozilgan va ularning sharhlari bugungi avlod, insoniyat uchun uqtirib kelinmoqda.

“Oli Imron”, “Niso”, “A‘rof” suralaridagi anbiyolar haqidagi qissalarda ham ana shu masalalar, payg‘ambarlarning tug‘ilishi, ularga yuklatilgan vazifalar, xatolar va adashishlarning asl manzaralari talqin qilinadi. “A‘rof” surasining 176-oyatida ham turli xil toifadagi odamlarning sir-u sinoati eslatilib, shunday deyiladi: “Bu o‘sha, oxirgi oyatlarimizni yolg‘onga chiqargan qavm kishilarining misolidur. Bu qissalarni ularga aytib bering, shoyad tafakkur qilsalar”³. Haqiqatdan ham, gunoh qilgan bandayi ojiz o‘zining gunohlarini yuvish maqsadida Allohga tavba qilishi, istig‘orni ko‘paytirishi, ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishi, sura va oyatlarning mag‘zini teran chaqishi, miskinlarni to‘yintirishi, yetimlarning haqlariga qo‘l uzatmaslikka odatlanishi, ota-onaning xizmatini qilishi, jufti halolining hurmatini bajarishi, farzandlariga yaxshi tarbiya berishi, ustozlarining muborak nafaslaridan duolarini o‘tinishi muhimligi alohida-alohida aniq va tiniq qilib tushuntirib beriladi. Alloh Taoloning marhamati va rahmatiga musharraf bo‘lish uchun o‘sha ezgu va latif, olijanob ishlarni bajarishi – jannat kafforatini berishi tayinligi eslatiladi.

Yevropa tipidagi janrlar o‘zbek adabiyotida, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi. Epik janrlar sistemasi inqilob arafasidagi ma‘rifatparvar adabiyotda yaratila boshlandi. Ammo bu davrda ham ba‘zi bir harakatlarga qaramay o‘zbek romanlari yozilmadi. “Do‘xtur Muhammadiyor” qissasini Cho‘lpon “xayoliy hikoya” deb ataydi. Umuman, bunda chuqur ma‘no va mantiq

³ Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири –Т.: “Sano standart”, 2019 – Б.173.

bor. Lekin bu ta'rif ko'proq asarning janriga emas, mazmuniga taalluqlidir. Yozuvchi bu atama orqali asarda hikoya etilayotgan voqealarning aksariyati real hayotda emas, ko'proq xayolda bo'lib o'tyapti"⁴. To'g'ri, asr boshida yozuvchilarimizdagi ijodiy tajribaning hali haminqadarligi, yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumning kirib kelishi natijasida, oradan o'tgan o'n yillik vaqtda ular jahon adabiyotidagi o'sish-o'zgarishlar bilan yaqindan tanishdilar. Bu tanishuv ularning estetik did va tafakkurini rivojlantirdi. Shuningdek, xorijiy davlatlarga safarlar, turk va Yevropa adabiyoti durdonalari bilan yaqindan tanishuvi ham ma'lum ma'noda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Rus adabiyoti orqali o'zlashtirgan janriy aqidalar jadid va undan keyingi maydonga kelgan adiblarga anchayin boy ijodiy-ilmiy-madaniy-ma'rifiy tajriba vazifasini o'tagani rost. Ma'lum ma'noda, o'zlashtirilgan badiiy shakl hamda tasvir usullarini vaqt o'tishi bilan to'g'rilashga harakat qilishdi. Hikoyani – qissa, qissani – roman tarzida bilib-bilmay ifoda qilinish sababi ham oydinlashdi. “Shunga ko'ra, XX asrning 20-yillaridan boshlab sotsializm g'oyalarining minglab ziyolilarimiz ongiga kirib kelgani, ularning hayoti mazmuniga aylangani, xolis yondashsak, tabiiy hol edi. Shunisi ham borki, muayyan mafkura shakllanayotgan payt jamiyatning aksar a'zolari uni formal qabul qiladi. Uning qabul qilinishi ayrim kishilar, xususan, ilgariroq boshqa mafkura asosida shakllanib ulgurgan kishilar uchungina qiyin kechishi mumkin: ular yo yangi mafkurani umuman qabul qilmaydi, yoki boshdanoq unga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Shu ma'noda, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lponlarning yangi mafkuraga munosabati bilan Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor kabi yangicha ijtimoiy sharoitda shakllangan kishilar munosabatining bir xil bo'lishini talab qilolmaymiz. Ya'ni psixologik jihatdan avvalgilari yangi mafkuraga qiyosiy-tanqidiy mavqeda turish imkoniga ega bo'lganlari holda, keyingilari bunga hali tayyor emaslar”⁵.

Bugun esa janrning davri yanada o'zgardi. Adabiyotshunos A.Qozixo'jayev “Har bir qissa markazida aniq bir shaxs hayot yo'li (syujeti) turishi, barcha

⁴ Адабий тур ва жанрлар. –Т.: “Фан”. 1991. –Б.112.

⁵ Куронов Д. Мутулаа ва идрок машқлари. –Т: “Академнашр”. 2013. –Б.159.

voqealar, (syujet liniyalari) shu shaxs atrofida kechishi va bevosita unga kelib bog‘lanishi; bugun “qissa” yagona bir mazmun, jumla-konsepsiyaga qurilishi”⁶ mumkin degan aqidani ilgari suradi. Ko‘rinadiki, noan’anaviy qissalarning ham bir jumla-konsepsiyada maromiga yetishi haqida so‘z bormoqda. Chunki janr xususiyati asarda ishtirok etuvchi qahramonlar soni bilan emas, matnning tashkillantirilish sifati va yozuvchining – nima demoqchi ekanligini namoyon qilishi lozim. Ana shu “nimadir”ning o‘zi maqsadni ham, mazmunni ham, shaklni ham, janrning konsepsiyasini, badiiy tafakkurning kengayish miqyoslarini ham belgilashga xizmat qilishi tayin ekanligi ayonlashadi.

XX asr adabiyotshunosligida qotib qolgan bir an’ana mavjud edi. U ham bo‘lsa, “ijodiy metod taqozosiga ko‘ra” deb boshlanuvchi mafkuraviy, sun’iy, senzuraviy to‘siqlar badiiy matnning qiymatini, asl iste’dodning yashovchanligini aniqlashtirishda juda katta keskinlikni yuzaga keltirardi. Bu haqda professor Q.Yo‘ldoshev shunday deydi: “Badiiy asarlarga ijodiy metodning darajasidan emas, balki matnning badiiy ta’sirchanligi nuqtayi nazaridan baho bera olishga odatlanish zarur. Chinakam ijodkor hech qachon o‘zining qaysi metodda asar yaratgani bilan qiziqmagan, hozir ham shunday. Hatto faqat shakliy originallikka intilgan ijodkor ham yozayotganda biron-bir metodning qandaydir talablarini emas, ifoda tarzining o‘ziga xosligini, birovlarinikiga o‘xshamasligini o‘ylaydi”⁷. Birinchidan, janr va metodning uzviyligi alohida hodisa, janr o‘ziga mos bo‘lmagan usulda namoyon bo‘lsa yoki, aksincha, usulning o‘zi janrni tanlasa, davrning ehtiyoji boshqa tomondan yuzaga kelgan masalalarni ilgari surishni taqozo qilsa, yozuvchining demoqchi ekanligini bilishda turli xil chalkashliklar ro‘y beradi. Ana shu mezonni aniqlab olish zarur. Fikrlovchi inson tafakkurining ham yuksalib borishi tabiiy. U o‘zining mulohazalari bilan oqni qoradan ajrata oladigan darajada saviyali, saviyaga erishish uchun ancha-muncha kitob varaqlagani, izlanishlar olib borgani haq. Yozuvchi esa ana shu masalalarga diqqatli bo‘lishi lozim. U davrning og‘riqlarini ich-ichidan anglashi, jamiyat rivoji

⁶ Қозихўжаев. А.Қисса жанри хусусида. XX аср ўзбек адабиёти масалалари –Т.:Фан , 2012 –Б.206.

⁷ Ўўлдошев Қ. Ёник сўз. –Т: “Янги аср авлоди”. 2006. –Б.59.

uchun qayg'urishijamiat rivoji uchun qayg'urishi, Allohni tanishi, xatolardan tiyilishi, ezgulikning yonida bo'lishida barchasiga diqqatli bo'lmasa, u xoh ramziy, xoh realistik metod, usullarda asar yozmasin ko'zlagan maqsadiga erishishda turli xil mashaqqatlarga uchrashi mumkin.

Atamaning lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak: "(arabcha hikoyat, sarguzasht) 1) xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyaviy asar. Xalq ijodidagi qissalar og'zaki ijro qilingan, folklorning boshqa janrlari kabi variantlilik xususiyatiga ega bo'lgan. Keyinchalik ko'plab xalq qissalari iqtidorli kishilar tomonidan (ko'p hollarda ularning ismi noma'lumligicha qolgan) adabiy qayta ishlanib, yozma shaklda – xalq kitoblari sifatida yashay boshlagan (mas., "Qissayi Mashrab", "Ibrohim Adham qissasi", "Zufunun qissasi". O'zbek adabiyotida payg'ambarlar va avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi rivoyaviy asarlar ham qissa deb atalgan (mas., Rabg'uziy. "Qissas ul-anbiyo"; Alisher Navoiy. "Tarixi anbiyo va hukamo"); 2) epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janridan biri, povest. O'zining janr xususiyatlari bilan qissa hikoya va roman oralig'idagi hodisadir: hikoyada qahramon hayotidan birgina voqea, romanda qahramon hayotining murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimidagi katta bir davri, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinadi. Hikoyaning diqqat markazida voqea, romanning diqqat markazida qahramon vositasida idrok etilayotgan olam (jamiyatning joriy holati) tursa, qissaning markazida hamisha qahramon turadi. Ya'ni roman uchun qahramon vosita, qissa uchun esa maqsaddir".⁸ Haqiqatdan ham, qissaning oraliqdagi janr ekanligi bois, unda ishtirok etayotgan personajlar ham, yozuvchi ijodiy konsepsiyasi ham, uning taraqqiy etish yo'sinlaridagi o'zgarishlar ham ko'p qirrali va zahmattalab jarayonligi namoyon bo'ladi. Mavjud nazariy qarashlarda qissaning poetik qurilmasida, matn hissiy idrokida, yozuvchi nuqtayi nazarida qabarib ko'ringan qator masalalarga keyinchalik to'xtalib o'tamiz.

⁸ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т: "Академнашр". 2013. –Б.387-388.

Estetik idrok va janr uyg'unligi. Olamdagi jamiki go'zallik va yovuzlik orasida ma'lum masofa va farqlanish bo'lganidek, insonlarning o'zaro muloqot va munosabatlarida ham talaygina nuqson-u yutuqlar mavjud bo'ladi. Insonni o'rab turgan jonli va jonsiz predmetlarning bitta narsaga xizmat qilishi mumkinligi barchaga ayon. O'zini anglagan sari kishi tabiatida ajib evrilishlar ro'y beradi. Buni so'z vositasida ifodalayotgan yozuvchining ruhoniyyati yuksala boradi. Sharq va G'arb adabiy an'analarida uzviylik mavjud. Biroq har ikki qutb o'z san'atiga ega bo'lishi bilan bir qatorda tuyg'ularida ham, anglash va his qilishida ham o'ziga xos bir idrok qilish manerasini tuyadi. Bu borada Arastu fikrini muqoyasa qilsak muammoning ildizi sari yaqinlashgandek bo'lamiz: "Ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini tasvirlaydilar. Hozirgina eslab o'tilgan san'atlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo so'z va yoxud garmoniya yordamida, yoki shularning hammasi uyg'unligida tasvirlaydilar"⁹. Ko'rinadiki, keltirilgan manbada ijodkor fitratidagi estetik ideal – mahorat yoki malaka sababli namoyon bo'lishi, tug'ma iste'dodning mevasi sifatida yuzaga chiqishi talqin etilmoqda. Binobarin, qissaning ilohiy manba va ijtimoiy buyurtma, ramziy shtrixlarda yuzaga kelgan turlari ham talaygina. XX asr qissachiligida ijtimoiy voqelik bilan sug'orilgan qissalar – an'anaviylikdan nari chiqib keta olmadi. Bularning ko'pchiligi davrning mahsuli va davrning qurboni bo'ldi, faqat barmoq bilan sanarli qissalargina jahon adabiyotining nodir namunalari qatorida turishini hisobga olsak, qolganlari sotsializm mahsuli sifatida tarixning ko'milgan qavatida qolib ketdi.

Ilohiy manbalar asosida yozilgan Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarini o'zbek adabiyotidagi qissachilikning eng original va mukammal namunasi sifatida baholashimiz mumkin. Undagi voqelik o'quvchiga sarguzashtnoma va hayotiy masalalarga doir qarashlarni singdirishi bilan tafakkurni o'stirishga qaratilgan yuksak g'oyalar ifoda etilganini e'tirof etish lozim. Cho'lpon, Qodiriy, Hamza yaratgan qissalarda ham davrning og'riqlari, ijtimoiy hayot muammolari, odamlar

⁹ Арасту. Поэтика. –Т: "Янги аср авлоди". 2018. –Б.22

dunyoqarashidagi o'zgarishlar jadidona nigoh bilan yorqin obrazlarda namoyon qilingan. Bu qissalar tabiatida an'anaviylikning eng yuksak cho'qqisi qabarib ko'rinadi. Demak, har bir janrning estetik mohiyatida yozuvchining hayotni qanday idrok etib, ifoda qilish quvvayi hofizasi bo'rtib turibdi. Qissalarni ikki xil yo'sinda bo'lib o'rganish ishonchni oqlaydi:

a) mumtoz va sharq qissachiligi; b) rus va jahon modern qissachiligi.

Mumtoz va sharq qissago'ylari yaratgan qissalarda ko'proq didaktika, nasihatomuz masalalar orqali voqelik bayon qilinsa, rus va jahon modern qissalarida an'anaviy, ijtimoiy hayot hodisalari ramziy-majoziy ifoda moduslari vositasida o'z ifodasini topadi. XX asrning 30-yillarida esse-qissalar (avtobiografik memuar) yuzaga chiqqan bo'lsa, 90-yillarga kelib tarixiy-psixologik qissalar o'zining yangi bir iqlimini boshlab berdi. Ayni paytda, mazkur qissalarda inson fenomeni, zamonning muammolari kodlar yordamida talqin qilindi. Bularni – ***noan'anaviy qissalar*** deb atash to'g'ri bo'ladi.

XI asrning yuksak didaktik asari Eron podshohi Kaykovusning "Qobusnoma"sidan ilhomlanib, turkiy xalqlar adabiyotida ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqan. Bu yerda janr shakl tashuvchi sifatida o'zbek adabiyotiga ham katta adabiy ta'sir ko'rsatdi. Gulxaniygacha bo'lgan oraliqda yaratilgan qissaga oid unsurlar, umuman, qissa janriga xos bo'lgan elementlar aks etgan juda ko'plab didaktik asarlar yaratildi. "Qobusnoma"dagi farzand tarbiyasiga oid didaktik usul keyinchalik boshqa xalqlar adabiyotida ham keng ommalashib, janrning turli xil shakllari yuzaga keldi. Ayniqsa, Sharq xalqlarida vatan, farzand va oila birligi ko'p hollarda muhim va dolzarb masala sifatida qadrlanib, qadriyatlarimizning uzvi sanaladi. Shu boisdan, rabg'uziy mazkur an'anani yuksak mahorat bilan bajarib, boshqa davrlar uchun ham "qo'llanma" tarzida meros qilib ketdi.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" (Nabiylar va hukamolar tarixi 1485-1488 yillarda yozib tugallangan tarixiy tazkirasi ham Qur'oni Karim asosida payg'ambarlar sifati va buyukligi, xarakteri hamda "Hukamo zikrida" deb nomlangan ikkinchi bo'limida butun odamzod tarixida chuqur iz qoldirgan mutafakkir hakimlar Fishog'urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos,

Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr xususida ibratli hikoyalar keltiradi, ularning donishmandligi, ilmiy kashfiyotlari bayon qilinadi.

XX asrning eng muhim an'anaviylik ufurib turgan qissalarida sobiq ittifoq davrida – kollektivlashtirish, kolxozlashtirish masalasi ilgari suriladi. Chunki ijtimoiy hayotning muhim tafsilotlari bu asarlarda butun bo'y-basti bilan sovet kishisi obrazini gavdalantirishi shart edi. Ayniqsa, bu qissalarning aksariyati badiiylik jihatidan anchayin o'rtachadan ham past, voqelik majburiy, sun'iy to'qib chiqarilgan, birgina xarakter – ijobiy va mehnatkash qilib, boshqalarga ibrat namunasi sifatida ko'rsatilishi muhim edi. Ana shu jihatlarda bora-bora uslub sifatida qaralishi chinakam badiiy qissalarning yozilishida biryoqlamalikni keltirib chiqardi. Qahramonlar ijobiy va salbiy bo'lishi shart qilib qo'yildi. Ularning ko'pchiligi xalq xo'jaligi, asosan, dehqonlar, mehnatkashlar sinfidan iborat bo'lishi lozimligi belgilab berildi. Asarlar sxematik tarzda bir xil qolipga singdirildi.

Metodlar girdobidagi qissalar tabiati haqida so'z borganda, avvalo, shuni qayd etish lozimki, XX asr adabiyotida, ayniqsa, 20-30 yillardagi adabiyotdan boshlab, to 70-yillarga qadar sotsiologik metod hukmron bo'ldi. Bu metodning har qanday badiiy asarni talqin qilishdagi o'ziga xosligi faqat ijtimoiylik aks etgan asarlarni talqin qilish vaji bilan bir yoqlama yondashuvni taqozolardi. Yuzlab qissalar ana shu metod negizida talqin qilindi. Ammo bugun, tarixning g'ildiragi boshqa tomonga aylangan bir paytda, badiiy adabiyotning insonshunoslikdan boshqa yana qanday vazifasi bo'lishi mumkin degan savol o'rtaga qo'yilmoqda. Jumladan, "Badiiy adabiyotni, ijodkor faoliyatini sotsialistik tuzumga, ba'zida ijtimoiy-iqtisodiy omillarga haddan tashqari bog'lash 30-yillar adabiyotshunosligiga xos edi. Bu davr adabiyotshunosligida sotsiologik metod biryoqlama qo'llandi. Sinfy kurash – tarixni harakatga keltiradigan kuch, degan qarash badiiy asar mazmunini siyqalashtirib, ancha jo'nlashtirdi. Har qanday badiiy asarga, eng avvalo, sinflar o'rtasidagi shiddatli to'qnashuvlar nuqtayi nazaridan yondashildi. XX asr adabiyotshunoslik tarixidagi bu hodisa "vulgar

sotsiologizm” deb nomlanadi. Vulgar soʻzi lotincha boʻlib, “sodda, oddiy” degan maʼnoni bildiradi¹⁰.

Shuningdek, ayrim yozuvchilar oʻz qissalarini yozishda (Shukur Xolmirzayev, Togʻay Murod, Isajon Sulton) xalq ogʻzaki ijodidagi epik tasvir usullarini oʻzida aks ettirish yoʻlidan bordi. Bu ijodkorlar uslubiy-shakliy jihatdan yangiliklar yaratib, bir-biridan tamomila farqlanuvchi oʻlchovlarni ommaga taqdim etdi. Bunday qissalarda yozuvchi ramziy-majoziy hamda qahramonlik eposi singari oʻtmish va bugun oraligʻidagi ifoda uslublarini yaxlitlashtirganligi koʻrinadi. Oʻzbek folklori taʼsiridagi qissalar deyilganda biz, asosan, adabiyotshunoslikda “xalq kitoblari” nomi bilan yuritiladigan qissalarni, yozma mumtoz qissachilik deganda, asosan, islom dini va shu bilan bogʻliq shaxslar hayotiga doir bir yoki bir nechta voqeani talqin etishga qaratilgan qissalarni nazarda tutganmiz. Shoʻro davri oʻzbek qissachiligi boshqa millatlar adabiy taʼsirini istisno etganda koʻproq rus qissachiligi, rus povesti negizida shakllandi desak, xato boʻlmaydi¹¹. Binobarin, XX asr oʻzbek qissachiligi rus povestlari yoki qissalari taʼsirida shakllanganligi ayni haqiqatdir. Istiqlol arafasida yaratilgan qissalarda milliy zaminga qaytish ehtiyoji yuzaga keldi. Biroq milliy zamin – oʻzbekona xarakterni chuqur koʻrsatish, mumtoz asarlardagi epik koʻlamni sintezlash deb emas, qadriyatlarga sadoqat bilan yondashish muhimligini nazarda tutish lozim. Milliy mafkura bu istiqlol mafkurasi, oʻzligimiz mafkurasi, konsepsiyasidir. Ana shu tamoyil negizida – modern adabiyot sarchashmalariga ergashish hollari kuzatilsa-da, tafakkur yuksalgani sayin, ifodadagi rang-baranglik ham oʻz-oʻzidan yangilana borishi shubhasizdir. Koʻpchilik yozuvchilarimiz jahon adabiyotining mashhur namoyandalari: Balzak, Flober, Dikens, Mopassan, I.S.Turgenev, Jek London, Lev Tolstoy va adiblarimiz: Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubovning realistik tasvir uslubidagi anʼanalardan boshqacharoq, yaʼni badiiy asar syujeti va xarakterlarni muayyan poetik gʻoyaga bogʻlamagan holda “erkin” asar yozishga intilmoqdalar. Bu noanʼanaviy yoʻnalishning taniqli

¹⁰ Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т: “Ф.Ғулум номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи”, 2018. –Б.161.

¹¹ Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси. Филол.фан.фалсафа.док.автореф. – Тошкент., 2017. –Б.11.

vakillaridan biri Asad Dilmuroddir¹². Keltirilgan manbadan anglashiladiki, keyingi yillar milliy nasr (qissachiligimiz) taraqqiyot tendensiyalarida eng ko‘p bahs-munozaraga sabab bo‘layotgan Nazar Eshonqulning “Qora kitob”, “Tun panjaralari”, Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik”, Isajon Sultonning “Munojot”, “Hazrati majoz”, Shodiqul Hamroning “Qaqnus qanotidagi umr”, Oydinnisoning “Hayot daraxti” qissalarida an‘anadan – noan‘anaga o‘tish (aralash “izm”)ning o‘ziga xos ahamiyatini ko‘ramiz.

Professor B.Sarimsoqov badiiylik mezonlari va uning shakllari xususida shunday mulohazani ilgari suradi: “Badiiy obrazni moddiy olamning inson ongida bevosita aks etishi sifatida tushunish obrazni gneseologik tushunishdan iborat. Badiiy obraz voqelikni, hayotiy mushohadalarni, taassurotlarni ijodkor dunyoqarashi, estetik ideali orqali qayta ishlanishi oqibatida yangidan yaratilishidan iborat. Binobarin, badiiy obrazning mohiyati voqelikning badiiy umumlashmaga aylanganligi va betakror alohidalikda aks ettirilganligi yoki ifodalanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham badiiy obrazning umumlashganligi voqelikni bevosita o‘z qobig‘ida aks ettirishga qaraganda keng va chuqurroq qamrab oladi”¹³. Shuni alohida keltirish joizki, yozuvchi qaysi davrda, qaysi mafkura yoki buyurtma asosida asar yozmasin, uning obrazni qanday yuzaga keltirgani hamda uni qay tariqa ishlagani, keltirilgan manbadagidek estetik idealga tutashuv nuqtalarini o‘ziga xos tarzda topa olgani bilan o‘lchanadi. Ayni damda, insonning “Baxtli bolaligi”dan ongda singib qolgan xususiyatlar (ezgulikka xizmat qilish ehtiyoji)ning yig‘indisi qaysidir ma’noda o‘zi yaratgan obrazlarda gavdalanadi, jamlanadi.

Demak, XX asr ibtidosidan boshlangan haqqoniy qissa janri spetsifikasida ko‘zga tashlangan shakl va mazmuni yangilashga qaratilgan urinishlar A.Qodiriy, Cho‘lpon, Hamza va undan keyingi davrdagi yozuvchilarning poetik izlanishlarida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayni paytda, ularning olib borgan tajriba usullari badiiy adabiyotning yangilanishiga doir intilishlarning yanada ranginlashuvini

¹² Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. –Т: “Академнашр”. 2014. –Б.21.

¹³ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т: “BOOKMANY PRINT”. 2022. –Б.7.

dalolatlaydi. Chunonchi, bu adiblar hamma vaqt o‘z ustida tinimsiz izlanish olib borishgan. Ilk jumladan – xotimaga qadar qayta tahrir qilishgan. Mana shu matnning poetik qiymati sabab, bugungi kunda ham o‘z yashovchanligi bilan adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etib kelinmoqda.

Jahon adabiyoti ta’sirida zamonaviy o‘zbek qissachiligida qator yangilanishlar, ya’ni voqelikning maktub asosiga qurilishi, uslub o‘zgachaligi, mozaika usuli (voqealarning parchalanishi va parchalarning yaxlit g‘oyaga asoslanishi), absurd qahramon, ong oqimi kabi holatlarning kirib kelishi, qahramonning ijtimoiy hayotdagi faol harakati emas, ichki dunyosida kechayotgan g‘alayonlarni tasvirlash, o‘z ichki “Men”i bilan kurashayotgan, o‘z dunyosi bilan ovora qahramonlarning qismati yoritila boshladi. Noan’anaviy tasvir usullari, badiiy shartlilik, ramzlar, metaforik tafakkur asosiy o‘ringa chiqdi. Mualliflar qissalarda inson olamini turli rakurslarda talqin eta boshladi¹⁴. Darhaqiqat, qissa kompozitsiyasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarning mohiyatiga – jahonning ilg‘or adabiy struktural-germenevtik, falsafiy-estetik talqin qamrovining kengayishi natijasi sifatida qarash o‘rinlidir. Negaki, qissa arxitektonikasida birgina voqelik timsolida butun jamiyat hayoti yoki jamiyat hayotining bir uzvi sifatida inson ruhiy kechinmalari inkishof qilinadi.

Qissachilikdagi yangilanishlar sintezi haqida yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, endilikda matn bo‘ylab sayr qilayotgan o‘quvchi (umuman, kitobxon yoki mutaxassis) zamonning asl muammosini juda yaxshi biladi. Tez suratda rivojlanayotgan dunyoning ravishini ular yaxshi anglagani sabab asardagi mif va usullar sintezini o‘zlashtirishda unchalik qiyinchilikka uchramasligi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, Yevropa va Lotin Amerikasi, Xitoy va Yaponiya adabiyoti, Koreys folklori yoki yangi davr adabiyotidan, Turk, Ozarbayjon qissanavisligidan xabardor bo‘lgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotidagi simvol, kodlar, shtrixlar aks etgan asarlarni anglashida unchalik qiyinchilikni his qilmasligi tayin. Adabiyotshunos M. Boboxonov qayd etishicha: “So‘z san’atining ilk davrlarida (mifologik

¹⁴https://uza.uz/uz/posts/ozbek-adabiyotshunosligida-qissa-zhanrining-tarixiy-asoslari_476323?q=%2Fposts%2Fozbek-adabiyotshunosligida-qissa-zhanrining-tarixiy-asoslari_476323

narrativga asoslangan ertak, ilk va klassik eposda) voqelik tahlildan ustunlik qiladi: inson, avvalambor, qiliq va harakat – personaj ichki olamining namoyishi orqali tasvirlanadi. Bu davrda adabiyotni ruhiy jarayon dinamikasi va murakkabligi emas, balki tashqi dunyo: qiliq, personaj so‘zlari, mimikasi va imo-ishoralarida zohir bo‘lgan natija qiziqtiradi”¹⁵. Antik yunon eposlari haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Faqat qahramonlarning ruhiy zo‘riqishlari emas, tashqi ko‘rinishi, maqsadga yetishishdagi xatti-harakatlarining normal holati e‘tiborni tortadi. Chunki qahramon o‘zining taqdiriga rozi bo‘lib urushga chiqadi, mahubasining visoliga yetishish uchun turli mashaqqatlarni yengib o‘tadi, o‘zining hayotini saqlab qolish uchun turli xil makr-u hiyla ham ishlatadi, oliy tabaqa vakillari oldida o‘zini mulzam va miskin qilib ko‘rsatadi hamda oxir-oqibat qizning (ma’shuqasi) visoliga yetishib, boy-badavlat shahzodaga aylanib, murod-maqsadida tinch-totuv umr kechiradi. Bunday syujet chiziqlari uyg‘unlashgan qissalar o‘zbek mumtoz adabiyotida masnaviy shaklida (janrning tashqi formasi nazarda tutilmoqda) ifodalanadi.

Qissalarning janr tabiatidagi uzil-kesil o‘zgarishlar turk adabiyotidan o‘tgan adabiy usullardan oziqlanish jarayonida ham ko‘zga tashlanadi. XX asrning 70-yillarida Ahmad Lutfi Qozonchining “Saodat asri qissalari” turkumidagi asarlar o‘zbek adabiyotiga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari, Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir” asari nafaqat o‘zbek, balki Lotin Amerikasi yozuvchisi Paulo Koeloning sarguzasht asarlariga adabiy ta’sir ko‘rsatgani sir emas. Chunki yozuvchi asarlarida ramzlar, metaforalar, kodlar inson ruhiyatining ichkarisiga, ong ostiga ta’sir qildi. Bu ko‘rsatkichlar, nozik sezimlar: kodlar va ramzlar yordamida personajlarning xatti-harakati, yashash uchun kurashi, moddiy va ma’naviy dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, olamdagi bir-biriga ta’sir qiluvchi qadriyatlar tutashuvining yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Natijada, yozuvchilarning global olamga aytadigan muhim gapi “nima” ekanligini anglash mashaqqat tug‘dirmaydi.

¹⁵ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. –Т: “Баёз”. 2014. –Б.33.

Noan'anaviy qissachilikda metamorfoza. O'zgarayotgan dunyoning shakl-u shamoyili, istaymizmi-yo'qmi, qissalar arxitektonikasida ham, janriy-mazmuniy ko'rinishida ham o'z izini qoldirayotgani sir emas. Chunki haddan tashqari rivojlanib, taraqqiy qilib ketayotgan dunyo qiyofasi keyingi o'n yilliklarda odamzod oldiga turli-tuman savollarni qo'yimoqda. Natijada, ruhiy zo'riqish, asab va ruh muhofazasi borasida insonning o'ziga yo'l axtarayotgan yo'lovchidan farqi yo'qligi ma'lum bo'ldi. Badiiy adabiyotdagi o'zgarishlarni ong oqimi bilan bog'lab talqin qilgan T.Jo'rayev shunday yozadi: "XX asr jahon adabiyoti klassiklarining jahon xalqlari adabiyotiga, jumladan, o'zbek adabiyotiga salmoqli ijobiy ta'siridir, biroq bundan ko'z yumagan holda aytish lozimki, o'zbek romani ong oqimi yo'nalishi g'arb ong oqimi adabiyotini aslo qaytarayotgani yo'q, balki ijodiy rivojlantirmoqda.

O'zbek ong oqimi nasrida tasvirlanayotgan dunyo butunlay o'zgacha g'oyaviy-badiiy prinsiplarga asoslanadiki, unda "yangi psixologik materiya" qidirish, borliqni mif, afsonalar asosida anglash, tashqi olam va insonni sxemalashtirish, hayotning mohiyatini tub "ichki istak" singari ruhiy g'ayrushuuriylik bilan o'lchash tendensiyalari yo'q, balki unda romanning asl mohiyati – shaxsning jamiyat va tarix bilan yuzma-yuz to'qnashuvi "yarq" etib ko'rinish turibdi"¹⁶ Haqiqatdan ham, T.Jo'rayev muhim fikrni ilgari surmoqda. Fikrni dalillash uchun N.Eshonqulning qissalariga nazar solamiz, xo'sh, ularda g'arb yoki turk, rus adabiyotidan yana kimning qalamiga mansub usullar ko'zga tashlanadi? Bu savol ko'pchilikni qiziqtirish tabiiy. Jahon adabiyotining ko'plab asarlarini mutolaa qilish jarayonida N.Eshonqul o'ziga katta bir adabiy so'qmoq yaratadi. Bu so'qmoqning namoyon bo'lish va yetib borish manzili bor. U ham bo'lsa, o'zbek o'quvchisining moddiy va ma'naviy olamda o'z o'rniga ega bo'lishi, Allohni tanishi, 70 yil hukmronlik qilgan sobiq ittifoqning xalqimiz boshiga solgan og'ir kulfatlari, din-u diyonatdan, iymon-e'tiqoddan, maqsad-u maslagidan ayirishgacha borishi fikrimiz yorqin dalilidir. Nazar Eshonqul nasri – xilma-xil mulohazalar, mushohadalar, fikrlar va ziddiyatlar nasri. Ana shu

¹⁶ Жўраев Т. Онг оқими модерн. –Фарғона. 2009. –Б.159.

jarayonning asl qiyofasida – umumturkiy adabiyotning mutafakkiri Navoiyni anglash darajasiga ishoralar turadi. Agar biz Navoiyni, Boburni qanchalik teran anglab yetsak, ana shundagina millat sifatidagi qadamlarimiz ham, kelajakdagi intilishlarimiz ham o‘z holicha izchil ro‘yobga chiqadi, degan xulosaga keladi. Jahon adabiyotini chuqur o‘rganish natijasida N.Eshonqul tafakkur balandligi, tasvir o‘ziga xosligiga erishdi:

“Ba’zida tuynukdan oqib kirgan va oxurning chetini zo‘rg‘a yoritgan nur menga kimningdir o‘tkir nigohiday bo‘lib tuyuladi. Bu nurning zulmatni parchalab tashlashga o‘sha paytda kuchi yetmagan edi, endi esa mutlaqo yetmaydi.

Bizda bu narsalar haqida yozish odobdan emas, biroq bu aslida bor gap. Biz undan qanchalik ko‘z yummaylik, u xuddi nayzadek tanamizga chuqurroq kirib boraveradi. Xullas, o‘zini sevmay turib, badanni sevib bo‘lmaydi. Chiroyli badanlar – sho‘r baliqday gap. Agar go‘zallik qalbgaga ko‘chmasa, tez ba’dga uradi va uzoq vaqtgacha bu lazzatli xo‘rakdan ko‘ngling aynib yuradi. Chiroyli tanalar bir yonib o‘chgan gulxanga o‘xshaydi. Bunday gulxanlar lov etib isitadi-yu, so‘ng taftsiz cho‘g‘ qoldirib so‘nadi – bu cho‘g‘ muhabbat olovini yoqolmaydi. Mabodo shunday bo‘lgan taqdirda ham, bu tasodif yoki o‘zini-o‘zi ovuntirishdan boshqa narsa emas. Muhabbat ham odamga omadni sinab ko‘rish uchun umr kabi bir marta beriladi. Undan oldin yoki keyin beriladigan tuyg‘ular bu sirli yurtga borish yoki undan qaytish yo‘llari, xolos”¹⁷.

Qissa “Tun panjaralari” deb nomlanishining o‘ziyoq ochiqldaydiki, barcha voqelik tunda – zulmatda goh yozuvchi ongida, xayolida, tushida, xotiralarida sodir bo‘ladi. Tun – qahramonning habibi, sirdoshi. Kunduz bilan ajratib turuvchi panjara orqasida qalb yashirin. U o‘sha qalbini boricha tashqariga, jamiyatga, odamlarga izhor qilmoqchi bo‘lib necha bor urinadi. Ammo buning befoyda ekanligini anglab yetadi. Qissaning modernistik ifoda usulida ong osti sezimlari, qahramonning o‘y-xayollari aks etadi. Demak, yozuvchi Albert Kamyu, Marsel Prust, Frans Kafka ifoda madaniyatini o‘ziga xos tarzda o‘zlashtiradi. Ulardan farqli o‘laroq, Nazar Eshonqul voqelikni asta-sekin darajalab, bir-biriga sintezlab

¹⁷ Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. –Т: “Шарк”. 2007. –Б.165-166.

boradi. Qissada – Shayton obrazi ham borki, insonning adashishlari va gunoh sabab jannatdan badar ketishiga mantiqiy ishora mavjud. Qahramon bir vaqtning o‘zida ham tashqi dunyodagi “men” bilan, ham ichki dunyodagi “men” bilan murosasiz jang qiladi. Bu jang maydonida esa azob-uqubatni faqatgina roviy (qissago‘y) tortadi. Qissago‘yning tafakkur tarzi bilan yashash tarzi bir xil: o‘tmishdagi xatolar uni ma‘nan va ruhan yuksakka chiqarish uchun bir vosita. Muhabbatiga erisholmagan hijron, kuchli bir irodaning sababchisi. Shayton – iymonni mustahkamlovchi obrazdir. U o‘sha Shayton, Iblis makridan berkinish uchun har zamon o‘zini ko‘zguga tashlab turadi. Ayniqsa, tungi uzundan uzun o‘z xayollari bilan qilgan suhbatlari qahramon “Bu olamda yashash va gunohdan forig‘ bo‘lish yo‘llarini qidiradi”.

Ayonki, badiiy matndagi metaforaning ma‘nosi g‘oyat serqirra, chunki u kontekstdagi boshqa so‘zlar bilan birga mazmuniy butunlikni tashkil qilar ekan, ular bilan aloqada hosil bo‘lgan assosiatsiyalar tufayli ma‘no diapozonini kengaytiradi.¹⁸ Qissadagi – tunning mohiyatida yozuvchining olam bilan ramzlar va kodlar orqali qilgan suhbatini tushunish xiyla qiyin kechadi. Bunday ramzlar Navoiy, Bobur va Ogahiyda ham mavjud. Ularning ramzlari she‘riy shaklda – iymon va e‘tiqodning mustahkamlanishi va Allohni tanishga olib boruvchi yo‘llar xususida bo‘lsa, Nazar Eshonqulda nasriy shaklda Odam Ato zamonidan ko‘chib kelayotgan insonning xunrezliklari, Iblis qutqusi bilan yerdagi yaramas ishlarning davom etishini xohlovchi toifalardan berkingan va shuning davosini, chorasini izlagan inson (xarakteri) murakkabliklari ifodalanadi. Qissadagi muallifning ong osti hislari, tuyg‘ulari va iztiroblari juda o‘rinli inkishof qilingan.

Badiiy tafakkurdagi evrilishlarning yuzaga kelishi oson kechganicha yo‘q. 1990-yillardan keyin boshlangan istiqlol yog‘dusi nafaqat badiiy san‘at, balki boshqa san‘at turlarida ham o‘z muhrini yoydi. Modernizmning kirib kelishi va badiiy tafakkurdagi yangilanishlarga qo‘yilgan ilk qadamni qabul qilmagan qatlam paydo bo‘ldi. Bugun esa o‘sha qatlam modernizmning bizga kirib kelishi katta

¹⁸ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.170.

hodisa ekanligini tan olishib, o'zlari shu haqda chuqur mulohazalar qilib, tadqiqotlar olib borishga kirishdi. Ko'rinadiki, biror adabiy hodisaning – an'anadan – noan'anaga o'tish tamoyili osonlikcha kechmagan. Shu boisdan ham, "insoniyat aqli mifdan, mifologik olamdan ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib, taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgani sayin bu mavzu yana ham qizg'in tus oldi. Atom, kosmik kema asri bo'lgan XX asrda ham fizika va ximiyaning yutuqlariga qaramay, mifologiya yana adabiyotning mavzusiga aylandiki, oqibatda "neomifologizm" degan oqim paydo bo'lib, mif va adabiyot aloqalarini birinchi marta ilmiy o'rganishga kirishildi. XX asr ilg'or adabiyotining yirik namunalari bo'lmish "Ullis", "Sehrli tog'", "Doktor Faustos", "Qo'rg'on", "Jarayon", "Vabo", "Pedro paroma", "Yolg'izlikning yuz yili", "Sartoris", "G'azab va shovqin" singari asarlar tufayli adabiyotda yangilanish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi pog'onaga ko'tarish mifsiz sodir bo'lmasligi ayon bo'lgach, mif va adabiyot aloqalarini endi quruq syujetlardan emas, inson psixologiyasidan izlaydigan – psixoanalitika yuzaga keldi"¹⁹. Mana shu tamoyil asta-sekinlik bilan noan'anaviy qissalar poetikasida ham janriy-uslubiy izlanishlarga, ham mazmuniy-g'oyaviy o'ziga xosliklarga, ham mifologik qatlam teranlashuviga katta zamin hozirlanganidan dalolat beradi. Chunki XX asrning birinchi jahon urushi yillarida insoniyat boshidan o'tkazgan misli ko'rilmagan yo'qotishlar bilan bir qatorda – darbadarlik hissini botinida tuygan o'sha adiblar yangi asr mifologiyasini ramzlar va metaforalar bilan ochib berish usulini o'ylab topishdi. San'at – ramzlardan, yangi miflardan iborat, degan g'oyalar asta-sekinlik bilan kanonlarni paydo qildi. Poetik matrisa negizida yangilanishga mahkum badiiy tafakkur miqyoslari har qachongidan ham kengayib ketdi.

Noan'anaviy proza imkoniyatlarida – tush, ong osti hislari, oxirat va o'lim mavzusi, texnogen olamda odamlarning umidlari, yashashga moslashuvchanlik malakasi barchasida talqin tamomila struktural-semantik jihatdan kodlashtirildi. ramzlar xuddi dori vositasidek kapsulaga joylandi, undan keragini hazm qilish

¹⁹ Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талкин. –Қарши: "Насаф". 1999. –Б.141.

o'quvchining qurbi, idroki, tafakkuri, o'zlikka bo'lgan ishonchi hamda sezimlari bilan zabt etish mumkinligi namoyon bo'ldi.

Umuman olganda, XX va XXI asr o'zbek nasrida qissa poetikasining tubdan yangilanishiga istiqlol davri bergan imkoniyatlar mevasi sifatida qarash ishonchni oqlaydi. Chunki qissaning zamirida – yangi inson xarakteri akslanadi. Metafora va ramzlar o'ziga xosligi, an'anaviylikdan – noan'anaga o'tish prinsiplarining rang-barangligi, olam va odam muammolarining serqatlamligi, yagona Allohni tanish, uning chiziqlaridan chetga chiqmaslik malakasi uslubiy shartlanadi. Ana shu jihatdan olib qaralganda hech bir janr yoki oqim o'z holicha umrboqiy emasligi oydinlashadi. Bugungi kun qissalari texnogen olamning bir uzvi. Bugungi kun qissalari qahramonlari tafakkur sohibidir. Bugungi kun ramziy-majoziy talqin metamorfozalari o'ylashga, fikrlashga ehtiyojmand, ixlosmand kishining ruhiy sarzanishlaridir. Zero, ijod ongli va sirli jarayonligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada real mohiyat kasb etishi tayin.

1.2.§. Qissa janrining noan'anaga o'tish tamoyillari

XX asr boshlarida jahon adabiyotida yuzaga kelgan falsafiy-psixologik talqinning o'zgarishi modernizmning kurtak otib, boshqa xalqlar adabiyotida bo'y ko'rsatgan ta'sir manerasi bilan belgilanadi. Chunki birinchi jahon urushi yillarida badiiy adabiyotning janriy o'ziga xosliklari yuzaga chiqib, kanonlar transformatsiyasi, badiiy kommunikatsiyaning etiketi ham ancha turfalandi. Unda eng asosiy masala inson idroki bilan hazm qilinadigan – tafakkur qavatlarining paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bir tomondan, sovuq urushning Yevropa davlatlarida keng quloqch yoyishi, ikkinchidan, chinakam iste'dodlarning ozodlik yo'lida qatag'onga uchrashi, qatl qilichining san'at haqidagi va gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan asarlarni yaratgani uchun o'z vatanidan badar ketishi fikrimiz yorqin dalilidir. J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu, M.Prust singari yozuvchilarning irqi, dini, millatidan qat'i nazar butun insoniyat badiiy tafakkuriga ta'sir ko'rsatgani hamda ularning yaratiqlari yangi metamorfozalar o'ylab topishi uchun zamin vazifasini o'tagani rost. Mashhur psixoanalitiklar Z.Freyd,

K.G.Yung, E.Frommlarning nazariy qarashlarida inson ongi va ong osti tasavvurlarining xotiraning eng chuqur, o‘tmish va kelajak haqidagi puchmoqlarida “yashab” kelayotgan instinkt ekanligini talqin etish hazilakam gap emasligini unutmash lozim.

An’anaviylikning mafkura bilan bog‘liq jihatiga diqqat qaratilsa, oldimizga qo‘ygan masalalar o‘z-o‘zidan ayonlashadi. An’anaviylik qadriyatlar tizimida ham, shakliy-uslubiy jihatdan ham o‘zining ma’lum ma’noda umrini yashab bo‘ldi. 90-yillarga kelib o‘zbek adabiyotida an’anadan – noan’anaviylik, modernistik talqiniga o‘tish fragmentlari qabarib ko‘rindi. Undagi talqin qilinayotgan mavzu va g‘oyaning qay tariqa inkishof qilinishi badiiy matnning hissiy-ekspressiv jihatlarini ham o‘ziga singdirib yuborishga qodirligini ko‘ramiz. Bunday vaziyatda yozuvchi butun diqqatini tushuniksiz bir olam haqidagi, aniqrog‘i xayolot bilan bog‘liq tasavvur chiziqlarini ko‘rsatishga qaratadi. J.Joysning o‘zi “Mening yozganlarimni butun insoniyat vafotimdan yuz yil keyin tushunib yetadi” degan g‘oyani ilgari suradi. Jeysms Joys ham nosir, ham shoir, ham esseist, ham faylasuf, ham psixolog sifatida yozuvchining universalligi nafaqat o‘zi tug‘ilib o‘sgan Irlandiyani balki Angliya va boshqa xalqlarni ham hayratga soladi. U tuzukkina she’r ham yozgan.

Munaqqid Karim Bahriyev qayd etishicha: “Jeysms Joys Irlandiyaning Dublin shahrida tug‘ilgan, Dublin universitetini tugatgan. O‘n yil mobaynida Triyesta va Syurixda tillardan dars bergan. So‘ng qolgan umrining deyarli asosiy qismini Parijda yashab o‘tkazgan. Parijni olmon qo‘shinlari bosib olgach, Shvetsariyaga yo‘l oladi va u yerda vafot etadi. 1914-yil “Dublinliklar” nomli hikoyalar kitobi chop qilinadi. “Quvg‘indilar” pyesasi Myunxenda (1918) va Londonda (1926) sahnalashtiriladi. “Musavvirning yoshlikdagi surati” qissasi 1914-1915 yillar mobaynida “Egoist” jurnalida nashr qilinadi. Jeysms Joysni dunyoga tanitgan asar “Uliss” romani edi. E.Xeminguey, T.S.Eliot va Arnold Bekket yuksak baholagan edilar. Kafka, Prust va Joys haqli ravishda “XX asr nasriy adabiyot ummonining uchta kiti” deb baholanishgandi”²⁰. Demak, Joys va uning kabi yozuvchilar butun badiiy tafakkurni har xil janriy kompozitsiyaga ega asarlari bilan boyitib, rang-

²⁰ Баҳриев К. Жейм Жойс. Танланган асарлар. 4 жилдлик. –Т: “Asaxiyuz”. 2023. –Б.156.

barang talqinlarni jahonning klassiklari qatoriga qo‘shishga musharraf bo‘ldilar. Bizga bu o‘zgarishlar va shu kabi talqiniy izlanishlarning samarasi 90-yillar miyonasida ko‘zga tashlana boshlandi. An‘anadan – noan‘anaga o‘tish tadrijida N.Eshonqul, T.Tillayev, I.Sulton, Sh.Hamro, U.Hamdani, S.Vafo va Murod Chovush singari yozuvchilar modernistik yo‘sinda ijod qilishni o‘zlariga to‘g‘ri yo‘l deb qarashdi hamda o‘ziga xos uslubiy manerasiga ega bo‘lishdi. J.Joysning “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” asarini o‘zbek yozuvchilari asarlari bilan qiyoslab, ularning Joysdan olgan taassurotlarini talqin qilib ko‘ramiz:

“Boshqa bir tenglama yoyilib, sekin dum chiqara boshlaganda varaqdagi yorug‘ nur xira tortdi. Bu uning tomir yoyib, gunohlarga botib, yoniq yulduzlarday uchqun sachratib va yana yig‘ilib, ohista so‘nib, o‘zining otash-alangasini o‘chirib – shu zayl hayot yo‘liga tushayotgan qalbi, ruhiyati edi. Uning yuragini o‘rtagan otash-alangalar o‘chib-bitdi va bo‘shab qolgan sovuq zim-ziyo qalbini loqayd mubhamlik egalladi.

Uning borlig‘ini sovuq sergak befarqlik egallab oldi. Birinchi marta gunohga yo‘l qo‘yganidan qattiq iztirobga tushganida yuragining tub-tubidan vulqonday qaynab-toshib kelgan g‘azab va nafrat otashi tanini yo bo‘lmasa ruhini kuydirib, bir umrga majruh qilib qo‘yadiganday tuyulib, qattiq qo‘rqqandi. Biroq hayot to‘lqini uni goh g‘arq qilib, goh pasayib-tushib asta-sekin o‘ziga keltirdi. Bu talato‘pdan uning tani, ruhi omon qoldi va ular o‘rtasida so‘zsiz-so‘roqsiz bitim-murosa paydo bo‘ldi. Yuragidagi behalovat tuyg‘ularga barham bergan mubhamlik bir qadar befarq bo‘lib, sovuqqonlik bilan o‘zini o‘zi anglashga aylandi”²¹.

Jeyms Joysning falsafiy-psixologik tafakkuri oldida ancha-muncha yozuvchi bo‘yin egishi tayin. Uning o‘tkir kinoya va falsafiy mushohada zalvori ushbu qissada ham o‘z tasdig‘ini topgan. Asardagi Stivenning bolalikdan shakllangan e‘tiqodi, e‘timodi va din hamda dunyo haqidagi tasavvurlari, adashishlari, bir insonning tavbasi-yu, tazarrusi turli qiyofadoshlar orasida ulg‘aygan tafakkuri, ong osti sezimlarini ich-ichidan turib tasvirlashi mahorat bilan namoyon bo‘lgan. Stiven Dedalning “Uliss”dagi bosh qahramon hamda shaxs sifatida shakllanishiga

²¹ Жеймс Жойс. Мусаввирнинг ёшликдаги шамойили. –Т: “Akademnashr”. 2021. –Б.138.

mantiqiy bog‘lam mavjud. “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” asaridan ko‘ngli to‘lmagan, aslida bu asar avtobiografik yo‘sinda yozilgan. Bizda avtobiografik asar (qissa) Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik” memuar-qissalari ana shu tamoyilni izohlaydi. Jeyms Joys haqiqatdan ham Irlandiyadan chiqib ketgach, uning tafakkur va tasavvur shakli, uslubi ham tubdan o‘zgarib, Parijda va Shvetsariyada takomillashadi. Ana shu “yo‘l va yo‘lovchi” obrazlari Joysni ko‘klarga olib chiqadi. Turli din, irq va millat vakillari bilan yaqindan tanishadi. Bu tanishuvlar xilma-xil odamlar obrazini, murakkab tabiatli shaxslarning xarakterini o‘rganishga imkon beradi. Kerakli saboqlarni o‘rganadi hamda ijod jarayonida ulardan maksimal darajada unumli foydalanadi.

“Joys XX asr G‘arb ma’naviy dunyosini tadqiq qilish uchun ataylab ana shu qadim qolipni tanlaydi. Bunda ikkita urg‘u bor: antik odamning orzu, umidi va yashash tarzi, hayotdan maqsadi Joys zamondoshlari hayot tarzi, ma’naviy dunyosi va orzulari bilan solishtiriladi. Asarni o‘qiganingiz sayin bunga guvoh bo‘la borasiz va Gomer qahramonlari nimani ulug‘lab yashagan, bugungi dunyo odamlari nimani ulug‘layapti, nimaga e‘tiqod qilyapti, insoniyat o‘tgan ming yilliklarda nimani topdi, nimani boy berdi, muhabbat, e‘tiqod, sadoqat, vatanparvarlik qanday tushunilyapti, umuman, miqlar davridan buyon insonning ongu shuuri o‘sdimi, miqlar davrida odamzodni qiynagan muammolar XX asrda hal bo‘ldimi kabi savollarning barchasiga deyarli to‘liq javob olasiz”²². Haqiqatdan ham, N.Eshonqulning badiiy tafakkuri va uslubiy izlanishlarida an’anaviylikdan ko‘ra – noan’anaviylik tamoyili tadrijiy taraqqiyot etayotgan dunyo qiyofasidek rang-barang va alohida. U o‘zbek adabiyotiga G‘arb adabiy tafakkuridagi uslubiy ifoda talqinini olib kirgani bilan o‘zining milliy zaminga mos va xos ifoda manerasini yarata oldi. Chunki G‘arb adabiy-badiiy tafakkurining salmog‘ini chamalash, ularni sintez qilish oson ish emas. Insonning iste’dodi va tug‘ma talanti bo‘lmasa, qanchalik o‘qib, o‘rgangan bilan mustahkam bir yo‘sinda ovozga ega bo‘lish qiyin va mashaqqatlidir. Buning uchun badiiy izlanish zarurligi taqozo

²² <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jeyms-joys/>

etildi. Yozuvchi ko‘proq qissa janrida o‘zligini namoyon qila olgan. “Tun panjaralari” qissasida milliy g‘urur va ong sezimlari hayot haqiqati nimadan iborat ekanligini bilishga shoshilgan qahramon intellektini namoyon qiladi:

“Mana tun. Tunda mening boshqalarnikiga o‘xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o‘tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so‘nayotgan yulduzlarday ko‘z oldimdan bir-bir uchib o‘tadi.

Deraza yonida qurbaqa qurilladi, uning nag‘masidan bexos cho‘chib tushdim, so‘ng qurilloq sekin so‘ndi va narigi binoning yuqori qavatlarida qandaydir bola chinqirab yig‘lab yubordi. Bola esa allamahalgacha o‘ksib-o‘ksib yig‘lab yotdi. Shunda mening xayolimga– balki bola uzoqlarda, mening o‘tmishimda yig‘layotgandir – degan o‘y kelib qoldi. Kim biladi, shunday bo‘lishi ham mumkin-ku; bu azim tun qo‘ynida o‘ksib-o‘ksib yig‘layotgan, balki mening bolaligimdir? Balki hech qachon tuganmas bu tun meni bolalik bilan yuzma-yuz qilmoqchi bo‘lgandir. Agar shunday bo‘lgan taqdirda ham bolalik bilan mening hozirgi o‘ttiz bir yoshim orasida juda katta jar bor. Bu jarlik, menimcha, endi hech qachon yo‘qolmaydi. Men bolalik olmasining aynigan, buzilgan tomoniman. Olmani yeyishar ekan, odamlar hamisha chirigan joyini kesib tashlashadi. Agar endi men yana nimagadir yashashimni his qilganimda ham bu umr olmasining chirigan qismini kesib tashlashim kerak”²³.

Keltirilgan lavhada Nazar Eshonqulning tungi mushohadaga yo‘g‘rilgan sezimlari bilan tanishamiz. Unda yovuzlikning ustidan qilingan g‘alaba insonning shaxs sifatida jamiyatdagi o‘rni chigal mulohazalar bilan uyg‘unlashadi. Bu uyg‘unlik yozuvchini – yashashdan maqsad nima ekanligini anglashga yetaklaydi. Qissa kompozitsiyasida an‘anaviylikning noan‘anaga o‘tish tadriji, ramzlar, metaforalar tig‘izligi kuzatiladi. Jamiyatning ichidan chirigan tanazzuli bir inson baxtiga rahna solishi talqin etiladi. 70 yil davomida hukmron bo‘lgan sobiq ittifoqning millat sifatidagi xalqimizning rivojlanishi, qulay shart-sharoitda bilim olishi, o‘zining orzularini, istiqlol yo‘lini o‘zi belgilashi muhimligini kodlar yordamida tushuntirib beradi. Mana shu jihat yozuvchining uslubiy

²³ Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. –Т: “Шарк”. 2007. –Б.163.

izlanishlaridagi, jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘zlashtirish (bu yerda uslub va ifoda nazarda tutilmoqda!) qismatining nechog‘li og‘irligini ko‘rsatadi. Nazar Eshonqul “Tun panjaralari” qissasida o‘z e‘tiqodidan ayrilgan millat vujudiga kirgan Shaytonning talvasasi ko‘plab gunohlarni keltirib chiqarishini, Allohning farmoniga itoat qilmagan har qanday yaratiq o‘zining bu dunyosida do‘zax hidini tuyishi haqida imo-ishoralar mavjud. Demak, insonning ma‘naviy-ruhiy asoslari, uning tundagi sokinlikda, xilvat joylarda yolg‘izlik bilan anglanishi ayni haqiqatdir. Bu tamoyil Nazar Eshonqulning ko‘pgina asarlarida “ko‘chib” o‘tganligini unutmaslik lozim.

Jeys Joys falsafiy-estetik izlanishlarining o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi. Jeys Joys, Frans Kafka, Albert Kamyularning badiiy tafakkurida o‘lim va hayot turlicha talqin qilingani bilan, ular hayotni anglash uchun tepadan berilgan yagona maqsad deb biladi. Ana shu tadrij o‘zbek adabiyotida yozuvchilarning qarashlarida islomiy nuqtayi nazaridan turib talqin etilmoqda. Bu haqda so‘z borganda quyidagi masalalarni aniqlashtirib olish zarur. Shundagina *an’anaviylikning bag‘ridagi mohiyat bilan noan’anaviylik orasidagi tafovutni anglash* mumkin bo‘ladi: “Biz fojiviy o‘lim deganda ham ikki turdagi o‘limni tushunishimiz lozim: birinchisi – tasodifiy, tabiiy yoki texnikaviy halokatlar tufayli ro‘y beradigan o‘lim. Unda tabiiylik mavjud, ikkinchisi – estetikadagi fojiviylikni vujudga keltiradi, o‘lim – ijtimoiy hodisaga aylanadi. Boshqacharoq aytganda, yangi g‘oya uchun zamon yoki asl insoniy mohiyat namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan mahdud sharoit bilan kurashib, fidoyilik ko‘rsatgan shaxs qahramonlarcha halok bo‘ladi, ya’ni erkinlik subyektda, zaruriyat obyektida beriladi va obyekt subyektning ustidan g‘alaba qozonadi, lekin bundan buyog‘iga u subyektning g‘oyalari bilan yashaydi, natijada o‘sha inson ijtimoiy-axloqiy ideal sifatida maqom topadi, jisman halok bo‘ladi, lekin ruhan, ma‘nan uzoq zamonlar yashaydi yo abadiy o‘lmaslikka erishadi”²⁴. Binobarin, J.Joysning ham F.Kafka va Kamyu qahramonlari ruhiyatiga singdirilgan mavjudlik jumbog‘i o‘zbek adabiyotida 90-yillardan keyin yuzaga chiqa boshlagan ifoda tig‘izligini

²⁴24 Абдулла Шер. Абдият ва умр. –Т: “Файласуфлар”. 2017. –Б.185.

dalolatlaydi. Biologik o‘lim bilan ijtimoiy o‘limning farqlarini aniqlab olganimizdan keyin badiiy matndagi insonning ruhiy o‘limi, uning g‘oyalarini o‘zlashtirgan, tafakkuri, intellektual boyligidan maksimal darajada unumli foyda topgan jamiyat – sobiq ittifoq tuzumi “Tun panjaralari” qissasida ham muayyan darajada aks etadi. Qahramon gunohkorligini, Shayton qutqusiga uchrab, o‘ziga zulm qilganligini teran anglaydi, lekin u payti juda kech bo‘ladi. Mana shu jihatdan olib qaralsa, ijtimoiy hayotning barcha qatlamlarida yuzaga chiqqan o‘lim tematik jihatdan G‘arb adabiyotining eng muhim tasvir predmeti darajasida ramzlar, metaforalar bilan burkandi. Psixoanalitik jihatdan talqin qilib ko‘rganimizda ham masala mohiyati yanada oydinlashadi.

“Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” asari dastlab qissa shaklida nashr qilingan. Qissago‘y Joys asarning janrini o‘zi belgilab bergan. Keyinchalik olib borilgan tadqiqotlar natijasida asar roman deya e‘lon qilingan. Aslida janrga qo‘yilgan talab, uning mazmunidan kelib chiqishi tayin. Asarning mutolaasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qissada murakkab fe‘l-atvorli voqealarga guvoh bo‘lgan qahramonlar harakatlanadi. Quyida asar qahramoni Stiven Dedalning din va dunyo, e‘tiqod haqidagi qarashlari sohir bolalikni bir umr qalbida olmosdek asrab yurgan yozuvchi quvvatining, tafakkurining ruhiy yuksalishi namoyon bo‘ladi:

“O‘tayotgan kunlar, mashg‘ulotlar va azobli o‘ylar endi uning gunohlarini yengillatmas – ob-hayot bulog‘ining huzurbaxsh suvi endi uning qashshoq ruhiga, ruhiy tashnalikdan qaqragan vujudiga tiriklik shavqini bag‘ishlamas edi. Endi u gadoylarga sadaqa berganida bir zum to‘xtab, ularning duolarini eshitib o‘tirmas, burilib ketib qolar va horg‘in xayol surib, balki shunday qilsam ozgina bo‘lsa-da savob olarman deb umidlanardi. Xudojo‘ylikni butunlay tark etgandi. Qilgan og‘ir gunohlari uchun do‘zax olovida yonadigan bo‘lgandan keyin toat-ibodatdan nima foyda? Garchi uyqusida ham jonini olish va do‘zax oloviga tashlash Yaratganning irodasiga bog‘liq ekanini, bunday paytda hatto rahm-shafqat tilashga ham ulgura olmay qolishini bilsa-da, yuragidagi kibr va azbaroyi ixlos bilan qo‘rqishi uning og‘iz ochib duo o‘qishga monelik qilardi. O‘zining gunohlarini kibr bilan tan olishi va ko‘nglidan Yaratganga muhabbatdan xoli qo‘rquv qo‘l urgan jinoyati behad

kattaligini, hamma narsadan ogoh va hamma narsani bilguvchi zotga munofiq-larcha tavba-tazarru qilgan bilan gunohlardan xalos bo'lishning iloji yo'qligini mudom uqtirib turardi"²⁵.

Jeyms Joysning ushbu qissasidagi – mantiq, asosan, Xudo va banda orasidagi yaqinlikka jamiyatning aralashuvi va unga rahna solib turuvchi sun'iy to'siqlarning borligida deb biladi. Erkinlik tugagan joyda fojeaviylik boshlanishi, insonning jismini qafasga solib qo'ygan bilan u, Tangri taolo oldiga uchib chiqishi mumkinligini hamda ezgulik va yovuzlik haqida o'zining mulohazalari, tavbasi, tazarrusini izhor qilishga hech qanday to'siq monelik qila olmasligini romanda ko'plab o'rinlarda ishora qilib o'tadi. Joysning badiiy tafakkuri sarson-sargardonlikda kechdi. U "...o'zini bitta mamlakatga emas, butun insoniyatga daxldor shaxs deb hisoblardi. Hali tug'ilmasdan otasi va onasi orqali peshonasiga bitilgan sargardonlik adibni bir umr tark etmadi. Go'yo taqdir unga olam aro bir umr sargardon bo'lib yurishni ravo ko'rganday edi. Bolaligini hisoblamaganda ham 20 yoshdan so'ng yashash joyini 200 marta o'zgartirdi. Parijda, Londonda, Rimda, Syurixda, yana qancha shaharlarda yashadi, ammo bolalik xayollarini shakllantirgan Dublin haqida yozdi. Dunyoni larzaga solgan "Uliss" bosilib chiqqach ham Joysning moliyaviy hayoti o'nglanmadi. O'z davrining eng mashhur yozuvchisi bo'lgach ham topganlari kasalmand qizining va o'zining muolajasidan ortmadi. U umrining oxirigacha moddiy tomondan siqilib yashadi. Asarlariga to'lanayotgan haq unchalik baland emasdi. U yashash va oilaviy ta'minotini ushlab turish uchun Syurixda turli mavzularda ma'ruzalar qilishga majbur edi"²⁶. Ko'rinadiki, iqtisodiy qaramlik yozuvchining ruhiy parvozig-a daxl qilmasa-da, uning sog'lig'i va jismoniy kuch-quvvati kamayishiga olib keladi. "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asari bosh qahramoni tabiatidagi kuchli tafakkur salmog'i uning hayotidagi qarama-qarshiliklar orasida tobora yuksala bordi. Natijada, Joys bir tomondan yutgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan, Vatan sog'inchi, bolalikning sohir

²⁵ Kўrsatilgan адабиёт: Ж.Жойс. –Б.138-139.

²⁶ Назар Эшонқул. "Мен"дан "мен"гача. –Т: "Akademnashr". 2015. –Б.338-339.

va o'ktam ovozi, xayollari qo'lidagi yozilayotgan asarlariga benihoya ilhom kuch, IDEALni ravo ko'rardi.

Rus munaqqidi M.M.Baxtin yozishicha: “Zamonning bu tarzda “inversiyalashuvi”, “o‘rin almashinuvi” insoniyat taraqqiyotining turli davrlariga xos mifologik va badiiy tafakkur uchun xarakterlidir. U zamon haqidagi, ayniqsa, kelajak haqidagi tasavvurlarini belgilaydi. Shu tariqa, kelajak hisobidan, bugun, xususan, o‘tmish boyib boradi. reallik quvvati va ishonchliligi, haqqoniyliги faqat hozirgi hamda o‘tgan zamonga tegishli bo‘ladi: “Bor” va “Bo‘lgan”. Kelajakka esa reallikning boshqacharoq turi tegishlidir. Deylik, u bir qadar o‘tkinchiroq (*efemerniy*²⁷) – “Bo‘ladi”, “Bor” va “Bo‘lgan”dagi o‘ziga xos real vazndorlik, moddiylik va pishiqlik xususiyatidan mahrum. Kelajak hozir va o‘tmish bilan bir jinsga mansub emas. U qanchalik uzun tuyulmasin, mazmun aniqligidan xoli, siyrak va bo‘m-bo‘sh. Shu tariqa barcha ijobiy, ideal, kerakli, kutilgan narsalar inversiya yo‘li bilan o‘tmishga, ba’zi hollarda hozirga tegishli hisoblanadi”²⁸. Haqiqatdan ham, faraz qilaylik, ba’zi psixoanalitiklar ertangi kun, yashalmagan hayotni o‘zlaricha bashorat qilib, insonni “qo‘rquv” bilan ushlab, boshqarib turish yo‘lini axtaradilar. O‘zlarining ruhiy kasal, ijtimoiy qoloq yoki boy-badavlat, moddiy ta‘minoti yaxshi odamlarni izlariga ergashtirib, buyuk kelajak haqidagi safsatalardan bong uradilar. Buni J.Joys to‘g‘ri talqin qiladi. U o‘zining tushuniksiz uslubi bilan tafakkur qilishga, san‘atning qadrini bilmaydigan olomonga – kinoya bilan “meni asarlarim yuz yildan keyin tushuniladi” degan iddaoni ilgari suradi. Albatta, Joysda alamzadalik kayfiyati yo‘q edi. U shunchaki insoniyatga o‘zining tafakkur miqyoslaridan kelib chiqqan holda kinoyaviy-parodik, ramziy-metaforik ifoda usuli bilan oz-moz bo‘lsa-da, ta‘sir qilishni istadi, xolos. Bugun Joysga ergashayotgan butun bir yozuvchilar armiyasi paydo bo‘ldi. Mana shu jihatlar Joysning badiiy-psixologik tafakkur sarhadlarini hali hanuz zabt etolganicha yo‘q.

Nazar Eshonqul “Tun panjaralari”da Joysning qissasidagi qarashlar sintezi o‘z ifodasini topgan. Joys iblis sharpasidan va tahdidlaridan charchagan qahramonini

²⁷ Эфемерный (люнон.ephemeres – бир кунлик) – лахзали, ўткинчи; хаёлий нореал (У.Ж).

²⁸ Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Т: “Академнашр”. 2015. –Б. 121-122.

oxir-oqibat cherkovdan ham ko'nglini sovutadi. Ibodat qildim nima, qilmadim nima, degan o'y-xayol bilan u o'zining qalbini tirnayotgan savollarga javob topgandek bo'ladi. Joysning tafakkuridagi o'zgarishlarni Stiven Dedalning xatti-harakati deb tushunish mumkin:

“Ilohiy siymoning undan yuz o'girishiga sabab bo'lgan gunoh uni beixtiyor jami gunohkorlar g'amxo'riga yaqin qilib qo'ydi²⁹. Bibi Maryamning ko'zlari unga mehr bilan yuvosh qarab turganday tuyular, nozikkina jussasini chulg'agan ilohiy yog'du najot istab o'zi tomon talpingan gunohlarini hech ham tahqirlamasdi. Agar qachondir uning yuragidagi endi hech qachon gunohga qo'l urmayman, tavba qilaman degan xolis xohish uyg'ongan bo'lsa, bu, shubhasiz, o'zini Bibi Maryam xizmatiga bag'ishlash istagidan edi. Agar qachondir tanini junbisha keltirgan behalovat mayllar bosilgach, ruhi uyat va alam bilan o'z dargohiga qaytib, unga – “ko'k toqida”gi yorqin ohanrabo, sabo sirlaridan ogoh etib, olamga osoyishtalik bag'ishlovchi”³⁰ timsoli bo'lgan tong yulduziga tomon talpingan bo'lsa, bunday lahzalarda Bibi Maryamning ismi hali be'mani, uyat so'zlar va taniga rohat bag'ishlagan beandisha o'pichlar ta'mi arimagan lablardan chiqar edi”³¹.

Keltirilgan lavhada Jeyms Joys insonning shahvoniy hirsini va havoiiy nafsini jilovlay olmagan ba'zi toifadagi odamlar talqiniga bag'ishlangan. Haqiqatdan ham, o'zining jism-u joni uchun huzur va halovat istagan odam Shayton qutqusiga uchib, soxta e'tiqod va yasama ishonchni namoyon qilmoqda. Bu yerda ikki qarama-qarshi kuch orasida insonning IYMONi tarozuga tortiladi. Uning o'lchami ham, og'irligi ham yo'q. Bor-yo'g'i e'tiqodning butunligida, samimiyligida, manfaat uchun emas, Allohga bo'lgan muhabbatning salmog'ida ko'rinadi. Joys ana shu ma'noda cherkovni ham, jamiyatni ham, audtioriyadagi bolalarning tafakkur miqyoslari, ilm va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqlarning falsafiy-psixologik asoslarini ochiqlab beradi. Hayotiy misollar yordamida Joysga Stiven Dedal xatti-harakatining o'zi fojeaviylik bo'lsa, bir tomondan manqurtlashgan

²⁹ Биби Марям назарда тутилади.

³⁰ Ж.Г.Ньюменнинг “Биби Марям мадхияси” (1849) романидан олинган парча. Ж.Жойс мазкур романида Ньюмен насрига тез-тез муружаат қилган.

³¹ Жеймс Жойс. Мусаввирнинг ёшликдаги шамойили. –Т: “Akademnsht”. 2021 –Б.141.

jamiyat a'zolariga ilm va bilim o'rgatish u yoqda tursin, ularni kuchli bosim yoki majburlab odam qilib bo'lmasligi tushuntirganligida ko'rinadi. Insonning ichki qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olib Allohning uyida qanday javob berish muhimligini ham nazardan chekkada qoldirmaydi. U shunday o'ylaydi: atrofda – son-sanoqsiz adashgan kimsalar ko'p, bu kimsalarning tavbasini ham, tazarrusini ham tushunib bo'lmasligini, sog'lom e'tiqod zanjirlarining uzib tashlanishi, jamiyat a'zolarida ertangi kunga ishonch tuyg'usi bo'lmasligi, qashshoqlik va sargardonlikning oxiri ko'rinmasligi qahramonlar tabiatida ro'y berayotgan uzil-kesil o'zgarishlarda talqin qilishga e'tibor qaratganligida qabarib ko'rinadi. Shuni qayd etish lozimki, insoniyat rivojlangani sayin sog'lom e'tiqod va Allohni o'z holicha tanish, anglashdan shu qadar uzoqlashib borayotganini teran hayotiy mulohazalar bilan talqin qiladi. Mana shu ifodalar sintezi Jeyms Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asarida qizil ip bo'lib o'tadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul "Tun panjaralari"da quyidagi lavhaga diqqat qaratsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Bu yerda Shayton vasvasasining o'ziga xos obrazi namoyon qilingan:

– Yaxshi bo'ldi, – derdi shayton, – mana tanishib ham oldik, endi asta-sekin qalin bo'lib ketamiz, tunda ishlash sizga yoqsa mayli, ishlayvering, qarshilik qilmaymiz, faqat tunni har xil narsalarga o'xshatavermang, g'ashimiz kelishi mumkin. Mana, gul haqida yoki bo'lmasa, yor haqida yozing, hech bo'lmasa, yomg'ir haqida yozing, lekin tun va unda yashovchilar haqida yozmang, bu xavfli mavzu – tasarrufimizdagi narsalarni nazorat qilishga va hatto haligiday ... ya'ni jazo berishga haqlimiz. Tun – bizga ota-bobolarimizdan meros.

Biz ancha suhbatlashib qolgandik, to'g'rirog'i, faqat u gapirgandi, men esa tinglab, jimgina bosh silkib o'tirdim. U menga Bobilni qanday talashganlari, Quddusga qanday zarba berganlari, Pampeyni qanday vayron qilganlari, Rimni qanday qilib tanazzul sari burib yuborganlari, odamzodga qanchadan qancha

xizmatlari singgani to‘g‘risida faxr va biroz maqtanchoqlik bilan (u negadir hadeb yaltoqlanardi) hikoya qilib berdi”³².

Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari”dagi Shayton obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, yozuvchi yunon mifologiyasidan ta’sirlanganini his qilish mumkin. Bu yerda Shayton bilan asar qahramoni o‘zaro do‘stona suhbatlar quradi. Tun – shayton bizning ota-bobolarimizdan meros degan iddaoni qiladiki, qahramon endi tundan ham ayirishsa, nima qilaman, degan hadik bilan yashay boshlaydi.

Yozuvchining o‘zi alohida ta’kidlaganidek, “Talabalik yillarimda “Tun ertaklari” deb nomlangan turkum ertaklar yozgandim. Bu turkumda yunon mifologiyasi ta’siri ko‘proq edi. O‘sha ertaklardan birida xuddi Prometey kabi Odam Ato va Momo Havo ham ko‘ngillariga falakdagi muqaddas olovni yashirib olib chiqishadi. Ular buni Yaratgan bilmaydi, deb o‘ylashadi. Ammo bu qismat edi. Shu bilan samodagi muqaddas olov ham o‘chadi, to‘g‘rirog‘i, u Odam Ato va Momo Havo ko‘ngliga ko‘chadi. Ulardan esa bolalariga o‘tadi. Har bir bolaga bir chimdimdan o‘tish nasib qiladi. Aslida, Yaratgan odamga o‘sha muqaddas olovni yana mehrobga qaytarish qismatini bitib qo‘ygandi. Odamzodga falakdagi olovni qaytarib joyiga qo‘yish va yoqish qismati berilgan. O‘sha olov bugun Odam Ato va Momo Havo bolalarining ko‘ngillariga qo‘shilib-maydalashib ketgan. Qachon u ulkanlashadi va muqaddas olov tusini oladi? Buning uchun ular faqat bir narsani istashlari, bir e’tiqodga kelishlari kerak”³³. An’anaviylikdan xoli noan’anaviy talqin o‘ziga xosligini namoyon qilgan “Tun panjaralari” qissasida Nazar Eshonqul o‘zining mifologiyasini yaratadi. Shunday tartibda badiiy shakl (qissa)da yangi mifologiya yuzaga keladi. Unda qissago‘yning hamrohi Shayton bo‘lib, voqelikning darajalarini kuzatib, qahramonga maslahat berib turadi. Aslida, Shayton qahramoni yo‘ldan ozdiruvchi sifatida atayin kiritilgan. XX asr qattol tuzumining kirdikorlari ham fosh etilib, haqiqiy iste’dodlarning ko‘chaga quvilishi, soxta maddohlardan sinfiylik va partiya targ‘ibotida ta’sirchan tashviqot quroli sifatida unumli foydalanishi millatning fojeaviy taqdirini, Orol qurishi-yu, insonlar

³² Кўрсатилган адабиёт, -Б.184-185.

³³ Назар Эшонқул. “Мен”дан “мен”гача. –Т: “Академнашр”. 2014. –Б.131.

orasidagi asl o‘zak qadriyatlarining kunpaya-kun bo‘lishi, miya va tafakkurimizga kommunistik g‘oyalarning singdirilishi haqida qator umuminsoniy masalalar idrok qilinadi.

Aynan shu tamoyil asosida Yevropada urf bo‘lgan modernizmning shoxchalari 90-yillardan keyin o‘zbek adabiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelishini yuksak baholash mumkin. Nazar Eshonqul masalaga jiddiy yondashgan. Qissadagi muhabbat – samoviy hodisa ekanligiga bot-bot urg‘u beradi. Jeyms Joysning “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” qissasidagi Stiven Dedalning asar oxiridagi tazarrusi, orzusi va armonlarini, Vatanidan ayro holatda umr kechirgan, turli xil quvg‘inlarga uchragan butun insoniyatni sevib yashash, Biru Bor yagonaligiga ishontirish uchun o‘zgalar haqqini yemaslik, tuhmatdan, xiyonatdan yiroq bo‘lish muhimligini izhor qilganligida ko‘rinadi. Qissaning bosh konsepsiyasida jamiyatda ta’lim-tarbiya muammosini iziga tushirgan millat va davlatgina katta yutuqlarga, taraqqiyotga erishish mumkin degan xulosa turibdi. Bugun ta’lim-tarbiya biz uchun “hayot va mamot” masalasi, tub islohotlarimizning bosh mezoni desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi:

“26-aprel. Onam mening eskifurushdan sotib olgan yangi narsalarimni joylayotir. Shoyad, tug‘ilgan uyingdan uzoqda do‘st kim, dushman kimligini bilsang, insofga kelsang deydi onam. Illo! Shunday bo‘ladi, albatta. Shon-sharaflar bo‘lsin senga, hayot! Men safarga otlanayotirman, ijod haqiqatini qayta-qayta anglab yetmoq va qalbimning qo‘ri bilan xalqimning tengsiz, betakror aql-u irodasini namoyon etmoqqa jazm etib yo‘lga chiqayotirman.

27-aprel. Rahmonim, ey aziz ustoz³⁴, minba‘d menga tog‘day tayanch bo‘l, azal-u abad o‘zing qo‘llagaysan”³⁵.

Joysning falsafiy tafakkuri Irlandiyadagi o‘tgan bolaligini qayta idroklay olganligida – Vatandan olisda, sog‘inch, iztirob bilan eslaganligida qabarib ko‘rinadi. Ayniqsa, “Onam mening eskifurushdan sotib olgan yangi narsalarimni joylayotir” jumlasini har qanday qahri qattiq odamning ham yuragida Joysga

³⁴ Стивен исмини ўзи олиб юрган Дедалга мурожаат этаётир.

³⁵ Кўрсатилган асар: Ж.Жойс. –Б.342

nisbatan mehr va muruvvat uygʻotishi tabiiy hol. Eskifurush – eski kiyim-kechak sotuvchi odam. Uning bolaligidagi koʻrgan azob-u uqubatlari: yoʻqchilik va ochlik hissi ruhan hayotning puchmoqlarigacha kirib borishga katta zamin boʻldi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Joys – ana shu qirralari bilan bugungi oʻzgarayotgan dunyoga yangidan yangi metamorfozalar berib ketgan, insoniyatning baxtli va totuv yashashi uchun bor bilim va gʻayratidan taralgan yogʻdudek asarlarini oʻqish va uqish uchun juda koʻplab kitoblarni titkilashi muhimligini izohlaydi. Bu kitobdagi imo-ishoralar, voqealarning zalvori, koʻlami va tabiatidagi oʻzgarishlarni nozik did hamda farosat bilan inkishof qilishi yuqoridagi mulohazalarimizni dalolatlaydi.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning mana shu qissasidagi metamorfoza – Shaytonning insonga qoʻshilib ketishi, yoʻldan ozdiruvchi bir maxluqot ekanini talqin qilar ekan, odamzotning jannatdan quvilgan lahzasidan to qiyomatga qadar xatolar girdobida umr kechirishini namoyon qiladi. Tun modusi insoniyatning aql bovar qilmas taraqqiyoti kafolati deb biladi. Tunning mohiyatida sokinlik mavjud. Biroq shu panjara orqasida oʻtayotgan umr qahramonning tafakkur va erkin yashashiga juda katta xalaqit va zarar yetkazadi. Asarning noanʻanaviy shamoyili yozuvchining uzoq yillar sintez qilib oʻrganib, ularni hayot ichidagi muammolar bilan bogʻlab kelganligida qabarib koʻrinadi. “Ozod oʻy xayollar boʻlmaganida edi, biz uchun erkinlikning qadri qanchalar muhim ekanini toʻla tushunib yetmasdik. Mustabid shaxs, mafkura yoki din uni oyoqosti qilib, dunyomizni doʻzaxga aylantirgan taqdirda ham, tuzuk-quruq idrok etolmasdik. Adabiyot goʻzallik va baxtga yoʻgʻrilgan orzularni uygʻotib qolmay, har qanday shakl-u shamoyildagi zulm-istibdod tugʻdiradigan xatardan ogoh etadi. Chin adabiyot xalqlar oʻrtasidagi ishonch koʻpriklarini bunyod etadi, til eʼtiqod, odat, anʻana va tutumlardagi ixtiloflarni yoʻqqa chiqarib, shodlik, gʻam-tashvish, hayrat tuygʻulari orqali bizlarni yakdil-u yaktan qiladi”³⁶. Zotan, yuqoridagi kuzatish va tahlillarimiz shunday xulosa qilishga asos boʻlmoqda. Joys anʻanalari nafaqat Nazar Eshonqul, balki L.Boʻrixon, I.Sulton, U.Hamdani, Sh.Hamro, A.Yoʻldoshev, M.Chovush

³⁶ Льюса М.В. Мутолаа ва адабиёт васфи// Жаҳон адабиёти, 2014. № 3. -Б.165.

poetik izlanishlarida o‘ziga xos o‘rin tutganligini e‘tibordan soqit qilib bo‘lmaydi, albatta!

1.3.8. Noan’anaviy qissalarda uslubiy-shakliy izlanishlar

Har qanday badiiy matn muallifi o‘z uslubining yuzaga chiqishi uchun tinimsiz mehnat-u mashaqqat qiladi. Uslub o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Uning qatida qanchadan qancha izlanish, o‘rganish, hayotni va, umuman, insonlar xarakterini tushunish, mutolaa judayam zarur bo‘ladi. Buning hech qiyin joyi yo‘qki, iste’dodli ijodkor oqibatda o‘ziga qulay uslubni va usulni topishi tayin. Noan’anaviy, modernizm yoki postmodernizm yo‘nalishida ijod qilayotgan yozuvchilarning badiiy topilmalari barchasi – uslubda moddiylashadi, o‘quvchining estetik olamiga ta’sir qiladi.

O‘zbek badiiy nasri keyingi yillarda hayotiy mavzular, ijodiy uslub rang-barangligi, ruhiy va falsafiy tahlil, xarakterlar talqini borasida jiddiy yangilanishlar, o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Adabiy tanqidchilikdagi nazariy mulohazalarda an’anaviy proza va modern adabiyot degan tushunchalar tez-tez tilga olinmoqda. Xususan, G‘arb adabiyotidagi simbolizm va syurealizm kabi adabiy oqimlarga, Frans Kafka, Albert Kamyu, Jan Pol Sartar, Luis Borxes, Jeym Joysga ergashgan o‘zbek adiblarining asarlari modern proza deb baholanmoqda³⁷. Binobarin, o‘zbek nasri ufqlarining yangilanishlar muntazamligi o‘tgan asr intihosida yangi bir bosqichga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, G‘arb badiiy tafakkurining ijtimoiy-siyosiy mafkurasi yuz yil oldin ularda ro‘y berganligi, bizdagi taraqqiyot sur‘atlari anchayin orqada qolganligida seziladi. Biroq qisqa fursat ichida globallashuv jarayonining turfa sohalardagi izi badiiy adabiyotni ham yangicha ifodalash yo‘siniga olib kirdi.

Professor Muhammadjon Xolbekov badiiy asar yozishdagi o‘ziga xoslikning asosiy ta’sirini Lotin Amerikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda Yevropa davlatlarining badiiy tafakkuri sezilarli darajada ta’sir qilganligi oqibatida paydo bo‘lgan o‘zbek modern adabiyotining joriy holatini tasavvur qilishga imkon berganligida deb biladi. Jumladan, “XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida

³⁷ Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. –Т: “Akademnashr”. 2014. –Б.54.

shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30 yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarining birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi. Jahon adabiyoti tarixida "yo'qotilgan avlod" (lost generation) (G.Stayn) nomini olgan bu avlod namoyandalari – Uilyam Folkner (William Faulkner, 1897-1962) Ernest Xeminguey (Ernest Hemingway, 1899-1961), Frensis Skott Fitsjerald (Francis Scott Fitzgerald, 1896-1940), Jon Dos Passos (John Dos Passos, 1896-1970), Richard Oldington (Richard Aldington, 1892-1962), Erix Mariya Remark (Erich Maria Remarque, 1898-1970), Anri Barbyus (Henri Barbusse, 1873-1935) va boshqalar G'arb adabiyotining keyingi ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar"³⁸. "Yo'qotilgan avlod"ning ko'pchiligida modernizmning hali "ochilmagan qo'riq" ekanligini ifodalovchi talay asarlari mavjudligini his qilish qiyin emas. Kuchli gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan, ozodlik va erkinlik mujdalarining badiiy matndagi haqqoniy surati ramzlar, metaforalarda joylashtirilishi uslubiy o'ziga xoslik va chuqur izlanish bilan beligilanishi tabiiy. Shu ma'noda, badiiy uslubning umumiy va xususiy tipi mavjudki, buni ikki xil yo'sinda aniqlab olish mumkin:

1. Ijodkor fitrati. 2. Badiiy uslub.

Ijodkorning shaxsi qissada yoki romanda turli xil nutq ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, matnning o'ziga xos talqinidan kelib chiqib, muallifning voqelikka o'z munosabat nuqtayi nazari tushunilsa, boshqa tomondan, davrning umumiy uslubini belgilovchi ehtiyoj o'laroq "urf" bo'lgan usul jihatidan 90-yillarda kirib kelgan modernizm, 2000-yillarda bo'y ko'rsatgan postmodernizm ana shu bir davrda yuzaga qalqib chiqqan uslublar sintezini namoyish qildi. 90-yillar boshida tarix mavzusining ko'ndalang qo'yilishi, ularni talqin qilish borasidagi yangilanishlar, tarixiy haqiqatni qayta tiklash, ularni boshqacha shaklda yozish, milliy qahramonlarni kashf qilish borasida davlatning roli katta bo'ldi. Negaki, 70 yil davomida buzib talqin qilingan o'zbek davlatchiligi yangicha

³⁸ Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini Манба www.kh-davron.uz сайтидан олинди. 2018 йил.

talqinga ehtiyoj sezgandi. Mana shu ehtiyojning mahsuli modernizmga ham yaqqol seziladi. Noan'anaviy qissalarda yozuvchi olam va odam munosabatlari tig'izligidan so'z ochar ekan, eng qadimgi antik dunyo madaniyatiga ham jiddiy e'tibor qaratadi. Negaki, epik voqelik hamisha uslubda namoyon bo'ladi. Yunon faylasufi uslub va shakl haqida shunday mulohazalarni ilgari suradi: "Bu sohada asarlar yana tasvirlash usullari jihatidan ham bir-biridan farqlanadi. Zotan, bir xil narsani bir xil vosita bilan tasvirlagan holda yo muallif voqealarga aralashmay hikoya qilishi, yoki o'zini xuddi Homerday tutishi mumkin. Yoki butun hikoya davomida muallif o'zligicha qolishi, yoxud barcha aks ettiruvchi shaxslarni gavdalantirishi mumkin. Nima bilan (qaysi janrda), nimani va qanday aks ettirish usulidagi uch xil tafovut ana shulardan iborat"³⁹. Ko'rib o'tganimizdek nimani, qanday tasvirlash faqatgina yozuvchi yoki shoirning yo'l tanlashiga bog'liq. Demak, uslublarning ham xilma-xil bo'lishi, shafqatsiz realizm, achinish va hamdardlik uyg'otuvchi romantizm, turli xil qora bo'yoqlarda, ramzlar va metaforalar orqali modernizm yo'nalishlarida qahramonlarni namoyon qilish individual anglash va anglatish darajasiga bog'liqligi ma'lum bo'ladi. Yozuvchi olamni qanday qabul qiladi, qabul qilingan olamning ifoda madaniyati qaysi mezonlar bilan inkishof qilinadi, mana shularning barchasi individual uslubda o'z ifodasini topishi mumkin. Uslub haqida quyida olimlarning mulohazalari bilan o'rtoqlashamiz: "Uslub nafaqat davr, ijtimoiy shart-sharoit, hayotda kuzatilgan voqea-hodisa, xarakter va holatlar, yozuvchi tasviriga ko'chgan situatsiya va konfliktlarga bog'liq, balki birinchi navbatda bu xarakter, holat-kayfiyat, konfliktlarni badiiy obrazlarda gavdalantiruvchi, hayotning original badiiy kartinasini yaratuvchi ijodkor inson – san'atkorga bog'liq"⁴⁰, – deb yozadi adabiyotshunos O'.Nosirov. Darhiqat, "hayotning badiiy va original kartinasini" yaratish borasida qanchadan qancha mehnat qilinishi kerak. Yozuvchi ana shu murakkab va mashaqqatli jarayonda hamisha o'zining ustida tinimsiz izlanish olib borsa-yu, munosib yo'sinni topolmasa bundan ortiq yo'qotish bo'lmasa kerak.

³⁹ Арасту. Поэтика. –Т: "Янги аср авлоди". 2018. –Б.23-24.

⁴⁰ Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. -Т.: "Фан". 1981. –Б.75.

Ba'zi yozuvchilarda maqsad g'oyani ifodalash bo'lsa, ba'zi yozuvchilar g'oyasiz maqsadni ifodalash yo'lidan boradilar. Bunday usul badiiy matn qiymatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. 90-yillarda noan'anaviy yo'sinda ijod qiluvchi bir toifa adiblar, shoirlar guruhi paydo bo'ldi. Ne yoziqki, ular yozganlarini modernizm pardasi orqasida ifolash yo'lida, o'z iste'dodsizliklarini yashirmoqchi bo'ldilar. Bugun ana shu guruhdagilarning birortasi yozayotganini, yoki yozuvchilikka da'vo qilayotganini ko'rmaysiz. Davrning o'zi uslub yaratuvchi mezonlarni taqdim qilarkan, ehtiyoj zarurati o'laroq insonlarning maishiy-ijtimoiy muammolari birinchi o'rinda ko'ndalang bo'ladi. Ana shu ehtiyoj zarurati: qismatga, qismatdan shaxsning jamiyatdagi o'rni va mavqeyi jihatidan boshqa sohalarning ham taraqqiy etishiga olib keladi. Uslub o'z holicha rivojlanmasligini taqozolaydi. XX asrning aqllar hukmdori deya tan olingan Albert Kamyu ijodida bo'lmasa o'sha ko'pchilik yozuvchilar bir davrda yashab ijod qilishgan. Ammo, bir davrning o'zida uslublar xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, A.Qodiriy va Cho'lponni olib ko'raylik. "O'tkan kunlar" romani bilan "Kecha va kunduz"ning badiiy ifoda uslubida qanchalik tafovut borligini oddiy o'quvchi-kitobxon ham juda yaxshi biladi. Bir davrning adabiy mahsulidagi uslublarning farqlanish xususiyati yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'ziga xoslikni keltirib chiqaryapti. Demak, professor A.Rasulov talqinicha: "Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o'zi. Uslub – yozuvchi falsafasi in'ikosi. San'atkor falsafasi bus-butun, teran namoyon bo'ladigan janr esa, roman. Boshqacha aytganda, roman – yozuvchining olam va odam, zamon va makon haqidagi falsafasi, ijodkor borlig'idagi rosa etilgan tafakkur, dunyoni anglash konsepsiyasi ko'rsatkichi"⁴¹.

Ayonki, U.Hamdami ijodida hayot voqeligini inson ichki dunyosi bilan uyg'un ifodalashning metaforik usuli ilk qissasi "Yolg'izlik"dayoq ko'zga tashlangan edi. O'ttiz yoshli qirchillama o'zbek ziyolisi ramziga aylangan "Yolg'izlik" qissasi qahramoni ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy-maishiy muammolar qarshisida yolg'iz va o'z yolg'izligiga chora izlayotgan odam obrazining metaforik umumlashmasi edi. Qissa qahramoni o'z botiniy muammosiga ichki "men"idan chora izlar ekan, olam

⁴¹ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. -T.: "Sharq". 2007. 70-6.

va odam haqidagi ulkan falsafiy mavzularda mushohada yuritadi. Bunday badiiy mushohadalar bilan tanishgan o'quvchi muallifning "yolg'iz" metaforasi ostida borliq, voqelik va inson tanasi ichra yolg'iz, himoyasiz qalbni nazarda tutayotganini asarning so'nggi nuqtalariga qadar tadrijiy ravishda anglab boradi. Bunday metaforik talqin usulini yozuvchining "Na'matak" deb nomlangan mini romanida ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu eksperimental nasr namunasida yozuvchi na'matak metaforasi ostida barcha voqealar, insonlar hayotiga guvoh bo'lib turadigan, o'tkinchi vaqt oqimini kuzatadigan birdan bir fenomenal butunlik dunyo makoni obrazini beradi. Avlodlar almashinaveradi. Inson umri o'taveradi. Ammo na'matak – dunyo turaveradi. U hech qachon zamon oqimi, inson umriga ta'sir eta olmaganidek, zamon va inson umri ham unga ta'sir qilmaydi. Ammo tadqiqotchilar ushbu asarda romaniy konsepsiya katta epik janrga xos serqirra polotnolarda aks etmagani vajidan "Na'matak"ni roman janriga mansublash nojoiz deb hisoblaydilar. R.Rahmatning "Adashvoy", I.Sultonning "Suvdagi kosa", U.Hamdamning "Safar" hikoyalarini hikoya-metafora tarkibida sanaydilar⁴².

U.Hamdam mana shunday tadrijiy ravishda epik ijodning yirik janri romanda olam va odamni metaforik umumlashtirishdek o'ta murakkab jarayonni muvaffaqiyat bilan bosib o'tdi. Odamni borliqning bir butun kompleks metaforik tizimi markazida badiiy psixologik tasvirlash yo'lidagi ko'p yillik tajribalarini "Isyon va itoat" romanida yuqori darajaga ko'tardi. Asarning har bir badiiy komponentini metaforik mukammallikda qurdiki, bu faslda ushbu nazariy fikrimizni roman syujeti va kompozitsiyasi misolida asoslashga urinamiz.

Aytganimizdek, "Isyon va itoat" romani voqelikni metaforiklashtirish usuliga qurilgan. Unda inson o'zining kim va qanday qudratga ega mavjudot ekanligi xususida bosh qotiradi. Shu sabab jurm-u isyonga beriladi. Uzoq iztiroblar ortidan itoatga keladi. Go'yo shu yo'l bilan mavjudligini isbotlaydi. Muayyan jumboqlarga javob topadi. Lekin hech bir banda Yaratuvchini to'la anglashi, o'z mavjudligi mohiyatiga yetishi mumkin emas. Chunki insonga bu borada juda kam bilim

⁴² Жўракулов У. Кўрсатилган китоб. – Б. 260.

berilgan. Tasavvuf ilmida ham yozilganki, Olohni anglamoq uchun yo'lgacha chiqqanlar o'zligini anglamoq uchun qadam qo'yganlardir, ular faqatgina ana shunday ezgu amallari bilan Olohga yaqinlashishdan o'zga haqiqatga yuzma-yuz kelolmaydilar.

Roman ichkarisidagi hayot ma'nisi shu kabi mangu jumboqni tushunish uchun bir ko'prik, vosita, xolos. Bunda Tabib va Akbar, Larisa xola va Diana, Tursunboy jontalash va oilasi, Mahkam va Marat obrazlari roman komponentlarida o'z olami ichra, o'z taqdirining ma'nisini tushunib yetish uchun ISYON qilgan personajlar hisoblanadi.

A.Kamyu, F.Kafka, J.P.Sartr kabi romannavislar ijodida isyon konsepsiyasi qizil ip bo'lib o'tadi. Modernistik roman mualliflari o'z asarlari qahramonlari botinida mavjud va zohirida majoziy aks ettirilgan isyon konseptini tabiiy, real holat sifatida izohlashga urinadilar. O'z asarlarida ham mana shunday "tabiiy" muhitni yaratish uchun tirishadilar. Masalan, Kamyu qahramonlari Merso ("Begona") va doktor Riye ("Vabo")lar tashqaridan qaraganda, o'ta "tabiiy"dek ko'rinadilar. Ya'ni voqelik ularni qayoqqa boshlasa, shuning izidan yurayotgandek taassurot qoldiradilar. Ammo chuqurroq diqqat qilinsa, barcha absurdlik, ekzistensiallik, ma'nisizlik holatlari aslida voqelikda emas, qahramonlarning ichida sodir bo'layotgani, ular dunyoni bo'lganidek ko'rmayotganlari, istaganlaridek anglab, istaganlaridek qabul qilayotganlari, talqin etayotganlari ma'lum bo'ladi. "Vabo"dagi o'lat voqeasi mohiyatiga ko'ra bosh qahramon doktor Riyening ichida, ya'ni muallif ongida kechadi. Kamyu hayo voqeligining o'zida mantiqsizlik, ma'nisizlik, kaosni ko'radi. Shu sababdan o'z qahramonlarida bunday ma'nisizlikka qarshi isyon kayfiyatini tarbiyalaydiki, bu o'zi qumdan yasagan uychani o'zi buzib tashlab, yana shu ish oqibatidan o'zi yig'lagan bola o'yiniga o'xshaydi.

Shu nuqtayi nazardan U.Hamdamning "Isyon va itoat" romanidagi isyon konseptini G'arb modernistlari isyoni bilan ayniyatda tushunish mumkin emas. Romanning umumiy mazmuni, syujet qurilishi bunday talqinga imkon bermaydi.

Aksincha, bu isyon ostida sharqona o'zni anglashning metaforik talqini yuzaga qalqib chiqadi.

XX asrning 90-yillarida qator she'rlari bilan adabiyotga kirib kelgan yozuvchi Ulug'bek Hamdamning noan'anaviy yo'sinda yozilgan "Yolg'izlik" qissasida badiiy uslubning uch o'lchamli materiya ekanligini ko'ramiz. Qissaning *kecha-bugun-ertaga* tarzida ifoda imkoniyatlarining o'ziga xosligi asosiy uch qismdan iborat ifoda yo'sinida namoyon bo'ladi. Qissa haqida R.Rahmat shunday yozadi: "Yaponiyaning allaqaysi orolida yil o'n ikki oy vulqon otilib, yer qimirlab turadi, deb eshitganman. Ulug'bek "Yolg'izlik" asarida inson qalbining ana shunday hamishalik bezovta, tahlikali qismini tasvirlashga uringan. U o'z maqsadiga erishish uchun hikoya yo qissa yozishning ma'lum va mashhur an'alarini qurbon qilib yuborgan. Inson qalbi haqida rostgo'ylik bilan gapirishga shu qadar uringanki, hatto yozganlari odatdagi badiiy asarga o'xshamay qolgan. Til – odamning og'zidagi ortig'i, deymiz. Til odamga o'z fikrini yashirish uchun ato etilganligini ko'pchiligimiz bilamiz. Men shuni sezdimki, Ulug'bek asari davomida tilning haqiqatni yashira oladigan jihati – mantiqni parchalashga uringan. Mantiq tamom bo'lgan joydan inson qalbiga ilk qadam tashlaymiz, deydi olmon faylasufi"⁴³. Darhaqiqat, qissadagi ko'ngilni ochish va o'quvchi bilan bamaslahat ish tutish usuli o'zbek adabiyotida ilk bor ko'zga tashlanadi. Ya'ni qissa muallifi, aniqrog'i qissago'y o'zining eng yaqin do'stining holidan xabar olay deb, uning uyiga izlab borish epizodi bilan boshlanadi. Balki o'sha do'st siz yoki sizning yaqiningiz bo'lishi mumkin. Nima bo'lgan taqdirda ham do'stining uyidagi kundalik – daftarni butun qissa davomida Siz-u Bizga oxirigacha mutolaa qilib beradi. Qissadagi uslubiy-shakliy o'ziga xoslik yangi o'zbek adabiyotida, aniqrog'i istiqloq sharofati bilan keng quloq yoygan modernizm da yanada original darajada namoyon bo'lganligini unutmazlik lozim. Mulohazalarini davom ettirib, adabiyotshunos R.Rahmat quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Kamyu, Kafka va boshqa bir qator buyuk yozuvchilarning kundaliklari haqida fikr bildirgan mutaxassislarning e'tirof etishicha, yozuvchi kundaligi o'z ahamiyati jihatidan

⁴³ Раҳимжон Раҳмат. Бир ёруғлик излаймиз ҳамон. –Т: Академнашр“. 2010. –Б.3.

asarlardan-da qimmatliroq ekan. Kundalik, odatda, yozuvchi o'lganidan keyin nashr etilib, o'quvchilar qo'lga yetib boradi. Shu bois yozuvchi asari orqali yoki rasmiy minbarlarda aytishdan cho'chigan fikrlarini, shuningdek, o'zining o'ta shaxsiy iztiroblarini kundaligiga yozib qo'yaveradi. "Yolg'izlik" asari qaysidir jihati, balki bo'rtib turgan rostgo'yiligi bilan kundalikni eslatadi"⁴⁴. Jumladan, "Yolg'izlik" qissasi asar yozilgan davrda unchalik odamlar e'tiboriga tushmagan. O'tish davri deb atalgan 2000-yillar ostonasida O'zAS gazetasida yil davomida modernizm bizga kerakmi yoki yo'q nomli bahsli maqolalar, tanqidiy chiqishlar, davra suhbatlari bo'ladi. Bu suhbatlar, tanqidiy chiqishlarda O'zASning faol munaqqidlari jiddiy bahs-munozaralarni ilgari suradi. Haqiqatdan ham, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Shodiqul Hamrolar nasrdan, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Go'zal Begim, Farida Afro'z, Vafo Fayzulloh she'riyatdan chiqishlarini modernizmni tushunmaganlar yoki uni san'at asari deb qabul qilmaganlar bahs-munozaraning qizg'in tus olishiga, orada turgan muammolar, savollarning jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga oydinlik kiritilishiga zamin yaratib beradi.

Munozaralarda, professor Ozod Sharafiddinov "Modernizm jo'n hodisa emas"⁴⁵ nomli maqolasi bilan ishtirok etishi, badiiy adabiyotning ifoda usuli endilikda qanday kechishi haqidagi, Shukur Xolmirzayevning "Kechirasiz, Janob Karpenter, vaqtim ziqroq"⁴⁶, Qozoqboy Yo'ldoshevning "Tishing o'tmasa tosh chaynama"⁴⁷ kabi yirik maqolalari badiiy adabiyotga yangi bir oqimning kirib kelishi, uning mustahkam zaminga moslashishiga muayyan vaqtning zarurligi haqida fikrlarni yuzaga keltirdi. Nazariy-ilmiy bahs-munozaralarda mavjud voqelikning in'ikosi, olamni va odamni har tomonlama, mafkuradan xoli tarzda talqin qilish metodologiyasining kirib kelishi quvonarli hodisadir. Sobiq ittifoq davrida bunday san'at asarlarini kiritish man qilingan, badiiy adabiyot faqat kommunizm g'oyalarini targ'ib qilishi mumkin, degan soxta metodlar girdobida

⁴⁴ Ўша асар, -Б.4.

⁴⁵ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т: "Шарк". 2004. –Б.452.

⁴⁶ Холмирзаев Ш. Кечирасиз Жаноб Карпентер вақтим зикроқ // ЎзАС. 2000. №.25. –Б.3-6.

⁴⁷ Йўлдошев Қ. Тишинг ўтмаса тош чайнама // ЎзАС. 2004. №.8.

qolgan, senzura bayroqdorlari bir yoqlama fikrlovchi yozuvchilar armiyasini shakllantirib, shu yo'sinda insonning ma'naviy didini so'ndirishgacha olib kelgandi. Vaziyat shu qadar chigallashgandiki, badiiy asarda quruvchi ijobiy qahramon, dangasa odam salbiy qahramon sifatida tasvirlanar, kim qancha paxta tergani, loy suvagani bilan haqiqiy qahramon deya ulug'lanar, ularga qishloqning ovloq bir burchagida haykal ham o'rnatishar, ezgulik va qahramonlik ramzi sifatida boshqalarni ham shunga da'vat qilishardi. Buni ich-ichidan sezgan yozuvchi-ijodkor borki, tish-tirnog'i bilan botinida qarshi bo'lsa-da, siyosat sabab "jim yashash"ga majbur edi. Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida shunday tasvirlar borki, uni o'qigan o'quvchi yuqorida modernizmning jo'n hodisa emasligiga imon keltiradi:

"Hammasi o'sha kundan boshlandi. Ungacha hayotim osuda kechayotgandi: ishga borardim, ishdan qaytardim. Eng muhimi, meni oila, ish, tinchlik va farovonlikdan o'zga narsalar ko'p-da bezovta qilmasdi. Alalxusus, men dunyoviy ishlarimning muvaffaqiyatli chiqib, xursand etayotgan hisob-kitobi bilan band edim. Axir bular shunchaki raqamlar emas, balki mening jamiyatdagi o'rnim, bugunim va ertamning tamsilidirlar! Ularning ortiga moddiy dunyodagi hayotimning shakl-u shamoyili, rangi ro'yi yashiringan. Burchakda o'yinchoqlarini u yoqdan bu yoqqa sudrab, o'zini o'zi ovutib yurgan o'g'limga ahyon-ahyonda qichqirib gap qotaman, oshxonada uymalanayotgan xotinimga esa "Qorin po'stak bo'pketdi-yu!" deya, uni shoshiraman... Xullas, men hayotdan mast edim. Zero, kamina aqlli va salomat, kuchli va omadliman! Xushbichim shu ayol – umr yo'ldoshim, anavi o'zimga o'xshagan qarash, shukurkim, o'g'lim! Odamlar havas qiladigan ishim, chog'dekkina, yashasa bo'ladigan boshpanam bor. Xudoimga hazor hamdki, ota-onam tirik, aka-ukalarim o'zlariga tinch, tanish-bilishlardan qisgan emas. Xo'sh, tag'in nima kerak bir yigitga? Iqbol deganlari shunchalar bo'lar-da..."⁴⁸

Qissa muqaddimasida – qahramonning baxtli ekanligini his qilish mumkin. Savol tug'iladi: "Qaysi kun?" Bu kunning mohiyati nimadan iborat. Bir insonning

⁴⁸ Улуғбек Ҳамдам. Ёлғизлик. –Т: "Академнашр". 2010. –Б.7.

baxtli yashashi uchun berilgan ulug‘ kun nima o‘zi? Bu savollar o‘quvchini ham o‘ziga xos mushohada qilishga undaydi. Demak, qissa qahramonining ichida “qarsillab” singan “farog‘at”ning asl sababi – o‘g‘lining bevaqt vafot etishidir. Qissaning muqaddimasida bu haqda fikr yuritilmaydi. Asardagi qahramonlar do‘stining holidan xabar olib kelay deb, uyiga borsa, eshik ochilgan, har bir buyum har joyga sochilgan holda ko‘radi. Bu yerda ramziy ishoralar mavjud. Ramz shundayki, yozuvchi voqelikka juda katta masalani singdirib yuborishga harakat qiladi:

“O‘shanda men bir gurunglashib kelay deb, do‘stimning uyiga yo‘l oldim. Yetib kelib qo‘ng‘iroq tugmasini bosdim: sado chiqmadi. Yana bosdim: jimlik. Burilib ketmoqchi bo‘lganimda ichkaridan taraqlagan sas keldi, quloq tutdim: xiyol o‘tmay tovush takrorlandi. Ajabsinib eshikni itargandim, qulflanmagan ekan – ochildi-ketdi. Do‘stimning ismini tutib chaqirdim: javob bo‘lmadi, faqat yana nimadir taraqladi. Qiziqsinib ichkariga mo‘raladim. Uyda besaranjomlik hukmron: polda kitob, daftar va yozilgan-chizilgan turli xil qog‘ozlar sochilgan, hamma yoqqa erkag-u ayolning kiyimlari, bolalar o‘yinchoqlari tashlangan, o‘rindiqlar betartib qaqqaygan, stol ustida choynak, piyola, pichoq va non unutilgan, kunduz bo‘lishiga qaramay, chiroq yoqilgan edi... Shu payt haligi sas tag‘in e‘tiborimni o‘ziga tortdi. Bu – ochiq qolgan deraza qanotining shamolda u yoqdan bu yoqqa urilganda chiqqan tovush edi. Beixtiyor o‘sha tomonga yurdim. Oq, harir parda havoda o‘ynoqlab yuzimni silay boshladi. Tashqariga ko‘z soldim: daraxtzor, u ham o‘z harakatiga munosib ravishda yoqimli shovullardi. Negadir ich-ichimda nimadir bir seskanib tushdi...

Qaytib, o‘rindiqlardan biriga hafsalasizgina cho‘kkan ko‘yi ko‘zlarimni yumdim. Quloqlarim ostida faqat daraxtlarninggina shovullashi qoldi. Men uni uzoq vaqt tinglab o‘tirdim. So‘ng qaboqlarimni ochdim, engashib oyog‘im tagidagi daftarni oldim...”⁴⁹

Munaqqid Hotam Umurov yozishicha: “Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi – butun

⁴⁹ Ўша қисса: -Б.7-8.

borlig'ini namoyon etuvchi hodisa, vositadir"⁵⁰. Darhaqiqat, ushbu mulohazalarimizni Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasiga muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shuningdek, qissaning ekspozitsiyasida yozuvchi shu qadar mavhum bir ramzlarni ifodalaydiki, inson tasavvuri, tafakkuri yetmagan puchmoqlardan so'z ochguvchi voqelikni tanishtirishga jazm qiladi. Bu voqelik do'stining "Hammasi o'sha kundan boshlandi" ilk jumlasini bilan hayotiy mohiyat kasb etadi. Qissa haqida adabiyotshunos olimlar, faylasuflar, tadqiqotchilar turli xil mulohazalarni, ilmiy farazlarini bildirgan bo'lsalar-da, Ulug'bek Hamdamni sharq xalqlariga to'g'ri kelmaydigan ifodaviy usulni (ochiqlik) qo'llaganlikda ayblaganlar ham bo'ldi.

Umuman olganda, qissa badiiyatida uslub jilolari G'arb-u Sharq adabiy usullarini o'zida singdirgan, yangidan yangi talqin kriteriyalarini olib eksperiment sifatida baholashga tushgan qator yozuvchilar ham o'zlarining – nari borsa ko'ngillarini tarjima qilmoqdan baland ko'tarila olmadilar. Shuning uchun ham Jeyms Joys, Frans Kafka va Albert Kamyular ifoda shakllariga bot-bot murojaat qilib, ularning tasvir priyomlaridan maksimal darajada o'zlashtirish, (bu o'zlashtirish taqlid emas!) malakasini ham egalladilar. T.Rustamning "Kapalaklar o'yini" romanidagi ong osti hislar va zo'riqishlar qahramon intellektini sinovdan o'tkazishi, Shodiqul Hamroning "Suratdagi ayol" qissasida yangidan yangi talqin uslubining bir ayol botinida yashab kelayotgan dahshatli hayot manzarasida aks etishini ko'rganimizda, G'arb-u Sharq poetik uslubining nechog'li murakkabligini anglay boramiz.

"Modernistik oqimlarni dab-durustdan tushunib olish ham muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi. Modern hodisalari hamma vaqt ham san'at va adabiyot hodisalariga biz beradigan ta'riflarga to'g'ri kelavermaydi. Buning ustiga bizning san'at va adabiyotga qarashlarimizda juda katta bir nuqson bor: bizning nazariyamiz san'at va adabiyotdagi rang-baranglikni tan olmaydi. U imkon boricha, san'at va adabiyotning hamma tur va hamma xillariga mushtarak bo'lgan

⁵⁰ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. –Т.: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти", 2004. –Б. 284.

qonun-qoidalarini inkishof etishga harakat qiladi. Masalan, she'riyat ham, nasr ham badiiy adabiyotga kiradi. Lekin ayni chog'da ularning orasida osmon bilan yerchalik farq borligini ko'rmaslik mumkin emas. Roman, qissalar bobida o'ylab chiqarilgan qoidalarimiz lirika va poemaga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Xuddi shunga o'xshash, adabiyot, rassomchilik va muzika ham "san'at" degan tushuncha doirasiga kiradi. Biroq, shunga qaramay, ular insonning ruhiy faoliyatining turlari ekanligidan boshqa hech qanday mushtarak tomonlarga ega emas. Binobarin, rassomlik talqini bilan, muzika, adabiyot talqini o'zaro keskin farq qilishi kerak.

Men bu gaplarni shu ma'noda aytyapmanki, asosiy material rang va bo'yoq bo'lmish rassomlik sohasidagi izlanishlar, albatta, adabiyot sohasida ham aynan takrorlanishi mutlaqo shart emas. Masalan, abstraksionizmni olaylik. Abstraksionizm – mavhumlik degani. San'atkorlar hayotni hayot formasida aks ettirmog'i kerak, degan gapdan qochib, uni boshqacha tarzda ham aks ettirish mumkinligini isbotlash uchun mavhum tasvirlarga, ya'ni birinchi qarashda biror-bir hayotiy mazmunga ega bo'lmagan tasvirlarga keng o'rin bera boshladilar⁵¹. Mavhum tushunchalar zahirida tafakkur qilishga yetaklovchi qator fragmentlar joylashganki, inson fitratining hali anglanmagan tuyg'ulari borligini his etasiz. Mana shu jarayon – ramziy majoz bilan sug'orilsa, hayotning teranliklariga yanada kirib borish mumkin, degan xulosaga kelinadi.

Qissa badiiyatida uslublar sintezi va uyg'unligi: Ma'lumki, badiiy in'ikos birgina uslub bilan hal bo'ladigan ish emas. Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning uslubida aralashgan va alohida ajralib chiqqan uslublar sintezini ko'ramiz. Birinchidan, tanqidiy realizmning yuksak namunasi sifatida "Muvozanat", diniy-ilohiy kiritma hikoyatlar syujetda rang-baranglikni namoyish qilgan "Isyon va itoat", majoziy ishqning zamonaviy talqiniga bag'ishlangan "Sabo va Samandar", hayotning mantig'i yashash va uni qanday yashamoq zarurligi xususida ramziy shtrixlangan "Yo'l" romanlarida uslublarning xilma-xilligi "Yolg'izlik"dan o'sib chiqqan kayfiyat mahsuli desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki "Yolg'izlik" qissasida adib – Bobur, Kafka yoki Kamyu ijodidagi qalbning insonga ochiq-

⁵¹ Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас. // ЎзАС. 2002. №.22-23.

oshkor etilishi, o‘quvchi va yozuvchi orasidagi masofaning anchayin qisqarganini, ko‘ngilga yaqinlashishga izn berganligining tirik guvohi bo‘lamiz.

An’anaviy usul: ta’kidlash lozimki, qissada yozuvchining bosh qahramoni atrofida hamma voqelik aylanishi shart, qahramonlar yig‘lamasligi muhim, ijobiy kommunistik g‘oyalarni targ‘ib va tashviq qilishda qahramonlik ko‘rsatishi, orzularining faqat shodlikdan iborat bo‘lishi, milliy mentalitetga mos va xos ibo, hayo pardalariga o‘ranishi muhim degan ko‘nikmalarni 70 yil davomida ong-u tafakkuriga singdirib kelgan sovet mafkurasining yalovbardorlariga, albatta, bunday samimiy usulda, milliy adabiyotning ramziy shtrixlari aks etgan asarlar albatta, yoqmaydi.

Noan’anaviy usul: mana shu tamoyil qissa arxitektonikasidagi inson iztiroblarining, quvonch va shodliklarining, qayg‘ulari-yu, jamiyatdagi turli soha vakillarining botinida yashab kelayotgan – yolg‘izlik fragmenti xususida to‘laqonli tasavvur berishga undaydi. “Anglash qobiliyati odamni olamning sarvari darajasiga yuksaltiradi. Olam hodisalarini, o‘z fikr-u sezimlarini, o‘zgalarning o‘y-xayollarini anglash kishini Yaratganni anglash sari yetaklaydi. “Anglash so‘zi zamirida bilishdan tashqari tuyish holati ham mavjud. Shuning uchun inson hissiy-intellektual faoliyatining oliy ko‘rinishi bo‘lmish san’at hodisalariga tatbiqan ham anglash so‘zi ishlatiladi. Millatning hayot kechirish, fikrlash va sezimlar tarzida ro‘y berayotgan shiddatli o‘zgarishlar ruhiga moslashish uchun kishi o‘zini bir qadar zo‘riqtirishi lozim bo‘ladi. Fikr, zavq va didning yangilanishi badiiy ifoda tizimini ham to‘la o‘zgartirishni taqozo etadi. Adabiyotda o‘zgarishlarning davomiyligidan boshqa o‘zgarimas narsa yo‘q. Modern adabiyot inson didi va qarashlaridagi o‘zgarishlar ifodasi o‘laroq yuzaga keladi. Oldinlari muvaffaqiyatli hisoblangan adabiy shakl yoxud uslub o‘zlashtirib olinib, uning yangi imkoniyatlari o‘ylangan bo‘lsa, modernizmda oldin orttirilgan tajribalarni takrorlamaslik asosiy talabga aylanadi”⁵². Darhaqiqat, insoniyatning bosib o‘tgan uzun yo‘lida – koinotdagi ko‘ngil bilan bog‘liq, ruh va tafakkur bilan bog‘liq muammolar, san’at alaloqibatda o‘zgarishi, yo‘q bo‘lib ketishi va yangilanishi

⁵² Йўлдошев Қ. Ёنيқ сўз. –Т: “Янги аср авлоди”. 2006. –Б.151.

mumkinligi haqida soʻz borar ekan, birgina tafakkurning ifoda imkoniyatlarida juda katta siljishlar kuzatilishini unutmashimiz joiz. Shuni qayd etish lozimki, anglashning ogʻriqlari va iztiroblari millat dardi va tashvishlari bilan uzviylashib, yangidan yangi metamorfozalarning shakllanishiga olib keladi. Dunyo adabiyotidagi sanʼat (modernizm) XX asrning boshlarida mustahkam zamin hozirlagan boʻlsa, oradan 90 yil oʻtib bizning adabiyotimizda rosmiyaning kurtak ota boshladi. Olimlar bu haqda turli xil nazariy qarashlarni bildirishgan va haligacha bu muhokamalarga munosabat davom etayotir. Ulugʻbek Hamdamning “Yolgʻizlik” qissasida anglash iztirob va hayot hamda mamot ekanligini tasvirlardagi ochiqlik va oshkoralik, tanqidiy realizm va romantizm, sentimentalizm va ekzistensializmning qorishib ketgan original ifodasini koʻramiz. Bu ifoda usuli oʻzbek adabiyotida alohida bir yangilik boʻldi, desak, mubolagʻa qilmagan boʻlamiz:

“Boʻshliq...

Goʻyo gavjum bozor ichida bolasini yoʻqotib qoʻygan otadek atrofga alanglayman – oʻgʻlim yoʻq! Koʻzimga notanish, undanda battar – yetti yot begona basharalar tiqilar – siqilaman... Chor tomonga oʻzimni urib, tanish bir chehra qidiraman: BORMISAN? Koʻksimga panjalarimni sanchib, yuragimni sugʻuraman – ortingdan otaman – qutulaman!..

Bu – bir chuqur dard. Men uning domiga qulab tushaveraman, tushaveraman... Qoʻllarim panshaxa, nimagadir sanchilmoq istaydi – istayman! Nihoyat, u qalamni tanlaydi: yozaman, yozaveraman...

Koʻnglim vaqti-vaqti bilan meni xuddi oʻpqon kabi oʻz qaʼriga tortadi. Men ilonning joduli koʻzlari qarshisida serryib qolgan qurbaqadek harakatsiz qotaman. U esa meni yutaveradi, yutaveradi... Toʻgʻrisi, jarayon menga xush yoqadi. Baʼzan hatto koʻngilni tark etib, moddiy oʻlchovlar olamiga – tashqariga chiqqim kelmaydi. Lekin na iloj, tirikligim tirikchilik gʻamini yeyishimni taqozo qiladi. Chor-nochor, kayfsiz-u behol... koʻngilni qoldirib, koʻpchilik yelib-yugurib yurgan makonga – dunyoga qaytaman. Bu yerda esa men-da millionlab odamlarning biriga, hamma qatori tirikchilik quliga aylanaman. Hech kimdan

yaxshi ham, yomon ham emasman. Biroq aynan shunday bo'lish menga ba'zan juda ham og'ir botadi, hatto malol keladi. Qattiq iztirobga tushaman, parchalanaman, yemirilaman. Borlig'im jang maydoniga aylanib, unda ikki parcham – ikki Men – Ichki Men bilan Tashqi Men ayovsiz ravishda bir-biriga qilich soladi. Kim jarohatlansa-da, oqibatda azobini men chekaman, kim g'olib kelsa-da, mag'lub mendirman! “Yagona yo'limiz bor – kelishuv!”, deyman, nihoyat dod solib...”⁵³

Yozuvchining qahramonlari – ko'ngil kishilaridir. Yolg'izlik ihotasida yanchilgan, jamiyatning qattiq tartibotlaridan zada bo'lgan, erkinlik va ozodlik haqida chuqur qayg'urgan, millat va zamondoshlarining baxtli hayot kechirishini chin ko'ngildan istaydigan telba va faqirlik to'nini yelkasiga kiygan darveshlar, jiddiy hayot haqida bosh qotirishga odatlangan tadbirkorlar, millatning ertangi kunini o'ylab siqilayotgan tarixchi-faylasuflar sifatida namoyon bo'ladi. Bitta vujudning, ruhning murakkab, ko'p ovozliligi qissago'yning ham falsafiy-intellektual badiiy olamini belgilab bermoqda. Mana shu jihatdan olib qaralganda, “Yolg'izlik” qissasi inson iztiroblarini yangicha shaklda inkishof qilishga bel bog'lagan yangilanayotgan badiiy tafakkurning o'ziga xos namunasi, modernizm va psixoanalitika qorishib ketgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ulug'bek Hamdamning bir mantiq bag'rida o'nlab sohalarni singdirib, ifodalay olishi yangi uslubiy-shakliy metamorfozaning kirib kelganligidan dalolat beradi.

“Adabiyot biz ko'nikkan tushunchadagina iborat emas, albatta, uning missiyasi xiyla teran, shunchalarki, insonning asliy va eng asosiy, ichki ehtiyojlariga ajabtovur tarzda javob bera oladigandek tuyuladi menga. Chunonchi, qadimdan “Biz qaydan keldigu, keturmiz qayon?” (Umar Hayyom) degan savol fikrlovchi inson uchun savollarning savoli bo'lib kelgan. Bunga muqaddas kitoblarda javob aytilgan. Odatda, o'lmas bitiklarning javobi g'oyat umumiy tarzda bo'ladi. Fikr odami esa shu umumiylikni o'zining va o'zgalarning hayoti misolida konkretlashtirgisi, unga individual libos kiydirgisi, yaqindan tushungisi, his qilgisi keladi. Shu yerda adabiyot o'zining obrazlar olami va ramziy tabiati bilan unga

⁵³ Ўша асар: -Б.9.

yordamga bel bog‘laydi, nazarimda. Rumiylar hazratlari “Ichindagi ichindadir” asarida u dunyoni, ruhlarni olamini bu dunyo orqaligina, bu dunyodan olingan misollar vositasidagina tushuntirish mumkin, deydi”, – deb yozadi U.Hamdam adabiy suhbatlarining birida. Mana shu tamoyil “Yolg‘izlik” mohiyatida o‘z ifodasini topgan. Biz ko‘nikkan tushunchalar bugun adabiyot bo‘lmay, zamona zayli bilan o‘tmishning dolg‘ali va qaytib kelmas bag‘rida qoldi, qanchadan qancha asarlar o‘zining missiyasini bajara olmay, tarix sahnasidan supirilib yo‘qlik tomon ketdilar. Modernizm ramzlar, metaforalar va kodlarni uyg‘unlashtiribgina qolmay, falsafiy – intellektual idrok sarzanishlarini ham o‘zida jilvalantirish maqomiga ega bo‘ldi.

E’tibor qilgan kishiga bugungi o‘zbek modern adabiyotining 1) san’atning ijtimoiy xizmatdan uzoqlashayotganligi; 2) muayyan qoliplarga tushmaslikka intilayotgani; 3) badiiy yaratilarning faqat san’at asarigina ekani; 4) san’atga o‘yin (mahorat, o‘zgachalik, o‘ziga xoslik – originallik o‘yini) deb qarash mayli kuchayganligi; 5) kinoyaga moyillik ortganligi; 6) soxta ko‘tarinkilik va sun’iy chaqiriqlardan qochilayotgani; 7) ifodaning mukammalligiga intilish ortgani; 8) san’atning mafkuradan yiroq bo‘lishiga urinish kuchayganligi kabi tamoyillari borligi yaqqol seziladi. Shu xil tamoyillar butunjahon adabiy jarayoniga ham tegishli ekanini Ortega-i-Gasset alohida ta’kidlaydi. Shu o‘rinda, modern va an’anaviy yo‘nalishdagi asarlarni biri-biriga qarshi qo‘yish aqldan emasligini, milliy did yuksalgani sari u xilma-xillashib borajagini alohida ta’kidlash joizdir⁵⁴. San’atning ifoda turlari va uning o‘quvchi estetikasiga ruhiy ta’siri ham ranginlashdi. Endilikda birgina jumla yoki birgina voqelik asosida **drabll**⁵⁵ **hikoyalar** paydo bo‘ldi. Ularni badiiy matn tarzida talqin etish, yozuvchi nuqtayi nazari o‘sha mavjud ixcham voqelikni obrazli tarzda eng xarakterli jihatini ochib berishga qaratilgani bilan nihoyalanadi:

“Hammasini tushunib, hatto mazasini bilib turibman. Men go‘yo sahna asarini miriqib tomosha qilayotgan tomoshabinman. Qizig‘i shundaki, aktyor ham

⁵⁴ Йўлдошев К. Ёник сўз. –Т: “Янги аср авлоди”. 2006. –Б.169.

⁵⁵ Drabll – инглизча, қисқа ва ихчам.

o‘zimman. Shu bilan birga tomoshabin bo‘lib aktyor – A.ni kuzataman, aktyor bo‘lib esa tomoshabin A. nigohini shundoq borlig‘imda his qilaman. Men senga achinganim kabi o‘zimga ham xo‘rligim keladi, ey Do‘st! Qani endi qo‘limdan kelsa-yu seni ozod etganimdek o‘zimni-da bu sharmandalikdan xalos qilsam! Axir, men o‘zimni o‘zim, ya’ni o‘zligimni qanchalar sog‘inganimni bilsang edi. Nahotki, o‘zi bilan o‘zi bo‘lishni istashlik Xudoga yoqmasa? Axir, Xudoning O‘zi mendan ayro emas-ku! To‘g‘rirog‘i, men Undan alohida emasman. Balki meni sog‘intirgan qismim Xudodan bir parchadir... Nima bo‘lgandayam, qiynalib ketdim, ko‘ksimdagi yuragim go‘yo qonga qo‘shilib butun vujudim bo‘ylab nimaningdir qasdida kezib yurgandek...”⁵⁶

Ulug‘bek Hamdam “Yolg‘izlik” qissasida bosh qahramon (balki adibning o‘zidir) tiynatidagi o‘zgarishlarni qahramon – jamiyat; qahramon – oila; qahramon – men shaklida talqin qilishi o‘quvchida hech qanday savol tug‘dirmasligi mumkin, ammo nega yolg‘izlik chohida qulab tushishini bot-bot takrorlayveradi. Buning asl sababi nimalarda ko‘rinadi? Tugal baxtga erishgan inson bormi bu dunyoda? Tugal baxtning iztiroblarini o‘zida aks ettirgan xarakter qaysi mantiq asosida kun kechiradi. Aristotel zamonidan oltin qoida “Badiiy uslubning rang-barangligi” davr yaratgan ehtiyojga bo‘lgan munosabat tig‘izligini dalolatlaydi. Shuning uchun ham, badiiy asarning qiymati matn transformatsiyasidagi shartlilik bilan ham belgilanadi.

“Badiiy asardagi hissiylik bevosita tabiiy predmetlardan farq qilib, mushohada yo‘li bilan sof ko‘rinishni hosil qiladi, shuning uchun badiiy asar bevosita hissiylik bilan ideallikdan iborat bo‘lgan fikrning oralig‘ida turadi. U sof fikr bo‘lmasa-da, o‘zining hissiy holatiga zid o‘laroq endi quruq moddiy borliq sifatida tosh, o‘simlik va jonli organizmlar singari ko‘zga tashlanmaydi. Badiiy asardagi hissiylik mohiyatan ideallikka taalluqli bo‘lsa-da, biroq bu ideallik, ayni paytda, ilmiy fikrdan farq qilib turuvchi narsalar shaklida ham gavdalanishi mumkin”⁵⁷. Ko‘rinadiki, Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasidan o‘sib

⁵⁶ Ўша асар, -Б.12.

⁵⁷ Гегель. Эстетика.// Шарк юлдузи. 2014. №1-2 сонлар.

chiqqan “Muvozanat”dagi – Yusuf, “Isyon va itoat”dagi – Akbar; “Sabo va Samandar”dagi – Samandar; romanlari qahramonlari qaysidir ma’noda yozuvchining o’zi ekanligini, bosh qahramon atrofida uyg’unlashgan voqelik qissada ramziy-metaforik yo’sinda inkishof etilganining shohidi bo’lib turibmiz. Mana shu tamoyil joriy o’zbek noan’anaviy qissalar poetikasida uslubiy-shakliy izlanishlarning davomi ekanligini taqozolaydi. Zero, insoniyat yangi bir asrga qadam qo’ygan ekan, uning ijtimoiy-ma’naviy miqyoslari ham zamonga qarab, turlanib-tuslanib va yangilanib, sayqallanib borishi shubhasizdir.

Bob bo’yicha xulosa

Qissa janri genezisi va rivojlanish, shakllanish tendensiyalari haqida olib borgan nazariy-ilmiy mulohazalarimizni umumlashtirib quyidagi xulosaga keldik:

1. Qissi janri epik turning o’rta janri bo’lgani uchun, unda roman miqyoslari kabi keng ko’lamlilik va falsafiy teranlik chuqur bo’lmasligi mumkin, lekin uning ifoda imkoniyatlarida romandan aslo kam bo’lmagan jihatlari bugungi kun adabiyotshunosligida sinalgan hodisaligini e’tirof etish joiz. Chunonchi, qissaning poetik konstruksiyasida ham shakl, ham mazmun, ham uslub birligi uyg’unlashadi. An’anadan – noan’anaga o’tish tamoyillari o’tgan asrning to’qsoninchi yillarida ro’y bergan bo’lsa, mavjud hayotning aqidalari shunga monand rivojlanishga yuz tutgandi. Ayniqsa, G’arb-u Sharq poetik tafakkurining sintezi ekzistensializm namoyandalarining asarlari ta’siri anchayin sezilarli darajada bo’y ko’rsatganligini ko’ramiz. Demak, ilk qissa Qur’oni Karimda aks etgan bo’lsa, keyinchalik qariyb ming yillik adabiy hayot manzaralarida shakldan – shaklga qarab sayqallanib, taraqqiy qilib keldi.

2. Qissada an’anaviylikdan – noan’anaga o’tish jarayoni XX asrdagi 2 ta jahon urushining bo’lishi, turli sohalarning modernizatsiyalashuviga olib keldi. Qissada ramzlar, metaforalar, shtrixlar va modernistik unsurlarning uyg’un holda kelishi, qahramon xarakterini anglatish vositalarining murakkablashuvi, falsafiy-psixologik usulning singdirilishi bilan bog’liq jarayon ekanligini unutmazlik lozim. Shu ma’noda, qissa arxitektonikasi hayot haqiqati va badiiy haqiqatni ramzlar

yordamida anglatishning bir vositasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ulug‘bek Hamdam, Nazar Eshonqulning qissalarida – tun va yolg‘izlik obrazlari negizida hayotning, millatning, jamiyatning joriy qiyofasi, hayvoniy lashuv jarayonida inson maylining aks etishini ko‘rishimiz lozim. Mavjud qoliplarga sig‘magan inson ruhiyati, ramzlarda qisqa va lo‘nda tarzda inkishof qilinishi shubhasizdir.

3. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam qahramon ruhiyatini tahlil qilar ekan, har bir personaj o‘zligini o‘zi orqali tahlil va talqin etishga intiladi, yashashdan maqsad va ma‘no qidiradi, Alloh tomonidan buyurilgan farz va amallarni ikki dunyo mezonidan kelib chiqib baholaydi va baholi qudrat amal qiladi. Ezgulikni yoqlaydi, nafs va yovuzlikni qoralaydi. Natijada romanda psixologik, falsafiy va ilohiy tushunchalar badiiy uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

4. Ijtimoiy-psixologik vaziyat, yozuvchi ma‘naviy olamidagi tebranishlar, milliy-adabiy an‘analar va jahon adabiyoti tajribalariga hamohanglik (J.Joys, A.Kamyu, F.Kafka) qissalar poetikasida “o‘tish davri” sinovlarining zamondosh inson ruhiyati silsilalarining psixologik aks ettirilishi yozuvchi mahorati va epik ko‘lamdorligining bir belgisi ekanligi namoyon bo‘ladi.

II BOB. NOAN'ANAVIY QISSALARDA SYUJET VA KOMPOZITSION YAXLITLIK SINTEZI

2.1.§. Syujetga xos unsurlarning qissa poetikasida tutgan o'рни

Ayonki, urib turgan yuragimizdan, olayotgan nafasimizdan, ko'rayotgan borliq olamidagi har qanday jonli va jonsiz unsurlarning umumiy bir tarzda, ya'ni muvozanatda marom bilan harakatini – Olamning qalbi, yagona Parvardigorning iznisiz sodir bo'lmasligini tushunib borganimiz sari mukammal sirlar ochila boradi. Daryolar, ko'llar va tog'larning uzviy aloqasi, suvlarning bug'lanishi, yomg'irlarga aylanib, yerga tushish vaqtigacha barchasi Oliy Nizom qonuniyati sababli yuzaga chiqadi. Ana shu tartib va intizom butun olamdagi, sayyoralarda o'rtasidagi tenglik va ularning izchil harakati muayyan biz bilmagan qonuniyat asosida yuzaga chiqadi. Bu qudratli kuch sohibi Alloh taolo ekanining va uning har bir tirik jonga baxsh etgan mavjudlik falsafasi, ilmi va aql xususiyatining natijasi deb qarash o'rinlidir. Negaki, hayot davom etar ekan, insonning tug'ilishidan ellik ming yil oldin peshona yozug'i – taqdiri bitilishini unutmaslik shart! Taqdir har bir yaratilgan bu dunyoda yashab o'tish va qanday yashash muhimligini taqozolaydi.

Qur'oni Karimda zikr qilingan ko'pgina oyatlarda borliq va uning harakati – o'lchovi xususida mufassal bilimlarga ishora qilingan. Jumladan: "Fotihada amr etilgan "olamlarning Rabbiga hamd" siri, bu oyatda ochilib ketgan, ya'ni olamlar bir tomondan faqat yer, osmonlar va ularning oralaridagi borliqlardangina iborat emas. Olamlar atamasi bilan aloqador bo'lgan, masalan, cheksiz yo'nalishlar va bular bilan bog'liq makonlar bor. Cheksiz yo'nalishlar, Rabb sifatining siri bilan o'zlari bunyod etgan makonlarga, olamlarga, ya'ni koinotlarga cheksizlik ato etadilar. Bu cheksizlik osmon, yer va ular orasidagilarning naryog'ida boshqa olam borligining ramzidir."⁵⁸ Darhaqiqat, "Fotiha" surasidagi olamlarning egasi Rabbimizni hamd etish orqali – ochqich, ya'ni kalit bilan mulohaza qilinsa ko'pgina sirlardan voqif bo'lishimiz mumkin. Buni keltirishdan maqsad shuki, badiiy tafakkur ruhiyat va falsafa, bilish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lganligi bois,

⁵⁸ <https://www.islamonline.uz/site/item?id=4384>

yozuvchi voqelikni o'z quvvayi hofizasi bilan noma'lumlikdan – ma'lum olamga olib chiqadi. Voqelik o'z-o'zidan bino bo'lmaganidek, tuzish uchun g'oyalar uyg'unligi va konstruksiyasi zarur bo'ladi.

Syujetning yuzaga chiqish omillari va usullari. Dunyo adabiyotida ilk antik davrlardan buyon fabula va syujet, uning yuzaga chiqish sabab va oqibatlarini idrok etishda ko'pincha yunon faylasufi Arastuning "Poetika"sigaya tayanib ish tutadilar. Turlar va janrlarga doir deyarli ko'pchilik tadqiqotlarda syujetning usul va yo'sinlari bir-biridan tamomila farq qilmaydi. Chunki mohiyat aylanib, o'sha Arastu qarashlariga borib tutashadi. Poetik talqinning A nuqtasidan B nuqtasigacha bo'lgan oraliqda voqelik o'ziga manzur sifat va shakllarni uyg'unlashtira boradi. Chunonchi, mana shu uyg'unlik oralig'ida muayyan tartib borki, uni kompozitsiya o'ziga qamrab oladi. Bu haqda Arastuning qarashlaridan kelib chiqqan holda mulohazalarimizni bayon qilib boramiz. Professor Y.Solijonov qayd etishicha: "Detal syujetni harakatga keltiruvchi motor hisoblanadi. Xarakterning o'ziga xosligi ham, qahramonning ichki olami ham, tashqi qiyofasi ham, voqealar rivoji ham, fikrning tiniqligi ham, syujetning taranglik kasb etishi ham – barchasi ana shu detallar orqali amalga oshadi hamda ta'sirchan va ishonarli chiqadi. Buni yaxshi tushungan har qanday san'atkor asarida voqealarni detallashtirib bayon qilishga alohida e'tibor beradi"⁵⁹. Darhaqiqat, mana shu jihat Nazar Eshonqulning hikoya va qissalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning har bir detalga alohida mantiq va shakl yuklashi o'ziga xos uslubiy manerasi tiniqlashuvidan shahodat beradi.

"Asar voqeasi – fabulalarning ayrimlari oddiy, boshqalari esa o'zaro chirmashib ketgan bo'ladi. Chunki rivoyatlarda aks etgan voqealar ham xuddi shundaydir. Men, shunday to'xtovsiz va yagona voqeani sodda deb aytamanki, unday voqea davomida (yuqorida aytilganidek) taqdir o'zgarishi keskin burilishsiz va to'satdan anglashsiz sodir bo'ladi, chirmashgan fabulada esa voqealar keskin burilish va to'satdan anglash yoki ularning har ikkisi vositasida sodir bo'ladi. Buning hammasi voqea mantig'idan, avvalgi voqeaning zaruriyat yo ehtimollik asosidagi davomi tarzida kelib chiqishi kerak. Chunki biron narsa sababli boshqa

⁵⁹ Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Ўзбек адабий танқиди. –Т.: "Турон-икбол". 2011. –Б.207.

narsaning kelib chiqishi bilan bir narsadan keyin boshqa narsaning yuz berishi o'rtasida katta farq bor"⁶⁰. Binobarin, Arastu syujetni umumiy nom bilan fabula tarzida qo'llaydi. Rivoyat timsolida yuzaga chiqishning sabab va oqibatlariga mantiqiy urg'u berarkan, an'anaviy qissalar negizida talqin qiladigan bo'lsak, qahramon muayyan ijtimoiy-estetik vazifani bajarish uchun maydonga, yo'lga o'tlanadi. U oldidagi mashaqqatlarni birma-bir yengib o'tadi. Qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritilgan maqsad o'lim va yashash bilan davom etishi mumkin. Visol sari talpingan oshiqning oldidan minglab to'siqlar chiqarkan, buni yozuvchi o'z ixtiyoridan tashqarida deb biladi. Yozuvchi qahramonning asar voqeligiga aralashishga haqqi bo'lmay, u o'zining xatti-harakati bilan yo baxtli, yo baxtsiz, yo boy, yo kambag'al bo'lib namoyon bo'ladi.

Yozuvchi noan'anaviy qissalarda qanday yo'l tutadi degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiy, albatta! ramzlar, metaforalar, shtrixlar, kodlar, imo-ishoralarning negizida yozuvchi aytmoqchi bo'lgan muhim gap (g'oya)ning fabula, syujetga evrilish modifikatsiyasi qanchalik mukammal aks etgan? Mana shu savollar tegrasida nazariy-ilmiy qarashlarimiz, mulohazalarimiz o'z-o'zicha ayonlashib boradi. Borliqdagi narsa va hodisalar, jonli va jonsiz unsurlarning barchasi muayyan vazifani bajarish uchun yaratiladi. Bu yaratilqlar tartiblanishi Oliy Nizom qonuniyati evaziga ro'y beradi. Badiiy asarda esa g'oya, mazmun, shakl, uslub hamda kompozitsion uyg'unlik natijasida yozuvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishi haq gap. Deylik, G'arb adabiy-badiiy tafakkurida bu hodisa shunday dalolatlanadi. Yozuvchilik tajribasidan kelib chiqib, Mixail Psell (1018-1079) o'z fikrlarini obrazli ifodalashga, turli tamsillar orqali yorqinroq tushuntirishga intiladi. Masalan, quruvchi bir nechta xodani ajratib olganining o'zi uyning go'zal bo'lishi uchun kifoya deb o'ylamaganidek, notiq (yozuvchi) ham so'z tanlashning o'zi kifoya deb o'ylamasligi kerak, deydi. Yoki boshqa bir maktubida jumlada so'zlarni joylashtirish haqida so'zlarkan, buni zargar (bezakchi) ishiga qiyoslaydi: zargar ixtiyoridagi turli hajm, kattalik, shaffoflikdagi toshlarni did bilan joylashtirishi lozim, shundagina bu toshlarning bari o'z

⁶⁰ Арасту. Поэтика. –Т: “Янги аср авлоди”. 2018. –Б.36.

imkoniyatini namoyon qila oladi – uyg‘unlikda yaxlit bir go‘zallik hosil qiladi. Aks holda, agar bu toshlar didsiz, betartib joylashtirilsa, ular yakka holicha ega bo‘lgan go‘zalligi va qimmatini ham namoyon etolmaydi. Shunga monand, so‘zlarni did bilan joylashtirish san’atidan mosuvo bo‘lsa, notiq (yozuvchi)ning chiroyli so‘zlar izlashidan naf kamdir⁶¹. Faylasuf yozuvchi M.Psellning qiyoslashlari qariyb ming yillik adabiy tafakkurdagi olg‘a siljishlarga ta’sir etgani sir emas. Chunki faylasuf so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va matnda o‘z o‘rnida ishlashtirishga keng imkoniyat yaratib ish tutish lozimligini nazarda tutmoqda. Shu munosabat bilan qaralganda o‘lchovni kengroq olish muhim. Ramzlar va metaforalar orqali yuzaga chiqayotgan noan’anaviy voqelik alaloqibatda tafakkur bilan uyg‘unlashib borishi tabiiy. Yozuvchi ilk jumlasining tuzilishidan to oxirgi xotimaga qadar bosib o‘tilgan yo‘lni ana shunday idrok mahsuli deb tushunish lozim.

Adabiyotshunoslik atamaları lug‘atida syujetga quyidagicha baho beriladi: “Syujet personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir. Shu harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab syujetning ikki tipi ajratiladi: a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan syujet; b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan syujet. Birinchi tipdagi syujetlarda personajlarning biror maqsad yo‘lidagi xatti-harakatlari kurashi, to‘qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi va shu asosda ularning taqdiri, ijtimoiy mavqeyida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Bu nav syujetlarda voqea to‘laqonli tasvirlanadi va o‘z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Ikkinchi tipda voqealar o‘z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etib, asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatida burilishlar, o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu tip syujetlar adabiyotimizda ancha keyin, XX asrning 80-yillaridan paydo bo‘lib, hozircha nasrning kichik va o‘rta (mas., A.Azam, “Bu kunning davomi”, “Asqartog‘ tomonlarda” shakllarida, shuningdek, bir qator dramatik (mas.

⁶¹ Куронов Д., Рахмонов Б. Фарб адабий-танкидий тафақури очерклари. –Т: “Фан”. 2008. –Б.32-33.

Sh.Boshbekov. “Taqdir eshigi”, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi”) asarlarda sinab ko‘rildi”.⁶² Haqiqatdan ham, janriy-kompozitsion nuqtayi nazaridan syujetlar an‘ana yoki noan‘anaviy bo‘ladimi, voqelikning yuzaga chiqish omillari bilan bevosita uyg‘unlashuvi lozim. Ana shundagina yozuvchi maqsad va vazifalari ham muayyan darajada sababdan – oqibatga qarab siljiydi. Ilk jumladan boshlab xotimaga qadar aks etuvchi unsurlar dinamikasida yagona estetik markazga kelib tutashadi.

Nazar Eshonqul noan‘anaviy qissalarining yuzaga kelish sabab va oqibatlarini, ramzlar, metaforalar salmog‘ini G‘arb adabiy-badiiy tafakkuridan benihoya huzurlanish natijasi deb qarash muhim. Chunki Frans Kafka butun olamni mukammal tarzda ko‘rmoqchi bo‘ldi. Boshqalarni ham shunga intilsin deb, qo‘liga qalam oldi. Yosh bo‘lishiga qaramay, olam jumboqlariga ramzlar orqali javob izladi. O‘zining badiiy va benihoya kuchli tafakkur sarhadlaridan turib baho berdi. Nazar Eshonqul ham turkiy xalqlar mafkurasi, ildizlari, falsafasi, madaniyati hamda tarixi timsolida o‘ziga xos yondashuvlarni belgilab oldi. Shunday qilib, Frans Kafkadan boshqacharoq usulda milliy noan‘anaviy qissa janrining yuzaga kelishiga tamal toshini qo‘ydi.

Professor M.Xolbekov shunday yozadi: “O‘z ijodi orqali Kafka “ichki hayotni faqat boshdan kechirish mumkin, uni tasvirlash yoki muxtasar bayon qilib berish mumkin emas”ligini yaxshi bila turib, “dunyoni pokizalikka, haqiqatlikka va metindek mustahkamlikka ko‘tarmoqchi edi”. Uning azob-uqubatlari “osmon va yer, abadiy va o‘tkinchi, Parvardigorning mutlaq mukammalligi (begunohligi) va u yaratgan Odamzodning mukammal emasligi (gunohga botganligi) o‘rtasidagi murosasiz ziddiyatlardan xuruj tortadi. Unisi ham, bunisi ham – bir-biriga ulanmagan tomirlar, bir-biri bilan aloqasi yo‘q tushunchalar, biri-biriga qovushmaydigan va bir-birini muvozanatda tuta olmovchi holatlardir. Yerda qurt-qumursqaga o‘xshab sudralib yurgan odamlarning ham, osmon-u falakda parvoz qiluvchi farishtalarning ham intilish va orzu-umidlarini jilovlab turadigan ulkan kuch mavjud. Kafka esa “haqiqatga barmoq uchi bilangina teginib ko‘rish”dan

⁶² Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “Академнашр”. 2013.- Б.289.

qanoat hosil qilishni aslo xohlamas edi. U butun haqiqatni, achchiq bo‘lsayam, g‘am-hasratga to‘la bo‘lsayam, baxt-saodatga yetaklamasayam, oxirgi qatrasigacha bilishni xohlardi. “Tuzoqlar qo‘yilgan zaminga ko‘zga qaramay qadam bosishdan xavfsiragan” Kafka, ikki olamni ajratib turuvchi chegarada muallaq holda to‘xtab qolgandek ko‘rinadi. Bir qo‘li bilan taqdiriga bitilgan umidsizlik, azob-uqubat hamlasini qaytarib tursa, ikkinchi qo‘li bilan hayotida ro‘y bergan barcha g‘am va hasratga to‘la voqealar bayonini yozib borardi. U yon-atrofidagi odamlarni ko‘rganidan, boshidan o‘tkazganlaridan ko‘ra ko‘proq o‘zi ko‘rgan va tushungan “obyektiv voqelik”ni tasvirlashga intilardi. Obyektiv voqelikka esa u o‘zgacha munosabatga bo‘lgan, nihoyatda sinchkovlik bilan unda kechayotgan jarayonlarni kuzatgan, miridan sirigacha o‘rgangan”⁶³. Haqiqatdan ham, Frans Kafkaning shaxsiy hayotdagi omadsizliklari unga ruhiy muvozanat sari dadil qadam tashlash tajribasini o‘rgatdi. Ota-onasining o‘rinsiz tanbehlari, do‘stlarining xiyonati, ko‘chishlar, yo‘qchilik va ta‘qiblar Frans Kafka shaxsining yanada mukammallashuviga, yangidan yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Frans Kafka qissa-yu novella, romanlar-u esselarida syujetning “ichki harakat dinamikasi”ga asoslangan syujetdan unumli istifoda etganligini e’tirof etish lozim. Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasidagi obrazlar silsilasi va syujet unsurlari xususida mulohaza yuritganimizda, ayniqsa, syujetning “*ichki harakat*” dinamikasiga oid ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qissa prologi va ilk jumla modifikatsiyasi. Badiiy asarning muqaddimasida yozuvchi qahramon tilidan – qissa modusini shu qadar tiniq belgilab olganki, Allohning besabab insonni jazoga muztarig‘ etmaganligini, Qur’oni Karimda shaytonning malayiga aylangan inson qiyofasining tiniqlashgan ko‘rinishini anglaysiz. Buning natijasida inson bu dunyoda mavjudligini anglab yetadi. Shaytonning vasvasasi va o‘zining egri yo‘lda ekanligini chuqur tushunadi. XX asrning ham, oldingi asr adabiyotlarining ham – barchasida nafs tarbiyasi haqida so‘z bormaganmidi? Navoiy, Bobur va Mashrab, Ogahiylar nafsning darajalari hamda insoniyatni yo‘ldan ozdiruvchi Iblis ekanligini she’riy shakllarda

⁶³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-xx-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-07.html>

bitmaganmidi? Oriylar rost mulohaza yuritarkan, N.Eshonqulning “Qora kitob” qissasida Frans Kafkaning badiiy izlanishlaridan muayyan darajada ilhomlanish hamda olam va odam taqdirini anglatish metamorfozasi yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“Birodar, yaxshi odam bo‘lsangiz kerak, ko‘zlaringiz aytib turibdi. Siz ham bu charxi dunyoning ko‘p nadomatlarini boshdan kechirganga o‘xshaysiz. Negadir siz bilan juda suhbatlashgim kelyapti, to‘g‘risini aytsam, hozir kimgadir ko‘nglimni bo‘shatmasam, “tars” yorilib ketadigandayman. Ichganga o‘xshaysiz deysizmi? Nega sekin aytasiz, baqirib ayting. Ichganman, to‘yib ichganman, besh yildan beri to‘yib ichaman. Buni yuzimga qarasangiz, darrov sezasiz. Kuygan charm deysiz. Yuzim emas, yuragim kuyib ketgan, kuygan kovushga o‘xshab qolgan. O‘zim ham misoli g‘ijimlab tashlangan qog‘ozman. Hayot meni g‘ijimlab tashladi, birodar. G‘ijimlab-g‘ijimlab, so‘ng mana shu xiyobonga otib yubordi. Ko‘nglim kuyganidan ichaman, hayotim nest-u zabun bo‘lganidan ichaman. Qo‘llaringa qarang, kimning qo‘llariga o‘xshaydi? Ziyoli odamning deysizmi? Topolmadingiz, birodar, qotilning qo‘liga o‘xshaydi. Bu qo‘llar qotil qo‘llar, o‘z farzandini bo‘g‘ib o‘ldirgan qo‘ldir. Nega yuzingiz oqarib ketdi, qo‘rqib ketdingizmi? Aftidan, tagli-tugli odam bo‘lsangiz kerak, keling, sizga taqsirim deb murojaat qilay. Olis zamonlarda yaxshi odamlar bir-birlariga taqsir deb muomala qilisharkan. Sizga yoqdimi? Xursandman. Shunday, taqsir, bu qotil qo‘llar. Sizga mana shu qotillik haqida gapirib bermoqchi edim. Bo‘shman deysizmi? Juda yaxshi. Hayot, sizga aytsam, taqsirim, tavqi-la‘nat to‘shagidir. Momohavo bilan Odam atoning gunohi nimada bilasizmi? Olma o‘g‘irlaganlikda? Bilmabsiz, taqsirim, ikkalasining aybi shundaki, ular yer yuzida gunohkorlar, tavqi-la‘natga uchraganlar naslini paydo qildi. Mana shu ularning katta gunohi. Odamzodni yaratmaslik kerak edi. Parvardigor odam bilan birga gunohni ham yer yuziga ekib qo‘ydi”⁶⁴.

Qissa muqaddimasida syujetning “ichki harakat dinamikasi”ga asoslangan tipi yuzaga chiqadiki, qahramonning o‘y-xayollari, xotirasidagi, hayotidagi muhim burilishlar, evrilishlar, topishlar-u yo‘qotishlari, mayxo‘rlikka zimdan berilishi

⁶⁴ Назар Эшонқул. Сайланма. 2-жилдлик. –Т: “Академнашр”. 2022. –Б.513-514.

oqibatida mislsiz xatolari yuzaga chiqadi. Bu xatolar insoniyatning tarixi bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, ro‘parasidagi o‘quvchiga murojaat qilarkan, tinglovchini ham ta’riflab o‘tadi. Yer yuzidagi sonsiz gunohlarni qilib, aysh-ishratda umr kechirayotgan, birovning haqidan hayiqmaydigan badnafslar olamining suratini tomosha qilgandek bo‘lasiz. Chunki nafs har qanday masalada o‘z ishini qilib, dallollik va olib-sotarlik evaziga kun ko‘ruvchilarni ham ayovsiz savalab o‘tadi. Oddiy insonlar boshiga tushgan kulfatlarning asl egalari katta-katta amaldorlar, nafsini yegan muttahamlar, zolimlar, amalfurush va Allohdan qo‘rqmaslar, dili-tili boshqa shaytonsifatlar deya talqin etilmoqda. *“Hayot meni g‘ajib tashladi, birodar. G‘ijimlab-g‘ijimlab so‘ng mana shu xiyobonga otib yubordi”* jumlasining o‘ziyoq, qahramonning butun hayoti, umri muttahamlar qo‘lida o‘tganligini dalolatlaydi.

Prolog voqelikning izchilligini ta’minlaydigan syujet qismlaridan biridir. Prolog adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Prologlar mazmun-mundarijasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmuni muxtasar bayon etish, asar sababini izohlash, asosiy voqealarning qisqa bayoni va h. Shunga ko‘ra prologlar turli badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qiladi: o‘quvchini asar voqeligiga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emotsional-hissiy holat hosil qilish va h. Har qanday muqaddima emas, faqat badiiy muqaddimagina prolog sanalishi mumkin. Ya’ni prolog sanalishi uchun muqaddima badiiy matnning uzviy qismi bo‘lib qolishi zarur, asosiy matn – yondosh matn munosabatida turgan so‘zboshilarni prolog sanash to‘g‘ri emas. Masalan, “O‘tkan kunlar”ning “Yozg‘uvchidan” deb nomlangan kirish qismi asosiy matnning uzviy qismi bo‘lmay, balki yondosh matndir. Cho‘lponning “Kecha” romani boshlanishidagi mo‘jazzina bahor tasviri esa matnning uzviy bo‘lagi. Shu ma’noda, “O‘tkan kunlar”da muallif ijodiy niyati izhor etilgan alohida so‘zboshi, “Kecha”da esa o‘quvchini tasvirlanajak voqealarni qabul qilishga emotsional jihatdan

tayyorlashga qaratilgan lirik xarakterdagi prolog mavjuddir”⁶⁵. Darhaqiqat, D.Quronov talqin qilayotgan nazariy mulohazalar o‘rinlidir. Ko‘pchilik hollarda prologni yozuvchining o‘z nuqtayi nazari, asari haqidagi qarashlari deb chalkash tushunadiganlar, tahlil qiladiganlar ham uchraydi. Bunday idroklash ishonchni oqlamaydi. Ilmiy xatolarni keltirib chiqaradi. N.Eshonqulning “Qora kitob” qissasida qahramon ruhiyatidagi evrilishlarning asl sababi – ta’qiq mevani yeb, yer yuziga tavqi la’natni olgan Odamning qilmish-qidirmishlari emas, o‘zligini vayron qilgan inson o‘zganini idroklashga keng yo‘l ochmoqda. O‘zligini anglash har bir bani odamning go‘zal ishi bo‘lmog‘i kerak degan ishora mavjud, aslida. Odam qachon xato qiladi? Qachon gunohlardan, xiyonatlardan forig‘ bir ahvolda umr kechiradi? Bugungi kun odami sabrsizligi va badnafsligi, o‘zidan o‘zgalarni tan olmasligi, ayniqsa, ziyoli qatlamning olomonga aylanishi evrilish nuqtayi nazaridan g‘oyat achinarli ahvolga kelganligini ko‘rsatadi.

Siyosiy elitaning qurboniga aylanish ham qissa qahramonining bosh prologdagi kayfiyatini dalolatlaydi. Chunki jamiyat undan maksimal darajada foydalanib bo‘ldi. Endi uning (piyonista) hech kimga keragi yo‘q. Mana shu yerda qissaning sababdan – oqibatga o‘tish modusi qabarib ko‘rinadi. E’tibor bering: men g‘ijimlangan qog‘oz (axlat)man demoqda. Yuzimning kuygan charmdan mutlaqo farqi yo‘q, uni shu ko‘yga solgan jamiyat – kishanlangan qo‘lim yo‘rig‘ini boshqargan mafkura, – deb tushunadi. Ikkita parallel ramz bor. Birinchisi, Jannatdan badar ketgan Odam Ato va Momo Havo, ikkinchisi esa, siyosiy elita, mavjud tuzum qurboniga aylangan qahramon tiynati. Mana shu diqqattalab o‘rinlar qissa prologini teran tushunib olib, keyingi voqealar rivojiga o‘tishni taqozo etadi.

“Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi va “O‘lik mavsum” hikoyasi mohiyatan, bir-birining davomiday, har ikki asarda ham insoniyat muayyan g‘oyalar izmiga tushib qolishi va uning insoniyat qismatidagi so‘ngsiz azoblari fosh etiladi. “Qora kitob”da g‘oya qurboniga aylangan oila tarixi orqali fojia keng va atroflicha yoritilsa, “O‘lik mavsum”da voqelik sirlilik kasb etadi. “Qora kitob”dagi ziyolining farzandlari cho‘qqi soqolga o‘xshashga, undan andoza

⁶⁵ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “Академнашр”, 2013.- Б.236.

olishga harakat qilsa, “O‘lik mavsum”da ham shunday hol kuzatiladi”⁶⁶, –deya yozadi professor X.Hamroqulova. Binobarin, X.Hamroqulovaning mazkur mulohazalarida jon bor. Chunki Nazar Eshonqulning juda ko‘pchilik asarlarida SHAXSning Shayton izmidan chiqish va undan xalos bo‘lishga intilish modusi kuchli. Shaytonning va nafsning itdek ergashishi SHAXSning butun bo‘lib, Biru Borning itoatida umr kechirishga astoydil ichki ehtiyoj, xohish samarasi o‘laroq qadam tashlashi ramzlar va talqinlarda yanada jilvalanadi. Mana shu tamoyil Nazar Eshonqulning syujet yaratishdagi konseptual ijodiy qarashlari hamda mushohadalarining namoyon bo‘lishiga keng zamin yaratadi. Qissaning prologidan keyin izchil davom etadigan voqealar rivojida yozuvchi qahramonning yetmishlarni qoralagan zamon ziyolisining ahvol-ruhiyatini uning tilidan chiqayotgan nutq bo‘laklari orqali o‘quvchiga tushuntiradi. Qissaning shiddatli voqealar rivojida kulminatsiya va badiiy konflikt qahramonning o‘z-o‘zi bilan olishuvini taqozolaydi. Masalan, qahramon adabiyot odami hamdir: bir qarashda faylasuf, bir qarashda tafakkur sohibi, bir qarashda jurnalist va oddiy taqvodor bo‘lib syujetning qiziqarli bo‘lishiga imkon yaratadi. Butun qalbini ochib tashlagan odamni ko‘rganmisiz? Mana shu qissada yozuvchi qahramonining INSONIYATdan yashirgan umuman sirning o‘zi yo‘q. Bular xarakterlarni to‘laqonli anglashga va yozuvchining maqsad hamda muddaosini qahramon tilidan o‘quvchiga yetkazishga intilganligida qabarib ko‘rinadi:

“Bir oycha oldin masjidga bordim, tavba qildim, endi hayotimni toat-ibodatga bag‘ishlay, qilgan gunohlarimga iqror bo‘lay degandim. Bugun esa yana gunohga botdim. O‘z qizimni bo‘g‘ib o‘ldirdim. Nega deysizmi? O‘zim ham bilmayman. Ammo boshqa toqatim qolmadi. Meni bu qismat xo‘rlab tashladi, men gunohlardan birato‘la qutulish uchun shunday qildim. Endi ancha yengilman. Qizim esa kecha qanday uxlagan bo‘lsa, shunday abadiy uyquda yotibdi. Men o‘zimni bosib olish, iqrorim osonroq bo‘lishi uchun kallamni qizitib olishga keldim. Albatta. O‘zim boraman, hammasini aytib beraman. Endi menga hech

⁶⁶ Хамрокулова Х. Адабиётда ҳаёт-мамот муаммоси. –Т: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. –Б.142-143.

qiziq joyi yo‘q. Qo‘rquv orqada qoldi. Hayot har kuni kiyib yuradigan libosday oydinlashdi. Bir keksa odamman. Meni nima qilisha olardi? Berilajak jazo, har qalay, vijdon jazosidan yengilroqdir. Shunday emasmi? Meni hech kim o‘zimdek sud qilolmaydi. Men o‘zim ustimdan o‘qigan hukm oldida boshqa hukmlar burgut oldida pashshaday gap... Siz yana jazodan qo‘rqmaysizmi, deb so‘rab o‘tiribsiz. Jazo nima u? Shunchaki rasmiy marosim. Hakamlar va tergovchilarning kun kechirishi uchun o‘ylab topilgan marosim. Aslida eng oliy jazoni ko‘ngilning o‘zi chiqaradi’⁶⁷.

Qissaning ilk kulminatsion nuqtasi mana shu yerda ko‘zga tashlanadi. Chunki qahramon qilgan eng mudhish gunohi uchun olib kelgan barcha xato va adashishlarning mantig‘ini o‘lim bilan yakunlamoqchi bo‘ladi. O‘z qizini bo‘g‘ib o‘ldirish esa musulmonchilikda xudkushlikdan boshqa narsa emas. Yoshi bir joyga borgan odamning qizini bo‘g‘ib o‘ldirishi ramziy ma‘no tashuvchidir. Masalan, ko‘pchilik tadqiqotchilar real o‘lim bilan bog‘lab talqin qilgan. Aslida Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir” asaridagi o‘lim bilan bog‘liq nuqta asar boshida berib o‘tiladi. Buni “Qora kitob” qissasiga nima daxli bor, deyishingiz mumkin. Ammo shu narsa aniqki, Rumi Olam va Odam timsolida ko‘p metamorfozalarni real hayotdagi voqelik bilan ramziy-metaforik yo‘sinda talqin qilib borganligini sezish mumkin.

Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir” asaridagi voqelikni keltirganimizda mana shu jihat yanada ayonlashadi:

“Mohiyatdan so‘z ochib Mavlono rumiy quyidagi savol-javobni keltiradi:

Dediki: “Onangni nechun o‘ldirding?”

Dedi: “Unga yarashmagan bir ishni ko‘rdim”.

Dediki: “Ammo onangni emas, yetti yot begonani o‘ldirsang bo‘lmasmidi?”

Dedi: “Har kuni bittadan o‘ldirayinmi?”

Hazrat bu o‘rinda inson gumrohligining tub sababi – nafs haqida so‘z yurita turib, demoqchi bo‘ladi: sen hadeb qilmishlaringning oqibatini daf etishga, ularni u yoki bu shaklda xaspo‘shlashga behuda urinaverma, balki mohiyatga teran ko‘z-

⁶⁷ Кўрсатилган адабиёт, –Б.515.

la nazar sol-da, asos bo'lgan nafsingni (onani) jilovla, toki u tufayli har kuni har kim bilan yoqalashishga o'rin qolmasin!”⁶⁸

Ko'rinadiki, Jaloliddin Rumiya nafsni o'ldirishni shu qadar oddiy usulda talqin qiladiki, Nazar Eshonqul qissa qahramonida – qizi timsolida keltiradi. E'tibor bering, qissadagi matnga: *“Bir oycha oldin masjidga bordim, tavba qildim, endi hayotimni toat-ibodatga bag'ishlay, qilgan gunohlarimga iqror bo'lay degandim. Bugun esa yana gunohga botdim. O'z qizimni bo'g'ib o'ldirdim. Nega deysizmi? O'zim ham bilmayman”*. Tavba va tazarru qilgan odam birinchi nimani mustahkamlaydi? Javobni iymondan so'rash kerak. U tavbaga olib borgan, gunohlardan forig' qiluvchi iymonidan ayrilib, gunohga botdi. Bu gunoh uni yana tavba qilib, iymonni mustahkamlashga, nafsini jilovlashga yetaklaydi. Iymonning zaifligidan nafs ustun keldi va gunoh ishga qo'l urdi. Ramzlar shu qadar bir-biriga chirmoquvdek o'ralashib ketganki, uni adabiyot muhiblari anglashi mumkin. Yozuvchi oddiy o'quvchi uchun asar yozmaydi. Kitobxon qissalardagi voqelikni teran anglashi uchun juda ko'plab yondosh diniy-ma'rifiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishib chiqqan bo'lishlari lozim.

Professor I.Haqqulov yozishicha: *“Nafsni so'fiylar vujudagi latif bir mavjudlik tarzida qabul qilganda, tasavvurlarida nafsning moddiy tomoni ustunlik qilgan. Buni ochiq-oydin e'tirof etishmagan bo'lsa ham, nafs deganda jismoniy bir narsani xayolga keltirishganini sezish qiyin emas. Lekin ruhning g'ayrimoddiy, vujudan mustaqil va ayri, vujud yo'qolsa hamki, latif bir borliq o'laroq uning yo'qolmasligi xususida ahli tasavvuf o'rtasida ixtilof bo'lmagan”⁶⁹*. Demak, qissadagi nafs tushunchasiga monand keltirilgan manbada ruh va jism nafsining farqi ham, mohiyati ham alaloqibatda nafsni taqozo etmoqda. Bu nafsning har qanday vaziyatda odamni Shaytonning yo'rig'iga olib borishi, tavbasini ham tazarrusini, e'tiqodi va e'timodini bir tiyanga chiqarishi keng ko'lamda badiiy mohiyatga aylantirilmoqda. Qissa qahramoni nafsini yengolmay xatodan xatoga ko'chib yurgan, bilib turib gunoh qilgan, tavqi la'natni bo'yniga olib, o'z-o'zini

⁶⁸ Жалоліддин Румий. Ичиндаги ичиндадир. Турк тилидан Улуғбек Ҳамдам таржимаси. –Т.: “Янги асп авлоди”. 2022. –Б.13.

⁶⁹ Иброҳим Ҳаққул ҳақиқатлари. –Т.: “Тирилиш”. 2023. –Б.115.

sud qilib yashayotgan qari choldir. Mana shu jihati sobiq ittifoq davrining odamlarni mute va qul qilib, soxta va sun'iy g'oya asosida boshqarishi, ongi va tafakkuriga asl ruhning yo'rig'ini bajarish uchun emas, o'tkinchi hoy-u havaslarni amalga oshirish muhimligini singdirganligida qabarib ko'rinadi.

Qissada yana shunday epizodlar borki, qahramon-roviy nutqi o'g'lining monologik nutqini uyg'unlashtirib, asar konsepsiyasini va asl sabab hamda oqibatning o'rtasidagi ixtiloflarni anglashga imkon beradi:

“Xudo ojizlarning himoyachisidir. Inson ojiz qolgan pallada unga sig'inishni yoqtiradi: qay tomondan qaraganda ham u ojizlik belgisi. Inson o'zini to'la kashf qilmagani tufayli ham ojizdir. Xudoga ishonish insonni o'z kuch-qudratiga ishonishdan mahrum qiladi. Ojizlik boshlangan joydan Xudo boshlanadi. Men uzoq vaqt ikkilandim va shuni kashf etdimki, kuch-qudrat Xudoda emas. Menga hali u biron madad qo'lini cho'zgani yo'q, hech qursa men uning qudratini his etganim yo'q. Aksincha, talabalik yillarida injiq va talabchan o'qituvchidan baho olish uchun yoki qo'lim chizmaga bormay qolganda vujudimni qo'rquv qamrab, ojizlik paydo bo'lganda, bolaligimda otamning shapolog'ini yemaslik uchun kitobni zo'r berib yod olishga kirishganimda, maqsadim yo'lida to'siq paydo bo'lganda, odamlar e'tiboridan qolishdan qo'rqqanimda, har ishni negadir: “shayton nomi bilan”, – deb boshlardim va hamisha ko'zlagan maqsadimga erishardim. Bugun ko'rgazmam ochilishi oldidan ham: “Shayton nomi bilan”, – deb pichirladim: suratlarim naq g'ala-g'ovur bo'lib ketdi; ko'rgazmaga kelganlar bu keyingi davrlarning noyob suratlari bo'lishini e'tirof etdilar”⁷⁰.

Qissaning kulminatsion nuqtalaridan yana biri, yozuvchining qahramonlari birin-ketin o'zlarini fosh qilib borganligida ko'rinadi. Ayniqsa, o'g'li rassomlikning sir-u sinoatlarini puxta egallab, o'zini o'qitgan professorning suratini chizib, boshini ilonni boshiga o'xshatib qo'yganligida, avloddan avlodga o'tib kelayotgan iblis qutqusining nechog'li butun ruh va tanni muzaffar etganligini asosli talqin qiladi. Rassom shayton nomi bilan boshlaydigan har qanday ishning o'ngidan kelishi, mavjud tuzumning, sobiq ittifoqning soxta va

⁷⁰ Кўрсатилган адабиёт, -Б.558-559.

ko‘z bo‘yamachilikka asoslangan asl basharasi, tavqi la‘nat olib tushgan Odam Ato va Momo Havo qismatining ham qorishib ketishi real mohiyat kasb etadi. Nazar Eshonqul romanda mifik metamorfoza yaratadi. Olamning Yaratgan mo‘jizasi oldida insonning qilgan qilmishlari hech va foniidir degan xulosaga keladi. Zero, Shayton qonimizga singib ketgan mangu bir muammolar uyasi ekanligi, undan forig‘ bo‘lishning tasavvufiy va ilmiy yo‘sinlariga ergashish muhimligini ham bilish mumkin. Unda tavbaning chinakam tavbaligi, e‘tiqodning mustahkamligi muhim bo‘lishi natijasida Oliy Nizom qonunlariga bo‘ysunib yashash orqali erishish eng muhim qaror ekanligini inkishof qiladi. Chunonchi, o‘tmishning xatolarini tuzatish insonning bugungi hayotida o‘zligini anglash bilan barobar ekanligini ham namoyon qiladi.

Syujetning tush va tamsillar negizida voqealanishi. Dialoglarsiz, qahramon o‘y-xayollari bilan ro‘y beradigan syujet vaqti joriy qissachiligimizda tushning modifikatsion vazifasi va salmog‘i ortib borayotganligini taqozo etadi. Tush motivi qissa arxitektonikasida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki, tush hamisha ong osti hislarimiz, Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm singari psixoanalitiklar talqinlari doirasida kengayib, badiiy adabiyotning syujetini rivojlantirishda shartli reflekslardan biriga aylanayozdi. Unda inson o‘zini o‘rab turgan muhit bilan, ruhiy olamidagi ong osti kechinmalarini ham sarhisob qilib, yanada teran anglash umidida yashay boshlaydi. Insonning ong osti hislari, tuyg‘ulari va kechinmalari “qachondir” uxlab yotgan g‘oyalarning real hayotda uyg‘onishiga olib keladi. Shu ma’noda, Nazar Eshonqul juda ko‘pchilik asarlarida tush motividan ustalik bilan foydalanib, matn tarkibiga singdirib yuboradi. Tush oddiy tush emas, qandaydir sirli va sehrlil mantiqning mavjudligidan dalolat beradi. San‘at ehtimollik talabidan, haqqoniysimonlik, o‘xshashlik talablaridan voz kechgandan so‘ng va shu bilan birga mujmal, muallifsiz tafsirdan yuz o‘girgach, o‘z ufqlarini kengaytira boshlaydi. Inson mavjudligining tush kabi juda katta sohasini san‘atga keng olib kirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Inson mavjudligining boshqa muhim unsurlari bilan birga tushlar ham yaxlit bir butunlikni tashkil qila boshlaydi. Tushlar inson tajribasining shunday bir qismidirki, o‘z mohiyatiga ko‘ra ular voqelik o‘rnida

qabul qilinishi mumkin emas, ayni chog‘da ular o‘z tabiatiga ko‘ra “ma’nodor”dirlar, bunda hamma narsa ichki qonuniyatlarga muvofiq sodir bo‘ladi. Hech narsa tasodifiy xarakterga ega emas, ularning ko‘pchiligi noreal. Tushlarning ramzlar tizimi, asosan, juz’iy xarakterga ega va shuning uchun ko‘p jihatdan tushdagi obrazlarga tayanib ish ko‘radigan badiiy ijod o‘z-o‘zining qobig‘iga o‘ralib qolish xavfiga, faqat shoirga, tush ko‘rayotgan odamgagina tushunarli bo‘lgan ramzlar dunyosiga tushib qolish xavfiga ro‘para keladi”⁷¹. Shuni qayd etish lozimki, “ma’nodor” tush ramziy shtrixlar bilan payvandlanadi. Uni ochiqlash yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi adabiy kommunikatsiyaning darajalariga bog‘liq. Masalan, men tushungan narsa, ikkinchi yoki uchinchi tadqiqotchida boshqacha fikr uyg‘onishiga sabab bo‘lishi mumkin. Negaki, qarashlar va talqinlar rang-barang bo‘lgani sari, asar qiymati ham, uning ma’no-mazmuni ham alohida mavqe kasb eta boradi. Norveg yozuvchisi Dag Sulstadning qarashlari ham modernizmdagi tush va ramzlarning nechog‘li muhimligi, an’anaviy prozadan farqli o‘laroq uning mohiyatiga kirib borish zaruratini paydo qilishda sodir bo‘ladi.

Professor J.Eshonqul: “Tush va miflardagi voqelik, kechinma va ramzlar bir xildir. Freyd miflarni tush kabi tadqiq etar ekan, ular voqelikdan ko‘ra insoniyatning tushiga ko‘proq daxldor degan xulosani aytadi. Ertak va dostonlarimizdagi ko‘pgina voqealar tush bilan bog‘liqki, ana shu kabi asoslar Freydning mif – bu tush, tush va mifning asosi bitta, degan xulosasi haqiqatga yaqin ekanini ko‘rsatadi. Ruhiy tahlil usuli vakillarining tush haqidagi ta’limoti Sharqda bo‘lgan tush haqidagi qarashlarning, xalq og‘zaki ijodidagi tushlarning va ta’bir normalarining ilmiy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biz xalq og‘zaki ijodi yoki yozma manbalarda tush aks etmagan, tush manzarasi uchramaydigan asarlarni deyarli uchratmaymiz. Xoh og‘zaki, xoh yozma manba bo‘lsin, tush ko‘rishning va tush lavhasining asosi bitta – inson ruhiy dunyosining ramzlaridir”⁷². Darhaqiqat, F.Kafka va J.Joyslar yaratgan asarlarning deyarli ko‘pchiligi tush asosiga qurilganligini yaxshi bilamiz. Tush – mif va inson faoliyatining ajralmas bir ruhiy

⁷¹ Dag Sulstad. Norveg nasri – Оврупо модернизми. –Т: “Маъанвият”. 2010. –Б.377.

⁷² Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши. Насаф. 1999. –Б.107.

olamiga aylandi. XX asrning boshlaridan to shu kunga qadar tushning badiiy voqelikka evrilishi hamda unda inson ramzlar tilida “muhim” soʻzini matn poetikasiga, syujet qismlariga singdirib yuborishi psixologizmning oʻziga xos teranlashuvidan shahodat beradi. Negaki, inson komillik istaydi, uning tashqi dunyo bilan aloqasi ong ostida (tush) kechar ekan, tuzum va mafkuraning yoʻriqlarida hal boʻlmay qolishi fikrimizni toʻlaqonli tasdiqlaydi. “Qora kitob”ning syujet chiziqlarida konflikt – oʻz-oʻzi bilan olishuv, muhit bilan sira siqisha olmaslik, oʻz taqdirini oʻzi yaratish borasida azaliy tavqi laʼnatni boʻyniga olgan OTA obrazi fikrimiz yorqin isbotidir:

“Tush koʻribman. Tushimda qalbini sotayotgan Shomon men emishman. Shayton tirjayib turarmish va agar ikkalamiz bir-birimizdagi eng aziz narsalarni almashtirsak, ikkalamiz ham murodimizga yetamiz dermish. Men Shomon kiyimida, yuzim boʻyab tashlangan emish. Gʻalati tush. Uygʻonganimda terlab ketgan edim. Bir-ikki kun nimadir yoʻqotib qoʻyganga oʻxshab yurdim. Nima u? Balkim, tushning noxush taassurotidir”.

“Endi aniq sezyapman. Otamda qandaydir ilohiy qudrat bor. Bolaligimizda men hamisha otamga oʻxshashni istardim, u payti kuchli, navqiron, choʻrtkesar va gʻolib edi. Faqat men emas, keyinchalik uning barcha shogirdlari otamga taqlid qilishlarini angladim. U paytlari otam faxr edi biz uchun. Axloq – zaif odamlarning himoya quroli. Kuchli odamlarga uning keragi yoʻq, ular oʻzgartirish va yangilash uchun dunyoga kelganlar. Otam hech qachon bizga balandparvoz nasihatlar qilmagan. Hozir birdan xayolimga keldi, otam nega bir umr choʻqqi soqol qoʻyib yurdi ekan? Esimni tanibmanki, uning soqoli iyagida osilib turadi, yarashadi deb aytolmayman-u, biroq unga viqor bagʻishlaydi”⁷³.

Keltirilgan lavhada yozuvchining tush motivini qoʻllashining boisi ham asl maqsadni Shaytonning oʻgʻrilikni qilib, yigitni chuv tushirishi – iymonni zaiflashtirishi, qalbni chirkin illatlarga toʻldirib ketishi tasvirlanadi. Otasining itoatidan va Shaytonning yoʻrigʻidan chiqmagan rassomning sodda qarashlari hali insonning zaifligidan, gumrohligidan, gunohkorligidan nishonadir. Axir, bir umr

⁷³ Кўрсатилган адабиёт, -Б.558.

Shayton bilan ulfat tutingan zudlik bilan undan qutila olarmidi? Yo‘q! Aslo! Qissa qahramonlari bitta, maqsad yo‘lida birlashadilar – qora kitobning ularni yo‘ldan ozdiruvchi kuch-u qudrati soyasida umr kechirishi. Jamiyat qanday vaziyatda rivojlanadi? Tashqi va ichki faktorlar, din, axloq va ma’naviyatning inson o‘zagi – ruhga tutashuvini anglagan sari o‘zligini ham teran tushuna boradi. Mana shu jihatlar qissadagi syujet qismlarining payvandlashuviga imkon beradi.

Umuman olganda, Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasida syujet unsurlari dinamikasi “ichki harakat” negizida yuzaga chiqadi. Unda ham qahramon, ham muhit, ham siyosiy elita kirdikorlari fosh qilinadi. Yetmish yildan ko‘proq millatning ruhiy olamini hibsdan saqlab, tana va jamiyatning bir keraksiz buyumi sifatida qarab kelishi ana shunday asarlarning yuzaga kelishida katta zamin yaratdi. Qahramon qissaning oxirigacha monologik nutq bilan qarshisidagi odamni ham o‘z olamiga sudrab olib ketishda davom etadi. Negaki, o‘z olamini o‘tkazmoqchi bo‘lgan hayotning g‘ijimlangan va keraksiz buyumi qariyaning botiniy evrilishlari-yu, taskin istab cho‘zgan qo‘llari va duolari endi hech narsaga arzimastligini anglab yetganligida seziladi. Umr o‘tib ketgan. Tavbaning qabul bo‘lishi yoki bo‘lmasligi faqat Allohga ayon. Bir umr soxta yolg‘onlar iskanjasida o‘tkazilgan umrning sarhisobi keyingi avlodlarda ham davom etmasligini istashlikda qabarib ko‘rinadi. Mustaqil fikrli yosh avlodning o‘z g‘oyasi va ichki ishonchi, e‘tiqodi Allohga muhabbati bo‘lishini istashlik zamirida yuzaga kelgan hayqiriqlardir. Syujetning voqelanishida tush va psixologik talqin yanada diqqatga sazovordir. Ana shu masala qissaning boshidan to oxiriga qadar qizil ip bo‘lib o‘tadi. Mavjudlikning nima ekanligini teran mushohada yuritish tashqi kuchlar evaziga emas, ichki hissiy istashlik bilan ro‘y berishini farzandlariga umr bo‘yi uqtirib keladi. Qissadagi syujet aslida qariyaning umri oxirlab qolganligi, bu holatga nima uchun tushganligini sinchiklab boshidan hikoya qilib berganligida namoyon bo‘la boradi. Vaholanki, yozuvchi qahramonning qalbidagi tuyg‘ularni yashirmasdan anglata boradi. Roviyy nutqi bilan muallif nutqi ba’zi o‘rinlarda aralashib, polifonik nutq ta’sirchanligini yuzaga keltiradi. Mana shu jihatlarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, “Qora kitob” o‘z vaqtida yozilgan noan’anaviy

qissalarning eng yaxshisi ekanligi ayon bo‘ladi. Chunki millat o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritish arafasida tug‘ilgan poetik g‘oyalar vaqti kelib katta epik polotnolarning yuzaga chiqishida doyalik qilishi shubhasiz.

2.2.§. Kompozitsiyada yozuvchi falsafiy-estetik idrokining aks etishi

Badiiy asarning strukturasi, ya’ni u real va noreal voqelik tizmasida namoyon bo‘ladimi, har qanday holatda ham muayyan qonuniyatlar bilan estetik didning o‘shiga xizmat qiladi. Badiiylik shartlari va mezonlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, avvalo, kompozitsion qurilishi xususida fikr-mulohazalarimizni aniqlashtirib olishimiz zarur. XX asrning 90-yillaridan keyin yangi o‘zbek modern prozasining ufqlari Sharq-u G‘arb an‘analari negizida jiddiy o‘zgarishlarga yuz burdi. Tasvirning ko‘p qatlamliligi, insonning ruhiy va ijtimoiy holati, jamiyat tutumlari, “o‘tish davri”ning o‘ziga xos yutuq va kamchiliklari, tirikchilik va bozor iqtisodiyotining inson tabiatiga singib borishi turli asarlarda bo‘y ko‘rsata boshladi. Bundan yigirma yillar oldin, ya’ni bir davrning o‘zida, aniqrog‘i, ikki minginchi yillar ibtidosida Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari”, Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik”, Murod Chovushning “Hech” nomli qissalari adabiy jamoatchilikning e’tiboriga tushdi. G‘arb adabiy-badiiy tafakkurining salmoqli qismi XX asrning intihosida F.Kafka, A.Kamyu, M.Prust, J.Joys singari yozuvchilarning ijodida yanada rang-barang shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, mana shu ekzistensializm namoyandalari oradan 90 yil o‘tib o‘zbek nasrining qisqa muddat oralig‘ida tamomila yangicha qiyofada maydonga chiqishiga katta zamin yaratdi. Bularning ko‘pchiligi bir mavzuni turli xil shakllarda yozish, kompozitsion o‘ziga xoslikni namoyon etish prinsiplarini o‘zlashtirishning ham uddasidan chiqa olganligida.

Quruvchi imorat qurarkan, avval imoratning arxitektonikasini chizib, shunga mos xom-ashyo tartiblaydi. Yozuvchi esa mavzu va g‘oyaning uyg‘unligi, syujetda aks etish prinsiplari haqida jiddiy izlanishlar olib borar ekan, ana shu talqin keyinchalik badiiy kompozitsiyada maromiga yetadi. Kompozitsiyasiz hech qanday asar bo‘lishi mumkin emas. Har qanday to‘rt qator she’rning ham o‘z

strukturasi, qolipi va shakli mavjud. Ritm va pafos, peyzaj va lirik chekinish, kompozitsion qurilishning yagona estetik mohiyati sanaladi.

Badiiy asar syujetini birlashtirib turadigan yagona estetik mezon kompozitsion yaxlitlik bilan belgilanadi. Negaki, unda ro'y berayotgan yozuvchi konsepsiyasi aynan mana shu ustqurmada yaxlitlashadi. Ularning orasida syujet voqealarining ro'y berishi, rivojlanishi, xotimalanish vaqtida ishtirok etuvchi qahramonlar poetik olami psixologik tahlilda maromiga yetadi. Psixologik tahlilning ham xarakterni, ham syujet dinamikasini, ham voqealar rivojini tartiblashtirishga keng imkon berishi yozuvchining ijodiy konsepsiyasidagi o'sish-o'zgarishlarga, ularni teran idrok qilishga, qayta dalolatlashga keng yo'l ochadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, badiiy psixologizm yozuvchi idrok qilayotgan voqelikni yanada ishonarli, dardchil va o'ziga xos tarzda namoyon qilishga yetaklaydi. Ana shu mezonga hamisha bir-birini to'ldiruvchi komponentlar sifatida qarash mumkin.

XX asr o'zbek qissanavislari olib chiqqan mavzu ham ko'pchiligi sobiq sho'ro siyosati ideologiyasini tarannum qilishga xizmat qildirildi. Aksariyat yozuvchilar bugun ana shu yolg'on va soxta shon-shuhratning o'tkinchi ekanligini anglab yetishdi. Aynan shu tuzum aldamlari chinakam ijodkorlarni o'rtamiyona asarlar yozishga o'rgatib qo'ydi. Demak, M.Prust, M.Markes, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek singari yozuvchilarning ruhiyat olamiga yaqinlashish istagida qalam tebratmas ekanmiz, davrning yukini ortmoqlab, kelajak sari boradigan asarlar yozishda adashaveramiz.

Ayonki, XX asr insoniyat tarixida o'chmas iz qoldiradigan asr bo'ldi. Bu davr bir emas ikkita jahon urushini, ko'plab fuqarolar urushini boshidan o'tkazdi. Asrning jahon adabiyotiga bergan yozuvchilari ko'p. Ularning talqin va tasvir usullari ham o'ziga xos va murakkablikni yuzaga chiqardi. F.Kafka, J.Joys, A.Kamyu singari yozuvchilar, qirg'iz adibi Ch.Aytmatovning ayrim romanlari mana shu mezonda ishlashga rag'bat uyg'otmoqda. Xoh tarixiy, xoh zamonaviy asarlar bitish, avvalo, yozuvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Uning uchun

hayotni pragmatik tarzda teran o'rganish, odamlar ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlarni anglash muhimligi ayonlashadi.

Yangi o'zbek noan'anaviy qissachiligi o'z-o'zidan rivojlanayotgani yo'q. Albatta, bu masalada yozuvchilar katta ijodiy izlanishlarni olib borishmoqda. Ular ham o'zimizning tariximizni, ham jahon adabiyoti durdonalarini sintezlab, yangi-yangi syujetlarni, obrazlarni kashf qilishmoqda. Polifonik tafakkur negizida xilma-xil obrazlarni qayta kashf qilishga intilish bugungi kun romanchiligining eng asosiy fragmentlaridan biriga aylanayozdi. Natijada, shaxs ruhiyatiga teran kirib borish, ortiqcha tafsilotlardan qochish, ularni idrok qilish yo'sinida matn moduslarini qayta tahlillash mezonlariga katta e'tibor bilan yondashmoqdalar. N.Eshonqul, U.Hamdam, M.Chovush ana shunday murakkab va "notanish" syujetga ega asarlari bilan o'quvchilar e'tiboriga tushayotgan yozuvchilardan sanaladi.

Kompozitsiya (lat.composti – tarkib, qurilish, tuzilish) deganda, tasvirlanayotgan birliklarning va nutq vositalarining badiiy asar matnidagi o'zaro bog'liqligi va joylashish (o'rinlashish) tartibi tushuniladi. U o'zida personajlar (sistemi)ni joylashtirishni, syujet epizod (gr.epesodion begona, aloqasiz)larini taqqoslashni, voqea haqidagi tartibli xabarni tasvirlash usullarining o'zgarishini, tasvirlanayotgan detallar va ifoda-tasvir vositalarning muvofiqligini, asarning qism, bob, bo'lim, band, parda, ko'rinish va sh.k. Bo'linishini o'zida jamlaydi. Darvoqe, kompozitsiya – badiiy asarni tashkil etuvchi va intizomga bo'ysundiruvchi kuch. Uning vazifasi biron-bir narsaning chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ayni chog'da, uning bir butunlikka birikishini nazorat qilishdir... Uning maqsadi barcha bo'laklar (parchalar)ni shunday joylashtirishki, ular alal-oqibat asar g'oyasini to'liq ifodalashga qodir bo'lsinlar"⁷⁴. Professor H.Umurov to'g'ri ta'kidlaganidek, badiiy asar kompozitsiyasining umumiy ko'rinishi ixcham detallargacha o'zining strukturasi namoyish qilinishiga zamin hozirlaganligida qabarib ko'rinadi. Mana shu jihatlar matnning mohiyatida aks etgan ramziy-majoziy ma'nolarni teranroq anglashga imkon beradi.

⁷⁴ Umurov X. Сайланма. Биринчи жилд. –Т.: “Фан”. 2007. –Б.142.

“Manbalarda kompozitsiya badiiy asar qismlarini yagona badiiy konsepsiya asosida joylashtirish, ma’lum badiiy-estetik maqsad yo’lida biriktirish, degan terminologik ma’nolarni anglatishi qayd etilgan. Shuning uchun asar kompozitsiyasini shakllantirishda, avvalo, syujet va uning tarkibiy qismi, konflikt, fabula, peyzaj, portretlar bilan birga asar tili, obrazlar tizimi, yozuvchining uslubi ham o’ziga xos o’rin tutadi. Lekin bir narsani aytish kerakki, qismlar ma’lum niyatni amalga oshirishda me’yordan chiqib ketmasligi kerak. Ya’ni kompozitsion komponentlardan foydalanishda biriga ortiq darajada e’tibor qaratish boshqalarining asardagi badiiy-estetik vazifasi ochilishiga soya solishi mumkin”⁷⁵. Professor Q. Yo’lchiyev to’g’ri ta’kidlaganidek, har qanday sharoitda yozuvchi asar arxitektonikasiga jiddiy e’tiborda bo’lishi lozim. Aks holda, yozuvchining maqsadi yuzaga chiqmay ramzlar bag’rida singib, yo’q bo’lib ketishi mumkin. Negaki, asar poetikasida yozishdan ko’zlangan asosiy maqsad va vazifa bo’lishi shart. Bunday bo’lmagan taqdirda, yozuvchining badiiy quvvayi hofizasiga putur yetgan bo’ladi.

“Adabiyotshunoslikda shartlilik atamasi ikki ma’noda qo’llaniladi. Birinchisi, badiiy asarda aks etgan voqelikning real voqelikka bo’lgan munosabatidagi shartlilik, ya’ni asar voqealarining hayotiylik, san’at qonuniyatlariga moslik darajasi. Shartlilik atamasining ushbu ma’nosi uning falsafiy talqiniga mos keladi. Chunki har qanday badiiy asar hayotga taqlid qilish prinsiplari asosida yuzaga keladi. Biroq bu taqlidni real voqelikning aynan aks etishidan iborat deb tushunmaslik kerak. Real voqelikka taqlidni mimesis nazariyasining asoschisi Aristotel ham alohida talqin qilgan edi. U taqlid asosida uch narsa –voqelik qanday edi, asarda qanday aks etadi va qanday bo’lishi lozim kabilarni nazarda tutadi. Bu narsa voqelikni ijodkor o’z maqsadi, g’oyasi va ideali asosida aks ettirishi lozim, deganidir”⁷⁶. Binobarin, professor B. Sarimsoqovning ushbu mulohazalari yangi davr noan’anaviy qissalarining poetik vazifadoshligiga ham daxldordir. Ayni damda, har bir yozuvchining individual uslubiy izlanishlari, kompozitsion qurilishga qaysidir ma’noda ko’maklashadi. Unda tarix va falsafa ham chatishib,

⁷⁵ Йўлчиёв Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. –Т: “Маърифат битиклари” 2021. –Б.67.

⁷⁶ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т: “Фан”. 2004. –Б.107.

psixologik talqinni yanada teranlashtiradi. Tuzilishi jihatidan kompozitsion unsurlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishiga katta sharoit hozirlaydi.

Insonning hayot kechirish tarzi ham ko‘z ilg‘amas darajada muayyan tartib-intizom orasida kechadi. Kunning chiqishi-yu, quyoshning botishi, fasllar almashishi-yu, umrning o‘tishi muayyan tartib qoidalar bag‘rida qoimdir. Natijada hayot atalmish ulkan ne‘matning qanday o‘tib ketganligini sezmay qoladi kishi. Badiiy asarni xuddi hayotning o‘zi kabi qabul qiladigan bo‘lsak, uning boshlanishi va tugashi bor. Ana shu ikki manzil orasida ro‘y beradigan voqelikning o‘zgarmas qonuniyatlar asosida tashkillantirilishi kompozitsion ustqurmaning nechog‘li murakkab va sodda, aniq va ixcham shaklda inkishof qilinganiligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ayonlashadi.

2000-yillar boshilarida noan‘anaviy qissalar, romanlar-u hikoyalar juda ko‘plab yozildi. Buning asosiy sabablaridan biri, o‘zbek adiblari to‘g‘ridan to‘g‘ri jahon adabiyotining ilg‘or namoyandalari ijodiy olamiga kirib bora oldilar. Endilikda hajmi katta asarlarni epopeya yoki roman deb atash urfdan qoldi. Salkam hikoya hajmidek keladigan asarlarni qissa yoki roman deb nomlash yangicha dunyoqarashning shakllanib ulgurganidan dalolat beradi. Shu ma’noda, iste’dodli yozuvchi Murod Chovushning “Hech” nomli qissasi bir davrda dunyoga kelgan boshqa qissalarda uchraydigan uslub modifikatsiyasini qaror toptirishga qaratilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Qissaning “Hech” deb nomlanishida ramziy ma’no mavjud. Yozuvchi asarga Bahouddin Naqshbandning to‘rt qator she’rini epigraf qilib keltiradi. Mana shu qissadagi asosiy voqelik muallifning ko‘rgan-kechirganlari-yu, kuzatishlari tashqi “men” bilan “ichki” menining har qanday vaziyatda anglab yetgan hayotiy va falsafiy prinsiplari ifoda qilinadi.

Qissaga so‘z boshi yozgan Nazar Eshonqul shunday deydi: “Nafaqat qalamga olingan voqelik, balki Janri ham hech qaysi qolipga tushmaydigan bu bitik hayot, odam, olamning “hech”ligi haqida, ya’ni epigrafda keltirilgan Naqshband hazratlarining to‘rtligida qayd etilgan “Hech” haqida, boshqacha aytsak, hamma narsa – odam, olam, muhabbat, insoniy munosabatlar, azal va abadning qorishig‘i, ayni paytda, “hech” narsa haqida. Asarni o‘qib chiqqaningizdan keyin ham

ko'nikib qolingani badiiy asardagi taassurotlarni ololmaysiz, o'qiganingiz "hech"ga aylanadi. Lekin siz ichingizdagi o'zingiz anglamagan po'rtanalarda "hech"ning to'liqlanishini sezganday, botiningizda dunyo adabiyoti "ong oqimi", Freyd va Yung "ong osti kechinmalari" deb ataydigan ulkan bahrning shovurlarini eshitganday, mutolaa qilganday bo'lasiz. Aslida ham G'arbda "Absurd" deb ataladigan "Hech" so'fiy bobolarimizdan tortib dunyoning eng ulug' aql egalari javob izlagan, hanuz topolmayotgan odam va olam haqidagi qadimiy katta savol"⁷⁷. Binobarin, antik dunyo adabiyotidan to bugunga qadar yashab kelayotgan adabiy qarashlarning sistem butunligidan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, qissa epik ko'lami va voqelik silsilalarining joriylanish tartibiga ko'ra ramziy-majoziy talqin o'ziga xosligini dalolatlaydi. Unda yozuvchi (roviy) nutqi polifonik nutq bo'laklarini hosil qilib, o'quvchini tushiniksiz bir olamga olib kirgandek taassurot uyg'otadi:

"Metroga kirdim. Poyezd kutyapman. Yonimda yigit va qiz. Qiz menga qarab qo'ydi. O'xshatdi, shekilli. Beparvo nazar bilan ular tomon ko'z tashlab qo'ydim. Yigit qattiq eslab qolmoqchiday boshimdan oyog'imgacha kuzatdi. Poyezd kela boshladi. Men ulardan etti-sakkiz qadam uzoqlashdim. Vagonga chiqdim. "Nima haqida o'ylasam yaxshi bo'ladi?" "Hech narsa haqida", – o'zimga-o'zim javob berdim. Ichimdagi butun o'y-fikr, xayollarimni quvib chiqarmoqchiman, chog'i. "Bunaqa bo'lmaydi". Keyin metroni musiqa koshonasi, yurib ketayotgan poyezdni kuy, uning ichidagi yo'lovchilarni yaxlit bir qo'shiq deb hisobladim. "Men tinglovchiman". Poyezd "Paxtakor" bekatiga kelib to'xtadi. "Kuy to'xtadi". Men vagondan tushdim. Ko'chaga chiqdim. Konservatoriya tomon yura boshladim. Bosgan qadamimni sanay ketdim. Shundagina o'ylashdan ozgina vaqt qutulaman. Yurib ketyapman. "Bir, ikki, uch, ... yetmish, ...yetmish sakkiz", sanab boryapman. Sakson sakkizinchi qadam bosilganda sezib qoldim. Yomg'ir shitir-shitirini, sovuq shamol esishini eshitib borayotgan ekanman. Shu onda yig'lagim keldi. Zerikayotganligim esimga tushdi. "Men buyuk zerikuvchi"⁷⁸.

⁷⁷ Назар Эшонкул. "Ҳеч"нинг ҳечлиги ҳақида. –Т.: "Академнashр". 2019. –Б.3-4.

⁷⁸ Мурод Човуш. Ҳеч. – Т.: "Академнashр". 2019. –Б.6-7.

Qissa qahramoni juda nozik o‘xshatish qiladi. U ertalabdan harakatlanuvchi metroning shovqinlaridan qandaydir musiqiy bir ohang topadi. Aslida uning nima ekanligini ham tuzukroq bilmaydi. Odamlarning yuz-aftiga qarab, jamiyatning marom bilan oldinga intilayotgan oqimida o‘zligi sari qadam tashlaydi. Nega yozuvchi aynan “Paxtakor” metrosidan chiqyapti. Bu yerda odamlarning qo‘shiqqa o‘xshatilishida ham qandaydir ramz yashirin emasmi? Bizni sobiq ittifoq aslida paxtakor qilib tarbiya qildi. Yozuvchining ong ostida kechuvchi sezimlari – chol va “men”, zerikish birligida namoyon bo‘lmoqda. To‘g‘risi, o‘tish davridagi mamlakatimizda hukm surgan ommaviy ishsizlik yozuvchining botiniy iztiroblariga malham bo‘lolmagan tuzum, uning asl basharasi o‘tmishdan boshlab ochila borganligini anglab yetmoq zarur. Mayib va majruh bo‘lgan millatning ruhiyatida aks-sado berayotgan umumiy shovqin va kuy qahramonning o‘y-xayollarida sodir bo‘lmoqda hamda ularni shu yo‘sinda “kashf” qilish istagida hayot kechirmoqda. Shuncha sig‘ingan, talpingan g‘oyalar qulab – o‘rnini hechlik egallashi, odamlarning dard-u tashvishlari tirikchilik bilan andarmon bo‘lib qolishi real mohiyat kasb etadi. Qissadagi muqaddima ana shu masalalarni to‘g‘ri anglashga zamin hozirlaydi.

Asarda nima uchun Bahouddin Naqshband she’ri tanlandi? Bu yerda ham ramziy shtrix kodlar mavjudki, she’rdagi fikr millat o‘laroq shakllanib yetgan ulug‘ Turkistonning taqdiri xususida chiqarilgan eng to‘g‘ri metamorfozalardan biridir. Qissa qahramoni hayotni teran o‘rganadi, uning og‘riqlarini o‘zining badanida sinab ko‘radi, kim va qanday odamlar bilan uchrashmasin, ularning shu kechirayotgan hayotidan (hech) nimadir topishga, o‘sha hikmatlarni syujet liniyalariga kompozitsion yo‘sinda singdirib yuborishga harakat qiladi. Chunki qahramon g‘oyat sinchi va kuzatuvchi. Uning tashqarining shovqinlarini o‘z hissiy aql-idroki bilan baholab borishida qandaydir ramzlar yashiringanligini unutmaslik lozim.

Kasb-kori shifokor va tibbiyot bilan bog‘liq qator tadqiqotlar olib borgan Zigmund Freyd ta’limoti yozuvchilarga ramzlar va metaforalar negizida inson ongi ostida hali tashqi dunyoga chiqmagan, xuddi bir tush kabi mudroq bosib yotgan

hislar, tuyg'ularni talqin qilarkan, odamzodning bugungi ahvolini ham tushuntirishga yo'l ko'rsatib ketgan psixoanalitiklardan biri ekanligi ayonlashadi. Freyd ta'limoti kirib bormagan biron-bir soha yo'qki, u nafaqat falsafa, tarix, balki badiiy adabiyotning ruhiyat bilan bog'liq qator muammolarini anglatishga katta imkon berdi. Freyd ta'limoti XX asr boshlarida dunyo ahlini so'z va talqin bilan o'zgartirishning zamonaviy universal modelini chizib, hayotiy tajribalar bilan isbotlab berganligida namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton, M.Chovush asarlarida freydizm ta'siri sezilib turganligini e'tirof etish zarur. Murod Chovush "Hech" asaridagi syujet va kompozitsion ifoda tiniqligi hamda ramzlar yaxlitligi Freyd ta'limotining ma'lum bir tomonlarini aks ettirishda qo'l kelganligini dalolatlaydi.

Munaqqid R.Qo'chqor fikricha: "Freyd va u asos solgan freydizm ta'limoti inson ongini uch qismdan tarkib topgan nihoyatda murakkab qurilma sifatida tushuntiradi, bular: ONG, ONGOSTI, G'AYRISHUUR. Bu tamoyil bo'yicha, inson hayoti davomida duch keladigan jamiki voqelik mana shu uch "qavat"ning birida, albatta, makon topadi. Odamning ko'rgani, eshitgani, kuzatgani, o'ylagani, his qilgani – hech bir narsa izsiz yo'q bo'lib ketmaydi. Uning o'zi "esimdan chiqardim", "unutdim", "xotiramdan ko'tarilibdi", deb o'ylagani barcha narsalar uning yo ongi ostida yoxud g'ayrishuuri puchmoqlarida, albatta, saqlanadi"⁷⁹. Haqiqatdan ham, Freyd ta'limotining ta'siri bo'lmagan biror ramziy-majoziy asarni uchratish qiyin. Shuning barobarida, Freyd har bir davr adabiyotini ramzlar-majozlar negizida yanada boyib, rang-barang qiyofada akslanishida katta hissa qo'shdi. Murod Chovushning "Hech" qissasi kompozitsion ustqurmasida ham mana shu ta'limot – ong osti g'ayrishuuriy hodisalar ifodasi qabarib ko'rinishi shundandir:

"Tolstoyga rahmim keladi. Miyasida fikrlar to'lib-toshib ketgandi. Qay birining to'g'ri-noto'g'ri ekanligini bilmadi. Odamni bunchalik sevish ham kerak emas. Ko'nikish kerak edi, Tolstoy. Lev, nega kafega kirmadingiz? Abduxoliq Qalqon kafeda o'tirgan ekan Dengiz Naimov bilan. Nima qipti? O'zim ham

⁷⁹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/rahmon-quchqor-zigmund-freyd-yohud-dardingni-olay-birodar-talimoti/>

bilmayman. Aldayapman. Bilaman. Nima qipti? Anovi Dengiz Naimmi? Ha, mast. Boshi egik. Metro tomonga ketyapti. Unga achinaman. Men unga achinish uchun yetmish uch yil yashadim. U menga achinadi. Ana-mana o'ladi, deb o'ylasa kerak. Shunday o'ylaydi. Nima qipti? Men unga vazifamni o'tab bo'ldim. Va teskarisi – menga u. “Men dunyoga keldim”. Vazifam – birovlarning ko'nglini ovlamoq”. U shuni his qilgan yoki bilganmi, birovlarning ko'nglini ko'tarish tubanlik, bilgan. Shoir. Bir satr she'r ham yozmabman. Qiziq. Avtobus keldi. Vazifasini o'tayapti. Qani, Lev Nikolayevich, avtobusga chiqamiz. Qidirov avtobus to'riga borib, bo'sh o'rindiqqa o'tiradi. Tolstoyga yordam bermoqchi. Tolstoyni kafeda o'tirgan yosh daraxtlardan qutqarmoqchi. Uf. Tolstoy o'lib ketsa bo'lmaydimi? “Miyasi aynigan chol”. Eshitdim. Naimov aytdi. Ular kafega kirayotganimni ko'rishmadi, ko'rishdimi? Ataylab aytdimi meni so'rab?”⁸⁰

Qissa qahramoni butun hayoti davomida odamlarni teran o'rganarkan, o'zini qiynayotgan savollariga javob topishda ikkilanish hosil qiladi. Lev Tolstoyning jismoniy o'limi emas, uni tashvishlantirayotgan narsa didning o'tmaslashuvini nazarda tutmoqda. Katta dahoning umr bo'yi “Men nima izlayapman? deb iqrornomalarni yozishi tabiiydir. Lev Tolstoyni bir vaqtning o'zida ham tasdiq va inkor qilmoqda. Adabiy stereotiplar birdaniga sodir bo'lmasligini qahramon teran anglab etadi. Bu anglamlar uning nazdida dunyo va oxirat orasida kechayotgan hayot po'rtanalarida qurib sop bo'lishini tushunish bilan belgilanadi. O'zini va o'zligini topish – ong osti va g'ayrishauriy metamorfozalar qahramonning psixologik kayfiyatini chamalashga imkon beradi. Qissadagi kompozitsion lirik chekinishlar esa ba'zi o'rinlarda konseptual mohiyatni idroklashga keng yo'l ochadi. Asarda peyzaj va tabiat tasviriga juda ko'p o'rinlarda murojaat qilingan. Yomg'ir – gunohlarni yuvish dastyori bo'lib ko'rinish berishi, bu dunyoda hechlik sari borayotgan odamzod qismatining tushuniksiz bir taqdiridan dalolat beradi.

Ulug'bek Hamdamning “Yolg'izlik” qissasida badiiy kompozitsiya uch o'lchamli olam *kecha-bugun-ertaga* tarzida namoyon bo'ladi. Adib qissadagi daftarda qolib ketgan kundalikni roviy nutqi bilan yuzaga chiqarar ekan, bu yerda

⁸⁰ Кўрсатилган адабиёт, -Б.19.

ham Freyd va Yung, Fromm hamda Frans Kafka, Kamyu, Prust singari yozuvchilar badiiy izlanishlari o'ziga xos tarzda rivojlantiriladi. Qahramon, bir qarasangiz shafqatsiz bir odam, reallikdan tamomila yiroq bo'lib ko'rinsa, bir qaraganda mo'min-qobil, so'fi va zohid singari o'z nafsining ustidan g'alaba qozongan musulmon tarzida harakatlanadi:

“Olis-olislardan taralayotgan qo'shiq tobora yaqinlashib kelib, nihoyat, shundoq qulog'im ostida yangradi. Ko'zimni ochganimda ziyoni ko'rdim va u qo'shiq ohangiga uyg'un eshilib yashayotgandek edi. Gilam ustidagi harakat diqqatimni tortdi: nur va soya go'yo bir etak bolalar kabi o'mbaloq oshib o'ynayotgandi. Ularning iziga tushdim: derazaga, ortdagi ulkan daraxtga, quyoshga boqdim. Yuragim hapqirdi. O'rnimdan asta turib deraza qarshisiga keldim-u parda chetini surmoqchi bo'lganimda, uning ham manzaraga munosib tarzda hilpirayotganini ilg'ab hayratlandim. Suqlanib shoxlarida quyosh pishayotgan daraxtga takror boqdim. Go'yo o'z go'zalligiga mahliyo bo'lib mayin tebranayotgan yaproqlarni kuzatdim, hayajonlandim. Shoshib deraza qanotlarini ochdim... Bir zumdan so'ng o'zimni daraxt poyida ko'rdim. Layliga termilgan Majnunday daraxtning oyog'idan boshigacha nigohim-la allalarkan, esimni unutdim. Ichki zo'r to'lqinning izmiga bo'ysunib, daraxtning bag'riga o'zimni tashladim. Uning serajin yuziga silliq yuzlarimni bosgancha titradim... Qayerdadir, juda chuqur bir joyda azon saslari yangradi...”⁸¹.

Ulug'bek Hamdam “Yolg'izlik” qissasi qahramoni yelkasiga dunyoning yukini ortgan, uzoq bir manzilga otlangan yo'lovchining o'zi. U mushohada yuritarkan, jannat va do'zaxni ham ta'mini totgani kabi Allohning mavjudligini inkor qilgan faylasuflarni ham ayab o'tirmaydi. G'arb badiiy tafakkurining ta'siri shu qadar qissa matniga singib ketganki, natijada, yozuvchi o'zi voqelikka aralashib, yaxlit bir uyg'unlik kasb etadi. Qo'shiq – azon va daraxtlar shovullashi hammasi qahramonning ong osti hislari mahsuli ekanligi namoyon bo'lib boradi. Chunki qahramon o'nglanish istagida tipirchilayotgan mazlum kabi hamma sohani teran tushunadi. Ikkiyuzlamachilik va sotqinlikni ham, shafqat va vafoni ham,

⁸¹ Улуғбек Ҳамдам. Узоқдаги Дилнур. –Т.: “Академнашр”. 2010. –Б.19.

Vatan oldidagi burchini ham aslo unutgan emas. Shu ma'noda, "Yolg'izlik" qahramonining ichki po'rtanalarida va ong ostida qotib qolgan o'tmish kechinmalari – muvozanat va maromni qattiq ushlagan ko'rinadi. Bu haqda so'z borganda Q.Yo'ldoshevning ushbu mulohazalari fikrimizni to'laqonli to'ldiruvchi ahamiyat kasb etishiga ishonch hosil qilish mumkin: "Arastu zamonlaridan buyon adabiyotning mohiyati hayotdagi **xaosni kosmosga** aylantirishdan iborat deb tushunib kelingan. Voqelikdagi "tartibsizlik"lar muayyan muntazamlik kasb etishi, tartibga tushirilishi bilan badiiy asar yuzaga keladi deb, qaralgan. "Yolg'izlik" qissasida esa aynan shu tartibsizlikning o'zi, bo'lganda ham, voqelikdagi emas, inson xayolotidagi kechinmalardagi boshi-kechi ko'rinmas tartibsizlik tasvir obyektiga aylangan. Qissa muallifi qahramonning o'y-u xayollarini uning karakterini ochish vositasiga aylantirmaydi. Bil'aks, o'y-xayollarining tartibsiz va noizchil oqimini berishning o'zi uning maqsadiga aylanadi⁸². Ko'rinadiki, qissa badiiyatini tutib turgan ziddiyatli mulohazalarda bizni o'rab turgan Olamning ruhiy muvozanati Ilohiy intizom muvozanati bilan uyg'unlashib ketadi. Qahramonning goh sokin, goh shiddatkor kechinmalari – real voqelikka yetib kelguncha tasaffuvni ham, diniy-ilohiy kitoblarni ham, ilmiy dunyoqarashni ham yaxlitlashtirishi lozim bo'ladi. Unda milliy tuyg'u bilan milliy ong raqobatga kirishadi. Shaxsning ruhiyatidagi azim evrilishlar har bir qalb botiniy shuurini aks ettirishga qaratiladi.

Yozuvchi Murod Chovushning "Hech" qissidagi kishilik olmoshi – "men"ning qahramonlar xatti-harakatlari zamirida u yoki bu zamonda o'rin almashinib turishi, yangi shakl topa olganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, asar qahramoni kimni va qayerda uchratmasin vakuumga tushib qolgan olomon qiyofasini ortiqcha bo'yab-bejab o'tirmasdan, dadillik bilan ifodalab beradi. O'quvchidan yashiringan SHAXSning xatti-harakatlari yo'q. Voqelikda ramzlar ishora orqali yashiringan. Uni topish uchun bir qarashda yo yozuvchining o'zi bo'lib olamga boqish kerak, yoki so'fiylar ta'limotidagi darveshlik hirqasini bo'yniga olib, hechlik sari ravona bo'lish mumkin. Bu qarashlar nimani anglatadi? Birinchidan, Murod Chovush badiiy so'z orqali o'quvchilar qalbini jiddiy sinovdan

⁸² Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: "Янги аср авлоди". 2006. –Б.81.

o'tkazadi. Tasvir va talqin barqarorlashuvini esa voqelik silsilasida yanada sezilarli darajada "Bo'rttirish"ga alohida diqqat qaratadi. Demak, har ikkala asardagi qahramonlar ong osti kechinmalari epik kompozitsiya takomilining muvofiqlashuviga olib keladi:

*"Sigaret chekkim keldi. Gugurt yoqib sigaretni tutatdim va yonayotgan gugurt cho'pini o'chirib kuldonga tashlamoqchi edim, gilam ustida suvarakni ko'rib qoldim. Yonayotgan gugurt cho'pini uning tanasiga tegizib oldim. U qochdi. Olovni yana tegizdim. Yana og'riqni sezdi. Suvarak baxtli. Lekin u baxtli ekanini bilmaydi va his etmaydi. "Suvarakjon, siz baxtlisiz". Chunki odam – men his qilish uchun hatto yillarni bosib o'taman, aytishga oson, balki, yo'q shunday. Suvarakjon, bilsangiz edi. Bilmaysiz-da, his qilish uchun, ya'ni yuragimda bir nimalarni qo'zg'ash uchun men shoirlarning she'rini o'qiyman. Ular menga o'xshaganlarga mahsulot yetkazib beradi. Birovlari bu mahsulot emas, mutlaqo o'zim uchun yozaman deydi. Ishonsa bo'ladi, ishonmasa ham"*⁸³.

Yozuvchining bu lavhasida shafqat va beshafqatlik orasida kechayotgan umr po'rtanalarini suvarak timsolida aniqlashtirib olishga kirishgan qahramon intellekti namoyishi badiiy kompozitsiyaning muvofiqligini dalolatlaydi. Aslida, kuy va ohang jo'rligidan tashlangan ohista qadam kuni kelib, yovuzlikning qalbidan olamga daricha ochishini keltirib chiqarmoqda. Yovuzlikning turlari ko'p. Uni o'yin deb biluvchilar ham bor, ichkariga, qalbgga kirgan shayton qutqusi evaziga rivojlanib, real hayotga muqoyasa qiladigan toifalar ham istalgancha topiladi. Shu boisdan ham, "suvarak timsolida bu hayot ne'matlari-yu ziddiyatlari"ni anglatish va chuqur anglab yetish uchun ter to'kadi. Yovuzlik – ma'no! Dahshat emasmi bu? Dahshatlisi shuki, qahramon gilam ustida zulmdan qochayotgan Allohning yaratig'ini sinovdan o'tkazadi. U tirik qolish uchun qochish yo'llarini qidiradi. Biroq qochish bilan u maqsadiga yeta oladimi? Yo'q! Chunki u yovuzlik iskanjasida qolganini sezsa-da, yashash uchun kurashdan bosh tortmaydi. Hamma sirlar, ramzlar o'z mohiyati bilan yuzaga chiqa boshlaydi. Bunday tasvir prinsiplari noan'anaviy qissalarning poetik tabiatini belgilovchi ramzlar bilan to'yintirilar

⁸³ Келтирилган адабиёт, -Б.28-29.

ekan, o'quvchi "Absurd – ma'no"ni kashf qilishni ham tushunib olishlari zarur. "Shuni ta'kidlab aytish lozimki, absurdni modernizmga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Modernizm og'och bo'lsa, absurd – uning mevasi. Mevani daraxtga qarshi qo'yish aqldan emas. Odam va qismat, shaxs va taqdirbitik o'rtasidagi munosabat tadqiqi, xoh falsafada bo'lsin, xoh adabiyotda, o'z-o'zidan absurdga olib keladi. Negaki, odam aqli yetgan hodisani izohlay biladi, mantiqiy nihoyasini ko'rish mumkin bo'lgan holatlardan bashorat qila oladi. Ammo hech qachon u o'z taqdirini bila olmaydi. Kishi hayoti istalgan bir soniyada mutlaqo kutilmagan va bashariy mantiqqa muvofiq bo'lmagan o'zanga tushib ketishi mumkin. Absurd ayni shu yerdan, ya'ni inson ojizligi yaqqol ko'rinib qolgan o'rindan boshlanadi. Gap jamiyat tartiblarida, siyosiy tuzumlarda emas. Absurd adabiyot, ayrimlar o'ylaganidek, adabiyotning ma'nisizligi emas, balki ma'nisizlikning adabiyotidir"⁸⁴, – deya yozadi professor Q.Yo'ldoshev.

"O'g'lim qiynalib o'ldi... O'limi oldidan do'xtirlar uning a'zoyi badaniga sanchilgan anjomlarini sug'irib, "Hozir joni chiqadi, so'ng olib ketaverasizlar", – dedi. Ular o'zlarini xuddi bizga bolani sog'-salomat topshirayotgandek tutardi. Hammasini yoppasiga bir kaltaklay dedim-u, Xudodan ko'rib, o'zimni bosdim. Bolaning esa ha, deganda joni chiqavermadi. Uzoq kutdik, chamasi ikki soatcha. Chaqaloq birdan ko'zlarini katta ochib menga qaradi, go'yo men sohildaman-u u esa quturgan daryoning o'rtasida oqib ketayotgandek qilib qaradi, jovdirab qaradi. Jonim halqumimga keldi. Men ilk bor o'zimni qurbon qilishga tayyor sezdim. O'g'limning o'limida o'zimni aybdor his qildim, ichikib og'ridim...

Uyga keldik, marosim boshlandi. Yuvishdan oldin ayollar ismini so'rashdi, ismsiz ketmasin deyishdi. Biz hali ism qo'yishga ulgurmagandik. Lekin Muhammad nomli o'g'lim bo'lishini juda-juda xohlardim. Bolam esa o'ldi. Agar ismni unga bersam, mening hech qachon Muhammad otlig' o'g'lim bo'lmasdi. Bir lahza ikkilandim, ismni qizg'andim... So'ng ablahligimga ortiq chiday olmay "MUHAMMAD!!!" – baqirdim anchadan buyon og'zimni poylab turgan

⁸⁴ Келтирилган адабиёт, -Б.161-162.

yuvg'ichlarga. *Negadir borib ko'pchilikka "Muhammad, o'g'limning nomi Muhammad!" deya birma-bir aytib chiqdim*"⁸⁵.

Keltirilgan parchani Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasidagi eng kulminatsion nuqta deb hisoblash mumkin. O'g'lining o'limiga joni achimayotgan – shafqatsiz shifokorlarning kutib turing deyishlarida jamiyat taloto'plarining, inson qismatining, o'tmish sarqitining hamon insonning tuzumlar o'zgarsa ham nafsni itdek ergashib yurganligini taqozo etadi. Mana shu jarayonda yozuvchi ikki jihatga alohida to'xtaladi:

1. *Qahramon chorasizlikdan – chora izlashi, umid va taskin og'ushida qolishi;*

2. *Bu sabablarning barchasida o'zining aybdorligini his etishni anglab etishi.*

Axir, o'quvchi voqelikning shiddatli oqimida, bir qarasangiz qahramon oshiq, bir qarasangiz mehribon ota, bir qarasangiz shoir va yozuvchi, ayrim o'rinlarda musofir va mazlum bo'lib ko'rinish berishi, insonning xarakteriga singib ketgan azaliy va abadiy ayriliqning o'zginasi ekanligi ayonlashadi. Jumladan, Muhammad ismini qo'yishda ham ikkilanishiga e'tibor bering. Boshqa Muhammad o'g'lim bo'lishidan qizg'onardim, – deyishining o'zi Sharqlik otaning siymosini eslatadimi? Aslo! G'arb badiiy-adabiy tafakkurining sintezi, ma'lum ma'noda, Ulug'bek Hamdam uslubiga ta'sir ko'rsatgani yaqqol seziladi. Biroq o'lcham mohiyati bilan milliy g'urur va or-nomusdir. Ana shu jarayonda qissago'ylarning polifonik nutq tabiati ham xarakterlarning muvofiqlashuv va kompozitsion qurilish jabhasini to'ldirishga xizmat qilishi shubhasiz.

"Poetikaga bag'ishlangan zamonaviy adabiyotlarda nuqtayi nazarning asar kompozitsiyasidagi o'rniga ayricha ahamiyat beriladi. Shunga qaramay, hali bu tushunchaga ko'pchilikni qanoatlantiradigan ta'rif berilgan emas, masalaga yondashuvlarda umumiy maxrajga keltirish lozim bo'lgan nuqtalar talaygina. Nuqtayi nazar tushunchasi, sodda qilib aytsak, roviy bilan tasvirlanayotgan voqelik o'rtasidagi munosabat asosida yuzaga keladi. Bunda ikki jihatga: 1) voqelik qaysi nuqtadan turib tasvirlanayotgani; 2) tasvirlanayotgan narsalar kimning nigohi

⁸⁵ Улуғбек Ҳамдам. Ёлғизлик. –Т.: "Академнашр". 2010. –Б. 24.

orqali berilayotganiga diqqat qilinadi. Birinchi jihatni tushunish uchun kinodagi operator ishini eslash mumkin. Ya'ni operator tasvirga olish uchun makonda muayyan bir nuqtani egallagani kabi, roviy ham voqelikni biron-bir nuqtadan turib tasvirlaydi. Tabiiyki, bu nuqta mutassil o'zgarib turadi: har safar tasvir obyekti eng yorqin va g'oyaviy-badiiy niyatga muvofiq ko'rinadigan nuqta tanlanadi. Zero, narsaga uzoqdan yo yaqindan, tepadan, pastdan yoki yondan, oldi yo ortidan nazar tashlash mumkinki, har birida u o'ziga xos tarzda ko'rinadi"⁸⁶, – deya yozadi professor D.Quronov. Modern adabiyot namoyandalari birgina ishora bilan ham butun asar arxitektonikasini to'g'ri belgilab, ritm va pafosni shu tariqa oxirigacha olib chiqish yoki izchillikda olib borishi mumkin. Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasidagi aynan "tasvir obyektining nuqtasi"ni belgilab olishi ham xilma-xil epizodlarning qorishiq holda kelishini dalolatlaydi. Natijada, yozuvchi o'tmish-bugun-kelajak haqida teran mushohada qilishdan sira charchash bilmaydi. Bu usul uning boshqa ramziy hikoyalarida ham yuzaga chiqqan.

Murod Chovushning inson ruhiyatining teranliklariga kirib borib tasvirlash metodi boshqa modern yozuvchilarnikidan tubdan farq qiladi. Bir qarasangiz J.Joy an'analari qabarib ko'rinsa, boshqa tomondan esa F.Kafkaning tasvir fragmentlari namoyishi kuzatiladi. Ayniqsa, yozuvchining talqin barqarorlashuvidagi ekzitsiyasi xilma-xil ifoda usullarining dialektik aloqasini taqozolaydi. Qahramon bir vaqtning o'zida o'tmish ham kelajak hamdir:

“Men keyin eslovdim “xotira uyg'onsa go'zaldir”, yo'q, xotira – tubsiz choh, unga qulaysan, qulab ketaverasan, qulashning cheki ko'rinmaydi, xuddi shuningdek, kelajak ham tubsiz-ma'nisiz, ammo yashamoq ma'nosiz emas, birdan-bir hozir axir, kuy yolg'iz, yagona va ayni daqiqani muzlatib qo'yadi, undan hatlab o'tadi, devordan sakrab oladi, xolos, xotira uyg'onsa meni topib tashlaydi, sening miyangni ezg'ilab tashlaydi, yana sen “Bu go'zal” deysan, aytarding. Hozir kuy ayni daqiqadan sakrab yana shu daqiqaga kelib tushadi. Ayni daqiqa o'z kuchini, o'zini yo'qotadi va uning o'rnini kuy egallagan bo'ladi. Kuy, yaxlit

⁸⁶ Куронов Д. Назарий кайдлар. –Т.: “Akademnashr”. 2018. –Б.15-16.

kuy vaqtdan tashqariga chiqadi, sen meni “u axmoq” deysan, deganding, kelajakni o‘ylaysan, o‘ylarding”⁸⁷.

Ko‘rinadiki, yozuvchi qahramoni o‘tmishni “ong ostida yotgan sezgilar, tuyg‘ular, kechinmalar” bilan uyg‘un holda kuzatishda davom etmoqda. Asar strukturasidagi yagona estetik mezon, aslida, qahramonlarning o‘y-xayollarida (botinida) ro‘y berayotgan voqelikning o‘zginasidir. Uning darajama-daraja yuksala borishi, yoki anglamsiz olamdan anglamli olamga sari olib chiqish (labirint) yo‘laklarining o‘zi fikrimizni to‘laqonli quvvatlaydi. Shunday ekan, “Hech” qahramonining ziddiyatlar qurshovida o‘tayotgan umrida mazmunning o‘zi yo‘q. U bir berilgan xotirani qayta tiklashni xush ko‘rganligidadir eng buyuk baxti. Vaholanki, u bir paytlar juda ta’sirchan bo‘lib o‘sayotgandi. Hayot maromi va yashash instinkti so‘nayotgan zamonning tashvishlariga ko‘milgan bani bashariyat his va tuyg‘ularini qayta idroklagani sayin o‘zini nochor va baxtsiz his qilishdan boshqasiga yaramaydi.

Badiiy asarda peyzaj haqida so‘z borganda, “Peyzaj (fr. Paysage – joy, yurt) adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra. P. deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki P. nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, mas., biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham P., holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi P.ni voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yguncha mufassal tasvirlashi (statik P), yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik P.) mumkin. Asarda P. Bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq P.ning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, P. qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi”⁸⁸. Binobarin, qissa poetikasida peyzajning nihoyatda o‘rni katta. Chunonchi,

⁸⁷ Kўрсатилган асар, -Б.51-52.

⁸⁸ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Т., Академнашр, 2013. –Б.221.

yozuvchi bir vaqtning o'zida voqelikni bayon qiluvchi, ham xarakterni ochib beruvchi, ham asar konsepsiyasini tartiblashtiruvchi ko'p qirrali roviy sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, peyzaj tasviridan mahorat bilan foydalanadi. Mana shu jihatlarga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, "Yolg'izlik" nomlanishining o'ziyoq romantik bo'yoqdorlik bilan tabiatning bir jismini namoyon qilmoqda. Bosh qahramon ham ana shu qalb-u shuuri qo'rg'onlangan, jamiyatda o'z o'rnini topolmay sarson-sargardon kezingan qahramon sifatida gavdalanadi. Natijada, uning orzulari ham, maqsadlari ham ro'yobga chiqmaydi. Tabiatga qanchalik zulm qilsa, tabiat ham undan kam bo'lmagan holda o'ch oladi. Nafsning bandalari singari qissa syujetida fojeaviy qahramon tarzida ma'naviy o'ldirilganligidir. ruhning halokatga uchrashi tiriklikning nashidasi emas. Qissa ana shu maqsadni ifodalash uchun yozilganligi ayonlashadi:

"Shu kecha men hech qancha uxlamadim. Shamolda bir maromda shovullab turgan daraxtlarning ochiq derazamdan kirayotgan qo'shig'i meni barvaqt uyg'otdi. Uzoq, juda uzoq tinglab yotdim... Va shu choqqacha yozgan qo'shiqlarimning hammasi daraxtzorning shovullashi qarshisida hech ekanligini idrok etdim... Ich-ichimdan g'alati, tug'yon to'lqini otilib chiqdi-da, o'zimni ham oqiza ketdi. Men bor-u yo'g'imdan ayrildim, judo bo'ldim. Agar bastakor bo'lganimda edi, yagona qo'shiqqa umrimni bag'ishlardim. Uni tinglagan kishi daraxtzorning o'sha kechasi ochiq derazamdan yog'ilgan nidosini eshitar va ehtimol, u ham mening kabi yangi bir qo'shiq kuylashga ehtiyoj sezar, o'zining butun o'tmishidan, qilib yurgan ishidan... qoniqmas, ko'ngli hapqirib, faryod solib, o'zini shovullayotgan daraxtzor bag'riga tashlar, shu vaqtgacha eshitgan va o'zi kuylagan qo'shiqlarning o'tkinchi va ta'magir tashvishlardan bino bo'lganini chuqur idrok etarkan, tipirchilar, barcha olamlarning mazmunini o'zida jo etgan qo'shiqqa nihoyat oshno qilgani uchun tiz bukib Ollohga shukrona aytib yig'lar, onadan qayta tug'ilardi..."⁸⁹

Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida o'nlab o'rinlarda – tabiat va daraxt, uning qo'ynida esayotgan epkinning tasvirini berishga alohida mantiq

⁸⁹ Kўrsatilgan адабиёт, -Б.33.

yuklaydi. Negaki, boru yo‘g‘i – o‘g‘lidan, uyidan, ishidan ayrilgan qahramonga yana nima kerak? Uning xotiralarini qayta idrok qilib beradigan tabiat – daraxtdan boshqa hech narsasi yo‘q-ku? Fojeasi ana shu yerda qalqib chiqadi qahramonning, u hamisha bezovta. Uyquda ham, uyg‘oq yurgan paytlarida ham hech qanday halovat, huzur ko‘ra olmaydi. Negaki, yozuvchi ana shu mezonni o‘zining hayot dasturiga aylantirib olganligida seziladi. Yolg‘izilik – qahramonning eng yaqin habibi, do‘sti, suyanchig‘i, Allohga nolasini shivirlab aytayotganda suyab turuvchi ruhidir. Mana shu jihatlar yozuvchining qo‘liga qalam olishga undaganligini taqozo etadi. Demak, har ikkala yozuvchining tabiatga va jamiyatga urg‘u berganligida deb, tushunish mumkin. Shuni qayd etish lozimki, insonning har bir o‘tayotgan kunidan hikmat topib yashash prinsipi U.Hamdanda ham, M.Chovushda ham alohida ahamiyatga ega. Biroq boy berilgan vaqtning temir ihotasida yanchilgan ruhi va samimiyati hech bir tashqarining sun‘iy mulozamatlarini qabul qila olmaganligida bilinadi.

“Yozuvchi qaysi janrda ijod qilmasin, asar yaratmasin, u obyektiv hayotga murojaat qiladi. Lekin obyektiv voqelik, ya‘ni hayotiy material qanday bo‘lsa, yozuvchi uni shunday tasvirlamaydi. Basharti shunday qilinsa, badiiy asar bo‘lmaydi. Yozuvchi uni qayta yaratadi, o‘zidan qo‘shadi, o‘rni kelganda “kamaytiradi”. Bu “qo‘shish” va “kamaytirish” hayotiy haqiqatlarga zid bo‘lmasligi, yozuvchi asarda ilgari surgan badiiy maqsad-konsepsiyaga muvofiq bo‘lishi kerak. Demak, ijodkor voqelikka suyangan holda yaratgan asardagi konsepsiya o‘z zamonasining dolzarb masalasi bilan aloqador bo‘lsa uning qalbida go‘zallik, ezgulik hislarini yoki nafrat tuyg‘usini uyg‘ota olsa, ana o‘shandagina o‘z vazifasini ado etgan bo‘ladi”.⁹⁰ Darhaqiqat, professor H.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, yozuvchining qo‘shish va ayirishlari, mantiqni to‘g‘ri belgilab olishlari har doim bir maromda bo‘lmasligi tayin. Chunonchi ayni shu kecha-kunduzda yaratilayotgan noan‘anaviy qissalar sistematik tarzda global adabiy hodisalar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilish natijasida yuzaga kelmoqda.

⁹⁰ Каримов Х. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар) -Т.:Yangi nashr. 2018. –Б.143.

Ixchamlashuv, syujetning bir siqiq ahvolga olib kelinishi, kompozitsiyaning murakkablashuvi va polifonik nutqning teranlashuvidan dalolat beradi.

Umuman, syujet badiiy kompozitsiyaning ichida yashaydi, rivojlanadi, sayqallanadi, taraqqiy etadi. Kompozitsiya hamma vaqt syujetdan keng tushuncha bo‘lib, uning taraqqiy etishi uchun xuddi ruh va tan birlashgandagina jon ato qilinishi mumkin bo‘lganidek, syujet va kompozitsiya muvofiqligi ko‘rib turgan hayot qonuniyatlarini xuddi shakl va mazmun kabi bir butunlikda anglab yetish imkonini beradi. Jarayon shuni ko‘rsatmoqdaki, badiiy kompozitsiya noan’anaviy talqin prinsiplarida ham an’anaviy nasrda bo‘lgani kabi o‘zining nazariy maydonida yashashda davom etaveradi. Faqatgina murakkab, anglamsiz hayot manzaralarini yondosh sohalar falsafa va psixologiyadan izlash mumkin bo‘ladi. Mana shularning ko‘pchiligi badiiy asar arxitektonikasida o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarsagina poetik qiymatga putur yetmaydi va asarning mantiqiy o‘shida o‘ziga xoslik zohir bo‘lishi mumkin desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

2.3.8. Noan’anaviy qissalarda mif va metamorfoza uyg‘unligi

Mif eng qadim-qadim zamonlardan buyon badiiy nasr: u og‘zaki yoki yozma adabiyot bo‘lsin, juda katta universal g‘oyalarni tashuvchi an‘analarni o‘zida singdirgan shakllardan biri sanaladi. Chunki mif universal hodisa. Butun koinot, olamning yaralishi, ibtidoiy inson dunyoqarashi hamda taraqqiyotning bir uzvi sifatida odamlar kosmogogin miflarga katta e‘tibor qilganlar. Mifni davr va muhit yangilab, uning o‘ziga xos jihatlarini “kashf” qilib boradi. Yangi zamon mifologik qarashlarining mohiyatida hayotning har qanday ko‘rinishi, insonning o‘zgarishi, olam hodisalari va odam munosabatlarining tig‘izlashuvi ham magik, fantastik yo‘sinda chatishib, aralash holda zuhur etilganining shohidi bo‘lib turibmiz. Yangi zamon noan’anaviy prozasida mif – tush, talqin va kechinma birligini uzviylashtirib, uni ifodalash yo‘sinlarini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Obrazning xilma-xilligi, poetik syujet va kompozitsiyaning vobastaligi mifologik qarashlarning yanada yuksak pog‘onalarga chiqishida katta imkon yaratdi. Mislisiz

taraqqiyot va rivojlanishlarning tez sur'atlarda o'zanidan tashqariga chiqishi natijasida neomifologizm hodisasi yuzaga keldi. Buni ushbu faslda jahon va o'zbek adiblari izlanishlari misolida ko'rib chiqamiz.

“Adabiyotda mifologik tasvirga ehtiyoj hech qaysi zamonda pasaymagan. A.Navoiy asarlarining asosi mifga qurilgan. Buyuk shoir mifga o'z g'oyalarini, inson haqidagi tadqiqot va ta'limotini singdiradi. Yevropada XIX asrda bunyodga kelgan mifologik nazariyalar adabiyotni yana mifga yuz burishini boshlab berdi. Nisshе birinchi marta mif va insonni yaxlit holda tadqiq etdi. Freyd, Yung, Adler mifshunoslikning, mifga bo'lgan munosabatning yangi nazariyasiga asos soldilar. Bu nazariya mif bilan adabiyot aloqasini mustahkam bog'lab berdi: bu nazariyaga ko'ra mif ajdodlarimizning timsollar tiliga asoslangan ong osti hiskechinmalarining in'ikosidir. Freyd mifga “ong osti shahvoniy mayllarining”, Yung “Ommaviy ong osti hislarining”, Fromm “aqliy faoliyatga bo'lgan ong osti hislarining” namoyon bo'lishi deb, baho berdilar. Shu jihatdan mif bilan tushning farqi yo'q edi va bu baho mifni badiiy adabiyotga mutlaqo yaqinlashtirdi. Adabiyotni uslubiy yangilashni maqsad qilgan modernistlar mifga murojaat qildilar: tushga asoslangan uslub, syurrealizm shu asosda paydo bo'ldi”⁹¹. Ko'rinadiki, mifning aralashmagan badiiy matni qolmagan. Chunki yozuvchi yoki shoir o'zining xayolotidagi tafakkuridagi, qalbidagi kechinmalarni yozadi. Ayni paytda, ana shu o'ylab topilgan, “kashf” qilingan obyektiv borliq bilan subyektiv borliq orasida ziddiyatli holatlar kechishi, mafkura, din va axloq tushunchalarining qorishiq holda zuhur etilishi shular jumlasidandir. Vaholanki, mifologik qarash badiiy adabiyotning biz ilg'amagan nuqtasida namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqul ana shu tamoyilni butun ijodi davomida konseptual tarzda shakllantirdi va rivojlanishi uchun o'zbek adiblariga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan ilk yozuvchilardan biri bo'ldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotshunos J.Eshonqul qayd etishicha: “Insoniyat aqli mifdan, mifologik olamdan ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib va taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgan sayin bu mavzu yana ham qizg'in tus oldi. Atom, kosmik

⁹¹ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши, “Насаф”. 1999. –Б.140.

kema asri bo‘lgan XX asrda ham fizika va ximiyaning yutuqlariga qaramay, mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzusiga aylandi-ki, oqibatda “neomifologizm” degan oqim paydo bo‘lib, mif va adabiyot aloqalarini birinchi marta ilmiy o‘rganishga kirishildi. ...Uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi pog‘onaga ko‘tarishi mifsiz sodir bo‘lmasligi ayon bo‘lgach, mif va adabiyot aloqalarini endi quruq syujetlardan emas, inson psixologiyasidan izlaydigan fan – psixoanalitika yuzaga keldi”⁹². Ko‘rinadiki, har qanday adabiy oqim davr manzaralarini aks ettirishga qaratilganligi ayonlashmoqda. Kafka, Kamyu singari modernist yozuvchilar talqinlarini ilmiy tekshirishda ham psixoanalitik yondashuv o‘ziga xos o‘rin tutishini yodda tutmoq joiz. Neomifologik talqin “Tun panjaralari” qissasida yozuvchining tun bilan yolg‘iz suhbat qurayotgan, ba’zida shayton bilan tillashayotgan xilma-xil qiyofalarning estetik idrokni anglashga imkon beruvchi ijodiy konsepsiyasi ochiqlana boradi. Bir qarashda tunda kechayotgan voqelik o‘tmish va bugun manzaralarini “tushunib olish”ga yetaklaydi. Badiiylik modusi qissada muhabbatning nafratga, nafratning muhabbatga o‘tib turish manzaralarini tipiklashtira boradi:

“Umrim kemasidan allaqachon tushib qolgan, suvga tushgan shishadek uzoq-uzoqlarga oqib ketgan Robiya va uning jamalak sochi ba’zan yillar qa’ridan xotirjam ko‘zgisiga qalqib chiqadi. Biz u bilan Tersota soyiga qo‘zi boqqani borardik. Soyda bizni hamisha qaroqchilar makonidek qo‘rqinchli yulg‘unzor kutib olardi. Men o‘zimning keksa, to‘satdan tajovuz qilib qoladigan, hurpayib olgan, egri, badburush, nayzalarini ko‘kka darg‘azab tirab turgan yulg‘unlardan qo‘rqmasligimni isbotlash uchun uning ichiga kirib olar va qanotli tulpor haqidagi ertagimni boshlardim. Garchi ko‘pincha o‘zim to‘qisam ham, Robiya mening oq tulpor bilan qilgan sarguzashtlarimni hayrat bilan eshitar, chapak chalib qiyqirib yuborar, menga bu yoqar, uni singan tishlari xunuk ko‘rsatib tursa ham, shunday paytlarda juda yoqimli bo‘lib tuyulardi. Men uni hamon mana shu holatda, mening yalmog‘izlar va ajdarholar ustidan qilgan g‘alabamdan quvonib, gulday yayrab turgan holatda tasavvur qilaman. Tushlarimga ham xuddi mening hozirgi

⁹² Ўша асар. –Б.141.

hayotimdan kulayotgan bolalik kabi ma'sum va beg'ubor kulgilari kirib chiqadi"⁹³.

Bir qarashda qissada xalq og'zaki ijodining uchqunlari ko'zga tashlansa, boshqa jihatdan G'arb ekzistensial oqim vakillarining tafakkurni chatnatadigan noreal borliq haqidagi, fojeaviy yo'sindagi iqrorlari namoyon bo'ladi. Ayni paytda, qahramon o'zining kim ekanligini juda yaxshi bilishi muhim. Robiyaga talpinishi va uning bolaligida qalbida qoldirgan pok va azim muhabbati yo'lida chekkan mashaqqatlari fikrimiz yorqin dalilidir. Negaki, yozuvchi o'zining ijodi y konsepsiyasida bo'rtib ko'ringan ifoda tig'izligini sohir bolalikning o'chmas lahzalari yanglig' idroklaydi. Mana shu mavjudlik falsafasida fojeadan – kelajakning yorqin ranglarda tovlanishini izlashligida ko'rinadi. Robiya sog'inchi qahramonning hali yashash va hayotda o'z o'rnini topishning yagona yo'li. Boshqacha aytganda, qissadagi maktub janriga doir ifoda usullari ham o'quvchini voqelik ichkarisiga sezdirmay olib kirishi tayin. Mana shu tamoyilga e'tibor qaratsak, qissaning hal qiluvchi konsepsiyasi keyingi talqinlarimizda ochiqlanishini idroklash muhim. Qissadagi mif va zamon birligi sobiq o'tmish xotiralarini miyadan yuvib chiqarish qiyinligini anglatmoqda. Ong osti hislarining asar hujayralarida sochilib ketishi, G'arb badiiy tafakkurining sezilarli ta'siri hamda milliy mentalitetimizning *"tushkunlikdan-yorug'likka tomon yurish"* tamoyilida bo'rtib ko'rinadi.

"Metamorfoza (evrilish) asosan insoniy evrilish – o'zlikni anglash (asosan insonning o'z-o'zini anglashi) bilan teran va mustahkam bog'lanishga ega. Ayniqsa, bunday bog'lanish xalq ertaklarida aniq saqlanib qolgan. **Ertakdagi odam obrazi** – ertakka xos barcha rang-barangliklari bilan doimo evrilish va o'zni anglash (o'z navbatida, har xillikni emas, balki ushbu motiv konkretligini ta'minlovchi bo'lak sifatida) motiviga quriladi. **Evrilish** – **o'zni anglash** motivlari bir odamdan butun insoniyat dunyosigacha, tabiatga, insonning o'zi tomonidan bunyod etilgan narsalarga o'tadi. Inson obrazida o'zni anglash va evrilishlarni ochib tashlaydigan xalq ertaklariga xos zamon haqida shunday deyishimiz

⁹³ Кўрсатилган адабиёт, -Б.488.

mumkin”⁹⁴. Darhaqiqat, badiiy talqinning yangi zamon mifik tasavvurlariga ta’sir qilishi ham oson narsa emas. Uning murakkab va ziddiyatli jihatlari mavjud. Chunonchi, ikki jihatni ko’rishimiz mumkin: birinchidan, yozuvchi yashagan davr va uning ilg’or tendensiyalarining jamiyat hayoti bilan bevosita bog’liqligi, ikkinchidan, davrning aks etish qatlamlarida tarixiy qamrovning idrok etilishi, joylashish tartibi, geografik yaxlitligi, odamlarning o’zaro munosabatlari kiradi. Nazar Eshonqul, Ulug’bek Hamdam va Isajon Sulton qissalarida folklor va mifologik qatlam orqali yangi zamon insoni obrazlarining tajassumi o’z ifodasini topadi. Tarixan qisqa davr emaski, 70 yil hukm surgan va insoniylashmagan jamiyat ichkarisida sodir bo’layotgan turli xil voqeliklar mana shu jihatlarni o’z ichiga oladi. Zotan, insoniylashmagan soxta shiorlar, yolg’on-yashiq ma’lumotlar bilan nafas olgan jamiyat alal oqibatda tanazzulga yuz tutganini anglash qiyin emas. Mana shu tamoyil mif va metamorfozaning yaxlitlashuviga olib keldi. Shaxs jamiyatning bir qismi o’laroq, erkin va obod umr kechirishni xohlaydi. Umri bo’yi egatdan chiqmay, “hayot shu ekanda” deb o’tib ketgan ajdodlarimiz va ota bobolarimizning totgan azob-uqubatlari o’z-o’zidan unutilib ketishi kerakmi? Albatta, ularning ma’naviy jasoratidan, ruhiy quvvatidan qaytanga ibrat olishimiz zarur. Nazar Eshonqulning har ikkala qissasida jamiyatning odamlar boshiga yog’dirgan mislsiz azob va uqubatlari talqini Shayton timsolida ochiqlanshining boisi ham shunda deb tushunamiz.

Syujet liniyalarida Shayton obrazi va mifologik qatlam uyg’unligi. Yozuvchi hayotni tubdan ikir-chikirlariga qadar o’rganar ekan, o’zining to’qib chiqargan badiiy to’qimalarida xayolidagi mifologik obrazni yaratadi. Shu asosda, mifologik obraz tushunchasi syujetning asosiy talqin chegarasini aniqlab olishga zamin hozirlaydi. Biz ko’pincha, Shayton deganda Odam Ato va Momo Havoni yo’ldan ozdirib, jannatdan quvilishiga sabab bo’lgan omillarni tushunamiz, aslida Shayton Insonga itoat qilmagani uchun jannatdan quviladi va ta’qiq mevasini Momo Havoga yedirib ketadi. Bu yerda nafsning o’rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga tushgandan keyin odamzod shu qadar tubanlashib ketdiki, gunoh ustiga

⁹⁴ Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Т., “Академнашр”. 2015. –Б.77.

gunoh, yovuzlik ustiga yovuzlik, buzg'unchilik, mehr-oqibat rishtalarining uzilishi kabi o'nlab salbiy sifatlar odam bolasining ruhiyatiga mahkam o'rnashib oldi. Bu yerda jamiyat ham muhim faktor vazifasini bajardi. Adashgan, yo'lini yo'qotgan qahramonlar badiiy asarning eng muhim tasvir obyektiga aylandilar. Demak, insoniyat mudhish taloto'plar orasida global muammoning bir uzviga aylanib, eng kichik zarraning ham o'z vazifasi borligini anglab yetdi. Vaqtning yetmasligi, odamlardagi qanoatning yo'qolishi, dinlar va irqalararo to'qnashuvlarning barchasida Shaytonning xizmati beqiyos bo'lib, o'zini o'nglamoqchi bo'lgan SHAXSning boshi berk ko'chaga kirib, undan chiqish yo'llarini ham biladigan darajada mahdudlashib borayotgani hech kimga sir emas!

Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari", "Qora kitob" qissalarida Shayton mifologik obraz sanaladi. Bu obrazning yaralishiga sabab sobiq ittifoq zamonidan qon-qonimizga singib kelayotgan juda yomon illatlarni ramziy-metaforik yo'sinda idroklash masalasi ko'ndalang qo'yiladi. Jumladan, texnogen dunyoda san'at va adabiyotning taraqqiy etishida yangi zamon miflarining o'rni nihoyatda beqiyosdir. Ularning ta'sir doirasi ham, taraqqiyot o'lchamlari ham nisbatan kengayib ketmoqda. "Uchoqlar, poyezdlar, raketalar, telefonlar, kompyuterlar – barchasi syurreal emas, zamonaviy tamaddun voqeligidan iborat poetik obyektlardir. Bu so'zlar chegarasidan tashqariga chiqqan poeziya chin ma'nodagi poeziya fizikasi, uning texnik va ijtimoiy jismlaridir. Ularda na absurd, na mubolag'a bor, lekin shu holicha majoz va yoki istoiradir, chunki inson tanasi xususiyatlari va ko'ngil intilishlari (aslida, majoz – "metafora" ko'chirish yoki bir joydan ikkinchi joyga tashish degani, Yunonistonda yuk mashinalari "metafora" deb ataladi) materiyaga ko'chishdir. Shunday qilib, telefon eshitish majoz va quloq istoiradir (ya'ni eshitish moslamasi alomatlarini turdoshlik bo'yicha apparatga ko'chiradi). Syurreal obyektlardan farqli o'laroq, telefon yoki raketada, foydalanishga yaroqlilik va poetiklik bir-biriga zid kelmaydi, aksincha, bu o'rinda foydalanishga yaroqlilik poetik vositalar bilan erishiladi⁹⁵. Darhaqiqat, Faxriyorning ushbu tarjima maqolasida rus faylasuf esseisti M.N.Epshteyn global dunyoda o'z-o'zidan

⁹⁵ Эпштейн М.Н. Юсак поэзия ва Алподам. Фахриёр таржимаси. –Т.: "Akademnashr". 2020. –Б.249.

mutatsiyaga uchrab, yo‘qolib borayotgan juda teran hayotiy tahlillar bilan isbotlab beradi. Unga ko‘ra, ramzlar, metaforalarning tag-zamirida INSON fenomeni va uning aqlbovar qilmas hilqat ekanligini, Alloh unga juda katta sirlarni bildirganligi va berganligini yangicha qarashlar negizida talqin qiladi. Biz Nazar Eshonqul badiiy izlanishlaridagi Shayton va Inson obrazlarini syujetning asosiy hal qiluvchi, umuman, *muammo*, *voqelik*, *yechim* uchligida aniqlashga diqqat qaratamiz:

“Tun panjaralari” nomli qissada Nazar Eshonqul muharrir do‘sti Haqqul bilan bo‘lib o‘tgan voqealarni tasvirlar ekan, o‘zining mifik tasavvurida paydo bo‘lgan yangi bir olamni o‘qib beradi. Haqqul unga an’anaviy narsa yozishini yuz-ko‘z ifodalarida anglatib yuboradi. Haqqulning yoshi dunyoni yangicha ko‘rish davridan anchayin o‘tib ketganligini bilgan qissa muallifi, ya’ni qahramon uning qarashlarini qabul qilmaydi. Demak, yozuvchi yangi zamon mifologik qatlamlariga teran nazar tashlar ekan, Haqqul ta’biricha, bular G‘arbga ko‘r-ko‘rona taqlid ekanligini aytib qoladi. Qissada qahramon deraza oldida o‘tirib uzzu-kun xayol suradi. Bu xayollarning musaffo osmon kabi tiniqligi, orzularning ro‘yobi sari odimlashga ko‘maklashishi faqatgina qahramonning tafakkurida, ko‘z oldidagi tasavvurida namoyon bo‘ladi. Mana shu jihatlar yozuvchining eng muhim uslubiy moduslaridan biri ekanligi anglashiladi:

“Men u bilan tezda aloqani uzdim. Hozir ba’zi-ba’zida ko‘rishib qolsak, u o‘zining badbo‘y falsafasini tinimsiz chaynaydi. Eshitib qon bo‘lib ketasan. U bilan uchrashib qolgandan so‘ng men ikki-uch hafta zaharlanib qolgan vujudimni tozalash bilan ovora bo‘laman. G‘aroyib qismat. Uch kun o‘tirib gaplashsang, to‘rtinchi kuni tomirlaring yorilib o‘lishing hech gap emas. Bularning zahri qoraqurtnikidan ham kuchliroq. Bular hayot mevasining aynib, sasiy boshlagan qismi. Bular ketayotgan ko‘chaning boshi berk. Men keyinchalik unga o‘xshash odamlarning o‘sha – menikiga kelib turadigan shaytondan hech qanday farqi yo‘qligini anglagandim. Aksincha, garchi yozdig‘i yovuzlik bo‘lsa ham, shayton ularga qaraganda faoliyatliroq edi”⁹⁶.

⁹⁶ Назар Эшонқул. Сайланма. 2-жилд. –Т.: “Akademnashr”. 2022. –Б.498-499.

Haqqulga o‘xshagan ichi qora, Shaytondan ham battar odamlar yo‘q deb o‘ylaysizmi? Ayniqsa, ittifoq yemirilishga yaqin qolgan yillarda yozuvchilar, olimlar va, umuman, ziyoli qatlam orasida bir-birlarining “imi-jimi”da tagiga suv quyishlar boshlangan. Ana shu jarayonda haqiqiy talant sohiblari Alloh buyurgan ezgulikdan sira tonmaganlar. Yozuvchi qahramonlari xuddi o‘quvchilari kabi ikkiga bo‘linib, bir-birini muhokama qilishga kirishib ketadilar. Yozuvchi juda katta masalani o‘rtaga tashlayapti. “Men dunyoni boshqacha ko‘rishni, an‘analarni singirishni, odamlar o‘qib tushunishlari uchun o‘zining yangidan-yangi qiyofalarini yaratishini istayman” deganida haq ekanligi ayonlashadi. Dunyoning soat sayin o‘zgarib borayotganligini, ularni hazm qilishda badiiy adabiyotning nechog‘li ahamiyati bor yoki yo‘qligidan xavotirga tushadi. Bu xavotir yozuvchini biron marta tinch qo‘ymaydi. Ana shu jabhada yangicha universal mifologik obrazlar sistemasi qalqib yuzaga chiqa boshlaydi.

Prof U.Jo‘raqulov yozishicha: “Bashariyat o‘z tarixi davomida xoh u mif tarzida buzilgan, xoh u bid‘atlar bilan qorishib ketgan bo‘lsin, ilohiy ko‘rsatma va axborotlarga, Yaratganning bildirgilariga tayangan. Hatto insoniyat Xudoni unutib, bir qadar dahriylashgan zamonlarda ham bunday ta’limotlar badiiy an‘analar tarzida yashab qolgan, adabiyotning harakatlantiruvchi kuchi vazifasini bajarishda davom etavergan. Ikkinchidan, olim insoniyat yaratilgandan beri bir lahza bo‘lsin to‘xtamagan zamon va makon harakati hayotning badiiylashtirilgan modelini ishlab chiqishga da’vo qiladigan badiiy adabiyotning ham eng muhim sharti ekanini nazariy jihatdan isbot etgan. Badiiy niyatning tug‘ilishidan boshlab, asarning yozilishi, tugallanishi va bundan keyin o‘quvchi badiiy aurasida yashashigacha bo‘lgan jarayonlar haqida fikr yuritgan”⁹⁷. Binobarin, badiiy shartlilikning har bir asarda zuhur etilishi yo‘sinlari turlicha bo‘lib, nazariy jihatdan olib qaralganda – bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, qissada odatda, xarakterlar (personaj) yarim tayyor holda tanlanib asarga olib kiriladi. Bu tanlanishga g‘oya va maqsad singdirilib, qaysi davr nuqtayi

⁹⁷ Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т., “Ф.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2015. – Б.104.

nazarini, qaysi vaqtning ko‘rinishlarini, ilg‘or g‘oyalarini tajassum etganligida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi asl maqsad va diqqatini nimalarga qaratayotganiga faol munosabatda bo‘lishlikni targ‘ib qilganligida seziladi. XX asr noan‘anaviy ramziy-majoziy talqinning gullab-yashnagan bir davrini boshlab bergan qissalarda “mafkura va zamon” chig‘iriqlari sabab ekanligini inkor qilmaymiz. Ong va tuyg‘ular orasidagi muayyan bog‘liqlik, uzilishlar, to‘qima va yolg‘on shiorlar qattol zamonning asl basharasini ko‘rsatib bergani sir emas! Badiiy g‘oyaning ramzlar tilida hikoya qilinayotgan voqelikni yuzaga chiqarishdagi eng birlamchi vazifadoshligi – xarakterni o‘quvchiga murakkab yo‘sinda tanishtirishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi. Zero, xarakter ham ramziy yuk tashuvchi vosita bo‘lib, jamiyat hayotini chamalashga zamin hozirlaydi:

Dunyo modern yozuvchilarining aksariyati yangicha mifologik obrazlar ustida tinimsiz ishlash bilan ovvora. Frans Kafkaning yozuvchi Nazar Eshonqul ijodiga juda qattiq ta’sir qilishini hech kim inkor qilolmasa kerak. Yozuvchi shakliy ustqurmani shu qadar mahorat bilan o‘zlashtiradiki, natijada o‘zining o‘zbekona uslubiy manerasiga ega bo‘ladi. Bu birdaniga sodir bo‘ladigan hodisa emas. Jamiyat va odam bir-birisiz ayro kun ko‘rolmaydi. U har qanday vaziyatda mif va ramzlar qurshovida buyuk kelajak sari qadam tashlasa ham undan mutlaqo uzilib keta olmaydi. Yozuvchi Nazar Eshonqulning mazkur qissasidagi Shayton obrazi syujet va kompozitsiyada mifologik xarakter in’ikosi o‘ziga xos tarzda bo‘y ko‘rsatganligini namoyish qila oldi:

“Shayton yoz oqshomlarining birida (yoz ekanligi aniq esimda, chunki deraza ochiq edi va men uni derazadan kirgan bo‘lsa kerak deb gumon qilgandim) o‘sha kunlari ruhiyatimdek pachoq oromkursida mudrab o‘tirganimda to‘satdan paydo bo‘lgandi. U juda ohorli shim, oq ko‘ylak kiygan, g‘ilay ko‘zlariga yarashmasa ham, ensizgina qora galstuk taqib olgandi. Boshida esa soyaboni keng qo‘nqaygan shlyapa, qancha yashirishga tirishmasin, shimining tor balog‘idan o‘ynoqlab turadigan sarg‘ish, jundor dumi ko‘rinib turardi. Shlyapasi tagida esa tekis va silliq qilib taralgan oltin sochlari yaltirardi...

*Narigi xonada qarg‘aning qag‘illashiga o‘xshash shang‘illash eshitildi. Uy bekasi, aftidan, uyqu oldidan yana qizi bilan janjallashyapti. Ular kun bo‘yi bir necha marta jiqqalashmasa, tomoqlaridan ovqat o‘tmaydi. Ularni o‘ylasam, hamisha alamdanda tishlarim g‘ijirlab ketadi. Qani bularga baxt va baxtsizlik haqidagi ertaklaringni aytib ber-chi, ishtonini ho‘l qilib qo‘ygan bolaning ustidan kulganday sening ham ustingdan ham fahmsizlik yopishib olgan qorinlarini silkilatib miriqib, kulishadi, seni g‘irt axmoqqa chiqarishadi. Baxt haqida ular hech qachon o‘ylab ham ko‘rishmagan’*⁹⁸.

Qissa qahramonlari xuddi hayotda Shayton bilan birga muloqot qilib yurgandek taassurot uyg‘otadi. Ayniqsa, mifologik qatlam qissa arxitektonikasining yanada jozibador bo‘lishini, yozuvchining asl ijodiy konsepsiyasi boshqa masala – Olamni anglash uchun bir vositaligini tushunishdan iborat ekanligi ayonlashadi. Allohni tanish uchun Shaytondan uzoqlashish shart. Nazar Eshonqul bu yerda qahramonlarini tun qo‘ynida sinovdan o‘tkazadi. Tunda pokiza qalb egalarini yo‘ldan urish uchun har tarafdanda chiqib keladigan Shayton, jinlar va shunga o‘xshagan tun maxluqlari bilan real hayotni ramziy timsollar yordamida anglashga imkon topganligida seziladi. Negaki, Shaytonning qutqusiga bir ilingan odam, undan chiqish uchun tavba va tazarru qilib, gunohlardan forig‘ bo‘lmoqlikni Allohda so‘rashi lozim. Yozuvchi qissada **“hikoya ichida hikoya”** usulini keng qo‘llaydi. Ya‘ni qahramonlar shayton bilan do‘st tutinganida faxrlanadilar. Real hayotdagi shaytonsifat odamlarning qing‘ir ishlarida bezgan qahramonlar xarakterida ham ajabtovur o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Lekin adib bu yerda juda katta konsepsiyani ilgari surayotir. Sobiq ittifoq yakkahokimligida qonun darajasiga chiqib qolgan yozilmagan axloq normalari insonlarni tabaqalashtirib, asosiy kuch – xalq xo‘jaligini rivojlantirish, ular fikrlamasligi lozim, ular mushohada qilishga vaqti bo‘lmasligi kerak, ular qorin g‘amidan boshqa narsa haqida umuman bosh qotirishi mumkin emas, degan o‘zlarining chirkin Shaytoniy manfaatlarini ishga solib, qul, mute qilib boshqarishning hadisini olganligini hech bir avlod unutmasa kerak. Nazar Eshonqul va shu kabi

⁹⁸ Кўрсатилган адабиёт, -Б.499.

yozuvchilar avlodi mana shu og‘riqlarni birma-bir boshlaridan o‘tkazdilar. Ayniqsa, 80-yillarga kelib, qayta qurish siyosatining og‘riqlari butun millatimiz boshiga misli ko‘rilmagan ko‘rguliklarni soldi. Yozuvchi ana shu ko‘rguliklar, azoblar-u uqubatlarni Shayton obrazi bilan ifodalab “Tun panjaralari”ning bag‘riga yashirishga imkon topdi.

Yozuvchi “Qora kitob” qissasida ham Shayton obrazini yagona syujet chiziqlariga mifologik talqin negizida singdirib yuboradi. Qissada Shaytonning izmida kechgan bir umrlik azob va uqubatlari – nafsning kushandasi bo‘lmish o‘zlik va e‘tiqod ham uyg‘un ravishda yanada ko‘rkamlik kasb etadi. Shuni qayd etish lozimki, “Hozirgi o‘zbek nasrida qadim mif va afsonalarga kuchli ehtiyoj paydo bo‘lgan. Muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan subyektiv mif yoki mifologik tafakkur asosida shakllangan badiiy asar qurilmasi, mifologemalar ishtiroki, syujet va motivlari hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida yangi adabiy yo‘nalish – **neomif nasr**ni tashkil etmoqda. XX asr ijodkorlari yaratgan neomif nasr mazmun va mohiyat jihatidan aynan miflarni takrorlash emas, mifologik syujetga, obrazga (mifologemalarga) yangicha nigoh tashlashdir”⁹⁹, -deya yozadi adabiyotshunos M.Qo‘chqorova. Darvoqe, yozuvchi neomif yaratar ekan, o‘z davrining adabiy hodisalarini jahon nasri bilan sintezlaydi. Eng muhim va tushunishga imkon bo‘lgulik ifoda tig‘izligini ajratib oladi. Nazar Eshonqulning qissalaridagi Shaytonning butun yer yuziga egalik qilishga intilishi dunyodagi yovuz kuchlarning haddan tashqari ko‘payib ketganligini anglatadi. Mana shu jarayon yozuvchining asl konseptual dunyoqarashi mahsuli ekanligi ayonlashadi:

“Men bu ayolning eshikni yopmay, og‘irligidan mayishib ketgan sim to‘shakda xurr-xurr uxlab yotganini ko‘rsam, hamisha ko‘z oldimga botqoqda huzur qilib uxlab yotgan semiz cho‘chqa keladi. Yo‘q, odam haqida bunday fikrlash yaramaydi, bunday nafrat bilan so‘zlash kerak emasligini men bilaman. Lekin bekani ko‘rishim bilan xuddi tarozining ikkinchi pallasiday xayolimda cho‘chqa ham lip etib paydo bo‘ladi. Men xayolimni band etgan badbo‘y tashbehlardan jirkanib boshimni devor tarafga buraman...”

⁹⁹ Қўчқорова М. Ўзбек насрида бадий шартлилик. Филология фанд.док.дисс. –Тошкент. 2020. –Б.153.

Tun – mening xilvat boshpanam. Balki, yolg‘iz manzilim ham shu yerdir. Men faqat tun qo‘ynidagina, mana shu kichkina, qorong‘i burchagimdagina o‘zimni erkin his etaman, ko‘nglimdagi o‘ylarni, sirlarni unga aytaman. U ham meni tushunganday atrofimda girdikapalak bo‘ladi, aylanib-o‘rgiladi. O‘ziga sirdosh topilganidan ba‘zan chigirtkaning tilida shodon g‘o‘ldirab qo‘yadi, xonamda sekin o‘rmalab yuradi, yuzimni silab-siypalaydi. Men unga o‘zimning ertaklarimni aytar ekanman, aftini masxaromuz bujmaytmaydi. Men uning nafasini, ertaklarimda hayajonlanib ketganda xuddi Robiyadek pish-pish etib xo‘rsinib qo‘rganini sezib qolaman’’¹⁰⁰.

Qissa qahramoni butun olamdagi mavjudotlarga ta‘rif berarkan, o‘zining xotiralari (ong ostida yotgan) talabalik davridagi boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklarini ham eslash negizida matn qa‘riga singdirib yuboradi. Qissada Robiyaga bo‘lgan pokiza muhabbati bir nav esidan ko‘tarilgan emas. Ijara uyi egasi, ya‘ni ayolning cho‘chqaga o‘xshatilishi ham bejiz emas. N.Eshonqul bu obrazdan boshqa hikoyalarda ham ayrim xarakterlarini chizishda foydalangan. Mana shu o‘rinda syujetning mantig‘idan kelib chiqib asosiy voqelikka mos yana bu cho‘chqaga o‘xshatilgan obrazning kiritilishida Shaytoniy sifatlarning hali vujudida yashayotganidan darak bermoqda. Deylik, davr o‘zgarishga oz qolgan esa-da, yozuvchining chinakam milliy istiqlol haqidagi ulkan g‘oyasi mavjud. O‘sha g‘oyani amalga oshirishga xalaqit beradigan manfur tuzumning kirdikorlarini ramziy-timsollar fonida ochiqlab bormoqda. Bular mana shu lavhada ham o‘z maromiga yetib tasvirlangan. Jarayon shuni ko‘rsatmoqdaki, yozuvchi qanchalik tasvirda chuqurlashgani sayin, shunchalik xarakterlarni ifodalash yo‘lida mashaqqatlarni ketma-ket yengib kelayotganligi ayon bo‘ladi.

“Tun panjaralari” qissasida yozuvchi xarakter yaratish va ularning syujet mazmunida qanday o‘rin egallaganini ko‘rsatish juda murakkab ekanligini ham unutmazlik lozim.

¹⁰⁰ Назар Эшонқул. –Б.501.

1) Yozuvchi qissada adabiyot o'qituvchisining ham, jurnalist yoki muharrirning ham maqsadi bir nuqtada jam bo'lishi, faoliyati qanday bo'lishidan qat'i nazar inson o'zining o'zligini izlab topishi muhimligiga ishora qilinadi;

2) Qissada syujet qismlarini bir-biriga bog'lab turuvchi Shayton obrazi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tun – insonning o'y-mushohada qiladigan qarorgohi. Tun – Shayton bilan ahd va bitim tuzish uchun qulay fursat. Bunda roviy nutqi qorishig'i ham o'z isbotini berib turibdi;

3) O'tgan sobiq ittifoqning ong ostimizda ming yillardan buyon yashab, qo'rquvdan uxlab yotgan milliy va mustahkam qadriyatlarimizni (ong yuvish mexnazimi) toptashga kirishgani, o'zligini anglash va ba'zan yashab qolish instinkti yovuzlik bilan birga kurashga chorlashini ham chuqur anglab etganligida ko'rinadi;

4) Nazar Eshonqul qissaning mohiyatida nafs va Shayton birligini butun tanamizga singib ketgan azaliy gunohning ildizlari deb tushunadi. Antik yunon madaniyatidagi tarixiy shaxslar hamda ularning ayanchli taqdiri timsolida ham ko'rishni maqsad qiladi;

5) Jahon adabiyotining eng ilg'or tasvir metodlaridan unumli foydalanib, kompozitsiyaga xos – lirik chekinishlarni ham o'rni-o'rni bilan istifoda qilganligida yaqqol namoyon bo'ladi;

6) Qissada tush motivi ham syujetni qoliqlash va kompozitsiyada muhim obyektini chamalashga sharoit hozirlaydi. Tush motivi qahramonning tun va tush aro kechayotgan umri davomida ezgulik va yovuzlik iskanjasida qolgan qismatini teran anglashga imkon beradi.

Professor A.Rasulovning qayd etishicha: “Struktura – asarning badiiy-estetik xaritasi. Bu xaritani ruhiy nigoh bilan o'rganish, uqish mumkin. Xaritada ranglar, belgilar aniq o'lchamlar vositasida o'z ifodasini topadi. Xaritalar siyosiy, ekologik, yer tarkibi bo'yicha yaratiladi. Badiiy-strukturaviy xarita semiotik nuqtalarning joy-joyiga qo'yilishi, semiologik mohiyatning yoritilishi nuqtai nazaridan tuziladi. Semiotik nuqta, semiologik markazlar duch kelgan joyda emas, asarning g'oyasi, maqsadi jihatidan aniq belgilangan o'ringagina qo'yiladi. Davrimizning

donishmand ijodkorlaridan biri Fozil Iskandar iste'dod nima, degan savolga bunday javob beribdi: "Iste'dod adabiyot maydoni birligida kitobxon bilan tutashadigan aloqa nuqtalari miqdori". Badiiy strukturani yaratish tayyorgarligi matn tuzishdan ancha ilgari boshlanadi. Uslub, janr, sarlavha, ilk jumla (satr). Semiotik nuqtalar o'rnini belgilab olish. Matnning semiologik mohiyatini yetiltirish. Tugallanma"¹⁰¹, bularning barchasi badiiy syujet va kompozitsiyaning tashkillanishini taqozolaydi. Ayni jarayonda yozuvchi o'zining ijod erkinligini yanada teran his qiladi. Munaqqidning qarashlari o'rinlidir. Chunki badiiy kompozitsiyaning muhim joylashishi va tartiblilik mohiyatning o'quvchi ko'z o'ngida real jilvalanishiga olib keladi hamda syujetning ishonarli xotimasiga keng imkon hozirlaydi.

Nazar Eshonqulning "Qora kitob" qissasida mifologik obrazning yangicha ifodasi. Keyingi yillar qissachiligidagi o'ziga xos urinishlar va yangilanishlar nafaqat ramzlar va timsollar negizida, balki obrazlilikni yuzaga chiqaruvchi qator omillarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mifologik obrazning paydo bo'lishi va qissa arxitektonikasidagi o'rni va roli nechog'li ahamiyatli bo'lmasin asosiy voqelikka uyg'unlashmasa, o'quvchiga tushuniksiz bir mantiqni keltirib chiqaradi. Modernizm haqidagi bahslarda ko'pchilik iste'dod va yana iste'dodning qudratini his qilish lozimligini ta'kidlaydilar. Negaki, iste'dod evaziga bitilgan matn har qanday sharoitda o'z bahosini olishi tayin. G'arb adabiy tafakkuridan o'zbek adabiyotiga kirib kelgan ekzistensiya hodisasi XX asr jahon falsafasida ko'pdan ko'p yangi va zamonaviy oqimlar vujudga kelganligini to'laqonli dalolatlaydi. Mavjudlik – bu o'z-o'zidan ayonki, bizni o'rab turgan yagona olamda kechayotgan narsa va hodisalar aslida, azaldan minglab yillardan buyon ongimizda yashab kelayotgan qadriyatlarining bir uzvi ekanligini isbotlaydi. "Ekzistensiya, faylasuflar talqiniga ko'ra, nihoyatda murakkab, sirli, begonalik, qo'rquv, xavotir singari hodisalar bilan to'lib-toshgan mavjudlikdir. Bu mavjudlik insonning asl mohiyati bilan chiqishmaydi. Zotan, inson o'zining valine'mati bo'lmish tabiatdan, bir vaqtlar o'zi yashab kelgan muhitdan, ya'ni hayvonot olamidanda begonalashgan.

¹⁰¹ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Т.: "Шарк", 2007. –Б.48-49.

Mazkur hodisa keyingi davrlarda shu qadar miqyosli darajaga yetdiki, endi inson, nafaqat boshqa insonlardan, hatto o'zidan ham begonalashib bormoqda, u o'z aqli yaratgan narsalar dunyosida siqilib qoldi, kengligini yo'qotdi, o'z kasbining jonli murvatiga, qalbi ustidan hukmronlik qilgan, manfaatni ustuvor hisoblaydigan aqlining quli bo'lib qoldi. Natijada insonda haqiqiy hayotga, yuksak ma'naviyat bilan belgilanadigan o'z mohiyatiga loqayd qaragan, soddalik, oqko'ngillik, bolalarcha hayratdan yiroq, olamga hukmronlik qilish da'vosiga mukkasidan ketgan mavjudotga aylanib bormoqda. Ekzistensiyachilikning asosiy maqsadi ana shu bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan fojaviylikni ko'rsatish va undan chiqib ketish yo'llarini izlash masalalariga borib taqaladi"¹⁰². Darhaqiqat, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Shodiqul Hamro, Murod Chovush kabi yozuvchilarning modern qissalarida ekzistensializm an'analari singdirilgan u yoki bu ma'noda muayyan darajada aks etgan sifat o'zgarishlari yo'lidagi izlanishlari yuqoridagi Abdulla Sher mulohazalariga javob bo'lishi tabiiy. O'ylab ko'rilsa: sobiq ittifoq davrida haqiqatni aytish mumkinmidi? Haqiqatni aytish tugul, uni tilga olishning o'zi do'zax edi. Chunki sobiq ittifoq ideologiyasida kommunist obrazi faqat shod-u xurram yashashi lozim degan aqida yetmish yil davomida tafakkurimizga turli shakllarda singdirildi. Bu narsani ochiq yozishning hech bir imkoni ham, iloji ham yo'q. Istiqlol davriga kelib, badiiy adabiyotdan senzura otlig' bir tizim olib tashlandiki, san'at tom ma'nodagi haqiqiy o'zining milliy ifoda madaniyati o'zaniga asta-sekin tusha boshladi. 1988-yil yozilgan "Tun panjaralari"dagi obrazlar aslida yozuvchining ittifoqning asl basharasini ochib berish ilinjida yozilgan hayqiriqlardir. Qissaga yaxshilab e'tibor berilsa, yozuvchi o'nlab o'rinlarda g'oyaning safsataga aylanganini, chirkin va badbo'y saltanatning asl basharasi yuzaga chiqib kelayotganini his etish mumkin. Bundan mustasno yana bir qissasi "Qora kitob"da mifologik obraz darajasida talqin qilingan Shaytonning inson vujudidagi oqayotgan qon yanglig' harakati haqiqatdan ham o'zlikni anglash, yuqoridagi Abdulla Sher qarashlarining to'ldiruvchisi sifatida maydonga chiqadi:

¹⁰² Абдулла Шер. Абдиёт ва умр. –Т.: “Файласуфлар” нашриёти, 2017. –Б.98.

“Esingizdami, yaqinlargacha A. Eng mashhur yozuvchi bo‘lardi, qancha oilalar farzandlariga shuhrati, qat’iyati, irodasini tilab uning nomini qo‘ymadilar. A. esa umr bo‘yi o‘z e’tiqodidan qaytmadi: uni qamadilar, surgun qildilar, kaltakladilar, asarlarini yoqdilar, mamlakatdan quvg‘in qildilar, biroq u egilmadi. Tuzumni fosh qiluvchi asarlar yozaverdi, qamoqlarda, yo‘llarda tinimsiz yozdi, tinimsiz fosh qildi. Tuzum quladi-yu, uni hech kim eslamay qo‘ydi: taqsim A. shu yovuz tuzum bilan tirik edi, shu yovuz tuzum unga shon-shuhrat, qobiliyat, sharaf keltirgandi, shu tuzumni fosh qilishga o‘z hayotini baxsh etdi, tush-u hushida unga toshlar otdi, oxiri tuzum imorati quladi, u endi o‘zini baxtli his qilsa bo‘lardi, biroq unday bo‘lmadi. U mening qo‘shnim edi. Chet eldan qaytgach, uni ko‘rib qoldim: shunday savlat, shunday shavkat egasi mushtday bo‘lib qolibdi – shunda taqsim, men qarshi kurashgan tuzum uning umriga aylanib qolganini angladim. Asli, tuzum uning umri edi, u A.ni buyuk qilgandi, qulagach esa A. nima qilarini bilmay lol qoldi. Axir uning butun umri, lahzalari, soniyalari tuzumni fosh qilish yo‘lida shakllangan, o‘sib-ulg‘aygan edi. Tuzum qulagach, u unut ko‘chalarning birida mast-u alastlar ichida xor-u zor bo‘lib o‘ldi”¹⁰³.

Muallif qissadagi A. obrazini shartli ravishda sir tutishga intiladi. Demak, jamiyatning butun kirdikorlarini bilgan yozuvchi qahramonlarining orzulari ham, umidlari ham puchga chiqqani, atrofidagi odamlarning vaqtida undan siyosiy qurol va jasorat sohibi sifatida foydalanishi o‘sha shayton yo‘lida har qanday pastkashlikdan toymaydigan odamlarni yodimizga soladi. Ekzistensiallik bu yerda fojeaviylikni butunicha qabul qilib, muayyan darajada zamonning yukini yengillatish borasidagi intilishlar tushunilishi tabiiy. Nazar Eshonqul qissa konsepsiyasiga xilma-xil obrazlarni ramzlar, tisollar fonida singdirib yuborganligi, undan o‘quvchi o‘ziga tan jihatlarni o‘zlashtirish muhimligi ayonlashadi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul bir adabiy maqolasida Jeyms Joys haqida shunday mulohaza bildiradi: “Yozuvchi nigohi hayotning ikir-chikirlarigacha, hatto odam tovush chiqarib aytishga uyaladigan kechinmalargacha qamrab oladi. Joysning usuli ana shunga imkon beradi. Bu usulda “sen”, “men”, “u” o‘rtasida ifoda qilish,

¹⁰³ Кўрсатилган адабиёт, -Б. 536.

bayon chegarasi buzilib ketadi, go‘yo asarda qaysi shaxs hikoya qilayotganini, qaysi shaxs roviy, qaysi shaxs qahramon, anglab olish ancha mushkul. Nabokov mazkur asarni qalb yo hissiyot bilan emas, miya bilan o‘qish kerak deb aytganda haq edi. Asar kutilmagan badiiy uslublar, priyomlar va timsollarga, g‘oya va hikmatlarga, tashbeh-u istilohlarga shunchalik boyki, jahon adabiyoti tajribasida boshqa bunday romanni topib bo‘lmaydi. Blum haqida hikoya qilayotib birdan “men”ga, keyin “sen”, “u” shaxsiga osongina o‘tib ketiladi, sizni asar jozibasi va shuuri qamrab oladi. Asta-sekin asar ichiga kirganingiz sayin mif bilan voqelik, hayot bilan xayol, roviy bilan qahramon orasidagi chegara yo‘qoladi. Adibning inson tuyg‘ulari va mayllarini xuddi ko‘zgudagidek aniq aks ettirish usuli baribir o‘quvchini hayratga soladi. Bu usul birinchi marta Joysning ushbu romanida o‘zini to‘la oqladi. Ilgari nasrchilikda voqea shaxsning faqat bittasi tilidan yoki nuqtayi nazaridan hikoya qilinardi. Bu asarda bir qahramonning o‘zida uchta shaxs ifodasi yonma-yon ketaveradi. Mazkur usul shunchaki zo‘raki tarzda singdirilmagan. Asarni o‘qiyotganingizda bu notabiiy tuyulmaydi. Bu ifoda usuli G‘arb adabiyotidagi “ongosti kechinmalari”ni keng va chuqur aks ettirish imkonini beradi”¹⁰⁴. Ayonki, Nazar Eshonqulning o‘zi ham uslubiy izlanishlarida – men, sen, u kishilik olmoshi tilidan hikoya qiluvchi qator hikoyalar yozib, eksperiment qilib ko‘rdi. Natijada, o‘zining yagona ifoda uslubini topib, qaysi usulda voqelikni bayon qilsa, ta’sirdor va obrazli chiqishi mumkinligini taxmin qilib oldi. Mana shu badiiy izlanishlar yozuvchining ramzlar tilida asar yozish metodologiyasini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, noan’anaviy usulda bitilgan asarlarda yozuvchilar N.Eshonqul, U.Hamdani, I.Sulton, A.Yo‘ldoshev, Sh.Hamro kabi yozuvchilar yozgan asarlari orqali bir-biridan jiddiy tafovutlanadi. Ularni birlashtirib turgan yagona estetik markazni topish muhim. U ham bo‘lsa, insonni qay tariqa tafakkur qilishga o‘rgatish, o‘quvchini noma’lum bir olam sirlari bilan ramz va metaforalar tilida tanishtirish muhim, degan g‘oyani ilgari surishdan iborat. Ayniqsa, noreal olam hamisha mavhum va munozaralarga boy bo‘ladi. Uni har kim zehniyati boricha,

¹⁰⁴ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jeyms-joys/>

qurbi idroki ko'targanicha baholaydi. Aynan shu tamoyil hozirgi qissalarning shakliy-uslubiy rang-barangligini tayin etadi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Kuzatish va tahlillar shunday deyishga muayyan tarzda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Zero, hayotda mukammal odamning o'zi yo'q. Mukammallikka intilish va uni samimiy tushunish, anglash, shu tariqa hayot kechirish istagi mavjud. Davr yaratgan qissalarning qariyb ko'pchiligida ayni shu tamoyil yetakchilik qilishi haq gap. Uslubiy o'ziga xoslik jihatidan yozuvchi har qancha g'arb adabiy an'analari sinteziga murojaat qilmasin, uning yagona falsafiy-estetik olami, so'zi, ijodiy konsepsiyasi, adabiy mushohadasi alohida bir yo'nalishga evrildi. Zero, yozuvchi hech mubolag'asiz aytish mumkin, inson ruhiyatiga ichdan kirib borish malakasi salafлари qatorida oldinda ekanligini to'laligicha isbotlab ulgurdi. Bu jihati bilan adabiyotda yangi hikoya qilish tarzining vujudga kelishiga keng yo'l ochib berayotgani fikrimiz yorqin dalili sanaladi.

Bob bo'yicha xulosa

1. Noan'anaviy qissalarda syujetga xos unsurlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy muhit suvrati, ham qahramon intellekti namoyishi, ham yozuvchi ijodiy konseptual qarashlari uyg'unligi namoyon bo'ladi. Unda syujet yaratishdagi jahonning ilg'or adabiy maktablaridan tajriba sifatida oziqlanish, U.Hamdami, N.Eshonqul poetik olamida o'ziga xos ahamiyat kasb etishi dalolatlandi.

2. Qissa arxitektonikasida badiiy kompozitsiya masalasi Murod Chovushning "Hech" nomli qissasi timsolida tahlil qilinadi. Uning zamirida har bir obrazga alohida estetik yuk tashuvchi lirik chekinish, kompozitsion unsurlar dinamikasining o'ziga xos mavqe kasb etishi o'z ifodasini topdi. Negaki, "Hech" qissasidagi ifoda o'ziga xosligi U.Hamdami "Yolg'izlik" qissasidagi – o'lim tasviri bilan bog'liq. Qahramon o'lim tasvirini ifodalar ekan, jamiyat tabaqalarining asl basharasi qay holatda ekanligini shafqatsizlarcha fosh qiladi.

3. Noan'anaviy talqin birikuvida poetik matn hamisha ramz va metaforaga asoslanadi. Yakka qalb bag'ridan chiqayotgan haroratli so'z – ramziy-majoziy

yoʻsinda kishilar xarakterini kashf qilishga yoʻnaltiriladi. Bunga misol Joys, Kafka, Kamyu, Prust singari aql-tafakkur sohiblari asarlarini keltirish mumkin. Ular boshlab bergan traditsiya bugun oʻzbek adabiyotida yuzlab nodir asarlarning yuzaga kelishiga katta sharoit hozirladi.

4. Noanʻanaviy talqinda shakliy-uslubiy mushohada qamrovi yozuvchining oʻzidan oldingi salaflardan nechogʻli olam va odam muammolarini, umumbashariy mezonlarda inkishof qilganligi bilan belgilandi. Toʻgʻri, ayrim qissanavislarimizda Gʻarb adabiyotiga ergashish (taqlid)ni ham koʻrishimiz mumkin. Biroq masala mohiyatiga kirib koʻrilsa, oʻziga xos syujet va kompozitsiya uygʻunligining taʼminlaganiga amin boʻlamiz.

III BOB. BADIY PSIXOLOGIZMNING QISSA STRUKTURASIDA ZUHUR ETILISH USULLARI

3.1.§.Ruhiy tahlilning turlari va usullari

Inson gapirmagan lahzalarida ham nimalarnidir o‘ylab, so‘zlab turgan bo‘ladi, deydi buyuk mutafakkir, donishmand, hikmatlar egasi Jaloliddin Rumiy. Mana qariyb yetti yuz yildirki, muazzam Sharq-u G‘arb badiiy-falsafiy, estetik tafakkurini o‘zining diniy-ilohiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan to‘yintirib kelayotgan Rumiy hazratlarining butun insoniyatga yozib qoldirgan bebaho merosi haqida bosh qotirganda, bugungi real va noreal badiiy asarlar voqeligiga singib ketgan, siz va biz, umuman, hammamiz haqimizdagi eng latif tuyg‘ularning qalblarimizga taskin beruvchi mutafakkirona qarashlarning haqqoniyligi hamda o‘lmasligidan dalolat beradi: “Agar kishi biz gaplashayotgan vaqtda uxlasa, bu uning bo‘sh (bekor) qolganidan emas, balki ishonchdandir. Masalan, karvonga xatar xavf solib turgan paytda, hech narsaga qaramay, tuyalar choptiriladi. Qachonki, xatar o‘tib ketgandagina odamlarning uyquasi kela boshlaydi. Bizning so‘zimiz ham atrofga ishonch va ma‘murlik ufuryapti. Ruhlar tanishlar so‘zini eshitishlari bilan bo‘yi keladi. “Ey Muhammad, sen: “O‘qi” – de” (Hadis). Ya’ni sening zoting shu qadar latifdirki, nazarlar unga etolmaydi. Biroq sen gapirgan onda ruhlar taskin va huzur topadi. Shuning uchun sen gapir, Ey Muhammad!”¹⁰⁵. Haqiqatdan ham, orif va zakiy zotlarning bag‘ridan marvariddek otilib chiqayotgan so‘zlar shodasi ham xuddi shundaydir. Unga yaqinlashganing, uni anglaganing sari ruhing yengil tortadi, huzur qiladi. Bugungi kunda yaratilayotgan modernistik asarlarning ham xuddi shunday tipi borligini, kishi o‘zining botinidagi ovozga munosib bir ovoz topganligini anglab yetganimizdagina haqqoniy qiyofasini ko‘rishimiz tayin.

XX asr boshlarida G‘arb badiiy-estetik tafakkurida juda katta siljish ro‘y berdi. Bir tomonda birinchi jahon urushi eshik qoqib kelmoqda, ikkinchi jihatdan esa ozodlik yo‘lida bosh ko‘targan dono zotlarning boshini kundaga qo‘yish, ularni

¹⁰⁵ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2022. –Б. 25.

o‘z davlatidan sazoyi qilish, o‘limga mahkum etish avj nuqtalariga chiqqandi. Yozuvchi yoki shoirlar, dramaturglar bo‘lsin, haq so‘z, adolat, tenglik va insofdan so‘z ochganlarning ovozi o‘chirib qo‘yish borasida juda katta ishlarni amalga oshirib, aql egalarini yo‘q qilib, hokimiyat tepasiga zul-u zalolatni sevuvchi, insoniyatning ruhiy quvvatiga zarba beruvchi xoinlar, axmoqlar kelib o‘rnashdi. Ana shunday ilmiliq kunlarning birida, ya’ni umrining oxirlarida Graf Lev Tolstoy “Iqromnoma” asarini yozdi. Bu biografik qissada din, dunyo, yaratilish, ibodat va e’tiqod, umuman, INSON fenomeni, uning Yaratuvchisi orasidagi muayyan bog‘liq nuqtalar juda teran tarzda, hayoti xavf ostida bo‘lgan lahzalarigacha donishmandona fikrlari Tolstoyning umr shomida bitib, avlodlarga vasiyat tariqasida qoldirgan bebaho merosidir.

Mana shu qissaning badiiy kompozitsiyasida ruhiy tahlil va talqin shu qadar teran ifodasini topganki, keyinchalik yaratilajak modern qissalarga ham shaklan, ham mazmunan, ham usluban ta’sir ko‘rsatganini e’tirof etish lozim:

“Sayyoh dasht-u biyobonda qahr-u g‘azabdan tutaqqan yirtqichga ro‘para kelibdi. Undan xalos bo‘lish niyatida sayyoh suvsiz quduqqa sakrab tushibdi. Ammo ko‘rsaki, uning tubida dahshatli bir ajdaho sayyohni yeyman, deb og‘zini ochib turibdi. Sho‘rlik sayyoh nima qilishini bilmay qolibdi – quduqdan qaytib chiqay desak, qonsiragan yirtqichning changalida halok bo‘ladi, quduqning tubiga tushsa, ajdahoga yem bo‘ladi. Quduq devoridagi yoriqdan bir buta o‘sib chiqqan ekan – yo‘lovchi shu butaning shoxiga ilinib, muallaq osilib qoladi. Borgan sari uning bilaklaridan quvvat ketadi, oradan ko‘p o‘tmay qismati tugashini, ikki tomondan uni kutib turgan xatarning biriga ro‘para kelishini his qiladi, lekin shundoq bo‘lsa ham u butani mahkam changallaganicha osilib turaveradi. Bir mahal sayyoh osilgan hoida o‘girilib qarasa, biri qora, biri oq ikkita sichqon u osilib turgan butaning tevaragida baravar uymalanib, tagidan kemirayotgan emish. Ana, ko‘p o‘tmay, shox o‘z-o‘zidan qirsillab sinadi-yu, sayyoh ajdarhoning og‘ziga tushadi. Sayyoh buni ko‘rib turibdi, u biladiki, muqarrar halok bo‘ladi. Ammo hozircha osilib turar ekan, u tevarak-atrofga alanglaydi va shoxning

barglarida bir necha tomchi asal ko'radi. So'ng bir amallab uni tili bilan yalay boshlaydi"¹⁰⁶.

Graf Lev Tolstoyning "Iqornoma" qissasidan keltirilgan lavha – hayot suvi, hayot ne'mati deb nomlanadi. Tolstoy bu hayotiy haqiqatni ramzlar tilida ifodalar ekan, o'zini ham xuddi sayyoh o'rnida ko'radi. Oq va qora sichqonni tun va kunga o'xshatadi. Ayniqsa, asaldan totib qolish unga hayot lazzati, yoshlikdagi kabi rohat bermasligiga – IQROR bo'lmoqda. Bunday falsafiy-psixologik qissalar o'zbek adiblariga ham juda katta ta'sir ko'rsatgani hech kimga sir emas. Badiiylik modusi nuqtayi nazaridan ruhiy talqin XX asrda insonni boshqatdan kashf qildi. Yangi inson fenomenini, taraqqiyotni ko'z o'ngida ko'rib, qudratli kuch egasi Allohning kalomidan ulug' narsa yo'qligiga Tolstoy o'zi iqror bo'lib, itoatga keldi. Natijada, o'lmas bir obidani yaratib ketganligini tushunib etish lozim.

Ta'kidlash joizki, qadim-qadim zamonlardan odamlar bayon etilayotgan voqea-hodisaga o'zgacha zavq beruvchi hodisa, o'z kechinmalari ifodasi yoki o'zini qiynayotgan muammolarga taskin (ba'zan esa yechim) deb qarashgan. Chunki "obrazli qilib aytilgan so'z kishi ruhini o'ziga bo'ysundiradigan bir holat kasb etadi. Bu shundayki, ma'lum bir ishlar kishiga ko'rinmasdan, ular haqida biror fikr yuritilmasidan va uni e'tirof etilmasdan turib, ular kishiga xush keladi, ba'zilaridan esa kishi o'zini tiyadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday narsadan odam bezovtalanadi, lekin bu bezovtalik ongli ravishda bo'lmay, balki nafsoniy – ruhiy ta'sirlanganlik natijasida bo'ladi"¹⁰⁷. Buyuk olim ibn Sinoning mazkur mulohazasida so'zning tinglovchiga, o'quvchiga ta'siri ta'kidlanar ekan, birinchi galda uning ruhiyatidagi o'zgarishlarga ta'sir etishiga urg'u berilgan. Chunki so'z san'ati inson ichki olami, psixologiyasidagi o'zgarishlar haqida xabar beradi. Bu badiiy-ijodiy jarayon sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida qadimdan mavjud hodisa sanaladi. Eng qadimgi turkiy toshbitiklardagi monologik nutq orqali personajlar psixologiyasida vatanparvarlik, hayotsevarlik, kurashchanlik g'oyalari ko'tarinkilik bilan bayon qilingan. Masalan, Kul tegin epitafiyasida o'z davrining epik tasviri

¹⁰⁶ Лев Толстой. Икорнома. –Т.: "Янги аср авлоди". 2022. –Б.100-101.

¹⁰⁷ Абу Али ибн Сино. [Шеър санъати](http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/392.html). <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/392.html>

bilan birga qadim ajdodlarimizning olamni qanday tasavvur qilishlari, ruhiyati haqida tushuncha beradi¹⁰⁸. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asaridagi she'r, maqol, qo'shiqlar, qasida, munozara kabi asar parchalarida ham badiiy psixologizmning faol qo'llanganini kuzatish mumkin.

O'zbek xalq eposlaridagi personajlar ichki olamini yoritish uchun qo'llangan psixologik usullar asar badiiyatini ta'minlashda muhim o'ringa ega. Xususan, "Alpomish" eposidagi qator badiiy psixologik unsurlar Boybo'ri, Boysari, Alpomish, Barchinoy, Qaldirg'och, Qorajon, Maston kampir, Toychaxon kabi obrazlarning ruhiyatini, ichki olamini ifodalashga xizmat qilgan¹⁰⁹. Jumladan, Alpomishning Murodtepaga chiqish oldidan o'z-o'ziga aytgan monologida uning ruhiy holati, ikkilanishi tasvirlangan.

Noan'anaviy qissalar fonida badiiy psixologizm masalasi – ranglar va ohanglarda, tun va kun kabi zulmat qurshovida o'tayotgan inson umrining mazmunini tushunishda qabarib ko'rinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyot insonni to'laqonli obraz sifatida tasvirlashni boshlagan davrlardan e'tiboran, tom ma'noda, badiiy psixologizm paydo bo'lgan. Aynan o'sha davrlardan boshlab adabiy qahramon xatti-harakatlarining asosini tashqi holatlarigina emas, balki uning ichki ehtiyoji – ruhiy holati ham tashkil eta boshlagan edi. G'arb adabiyotshunosligida bu yo'nalishni psixopoetika (badiiy psixologiya) deb atashadi. Zamonaviy dunyo adabiyotshunosligida badiiy adabiyotni psixopoetik nuqtayi nazardan tahlil va talqin qiluvchi bir qancha nazariy qarashlar, usul va metodlar ishlab chiqilgan. Ular orasida A.A.Potebnya, D.I.Ovsyaniko-Kulikovskiy, Z.Freyd, J.Lakan, K.Yung qarashlari keng tarqalgan. A.Potebnyaning fikricha, badiiy asarlarda obrazlar muhim bo'lib, har qanday obraz o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi¹¹⁰. Zigmund Freyd shaxsning individual harakatlari faoliyatining psixologik tahliliga asos bo'lishi

¹⁰⁸ Каралсин: 2) Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Текст и исследования. -Москва: Академии наук, 1951, - 96 стр. 2) Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд, – Тошкент: Фан, 2003. –332 б.

¹⁰⁹ Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi: F. Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi: M.Zaripov. – Тошкент: Sharq, 2010, – 400 б.

¹¹⁰ 1) Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва:Искусство, 1976. а – 614 стр.; 2) Потебня А. А. Теоретическая поэтика.Из записок по теории словесности. www.gumer.ru/potebnya

haqidagi g'oyani ilgari surgan. Jak Lakanning "psixoanaliz struktura"sida esa butun asar yaxlit psixologik tuzilma degan qarashlar yetakchilik qilgan. Bundan tashqari Alfred Adler, Karl Yung, Rene Uellek, Ostin Urren kabi olimlar badiiy asar va undagi poetik obrazlar yaratilishida psixologik mexanizmlarning o'rniga alohida e'tibor qilishgan. Olimlarning fikricha, psixologizm "Yozuvchi shaxsini tip va betakror individuallik sifatidagi psixologik tahlili ijodiy jarayoni; u yoki bu badiiy asarning yaratilishi qonuniyatlari va tipologiyasini o'rganish, nihoyat adabiyotning o'quvchiga ta'siri o'rganadi"¹¹¹.

Demak, badiiy psixologizm uchta asosiy yo'nalishda rivojlanuvchi nazariy masalalarning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bu masalalarga e'tibor badiiy adabiyotda, xususan, nasrda so'nggi yillarda ancha faollashdi. Buning bir qancha ijtimoiy, badiiy falsafiy va, albatta, psixologik omillari mavjud. Birinchidan, ijtimoiy hayotimizda ro'y bergan qator o'zgarishlar, mustaqil o'zbek jamiyatining shakllanishi, inson omiliga, avvalgidek ulkan mexanizmning bitta vinti deb emas, balki individual sub'yekt, shaxs sifatida qarash kuchaydi. Ikkinchidan, badiiy-estetik qarashlarimizda yangi estetik idealni shakllantirishga intilish, dunyoni yangicha ko'rish va, uchinchidan, globallashuv jarayonida inson omiliga munosabat masalalari jahon adabiyotida bo'lgani kabi o'zbek nasrida ham qator o'zgarishlar yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Ma'lumki, "xarakter va uning ichki plani va programmasini belgilovchi psixikasi bir butunlikni, yaxlit bir organizmni tashkil etadi. Psixik hodisalar faoliyatning doimiy boshqaruvchisidir. Chunki, "faqat ongdagina voqelikning dinamik modellari yaratiladi, ana shu modellar yordamida odam tevarak-atrofni qurshab olgan muhit bilan munosabatga kirishadi. rang-barang his-tuyg'ular, kechinmalar olami esa zaruriy ravishda inson ongining tarkibidir. Xarakterni uning psixikasiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligi va to'laqonligini ta'minlaydi, uni reallashtiradi, ta'sirchanligini oshiradi. Shu sabab, agar analogik fikrlaydigan bo'lsak, xarakter va uning psixikasi o'rtasidagi munosabatni mazmun va forma o'rtasidagi dialektik

¹¹¹ Уэллек Рене, Уоррен Остин. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978. – С.95 (328 стр.)

aloqaga o‘xshatmoq zarur”,¹¹² – deya yozadi professor H.Umurov. Haqiqatdan ham, keyingi davr qissalarida individual uslub va psixologik talqin vobastaligi shaklda ham, mazmunda ham yangicha qiyofada bo‘y ko‘rsatayotgan asarlar soni ortdi. Biz ushbu faslda Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasi timsolida ruhiy tahlil va uning o‘ziga xos usullarini talqin qilib ko‘ramiz.

Noan’anaviy qissada isyonning itoatga evrilish hodisasi. Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasi yozib tugallanib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilayotgan bir paytda, adib “Muvozanat” romaniga qo‘l uradi. *ramzni – an’anaga aylantirish hodisasi va uning diniy-ma’rifiy ko‘lamda aks etish prinsiplarini sharhlaganimizda tayanch markaz – yadroni topish muhim masala sanaladi.* Demak, “Yolg‘izlik” oldiga o‘quvchi o‘zining o‘nlab savollarini qo‘yishi tabiiy. Chunki qissa qahramoni *tabiat-jamiyat-inson* uchligida xuddi Lev Tolstoy kabi borlig‘ini ortiqcha bezaklarsiz o‘quvchiga, insoniyatga ochib berganligi bilan xarakterlanadi.

“Odam almisoqdan ilgari ham javhar sifatida mavjud edi. Unga “Bo‘l” deyildi va yaralish sodir bo‘ldi. Demak, ketar chog‘ida taslimiyat so‘zini unutmash lozim. Dunyoviy istak-xohish – katta yov. Chunki undan jism oromi va farog‘ati ko‘zlangan. Behuda aytilgan so‘z – dahshatli maxluq, ya’ni ulkan yov. Najot so‘zi Yaratuvchi hamdi, amal esa unga some’ bo‘lmoqlikdir. Binobarin, chin inson ozorlarga sabrli, qismatga bardoshli bo‘lmog‘i, ayni paytda yaratilganlarga mehrshafqat nazari bilan boqmog‘i lozim. Bu azobli yo‘l uni nodonlikdan xalos etadi. Yer-u ko‘kni samodan ko‘rish, Yaratuvchining qudratini his etish uchun ilm zarur. Zotan ilm – aql va tafakkur chirog‘i. U qadimiy ma’nolar kaliti o‘laroq, tarix va kelajakni bugunda uyg‘unlashtira oladi. Ilmli kishi donishmand bobolari ma’nolar xazinasidan ibrat oladi. Muhabbat otashi ila hirs xirmaniga o‘t qo‘yadi”¹¹³. Haqiqatdan ham, ushbu mulohazalar bugungi badiiy nasr haqida bo‘lishiga qaramay, yozuvchi U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasidagi qahramonga ham tegishli ekanligi ayonlashadi. Chunki yolg‘izlikning ruhiyat va moddiyat, sababiyat

¹¹² Umurov X. Сайланма. 1-жилд. –Т: “Фан”. 2007. –Б.23.

¹¹³ Ёқубов И. Юрак пўртаналаридан баҳс этувчи асар. –Т.: “Мухаррир”. 2017. –Б.127.

va jamiyat oralig'ida bo'y ko'rsatgan ISYONI va uning itoatga kelishi qissa syujet liniyalarida mufasal ochiq-oshkor bayon qilingan:

“Moddiy dunyodagi muvaffaqiyatsizligim ko'nglimdan – Ichki Mendan. Ishq yo'lida devona Mashrabdek darveshlik yo'lini tutmasligim, omadsizligim Tashqi Mendan – moddiyat ham inson uchun, tirik jon uchun zarur deb hisoblovchi Mendandir. Men zohidlik yo'lini tutmadim. Hatto junbishga kelganimda hech kimni tanimasam-da, dunyoni sariq chaqaga olmasam-da, g'aroyib olam to'lqinida tebransam-da, qaygadir, kimgadir tiyiqsiz va o'ta kuchli istak-la, sog'inch-la, iztirob-la talpinsam-da, so'ngida baribir, zaminga qaytishimni bilganimdanmi, jarayon kechishi bilan hushimni sekin-asta to'play boshlayman. Bu karaxtlik davridir, bir olamdan o'zgasiga kechish paytidir. Aynan shunday lahzalarda men atrofdegilar bilan, xususan, xotinim bilan g'ijillashib olishim ham mumkin. Albatta, u hamma qatori meni hamisha Tashqi Men holimda ko'rmoq istaydi. Chunki bunda men oila uchun qayg'urayotgan, bozor-o'char qilayotgan, ro'zg'or yumushlarini bajarayotgan, ishlab pul topayotgan, ayolim, farzandim atrofida parvona bo'layotgan, xullas, terlab-pishib qo'l bilan paypaslash mumkin bo'lgan dunyo yaratayotgan Mendirman, axir!.. Holbuki, men...

Muhimi nima? Men nima ish bilan mashg'ul bo'lay? Aql-u idrokimni, yurak qo'rimni–umrimni qanday faoliyatga sarf etay?.. Bilgandayman, biroq bilmayman. Bilganlarimning deyarli hammasi tumtaroq. Nihoyat, men bir yo'lni tanlab olaman: borini boricha yozishga intilaman. Haqiqatning momataloq va dahshatli yuz-ko'ziga tik qarashga botinaman: bor, nima bo'lsa bo'lsin!..”¹¹⁴

Ulug'bek Hamdam “Yolg'izlik” qissasida qahramonni uch xil ruhiy muvozanatda talqin qiladi:

1. Jamiyatda el qatori tirikchilik qilayotgan, oila, bola-chaqa va real hayot bilan tillashib, odamlar orasida o'z o'rnini, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish ilinjida harakat qilayotgan inson sifatida.

2. Jamiyat hayotida hech qachon odamlarga qo'shilmaydigan, o'zining o'y-tafakkuri bilan yashaydigan, tashqi muhitni kuzatib, ichkarida shivirlab, so'z

¹¹⁴ Хамдам Улуғбек. “Узоқдаги Дилнура”. Қисса ва ҳикоялар. –Т.: “Академнашр”.

aytadigan, ularning maqsadlarini, niyatlarini to‘laqonli anglab yetgan, nafs va shahvoniyatdan yiroq, o‘zining chizib qo‘ygan olamidan bir dam tashqariga chiqmaydigan, birovlarni muhokama qilmaydigan obraz tarzida.

3. Dunyoga suv toshsa to‘pig‘iga chiqmaydigan, Allohga bo‘lgan muhabbati yo‘lida, o‘zligining ruhiy olamida umr kechiradigan, o‘z bilgan haqiqatlari izidan ergashadigan, darvesh, taqvodor va mazlum, dunyo moliga unchalik havas qilmaydigan, so‘fiy bir qahramon ko‘rinishida xarakter badiiy tadrijini izchillikda tasvirlaydi.

Mana shu uchlik birlashib, polifonik nutq hosil qilgan o‘rinlar ham talaygina. Ammo, lekin yozuvchi buni asl maqsad deb bilmaydi. Yolg‘izlikka giriftor bo‘lgan qahramonning ichki olamida birgalikda sayr qilganingizda masala mohiyati yanada oydinlashadi. Chunonchi, “inson ichki hayotini badiiy o‘zlashtirishning vositalari juda boy va rang-barang. Bular uni o‘rab turgan muhitdan olgan taassurotlar tasviri ham, qahramon ruhiyatidagi kechinmalarni lo‘nda ifodalash ham, qahramon o‘ylarining mufassal xarakteristikasi ham, personajning ichki monologlari ham, eng so‘ngida, insondagi g‘ayrihuuriylikni aniqlaydigan tush va gallyutsinatsiyadan tortib, ruhiyat puchmoqlarida yashirilib yotgan qorong‘u holatlarning tasviriyam bo‘lishi mumkin”¹¹⁵. Natijada, yozuvchi shu uchlikning mohiyatiga qahramon ruhiy olamining biz ilg‘amagan nuqtalarini o‘zining shaxsiy qarashlari bilan qorishtirib, yagona estetik markazning tayanchi bo‘lmish ruhiy muvozanatga yo‘naltiradi. Ruh–insonning ma’naviy parvozi. Ruh–inson psixikasining asosi, urib turgan yuragi, tomirlarida oqayotgan qoni kabidir.

Istiqlol davri o‘zbek asrida ham, she‘riyatida ham G‘arbda shuhrat qozongan noan‘anaviy yo‘nalishda ijod qiluvchi J.Joys, F.Kafka, J.Sartr, A.Kamyu kabi yozuvchilar, fransuz she‘riyatidagi syurrealistlarga ergashib hayot hodisalarini yakka inson qalbidagi murakkab ruhiy kechinmalar orqali tahlil qilish (psixanaliz) kuchayib bormoqda. A.Kamyu, J.Sartr kabi ekzistensialist adiblar inson vijdoni, ruhiyatida favqulodda, ekstremal holatlarda yo‘l tanlash, ya’ni haqiqat, yaxshilik

¹¹⁵ Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек киссачилигида психологизм. Филол.фан.номзоди дисс. –Т.: “Фан”. 2012. – Б.28.

yoki yovuzlik, nohaqlik yo‘lini tanlash yuz beradi degan qoidani dastur qilib olganlar. Ekzistensialistlarning yana bir muhim nazariyasi – hozirgi dunyoda (g‘arbda) odamlar yuksak insonparvarlik ideallaridan yuz o‘girib, faqat mavjud bo‘lish uchungina yashamoqdalarki, bu holat insonlikning inqirozidan darak beradi”¹¹⁶. Darhaqiqat, professor D. To‘rayevning ushbu mulohazalari bugungi kun nasri uchun g‘oyat dolzarbdir. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam qissa qahramonini shu qadar teran mushohada yuritishga – tashqi men bilan – ichki menning parchalanishi, SHAXSning ruhiy sinishiga olib kelishini, chinakam OLIY tuyg‘ularning oyoq osti bo‘lishi, INSONLIK martabasining yerga ko‘milishi, soxta shon-shuhrat egalarining adabiy didi o‘tmaslashuviga ta’sir etishini yanada o‘ziga xos tarzda idroklaydi. Mana shu jihatlar yozuvchining universal tafakkur tarzidan sizib chiqayotgan millat va Vatan taqdiri haqida yonib yashayotgan qahramon intellektini jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Qissada isyonning itoatga evrilish jarayoni juda murakkab qatlamlarni keltirib chiqaradi. Negaki, qahramon o‘z manzili sari yo‘lga otlangan, yo‘lda mashaqqat-u iztiroblar bilan o‘zining oxir manziliga yetolmayotgan inson sifatida hayotga teran nazar tashlay boshlaydi. Buning natijasida yolg‘izligidan aziyat chekadi. O‘g‘li Muhammadning o‘limi, ishsizlik va darbadarlikning yelkasiga osmon kabi qulab tushishi xarakterni to‘laqonli “qayta kashf” etishga yetaklaydi.

Mashhur ingliz matnshunosi R. Bart yozuvchilarni “tranzitip” (tashuvchi) odamlar deb ataydi. Ular o‘z oldiga *guvohlik, tushuntirish va o‘rganish* singari oliy maqsadlarni qo‘yganligida, deb baholaydi.

Noan’anaviy qissa janri poetikasining eng asosiy xususiyatlaridan biri: *belgilangan makon, anglangan zamon, his qilingan voqelik drammatizmi* hamda shakliy-mazmuniy komponentlarning dialektik qonuniyat negizida namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Unda yozuvchi kamol topgan *muhit suvrati, hayotning anglanmagan* (ong osti fikrlar kordinatasi) *qiyofasi, zamoniylar dunyoqarashning o‘zgaruvchan* (badiiy vaqtni intensiv tezlatish) strukturasi real salmoq kasb etadi.

¹¹⁶ Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. –Т.: “Akademnashr”. 2014. –Б.68-69.

Ma'lumki, "Badiiy asar go'yo bir jonli organizmdir: organizm jonsiz yashay olmaganidek, "jon" ham tanasiz o'zini namoyon qilolmaydi. Jonli organizmning eng kichik hujayrasi ham unda aylanib turgan iliq qon tufayli yashagani kabi, badiiy asarning har bir katta va kichik qismi ham unga hayot baxsh etib turgan mazmun tufayli yashaydi va shu mazmunning nishonasi, tashqi ifodasi bo'lib xizmat etadi",⁴⁶ – deya yozadi adabiyotshunos olim Izzat Sulton. Ilmiy-nazariy mushohadada bir necha jihat e'tiborga sazovor. Birinchidan, badiiy asar o'zining ichki qonuniyatlarida shakllanib boradigan poetik intizom, ikkinchidan, matnlararo uyg'unlik, shakliy-mazmuniy-uslubiy o'ziga xoslikni namoyon etuvchi estetik kategoriya, uchinchidan, yozuvchi dunyoqarashidan shakllangan aloqa vositasida yuzaga chiqqan munosabatlar yig'indisi tasvir bayoni ifodasida o'z mantig'ini taqozalaydi:

"Qachongacha bandalik libosida yuraman!? Qiynaldim-ku! Qachongacha Seni, Senga qaytishni, Senga singishni va nihoyat "SEN!" bo'lishni kutib yashayman? Zerikdim-ku! Axir malol kelyapti-ku menga bunday shakl, bunday mazmun! Ey, Xudo! Men o'zimni topolmayapman, men yo'qman! Axir qani men? Bitta vujudning ichida parcha-parcha bo'lib ketgan ma'noning qay biriga men tegishli? Har kuni ertalab duo qilarkan, halol yashashni Sendan tilagan va pok bo'lishga ahd qilgan kishimanmi men yoki kechgacha chiday olmay, o'zining qandaydir "haqiqat"lariga asoslanib, ularni orqa qilib, haromga qo'l urgan va tuni bilan uxlayolmay o'rnida ag'darilib chiqqan munofiqmi men? Men kimman o'zi?! Ilmiy unvon va mangulik da'vosida ich-etini yeb tipirchilayotgan ko'zbo'yamachimi yoki faqat kashf etish-u bilish-bildirish ishtiyoqida yonayotgan odam-olimmi? Men kimman!? Ko'ksimda mingta, millionta jangchi va mingta, millionta jang ketayotir, faqat men qaydaman va kim tomondaman? Men o'zimni yo'qotib qo'ydim, ey Parvardigor! Men turmushning arzimas yumushlari orasida qolib xor bo'ldim, men ulardan to'ydim. Men bandalik botqog'idan chiqib ketolmayotgan o'zimdanda zerikdim. Men tinimsiz ravishda majburiyatlarni, zaruratlarini bajarishdan siqildim. Nihoyat, menga chumoli kabi bitta-ikkita izdan

⁴⁶ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: U'kituvchi, 1986. –B.163.

yura-yura o'lib ketish alam qiladi. Nihoyat, men bilgan bu olam Sening butun qudrating hosilasi emas! Men Sening qudratingni ko'rmoq va ko'rmoqqa kifoya salohiyat istayman, ey Parvardigor!"¹¹⁷

Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi qahramoni yuqorida alohida tavsiflaganimizdek uch xil yo'sinda o'z ruhiy olamidagi muvozanat sari talpinishda, intilishda hamda IDEAL hayot qurishda davom etadi. Ayniqsa, "Men kimman?" deb Allohga yolvorishi, yukinishi mohiyatida Yaratganning sifatlarini teran bilish hamda o'zining hayotga qadalgan ruhiy ildizini mustahkamlash masalasi turadi. Turmushning achchiq qismatidan, sharobidan tortib xor-u zor bo'lganini ISYON (buni tozarish isyoni deb tushunish lozim) qilarkan faqat va faqat ODAMlik rasmidan balandga chiqish, ya'ni kunini tirikchilik bilan o'tkazish, qorin g'amidan ham yuksak yumushlar borligini tushunib yetish nazarda tutiladi. Bu monolog-yolvorishlar zamirida yolg'izlikning falsafiy-estetik qamrovi ham murakkablashadi. Dunyoning o'zgarishlari-yu, odamlarning sabrsizligi natijasida yuzaga kelayotgan taloto'plarga barham bermoqchi bo'ladi-yu, buning hech bir imkoni yo'qligini tan olishga va taslim bo'lishga qaror qiladi. Biroq botinida uni qiynayotgan, tergayotgan, turtayotgan "nimadir"ning izmidan umrining oxirigacha chiqa olmasligini o'zining tasavvurida chamalab ham ko'radi.

Ayonki, romantizm davri psixologizm alohida namoyon bo'la boshlagan bo'lsa, keyinchalik roman janrida shaxs mustaqil, rivojlanuvchan, o'zining ichki qonunlariga binoan harakatlanadigan bo'ldi. Bora-bora romanlarda N.Chernishevskiy tomonidan L.Tolstoy ijodiga nisbatan ta'riflangan "qalb dialektikasi" bo'y ko'rsatdi. Bu bilan yozuvchi tomonidan qahramon psixologik evolyutsiyasining nafaqat ibtido va intihosi, balki bir hisning boshqasiga dramatik tarzda ko'chib yurishining tasvirlanishi ham nazarda tutilgan edi. Badiiy adabiyotda psixologizm yozuvchi mahoratini yuzaga chiqaradigan asosiy uslubga aylanib borgani uchun ham adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o'rganila boshlandi va muayyan metodologik asosni tashkil etuvchi nazariy tadqiqotlar

¹¹⁷ Хамдам Улуғбек. Қўрсатилган адабиёт. Т.: -Б.11.

yaratildi. V.M.Jirmunskiy, L.Ya.Ginzburg, I.V.Straxov, A.B.Yesin, B.A.Uspenskiy kabi rus adabiyotshunoslari ko‘plab tadqiqotlar yaratishdi.

Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asaridan ta’sirlangan yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qahramoni mohiyatga singib ketishga olib boradigan bir qancha sifatlar aks etganini ko‘ramiz. Yozuvchi Lev Tolstoydan ham, Frans Kafkadan ham, Albert Kamyudan ham maksimal darajada ta’sirlangan. Bu ta’sirlanish natijasida o‘zining hayot yo‘lini, umr so‘qmoqlaridagi tushishlar-u qoqilishlar, omadsizliklar-u muvaffaqiyatlarni chamalashga imkon topadi. Hayotning bir maromda davom etmasligi, qahramonning bag‘rini qiymalayotgan muammolarga girftor qilib tashlaydi. Mana shu qalbidagi “zilzilaning” nima ekanligini bilish uchun o‘ttiz yil yo‘l bosdim, deydi qahramon Allohga munojot qilib.

“Joriy kunda muammo tadqiqoti intensiv xarakter kasb etishiga qaramasdan, asosiy tushuncha va mohiyatlar aniq farqlarni amaliy jihatdan belgilab olish jarayoni xiyla qiyin kechmoqda. Natijada “poetika nima?” degan savolga ham bir so‘z bilan aytganda haqqoniy javob yo‘q. Bir qarashda muammoni uch nazariy o‘lchamda, ham material nuqtayi nazaridan, ham kompozitsion nuqtayi nazaridan, vazifaviy ahamiyati jihatidan maxsus o‘rganish maqsadga muvofiq”⁴⁷, – deb yozadi rus adabiyotshunosi M.Polyakov. Binobarin, manbada ta’kidlanganidek, janr intizomida poetik tizim bir-biriga mantiqan bog‘langan ijodiy unsurlar yaxlitligini to‘laligicha qamraydi. Natijada ijodiy generatsiya va transformatsiya yaxlitlashuvi tabiiy mohiyatning ilgarilashiga zamin yaratadi.

Mazkur nazariy qarashlar qissa janri poetikasida qo‘llanilganda voqelikni *baholash* mezonlari, yozuvchining ijodiy niyati bilan badiiy niyatni bir-biriga yaqinlashtirish, hayotiy materialning *intensiv* vaqtga nisbatan tezlashuvi ham muammoning hal qilinishida estetik tugallikni tasdiqlaydi.

Buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset e’tiroficha: “Har qanday san’atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo‘lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san’atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar

⁴⁷ Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. М.: Советский писатель, 1986. –С.5.

shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san'at kamalakning yengil o'qi kabi shu chiziq bo'ylab zamon qa'riga o'z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san'atning yo'nalishini, mohiyatini va ma'nosini ko'rsatib turadi"⁴⁸. Darhaqiqat, "inson qalbining tomonlaridan birini ifodalash"ga yo'naltirilgan noan'anaviy qissaning janr tabiati hayotiy faktik voqeliklarni keng va o'ziga xos qamrovda aks ettirish falsafasini ilgari suradi. Unda davr ziddiyatlararo arosatda qolgan qahramon hamda zamon shiddatidan ilgarilab ketgan qahramon intellekti jiddiy tafovutlanadi. Ya'ni ijodkor fitratida rosa pishib yetilgan hayotiy voqelikning yaxlit manzarasi badiiy voqelik tomon evriladi. Jumladan, mustaqillik yillari o'zbek modernistik qissa janri poetik tadrijida ham yuqoridagi nazariy xususiyatlarning amaliy tasdig'ini kuzatish qiyin emas. Lev Tolstoyning "Iqromnoma" asarida ana shu kabi og'riqli savollar butun dunyo adabiyotida noan'anaviy memuar-qissa tabiatini o'zgartirishga keng zamin hozirladi:

"Har qanday iymon kimga bo'lmasin va qanday bo'lmasin javob bergan bo'lsa, iymonning har qanday javobi insonning cheklangan hayotiga cheklanmagan narsaning ma'nosini baxsh etadi va bu ma'noni azob-uqubatlar, muhtojliklar, o'lim mahv etolmaydi. Binobarin, faqat iymondagina hayotning ma'nosini va yashash imkonini topish mumkin. Shunda angladimki, so'zning eng muhim ma'nosida olib qarasak, iymon "ko'z ilg'amas buyumlarni" va hokazolarni fosh qilishgina emas, karomatgina emas (bu iymonning sifatlaridan birining tasviri, xolos), insonning Xudoga munosabatidagina emas (Xudo orqali iymonni belgilash kerak emas, avval, iymonni belgilab olib, so'ngra Xudoni belgilash lozim), ko'pincha iymonni mana bunday tushun, deb odamga aytilgan gaplarga qo'shilishgina emas, balki iymon inson hayotining ma'nosini bilishdir va shu bilimi vajidan inson o'z-o'zini mahv etmaydi, balki yashaydi. Iymon hayotning qudratidir. Inson yashar ekan, u biror narsaga ishonadi, iymon keltiradi. Agar u "nima uchundir yashamoq kerak", deb biron narsaga ishonmasa, iymon keltirmasa, unda u yashamas edi. Agar u cheklangan narsani ko'rmasa va uning xayoliy bir narsa ekanini anglamasa, u ana shu cheklangan narsaga ishonadi;

⁴⁸ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.307.

agar u cheklangan narsaning xayoliy ekanini anglasa, unda u cheksiz narsaga ishonmog'i kerak. Iymonsiz yashab bo'lmaydi"¹¹⁸.

Lev Tolstoyning "Iqornoma" asari Sharq mutafakkirlarining hayot shomida anglab yetgan eng so'nggi xulosalari kabi jaranglaydi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ham Allohni tanish va hayotning mazunini iymonli kishilardangina so'rash, ularga ergashish, deb biladi. Lev Tolstoy qissada juda ko'plab hayotiy-ilohiy masalalarni zanjirga bog'lab, insonning taqdiri, o'zi va qator faylasuflar timsolida talqin qilib ko'radi. Bu jihat Ulug'bek Hamdamga ijodiy quvvat beradi. Rumi, Navoiy va Bobur, Tolstoy hamda Kafka, Kamyular ma'naviy olamidan maksimal darajada ta'sirlangan, ilhomlangan yozuvchi turli xil qatlamlarni bir-biriga muqoyasa qilganligida qabarib ko'rinadi. Zamonaviy o'zbek nasrida psixologik metod haqida B.Karim izlanishlari e'tiborga molik. Uning "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" va "Ruhiyat alifbosi" nomli kitoblarida badiiy psixologizm, uning metod darajasiga o'sib chiqqanligi, mazkur metodning o'ziga xos tomonlari haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan¹¹⁹. Xususan, olim mazkur metod XIX asrning 70-80 yillarida G'arbiy Yevropa va Rossiyada yaratilganiga e'tibor berib, uning yaratuvchilari an'anaviy metodlar imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqishganini, "yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi – avtorning ruhiy-ma'naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga e'tibor qaratish lozim", – deb yozadi¹²⁰. Mazkur mulohazada olim beshta muhim omilni sanab ko'rsatadi: 1) yozuvchi emotsiyalari; 2) ijodning psixologik jihati; 3) muallifning ruhiy-ma'naviy dunyosi; 4) ijod jarayoni; va 5) bu jarayondagi psixologik holat. Mazkur xususiyatlarni biz Rene Uellek, Ostin Uorren va A.Potebnya ilgari surgan psixologizm bilan taqqoslasak, ularda umumiy o'xshashliklarga duch kelamiz. Bular yozuvchi shaxsi, ijod jarayoni va psixologik holat bo'lib, ular aksariyat manbalarda psixologizmning xususiyatlari deb sanalgan. Biroq B.Karim yozuvchi

¹¹⁸ Лев Толстой.

¹¹⁹ 1) Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. –Тошкент: Мухаррир, 2011.- 88 б.; 2) Карим, Баходир. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 364 б.

¹²⁰ Карим, Баходир. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – Б.178.

emotsiyasi va ruhiy-ma'naviy olamini ajratib ko'rsatar ekan, ruhiy-ma'naviy olami butun, sog'lom va yetuk shaxsning g'oyalari ham, olamni badiiy idrok yetishi ham yetuk bo'lishiga ishonadi. Lekin badiiy asardagi psixologik unsurlarning o'quvchi psixologiyasiga ta'siri haqida yozmaydi. Vaholanki, boshqalar manbalarda psixologizmning bu jihatiga ham e'tibor qaratilgan.

Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, psixologik tahlilning *dinamik, analitik, sintetik va ichdan ko'rsatish* prinsiplariga alohida urg'u berilgan. Psixologizm asar muallifi tomonidan qahramon ichki dunyosini, uning his va fikrlari harakatini, ongli va impulsiv to'lg'anishlarini badiiy kashf etishda qo'llaniladigan poetik vositalar tizimidan iborat nasrning o'ziga xos xususiyatlari ekan, ayni paytda, psixologik tavsifda shaxsning individuallashtirilgan qirralari ustunlik qiladi:

“Ishlarim ko'p, ammo qaysi biriga qo'l ursam, o'sha yerdan sen chiqib kelaverasan... Qiynaldim... Sen yor emas, balki azobsan, dardsan. Men – ana shu dardga chalingan bemor. Biroq xuddi o'z kishaniga mehr qo'ygan qul kabi senga intilaman. Barcha oshiqlar misol faqat vaslingni o'ylayman. Ulardan farq qilib va kitoblar maslahatidan bo'yin tovlab senga yetishmoqqa judayam ishtiyoqmand emasman. Axir senga qovushmoqlik sendan ayrilmoqlik qadar tahlikalidir. Axir men bahorni ham sevgan, unga oshiqqan edim. Bahor menga o'z gajaklaridan ushlatdi. Keyin... keyin men zerika boshladim...

Sening olovingda jizg'anak bo'lish qancha achchiq esa, shuncha shirindir. U misoli firoq. Ya'ni ayriliq kishi ko'nglida og'riq bilan birga bo'lajak diydorlashuv uchun zamin hozirlarkan, huzur ham paydo qiladi. Firoqsiz visolning lazzati bilinmas. Ayriliqning halovati shunda, uning azobida. Men seni xuddi shunday sevaman, sevinib-qayg'urib yaxshi ko'raman seni. Sen menga ozodlik va'da etayotgan zolimsan! Sen menga azob berayotgan rohatsan!”¹²¹

Keltirilgan lavhada, yozuvchi muhabbatning ham unga taskin berolmaganligini, ruhiy olamidagi sarzanishlardan foyda topmayotganligini istifoda qiladi. Ayni paytda, o'zining ichki iztiroblari-yu, og'riqlari biron marta

¹²¹ Кўрсатилган адабиёт, -Б.22.

yaxshilik olib kelmasligini sezadi. Shunday bo'lsa-da, FARYOD qilishdan sira to'xtamaydi. Ayni shu jarayon qissa qahramonlarining ham bu olamda, ham u olamda qanday hayot kechirish lozimligiga talpinib yashashi real mohiyat kasb etadi. Ulug'bek Hamdam hech qachon o'zining qalbi buyurmaganini va yuragidan o'tkazmagan dardni kuylamagan. O'zining komil iqror bilan aytganidek, "mening hamma yozganlarim yurakdan otilib chiqqan shaloladek bo'lishini xohlayman, o'zim va ko'nglim, yuragim hayajonlanmagan, og'riqlarni menga bildirmagan g'oyalar, iztiroblar va maqsadlarni hech qachon asarga aylantirgan emasman"¹²², – deya alohida ta'kidlaydi. Binobarin, qissada moddiy va ma'naviy dunyo muvozanati juda ko'p mushohada qilinadi. Mana shu jihatlar yozuvchining qolgan romanlar-u qissalarida yanada tiniqroq realistik yo'sinda inkishof qilindi. "Yolg'izilik"da berilgan uch o'lchamli voqelik prinsiplari "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" kabi asarlarida alohida mavqe kasb etdi. Badiiy psixologizm Yusuf, Akbar, Amir, Sabo, Samandar va Po'lat kabi qahramonlar sajiyasida o'ziga xos tarzda ko'z o'ngimizda zamon ziyolisi sifatida namoyon bo'ldi.

"Anchadan buyon ishsizman. Qorin qayg'usi... Uyda o'z qismatimning olaygan ko'zlariga ko'zimni lo'q qilib qamalib o'tiribman. Nihoyat, jonimga tegdi bu yanglig' ozodlik! Ustiga ustak, oshqozonim yana xuruj qilmoqda, buning tashvishi...

Shu onda hayot to'g'risida yozsam, uni bo'ralab so'kishim, qora kiyib olgan tashbehlarga o'rashim, og'ir jinoyatchi ustidan chiqarilgan hukm rangidagi xulosa – la'natlarimni yog'dirishim mumkin. Bular qaysi bir o'quvchining o'sha vaqtdagi kayfiyatiga muvofiq jaranglasa, hayotning ustidan mag'zava to'kishimga qaramay, quvonadi. Chunki taqdirning yolg'izlik sahrosida o'ziga hamdard-u xayrixoh topgan bo'ladi. Endi jang qilish mumkin. Hatto yengilishini aniq bilsa-da, odamzod o'zini tanho sezmasa, yonida sheriklari, orqasida izdoshlari bo'lsa, qudratlidir: u o'limga ham tik bora oladi!

¹²² Улуғбек Ҳамдам ва Хурсандбек Тўлибоев адабий суҳбати. Инсон табиат ва жамият фарзанди. Қаранг: Аъло кайфият. 2010. №8. 45-47 бетлар

Lekin men hayot to'g'risida shu tobda yozmayman. Chunki so'zlayotgan odam o'z badanida tikon zaxmini tuysa, nolish va faryoddan nariga o'tolmasligini yaxshi bilaman. Shunga – qora ko'zoynak taqib olgan kayfiyatimga qaramay, men uning qobig'ini yorib chiqarkan, hayotning baribir shirin ekanligini e'tirof etaveraman. Barcha musibatlar-u tashvishlaridan qat'i nazar, hayot sari talpinaveraman, uni yoqlayveraman, hayot uchun ovoz beraveraman!..”¹²³

Zukko munaqqid H.Umurov qayd etishicha: “Psixologik determenizm insonning hatti-harakatiga uning ma'naviy olami, psixologiyasiga ham sababchi ekanini ko'rsatadi va insonning ichki dunyosiga chuqur kira bilishni badiiy ijodning yana bir juda muhim faktori va talabi sifatida ilgari suradi”⁷³. Ko'rinadiki, psixologik vaziyat insonni har qachongidan chuqur bilishga sharoit tug'diradi. U yozuvchi tomonidan qayta ishlanadi. Qahramonning o'z taqdiri, o'z o'ylari, ko'rgan-kechirganlari hamda dunyoqarashi psixologik taranglikni keltirib chiqarishi tabiiy. Chunki badiiy psixologizm noan'anaviy qissada boshqa nasriy asarlardan farqli o'laroq, u hayotiyliigi, yashovchanligi, bo'lib o'tganligi, muallif yoki qahramonning intim o'y-kechinmalarini ko'rsatib beruvchi ko'zgudir. “Psixologik analiz problemi juda murakkab masaladir... Odam yashar ekan, u qandaydir, o'zicha, shaxsan boshdan kechiradi, sezadi, his qiladi. Bu kechinmalarni yozuvchi tomonidan analiz qilinishi qonuniy bo'lib qolmasdan, balki u yozuvchiga inson mohiyatini tushunish uchun kalit hisoblanadi” (L.Leonov). Shunday ekan, noan'anaviy qissa poetikasida badiiy psixologizmning ifoda qilinishi, yozuvchi va muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlashda muayyan qulayliklarni keltirib chiqaradi.

Ma'lum bo'ladiki, L.Ya.Ginzburg “Psixologik tahlil to'g'ridan to'g'ri muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zlarini tahlil qilishi shaklida yoki bilvosita –qahramonlar xatti-harakatini, kechmishlarini tasvirlash orqali amalga oshiriladi”¹²⁴, – deya fikr bildirsa, I.V.Straxov psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning “ichki” (harakatdagi shaxslarning ichki nutq, xotira obrazlari va

¹²³ Kўrsatilgan adabiyet, -Б.28

⁷³ Умуров Х. Рисолалар. Сайланма. 1-жилд. –Тошкент: Фан. 2007. –Б.13.

¹²⁴ Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Москва: INTADA, 1999. С. 347.

tasavvurlari orqali ifodalanadigan ichki olamini kashf etish) va “tashqi” (nutq, nutqiy o‘zini tutish, mimika va psixikaning tashqida aks etadigan boshqa vositalari ifodaviy o‘ziga xosligining yozuvchi tomonidan talqin etilishi) turlariga ajratadi¹²⁵. Adabiyotshunos A.B.Yesin psixologik tahlilning uchinchi – “jamlovchi-belgilovchi” (summarno-oboznachayushyey) shakl bilan to‘ldirishni taklif qiladi (personaj fikrlari va tuyg‘ulari haqida ichki olamda kechayotgan o‘sha jarayonlarni qisqacha tavsiflash, belgilash orqali kitobxonga xabar berish usuli)¹²⁶. E’tibor bersak, adabiyotshunoslar ruhiy tahlilning uch asosiy – bevosita, bilvosita va “jamlovchi-belgilovchi” shaklini tasniflashadi. XX asr adabiyotida psixologik tasvirning o‘tgan asr adabiyoti tomonidan o‘zlashtirilgan usul va yo‘sinlaridan keng foydalanildi. Xususan, personajning tashqi belgilari uning *portreti yoki makon, interyer* bilan munosabati orqali tasvirlangan.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish lozimki, Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida psixologik tasvir obykti hayot, predmeti inson maqsadi hayot haqiqatini teran idroklash negizida haqqoniy xarakterlarning qay holatda ekanligini ko‘rsatishga qaratilganligi bilan o‘lchanadi. Yozuvchi daftarni ochib o‘qiyotgan do‘stining nima maqsadda uy egasi yo‘q xonadonga kirganligini ochiqdamaydi. Bu ham ramziy-majoziy idrokning bir ko‘rinishi. Aslida, do‘stining kundaligini o‘qish va uning nima maqsadni ko‘zlab yozilganligini anglatish roviy nutqi orqali amalga oshirilmoqda. Ayni damda, qahramon o‘zining ko‘ngliga qadam qo‘ydi. U ko‘nglidagi Alloh tomonidan berilgan yozug‘ni o‘qidi hamda uning kelajagini belgilab beruvchi taqdir bitiklarini tashqi va ichki men negizida chamalash imkonini qidirdi. Ramzlar – qahramonning o‘ziga ishora qilinmoqda. Baxt va baxtsizlik orasida kechgan go‘zal umr, uning ma‘nan baquvvat, irodali va iymonli, eng muhimi insofli bo‘lib voyaga yetishini kafolatlashga katta zamin hozirladi. Zero, falsafiy-psixologik ramziy-majoziy qissa arxitektonikasida yozuvchi-

¹²⁵ Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. /В 5 ч./ - Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. – Ч. 1. С. 4.

¹²⁶ Есин А.Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. Учебное пособие. – 3-е изд. – Москва: Флинта-Наука, 2000. –С.126.

qahramon-o'quvchi xarakteri uyg'unlik kasb etib, badiiy bo'yoqdorlikning teranlashuviga keng imkon beradi.

3.2.§. Badiiy obrazlilikni ta'minlovchi unsurlar dinamikasi

Dunyo adabiyotining ilg'or namoyandalari ijod laboratoriyasiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, shu choqqacha yashab, asarlardan asrlarga o'tib, ruhoniyl olamimizdagi savollarga javob bo'lgulik adabiy merosning fazilatlariga haqida so'z yuritganda, avvalo, inson psixikasini, xarakterini to'laqonli ochib berishi, obrazlilikni jiddiy ishlashi natijasi ekanligi ayonlashadi. Obrazli tafakkur – ruhiyl tafakkurdan oziqlanadi. Ruhiyl tafakkur – insonning “men”ida shakllanadi. Shunday ekan, noan'anaviyl qissalar strukturasiida bo'y ko'rsatgan portret, peyzaj va ruhiyl talqin birligi badiiy psixologizmning ajralmas xalqalari ekanligi namoyon bo'ladi. Bu borada Chingiz Aytmatovning qator qissalari, Odil Yoqubov va Shukur Xolmirzayev badiiy izlanishlarida poetik ilg'am zalvorining nechog'li murakkab va mustahkam asosga bunyod etilganligini dalolatlaydi. Mazkur yozuvchilar u yoki bu darajada o'zbek badiiy nasrining evolyutsion takomiliga katta ta'sir ko'rsatgani hech kimga sir emas. Badiiylik shartlari va mezonlari tabiatida ro'y berayotgan haqqoniy konstruksiya ijodkor ruhiyl ilg'amining yorqin namunasi ekanligi yuzaga chiqadi. So'z badiiyati, matn transformatsiyasi, estetik qamrov uyg'unligi obrazlilikni ta'minlashga alohida ulush bo'lib qo'shilishi tabiiyl. Shu ma'noda, hozirgi o'zbek modern qissalari tabiatida bosh mezon – obrazlilik va olamni o'z qobig'i doirasida ko'rishdir.

Har qanday ijodiy yuksalish zamirida izlanish, Yaratgan tomonidan berilgan aql-zakovat, ana shu iste'dodni tarbiya qilishga yo'naltirilgan ijtimoiyl-siyosiy muhit ham o'z ta'sirini o'tkazadi, albatta! Biz yuqoridagi bob va fasllarda so'z yuritganimizda qissa janrining poetik xususiyatlariga to'xtalib, syujet hamda kompozitsiya, badiiy psixologizm, xarakter hamda konflikt masalalarini noan'anaviyl asarlar timsolida tahlil qildik. Mazkur faslda badiiy asarning umumiy manzarasini bir markaz atrofida uyushtirish uchun xizmat qiladigan asosiy kategoriyalardan biri badiiy tasvir vositalarining ham o'rni borligini tahlil qilishni

maqsad qildik. Poetika qonuniyatida syujet va kompozitsiya unsurlari o‘zaro uyg‘unlashuvi zahirida yozuvchi g‘oyasi hamda maqsadi yuzaga chiqadi. Shunday ekan, “Badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi. Adabiyotshunoslikda ushbu tushuncha turli nomlar bilan yuritiladi: figuralar, sintaktik figuralar, stilistik figuralar, tilning poetik vositalari, ifoda-tasviriy vositalar”¹²⁷ga ajratilib ko‘rsatilgan.

Lev Tolstoy o‘zining maqolasida har qanday san‘atning fazilatlarini uch xil xususiyatga ajratib ularni quyidagicha izohlaydi:

1. Asarning mazmuni bilan: mazmun qanchalik salmoqli bo‘lsa, ya’ni odamlar hayoti uchun muhim bo‘lsa, asar shuncha yuksak bo‘ladi.

2. Tashqi go‘zallik bilan: bunga san‘at jinsiga mos keladigan mahorat orqali erishiladi. Masalan, dramatik san‘atda mahorat deganimiz quyidagilardan tarkib topadi: shaxslar xarakteriga mos keladigan aniq til, tabiiy va ayni choqda ta’sirchan tugun, sahnalarni to‘g‘ri taqsimlash, tasvirlanayotgan hamma narsada me’yor tuyg‘usini to‘g‘ri namoyon qilish.

3. Samimiyat bilan, ya’ni muallif tasvirlayotgan narsasini o‘zi jonli tarzda his qila bilishi bilan. Bu shartlarsiz har qanday san‘at asarini qabul qilayotgan odamga muallif tuyg‘usi amri maholdir. Agar muallif tasvirlayotgan narsasini obdon his qilmagan ekan, uni qabul qilayotgan odamga muallif tuyg‘usi yuqmaydi, u hech narsani his qilolmaydi. Unday asar sira ham san‘at namunalari qatoridan o‘rin ola bilmaydi¹²⁸.

Ko‘rinadiki, har qanday poetik g‘oyaning o‘quvchiga yuqimlili uning samimiy va haqqoniy inkishof qilingani, obrazlarning izchilligi, ruhiy tahlilning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi bilan belgilanmoqda. Lev Tolstoy bunday qarashlari bilan joriy adabiyotdagi ahvol-holatni ham xuddi bashorat qilib ketgandek go‘yo. Hozir modernizm tamg‘asi ostida iste’dodsiz adiblar qalam tebratayotgani hech kimga sir emas. Shunday vaziyatda har qanday yozuvchi olam va odam haqida so‘z

¹²⁷ Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшunosлик луғати. –Т.: Академнашр. 2013. –Б.49-50.

¹²⁸ Толстой Лев. Шекспир ва драма тўғрисида.-Т.: “Маънавият”. 2010. –Б.179.

yuritganda mas'uliyatni zimmasiga ola bilishi muhim. So'z kitobga ko'chdimi, u muallifniki emas, u endi tanqidga ham, tahlilga ham, talqinga ham muhtojlik sezishi tabiiy. Shu ma'noda, bugungi adabiyotning manzaralarida badiiy obraz teran ishlanmasdan o'quvchiga taqdim qilinmoqda. E'tibor bering, badiiy asarda tragik vaziyatlar bo'ladi. Bu vaziyatlarda qahramon o'zini o'rtaga olib chiqadi hamda uning ahvol-ruhiyasi aniq-tiniq ko'rinib turadi.

Professor Q.Yo'ldoshev shunday qayd etadi: "Badiiy tasvirdagi turfaaliklar va ularning sababini millatning badiiy tafakkur yo'sinida, binobarin, ijodkorlarning olamni estetik idrok etish tarzida tub burilishlar yuz bergan global badiiy-estetik o'zgarishlar asnosida kuzatish ko'proq samara beradi va to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi"¹²⁸. Haqiqatdan ham, millat saviyasi qachon yuksaladi, uning badiiy-estetik tafakkuri yuksalgandagina inqilobga yuz tutadi. Bu holat 50-60-yillar nasrida ham kuzatildi. Bu sobiq ittifoq sarhadlarining bir yoqlama qarashlarida atayin tushovlab qo'yildi. Mustaqillikka erishgandan keyingina yangi, zamonaviy rivojlanish bosqichiga modernistik oqimlar silsilasida qadam qo'ydi.

Psixologik talqin uyg'unligini ta'minlashda peyzajning badiiy funksiyasi. Yozuvchi Isajon Sultonning "Munojot" qissasida G'arib obrazi bor. Bu obraz 90-yillarda badiiy adabiyotda adabiy tanqidchilarning e'tiboriga, e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu haqda so'z borganda, yozuvchi tafakkur qilishdan sira zerikmaydigan, bilimga chanqoq obrazni adabiyotga olib kirganligida ko'rinadi. Ayniqsa, "Munojot" qissasida ramzlar, metaforalar, noana'anaviy qissa poetikasida uchraydigan barcha unsurlarni yodimizga soladi. Qissa qahramoni – G'arib! U har qanday vaziyatda savollar bilan o'zining kelajagi borasida qayg'uradi. Murg'akning botinida nish urib ulg'ayib kelayotgan tiriklikning ma'nisini bilish milliy mentalitetimizga xos olijanob fazilatlarning biri ekanligi ayonlashadi. Qissaning psixologizmi haqida so'z borganda murg'ak qalbidagi tashqi olamga munosabat tig'izligi, ichki "men"ning bilimga chanqoqligi uyg'unlashib ketadi. Demak, yozuvchi "Munojot" deb bekorga nomlamaganligi, uning zamirida Alloh sifatlarini tanish, bola ruhiyatidagi ajib evrilishlarni, metamorfozalarni teran

¹²⁸ Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. –Т.: Камалак. 2016. –Б.184.

mushohada qilgandagina tushunib yetamiz. Binobarin, yozuvchi G‘aribning bolaligini shu qadar teran inkishof qiladiki, uni xuddi rasmni tomosha qilgandek ko‘z o‘ngingizda gavdalantiradi.

Adabiyotshunoslik atamalari lug‘atida “Peyzaj (fr.paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon–interyer) tasviri. An’anaga ko‘ra P. deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki P. nafaqat tabiatni (agar u so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chaning tasviri ham P., holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi P.ni voqealar rivojini to‘xtatib qo‘ygancha mufassal tasvirlashi (statik P) yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik P.) mumkin. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiyalar voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq P.ning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega”⁶. Darhaqiqat, peyzajning noan’anaviy qissa poetikasida syujet va kompozitsiyani yaxlitligini ta’minlashda o‘rni benihoya katta. Uning psixologik hamda falsafiy-estetik qamrovi ham kengdir. Ayniqsa, hikoyada qisqa muddat ichida xarakter evolyutsiyasi va sharoit taqozosi badiiy peyzajni tartiblashtiradi. Negaki, ijodkor har qanday vaziyatda ham, xarakterning zohiriy va botiniy qiyofasini badiiy shartlilik nuqtayi nazaridan turib baholaydi. Uning ma’lum ma’nodagi kamchiliklarini ham ochiqlashga harakat qiladi. Demak, peyzaj badiiy vosita sifatida ham syujetning, ham kompozitsiyaning dinamik siljishlarini hamda ularning uyg‘unligining yuzaga chiqishida muhim funksiyani bajaradi. Bunday vaziyatda peyzaj yozuvchi tanlagan g‘oya, konsepsiya va mavzuni kengroq yoritishga qaratilganligi bilan o‘lchanadi.

“Yoz oxirlab bormoqda edi, tevarak-atrof sezdirmasdan tanazzul fasliga tayyorgarlik ko‘rar, yalpizning sarg‘aya boshlagan bandi, suvning endilikda to‘q zangor tusga kirishi, jiyda barglarining birma-bir to‘kilishi va nihoyat, haddan

⁶ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “Академнашр”. 2013. –Б.220-221.

tashqari tiniq, zangori osmondan kuzning sokin nafasi ufurib turardi. Bolakay bir zumga chumolidan nigohini uzib, yalpizning ham juda qariligini ko'rdi, sho'rlikning tanasi yo'g'onlashib-semirib, ko'pdan ko'p bachki shoxchalar chiqarib yuborgan va isi ham avvalgi singari nozik-nafis emas, quyuq hamda achqimtirroq edi. Hatto salom-alik o'tining urug'i-da o'simlikning qariganini, shuning uchun ham urug'ini yerga sochib yuborganini ta'kidlab turardi. Chumoli tinmay chiranaverdi va, pirovardida, tuyqusdan sip-silliq orqasi yorildi, yoriqlaridan oqish zahrining o'tkir isi tutib ketdi. Shunda ham urug'ni tortib olmoqqa tirishar edi. Birdan bolaning ongida nimadir yarqillab ochilib ketganday bo'ldi, tomirlari bo'ylab allanima oqa boshladi. Tevarak-atrof juda kekxa, haddan tashqari kekxa edi, olam xuddi munkillab, qarib qolgan cholga o'xshardi. Bahorda yerdan unib chiqqan maysa ham aslida millionlab yillar avval tug'ilib bo'lgan edi. Unda... unda nima boqiy? Azal-abad yosh va navqiron nima bor bu garduni dunda? Abad yoshlik xuddi abad qarilik singari mazmunsiz emasmi? Bolaning dilini avvalgisidan ham kuchliroq bo'lgan dahshat egallab oldi va tura solib, ho'ngrab yig'lagancha onasining yoniga chopib ketdi..."¹²⁹

Isajon Sul-ton badiiy mahorati shundaki, ixcham detalga ham olam-olam mazmun yuklay oladi. Tabiat tasviri fonida G'arib obrazining mohiyati ochib beriladi. Yozuvchi qissaga juda katta bir falsafiy-psixologik mazmunni yuklaydi. Tabiat tasviri bilan G'arib obrazining sodda va murakkab, hech kim ilg'ay olmagan hodisotlarni ilg'ay olish qobiliyatini sinovdan o'tkazadi. G'arib – tabiatning “tili”ni yaxshi tushunadi. Uning boshqa bolalarga o'xshamaydigan g'ayritabiiy xarakteri, sersavolligi hamda olam hodisotlarini ilohiy mujda bilan sezish qobiliyati ustozlarini ham, mahalla-ko'ydagi odamlarni ham hayratga soladi. Ko'pchilik uni ana shu xarakteri uchun tushuniksiz olam odami deb biladi. Bu haqda professor A.Rasulov shunday yozadi: Isajon Sul-tonov – hozirgi nasrimizdagi yangi nomlardan biri. “Munojot” qissasi bosilguncha I.Sul-tonovning bir-ikki hikoya, novellasi oynomalarda chop etilgan edi. Yosh yozuvchining mo'jaza qissasida o'ziga xos, adabiyotimizda avvallari unchalik sezilmagan

¹²⁹ Султонов И. Муножот. –Т.: “Ўзбекистон”. 2010. –Б. 120.

qahramon obrazi yaratildi. Qissa qahramoni mehnatda o'rnak ko'rsatib, dong taratmaydi, sinfiy hushyorligi-yu siyosiy ongliligi bilan atrofdagilarni qoyil qoldirmaydi. Lo'ndasini aytganda, qissa qahramoni G'arib zinhor Pavlik Morozovga o'xshamaydi. Faraz qilaylik, zumrasha Pavlik Morozov o'z tengdoshi G'arib bilan uchrashib qolsa, uni idealistdan olib idealistga solishi, g'ayritabiiy holatlari ustidan miriqib kulishi aniq edi. G'arib o'ta iste'dodli o'smir; u o'zgalardan boshqacharoq fikrlaydi, ko'zlari uncha-muncha odam ko'rmaydigan narsalarni tiniq ko'radi. Qissa qahramoni ko'ziga har xil odamlar ko'rinadi: u o'sha odamlar bilan bemalol gaplashadi, bahslashadi; goh qo'shiq aytadi, goh yig'laydi. Bunday holatlar sof mistika – so'fiylik, zohidlik bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin hayotda shunday kishilar bor, ularning obrazini yaratish mumkin. Qishloq kishilari uni ochiqdan-ochiq devonaga chiqarib qo'yganlar. Chindan ham, G'arib tug'ilgan qishloq kishilari o'ta sodda, jaydari, shumlik-quvlikni bilmaydi. G'aribning onasi Adol opa, kayvoniy Fotima ena, qo'shni Malika xola, go'zal Zarofatning tajang otasi Nu'mon akalar turmush ikir-chikirlariga ko'milib qolgan, dunyo ko'rmagan, kitob tushirmagan kishilar. Oddiy odamlar-ku mayli-ya, maktab o'qituvchisi – ziyokor odam G'aribga g'alati munosabatda bo'ladi, uning yomon o'qishidan zorlanadi. Qahramonning g'ayriodatiy gap-so'zlari, qilmishlarini “shu atrofdagi biror dindorning ta'siriga tushib qolganlikka yo'yadi”¹³⁰. Haqiqatdan ham, asar “Sharq yulduzi” jurnalining 1990-yil 7-sonida e'lon qilinganida yozuvchi bor-yo'g'i 23 yoshda edi. Hali hayotning katta o'zanlariga sayr qilmagan yozuvchining iste'dod qudratini A.Rasulov to'g'ri talqin etgani fikrimiz yorqin dalilidir. Yozuvchi ayni paytda, G'arib obrazi orqali badiiy adabiyotga qadam qo'ygan ekan, mutolaa va izlanish shukuhi uning katta yozuvchi bo'lib elga tanilishida zamin yaratdi. Qissago'y Isajon Sulton bugun O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni bilan taqdirlandi. Yozuvchining mahorati shundaki, G'aribni tabiat hodisalaridan ayro tasvirga olmaydi. Negaki, tabiat hodisalaridan ayro tasvirlash yozuvchi individual uslubiga yot narsa. Mana shu jihatlari bilan adib o'zbek adabiyotida noan'anaviy qissa va romanlar yaratishda katta ijodiy konsepsiyaga ega

¹³⁰ Rasulov A. Шафоат ёғдусидан баҳрамандлик. // Шарқ юлдузи, 1991. №.4. –Б.128.

yozuvchilardan biri bo‘lib maydonga chiqishining boisi ham shundadir. Jamiyat hayoti va tabiat hodisalariga befarq bo‘lmagan yozuvchi qahramonlari global dunyo miqyoslariga ham jiddiy e‘tibor qila oladi. Ayniqsa, G‘arib – badiiy adabiyotda kutilmagan obraz bo‘lib kirib kelgani, uning Mashrabona dunyoqarashi diniy-ilohiy tug‘yonlarni ham, dunyoviy sir-bilimlarni ham birdek olib borganligida qabarib ko‘rinadi. Qissa muqaddimasidagi tabiat tasviriga e‘tibor beraylik:

“...Balo kutilmaganda keldi.

Oy to‘lgan tunda zovur chetidagi mirzateraklarning xira soyasi tuproq ko‘chani butkul enlagan chog‘da shunday bo‘ldi. Tag‘in ham, bir nima deyish qiyin, u o‘z nomi bilan balo edi-da. Ro‘y berayotgan hodisalar esa, bir falokatning boshlanishini bildirardi, xo‘roz ikkinchi bor qichqirayotgan payt edi, nima ham bo‘ldi-yu ovozi xuddi bo‘yni uzib tashlangandek g‘ippa o‘chdi. Hech qancha vaqt o‘tmay Toshkelinchak tepasida osmon bo‘yi keladigan qormatir narsa jonlandi. Yulduzli osmon toqida uni bemalol ko‘rish mumkin edi. Sharpa tez harakatlanib, tungi samoni tobora enlay boshladi. Bir uchi to‘lin oyga yetay-yetay deganda, ikkinchi uchi yerga – xuddi mirzateraklar soyasi tushib turgan joyga yetib keldi. Bu yer qishloqning eng xilvat chekkasi, jingilar va ajinagullar to‘dalashib o‘sgan chakalakzor edi.

Tevarak-atrof xuddi suv quygandek jimidi, hatto teraklarning barglari ham shitirlamasdi. Zovurdagi qurbaqalarning uni o‘chdi, shabada tindi. Borliq og‘ir va mudhish tahlika ichida qoldi.

Qoramtir narsaning bir uchi osmondan uzilib zaminga cho‘zilib tusha boshladi. Hayal o‘tmay, jingilzorni qora ko‘lanka qoplab oldi. Shu soniyada chakalakzorga qadam tashlagan har qanday kishining shaytonlab qolishi aniq edi: qora maskandan qora hovur ko‘tarildi”¹³¹.

“Munojot” qissasi o‘z vaqtida yozilgan asar bo‘lib, uning poetik qiymatida inson shaxsining naqadar sirlar va bilimlar orasiga yashirib qo‘yilgan ruhiy olami turadi. Bu ruhiy olamning ilk jumlasidan to intihosiga qadar yozuvchi tabiat bilan

¹³¹ Исажон Султон. Муножот// Шарқ юлдузи, 1990. №7. –Б.50

omuxta bog'lay olganligida seziladi. Tabiat haqidagi ilmiy qarashlar shundan dalolat beradiki, hech bir narsa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, uning Yaratuvchisi bor, uning izni bilan har qanday hodisaga mazmun bag'ishlash, undan huzur va halovat topish mumkin degan juda katta ijtimoiy-psixologik falsafaga ro'para kelamiz. Isajon Sulton har bir asarida tabiatning inson oldiga qo'yadigan juda katta umuminsoniy savollariga javob bermoq muhimligini ramzlar, timsollar bag'riga erinmasdan joylay olganligida seziladi. Uning "Munojot" qissasida G'arib haqiqatdan ham, kuchli va sezgir, boshqalar kabi fikrlamaydigan, g'ayrishiuriy qiyofada akslanadigan obrazlardan biridir. Chunki G'arib ota-onaning oiladagi vazifasini ham aniq-tiniq sezib, boshqalarning ham shunday bo'lib kamol topshini ich-ichidan istashligini tasvirlaganida, yoshi ulug' otaxonlar "Bu bolada bir nima bor" degan haqqoniy xulosalarini ham anglatib boradi. G'arib – o'zbek adabiyotida yangi qiyofa, yangi obraz. Uning his va tuyg'ulari, aql-u zakovatini tushungan sari inson o'zligini ham teran anglab boradi. O'zlikni anglagan sari insonning ma'naviy qiyofasida ruhiy xotirjamlik hukm suradi. G'arib ana shu konsepsiyani tashuvchi semiotik orbaz.

Shuni alohida qayd etish joizki, "Freyd fanga inson ruhiyatida doimo kurash tushib, g'oliblik uchun joy talashadigan ikki hukmfarmo asosni sharhlab beradi. Birinchisi, jami go'zallikdan, rohat-farog'atdan, zavq-u shavqdan, ne'matlardan bahramand bo'lishga intilish, ya'ni hayotga intilish manbayi bo'lgan hayotbaxsh instinkt – libido. Ikkinchisi, o'limga, parokandalikka, vayronalikka olib boruvchi, o'zini o'zi halokatga eltuvchi agressiv instinkt – mortido. Ruhiyat ana shu ikki asosga suyanib o'zini namoyon qiladi. Agar inson ruhiyati libidoga asoslansa, unda libido kuchlilik qilsa, bu ruhiyatda hayotsevarlik, yorug'lik kuchli bo'ladi. Mortido kuchaysa, bu ruhiyatda tanazzul va parokandalik, o'limga intilish, dunyoni qora ranglarda ko'rish kuchli bo'ladi"¹³².

Har bir obraz mohiyatini va yozuvchi konsepsiyasini ochib berishda muhim atribut sanaladi. Mana shu jihatlar yozuvchining poetik mahoratini, matn tuzilishini, xarakter badiiy evolyutsiyasining barqarorlashuviga keng yo'l ochadi.

¹³² Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. –Т.: "Академнашр", 2018. –Б.38.

Ayni shu jarayon poetik qiymat kasb etib, ijodkor olamining teranligini, badiiy tafakkur salmog'ini ham chamalashga imkon beradi:

“Onaning ko'ngli sezgan, G'arib rostdan ham boshqacha edi. Tunlari uxlamay chiqardi, xavotirlanib borib qarasa, peshonasi tirishgancha o'ylanib o'tirganini ko'rardi. Biroq boladan shoir yoki olim chiqadi degan bashoratlarning bari bekor ketdi: bola g'ijimlab tashlagan qog'ozlarning barida biror misra she'r, na satr bor edi.

Yozning dim kechalaridan birida so'rida yotgan ona o'g'lining xonasidan kelayotgan qandaydir ovozni eshitib qoldi. Tovush juda mungli va allaqanday o'zgacha, xuddi samolardan kelib yerga tutashganga o'xshardi. Qizig'i shundaki, u tok barglarining shiviri, ariq suvining shildirashi va olamning tungi sukunati bilan uyg'unlik va yaxlitlik kasb etardi, onaning ko'nglida qiziqish uyg'ondi va fe'li ajobtovur o'g'lining taqdiridan tashvishlangan ko'yi, o'rnidan turib asta derazaga yaqinlashdi. Darpardani tovushsiz surib, ichkariga kishi bilmas mo'raladi.

O'g'il ozg'in yelkalarini devorga tiragan ko'yi ko'zlarini mahkam yumib va dunyodan ajralib, allaqanday ohangni xirgoyi qilayotgan edi. Ona deraza yoniga kelishi bilanoq ohang tindi, ammo o'g'il holatini o'zgartirmadi, bir nafasga juda zalvorli va qisinqi sukunat cho'kdi, hatto suvning shildirashi ham eshitilmay qoldi”¹³³.

Mana shu lavhada badiiy peyzajning o'ziga xos xususiyati qabarib ko'rinadi. Ayniqsa, yozuvchi tabiat bilan uyg'un ruhiy quvvatni bir-biriga mohirlik bilan muqoyasa qiladi.

Qissa badiiyatida peyzaj – psixologik portretning o'ziga xos yo'sinda yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dinamik portret – peyzaj (tasvir)ni quyushtiradi. Qahramonlarning xatti-harakatlari orqali sodda va beg'ubor G'arib obrazi asta-sekinlik bilan o'zining aksini namoyish qiladi. Ayni paytda, yozuvchi-tabiat va qahramon birligini uyg'unlashtirib, qissa kompozitsiyasida tahlil modusini yangicha olamga olib kiradi. “...psixologik determenizm insonning

¹³³ Шарқ юлдузи. 2019. №7. –Б 52-53.

xatti-harakatiga uning ma'naviy olami, psixologiyasiga ham sababchi ekanini ko'rsatadi va insonning ichki dunyosiga chuqur kira bilishni badiiy ijodning yana bir juda muhim faktori va talabi sifatida ilgari suradi"⁴. Ko'rinadiki, psixologik vaziyat insonni har qachongidan chuqur bilishga sharoit tug'diradi. U yozuvchi tomonidan qayta ishlanadi. Qahramonning o'z taqdiri, o'z o'ylari, ko'rgan-kechirganlari hamda dunyoqarashi psixologik taranglikni keltirib chiqarishi tabiiy.

Yana Parandovskiy o'zining "So'z kimyosi" maqolasida qayd etishicha: "Yozuvchilar hamisha bir sifatlari bilan hammani taajjubga solib kelganlar: ular kundalik turmushda hech narsani tushunmaydilar, ular inson to'g'risida hammani larzaga soluvchi kashfiyotlar qilishga qobil psixolog bo'lsalar-da, hayotda o'zlari ro'para kelgan odamlarning farqiga bormaydilar va hamisha firibgar va ayyor odamlarning makriga uchib, hiyla-nayranglar tuzog'iga ilinib yuradilar. Buning sababi shundaki, ular inson haqidagi bilimlarini o'z yaqinlarining xatti-harakatlari, yuzlaridagi ifodalarni kuzatishdan olmaydilar, balki o'z qalbida aks etgan inson g'oyasi bilan muloqotdan hosil qiladilar. Bilish jarayoni boshdan oyoq o'z ichimizda sodir bo'ladi. Tashqaridan kirgan har bir taassurotning qimmatini qabul qilayotgan odamning ongi unga joylangan qimmat bilan belgilanadi. Zaifroq zakovat voqelikni bamisoli suvdek, ya'ni yuzaki o'tkinchi tarzda aks ettiradi. Ijodiy zakovat esa voqelikni butunlay o'zgartirib, qaytadan yaratib, chuqurlashtirib aks ettiradi. U arziyas narsalardan ulug' narsalar yasaydi"¹³⁴. Darhaqiqat, Isajon Sultonning badiiy izlanishlarida ham xuddi shunday mulohaza yuritish mumkin. Uning har qanday holatdagi tasvir priyomlari shuni anglatadiki, dinamik tarzda bo'y ko'rsatayotgan portret yoki peyzajdan G'aribning timsollar timsoli ekanligini sezish qiyin emas. G'arib o'ta intellektual bilim sohibi. Dunyoning tafakkurdan ustun bo'layotgan joriy holatida sobiq ittifoqning ichdan yemirilib, jar yoqasiga kelib qolganligini anglatadi. G'arib ana shu qulayotgan tizimning biror eshigiga bosh suqishni unchalik xush ko'rmaydi. Natijada, Adol opa va qo'shni ayollarning tushuntirishlari yo'lidan bormaydi. U o'zining maishiy va ruhoniy olamida

⁴ Умуров Х. Рисолалар. Сайланма. 1-жилд. –Тошкент.: “Фан”. 2007. –Б.13.

¹³⁴ Парановский Ян. Сўз кимёси. –Т.: “Маънавият”. 2010. –Б.292.

yashashni xush ko‘radi hamda u yerdan baxt topib, hayot kechirishiga jiddiy ishonch bilan qadam tashlaydi.

“Hozir jahon adabiyotidagi yangi yo‘nalishlar sezgir ijodkorlar tomonidan tez ilg‘ab olinmoqda. Bugungi ilg‘or nasrda imo-ishora, ramz, har bir jumla, ibora, so‘zga iloji boricha ko‘proq ma‘no joylash xususiyati aniq sezilyapti. Nasrda his-tuyg‘udan ko‘ra aql-zehn, sezgirlik yetakchilik qilmoqda. Haqiqiy nasr har doim ruhiyatni asosiy “ish maydoni” deb anglagan. Avvallari nasrdagi voqea emas, xarakterning o‘shish-o‘zgarish yo‘ligina diqqatimizni jalb etardi. Hozir shunday voqealar, hodisalar tasvirlanadiki – u hayotda ko‘p yoki kam uchrashidan qat’i nazar – ularda serma‘nolilik, ostki, ichki oqim kuchli. Yozuvchi bir voqeani tasvirlay turib butunlay boshqa maqsadni ko‘zlashi mumkin. Xullas, hozirgi nasrdagi izlanishlar adabiyotshunoslikdagi bir mahallar jiddiylik bilan o‘qitiladigan hayot haqiqati, obrazning milliyliigi, tipiklik, adabiy an‘ana singari masalalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi”¹³⁵, – deya yozadi professor A. Rasulov. Munaqqidning mulohazalari o‘rinli. Unda ekzistensializm masalasi qalqib turibdi. Mavjudlik jumbog‘ini anglash va shu yo‘sinda hayotdan ma‘no izlab yashash G‘arb badiiy tafakkurining asosini tashkil qilardi. Isajon Sulton dunyo adabiyotini chuqur o‘rgangan, Kafka va Kamyularning tafakkur sarhadlarini to‘g‘ri ilg‘aganligini e‘tirof etish joiz. Shuning barobarida, insoniy munosabatlar tig‘izligi badiiy olamining nechog‘li turfaligi hamda murakkabligi G‘arib kabi obrazlarni hayot sinovlarida obdon imtihon qiladi. Bu imtihondan o‘tgan har qanday personaj SHAXSlik maqomiga ko‘tarilib, iymon va e‘tiqod maslagining etagidan ushlaydi.

Qissada psixologik portretning usul va yo‘sinlarini tavsiflab quyidagi shakllarda aniqlash muhim:

1. *G‘arib – tafakkur va taqdir iskanjasida o‘zini hayot sinovlarida katta maqsadlarga tayyorlayotgan murakkab shaxs ekanligi ayonlashadi.*

2. *Qissa poetikasida badiiy portret va peyzajning funksiyasi bosh qahramon va asar ijodiy konsepsiyasining uyg‘unligini dalolatlaydi.*

¹³⁵ <https://ziyouz.uz/matbuot/mustaqillik-matbuoti/1991-4/>

3. *Qissada Ona obrazi asarning tayanch markazlaridan biri bo'lib, voqelikni baholash hamda uning zaruriy tomonlarini qiyoslash negizida G'arib obrazining shakllanishiga zamin hozirlaydi.*

4. *Qissa strukturasi badiiy psixologizm o'tmish va kelajak orasida ro'y berayotgan bugunning tamsillari o'laroq namoyon bo'ladi. Vafot etgan Ota obrazi G'aribning baxtli yashash instinktini ro'yobga chiqarish yo'sinida yo'lchi yulduz vazifasini bajaradi.*

5. *Yozuvchi hayot haqiqatini ramziy timsollar negizida barqarorlashtirar ekan, tabiat eng ulkan OLAM ekanligini tasvirlar bilan omuxtalashtirib, uning moddiy va ma'naviy sarhadlarini xalq og'zaki ijodi bilan to'yintirganligida qabarib ko'rinadi.*

Mana shu besh xususiyat qissa poetikasida yozuvchining o'z oldiga qo'ygan muhim tanlovi ekanligini namoyon qilib, G'arib portretiga chizgilar berishda eng asosiy fragmentlardan biri ekanligi ayonlashadi:

– G'arib...

Bola yalt etib onasiga qaradi.

– Nima qilayapsan bu yerda?

– Yana gaplashayotibman, - javob qildi bola.

– Anavi buta bilan, - ro'parasidagi barglari issiqdan so'linqiragan jingilni ko'rsatdi G'arib. – U o'zining hayoti haqida hikoya qilib beryapti.

– Dam o'tlarning yurganini ko'rsang, dam jingillar bilan gaplashsang... Qanaqa bolasan o'zi? – koyidi uni Adol opa.

– Bodiring yegim kelib egatga kirsam, kimdir chaqirayotganga o'xshab qoldi. atrofimga alanglab hech kimni ko'rmadim. Palaklarga engashsam yana ovoz keldi. Qarasam shu buta. Bilasizmi u bir vaqtlar odam bo'lgan ekan. Juda qadim zamonlarda... Men zohid edim, daraxt ostida tun-u kun ibodat qilardim deyapti. O'sha vaqtlarda bir avliyo yashagan ekan. Balx va Qunduz shahri hokimining buyrug'i bilan uni o'ldirmoqchi bo'lib, ortidan quvishibdi. Zohid ibodatini tugatib joyiga qaytayotganida ot choptirib o'sha avliyo o'tibdi-yu kunbotarga qarab yo'l solib, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Birozdan so'ng mushriklar yetib kelishibdi. Izini

yo‘qotib gangib turibdi-da, zohidga ko‘zlari tushib: Ey pokdomon, shu yerdan bir odam o‘tib edi, qay tarafga ketdi? O‘lloh nomi bilan qasam ichib, faqat rostini ayt” deyishibdi. Zohid o‘ylanib qolibdi. Avliyo hech bir ish qilmagan pokiza zot edi, undaylar endi tug‘ilmaydilar, deyapti buta. Mushriklar toqatsizlanib do‘q ura boshlashibdi. Shunda zohid: “Yo O‘lloh, o‘zing mag‘rifat etgin” debdi-yu ularga javob beribdi: “O‘llohimning nomi bilan aytamanki, u kun chiqarga tomon yo‘l oldi...”¹³⁶.

Adol opa bilan G‘aribning qisqa suhbatini negizida muqaddas avliyoning portretiga ham aniqlik kiritib o‘tiladi. Unda hayot haqiqatini, Allohni tanigan zohid kechinmalari Mashrab haqida xabar berayotganidan shahodat beradi. Mashrabning qay tarafga ketganligini, mushriklar qo‘liga tushsa umri xazon bo‘lishini bilgan zot uni o‘limdan bir marta bo‘lsin qutqarib qolganligini anglatadi. Butalar bilan tillashgan G‘aribning tafakkur olamida chatnab chiqayotgan haroratli hikmatlar Adol opani ham chuqur o‘yga tashlaydi. Chunki G‘arib rasm chizishga ham qiziqardi. Aytib berayotgan mulohazalarini yaqindagina chizgan mungli bir kuy taralib turuvchi kartinasida ham aks ettirgandi. Bu kartinani yozuvchi qissa poetikasiga shu qadar uyg‘unlashtirib yuboradiki, uni tomosha qilgan odamning xayollari faromush bo‘lib, o‘zini noma‘lum bir olamga tushib qolgandek his etadi. Mana shu jihatlar G‘arib tabiatidagi nogohoniy o‘shish-o‘zgarishlarning nechog‘li muhim ekanini kafolatlaydi. G‘arib hamisha sirlar olamiga g‘arq bo‘lganicha yashaydi. Bu olamga boshqalarni olib kirishga harchand urinmasin, uning urinishlari ko‘pincha zoye ketadi. Shuning uchun ham yolg‘izlikni xush ko‘radi. ***Yolg‘izlik*** – G‘aribning eng yaqin do‘sti hamdir.

Isajon Sultonning “Munojot” qissasi haqida yozuvchi Ulug‘bek Hamdam quyidagi mulohazalarni bildirib o‘tadi: “G‘arib yozuvchining o‘zi. San‘at mag‘zida, aslida, o‘zini-o‘zi ifoda qilish (samovirajeniye) yotadi. Nazarimda, G‘arib obraziga kirgan og‘riq – dard yozuvchi ko‘nglida uzoq vaqt yashagan, uni qiynagan. Xuddi G‘aribni o‘z holiga qo‘ymagan, nihoyat, qog‘ozga suvrat shaklida

¹³⁶ Кўрсатилган адабиёт, Шарқ юлдузи. –Б.57.

tushgan Mashrab yoki Munojot siymosi yanglig‘. Lekin ba’zi o‘rinlarda yozuvchi G‘aribdan ajralib chiqadi va boshqa odam bo‘lib gapiradi:

“G‘arib bu olamda mutlaq poklikka erishib bo‘lmaydi, degan to‘xtamga keldi va tag‘in go‘sht eya boshladi... Holbuki, hatto jon diling bilan soflikka intilgan taqdiringda ham, baribir, yovuz bo‘lib qolaverarkansan, yashash uchun kurashning ma‘nisi o‘zing uchun boshqalarni qurbon qil, degan gap ekan... Ana shu tariqa G‘arib yashamoq – buyuk fojeadan boshqa hech narsa emas, degan o‘tgan asr faylasuflariga xos to‘xtamga keldi. Sevgi – azob, kasallik. Oshiq shu kasallikka chalingan tutqun. Uning qo‘lidan keladigan birdan-bir maqbul ish yor vasli tomon talpinish, bu yo‘lda kuyish, o‘rtanish... zinhor aqlli gaplar aytish emas. Shu ma‘noda G‘arib ham o‘z dardining quli. Uning-da yashamoqning buyuk fojiadan boshqa hech narsa emasligini tushunishga xohishi ham, fursati ham, imkoni ham yo‘q. G‘arib faqat iztirob chekishga mahkum”¹³⁷. Keltirilgan manbaga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Isajon Sulton G‘arib timsolida o‘zining bolalik fenomenini ham g‘ayrushuuriy tarzda chizib ketganligi ayonlashadi. Ayniqsa, G‘arib ham rassom, ham o‘quvchi, ham tomoshabin, ham fikrlovchi inson, ham oddiy dehqon qiyofasida dala-yu dashtda kezib yuruvchi obraz sifatida bo‘y ko‘rsatadi. “Har qanday obraz ortida, aniqrog‘i vujudida uni yaratgan, dunyoga keltirgan odamning ruhi qaysidir darajada joylashadi. Ushbu ruh obraz ruhini yaratadi”¹³⁸. Bu jarayon yozuvchi badiiy niyati va ijodiy izlanishi, iste‘dodining kamol topishi bilan bog‘liq. Qissa yaratuvchi muallif hayot haqiqatining to‘la-to‘kis qiyofasini berishida ba’zi chalkashliklarga ham yo‘l qo‘yishi mumkin. Axir, ko‘zga ko‘rinib turgan olam qarshisida, yana boshqa bir olam bo‘lishi tabiiy. Ruhiy parvoz qanchalik yuksak bo‘lgan taqdirdagina, xalq orasiga, ularning ruhiyatiga kirib borgan vaqtdagina “voqelikning ro‘y berish vaqti”ni zabt etish mumkin. Chunki adib barcha narsani yodida saqlab qola olmaydi. U unutilgan voqelikni qayta idrok tarozusida jonlantirmoqda. Maksimal darajadagi mushohada ham vaqt o‘tgani

¹³⁷ Улуғбек Ҳамдам. Ойдинбулок ойдинлиги. –Т.: “Мухаррир”. 2017. –Б.146.

¹³⁸ Глобаллашув: бадий талкин, замон ва қаҳрамон. –Т.: ЎзФА “Фан”. 2018. –Б.209.

sayin unutilishga yuz tutadi. Bu qissanavisning o‘z missiyasiga bog‘liq holda kechadi.

Davr hodisalari, zamon o‘zgarishlari inson qalbida aks-sado beradi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy kayfiyatlar oqimi qalbgga yo‘naladi, uning zarbalariga ta‘sir ko‘rsatadi. Badiiy asar qalbning o‘ta shaxsiy, shu barobarda ijtimoiy mahsuli bo‘lganligi bois, zamonning o‘zgarayotgani, tafakkurning yangilanayotgani unga ham o‘z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday o‘zgarishlarning, o‘sislarning tasvir oynasi. Unda g‘oyalarning amalga oshishi, inson ongi va ma‘naviyatining taraqqiyoti, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayonlarini kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra bir davrda yaratilgan qahramon boshqa bir davrda yaratilgan qahramondan bir ijodkor yaratgan xarakter o‘zga ijodkor ro‘yobga chiqargan xarakterdan farqlanadi. Shu bilan birga, xarakter va qahramonlar tabiatida mushtarak jihatlar ham mavjud bo‘lib, bu, eng avvalo, qahramonlar ruhiy olamini badiiy tadqiq etishda ko‘rinadi:

“Dunyoda mo‘jizaviy qudrat bormi? Agar yo‘q bo‘lsa, olamni nima boshqarib turibdi? Odamning o‘zimi? Insoning umri o‘z dumini o‘zi tishlab olgan baliqni eslatadi, u qayoqqa qarab yurayotganini oldindan bilolmaydi, nari borsa juda taxminiy va sayoz fikrlarga tayanib, o‘n yil oldinni ko‘ra olishi mumkin, shunda ham jamiyat hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘la olishini ayta olmaydi, faqat chamalaydi, xolos. Bu esa yaxshilikka intilish va yomonlikdan qochishning nisbiyligini yana bir bor tasdiqlaydi. G‘arib Mashrabni o‘qib mag‘zini chaqqandan so‘ng o‘z taxminlarining haq ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldi. Ey, aziz va qadrdon zot, o‘z ogohlantirishlaring bilan naqadar rost karomat qilgan ekansan?”

G‘arib endi o‘z holicha, hech qanday tayyor bilimlarsiz “olamni bilish mumkinmi” degan azaliy masalaga yetib kelgan edi. Bu masalani hal etishga urinish uni cho‘chitardi: fanniy bilimlarni mavjud chegaragacha o‘zlashtirgan kishi, oxir-oqibat, sovuqdan sovuq sukunat va mudhish muzliklar hukmronlik qilayotgan cheksiz fazo saltanatida yolg‘izligini, barcha erishgan natijalari koinot oldida hechligini, har qanday harakat, shuningdek, umr ham fazoviy o‘lchovlar

oldida yo'qday bo'lib qolishini anglab tushkunlikka tushmasmikin? Bilishning oxiri nimaga borib taqaladi? O'z-o'zini bilishdan olamni bilish sari borish lozimmi yoxud olamni bilishdan o'z-o'zini bilishga qaytmoq zarurmi? O' inson naqadar yolg'iz! Cheksizlik oldida u yo'q, hech narsaga arzimaydi, cheksizlik uni ezib-yanchib, abjaq qilib o'tib ketadi, xuddi etik poshnasi tagida yo'qotilib, ketgan millionlab zarra jondorlar singari. Ammo yo'qlik ichidagi hayot – bir necha o'n yillik umr naqadar laziz, farog'atli, zavqboxsh?''¹³⁹.

“Munojot”ning kulminatsion nuqtasi mana shu yerda yarq etib ko'zga tashlanadi. Chunki G'arib tashqi olam va ichki “men”ni idroklab bo'lgandi. Uning tushunib yetishicha, har qanday mohiyatning zalvori yashash uchun kurashga olib borishi, bu o'z-o'zidan bo'lmasligini, Mashrabni dor tagiga olib kelgan taqdir bo'lsa ajdarho, yovuz dunyo (aslida yovuz va zulmkor odamlar nazarda tutilmoqda!) nayranglaridan boshqa narsa emasligini ko'rsatadi. Mana shu hayqiriq, aks-sado qissa poetikasida peyzaj va badiiy portret o'ziga xosligini – ramzlar tilida, ishora, da'vat signali yo'sinida idroklagan yozuvchi o'quvchidan ham tafakkurli bo'lishni talab qiladi. Muhabbatning qalbg'a botib yashab kelayotgan azaliy tutumlarida bir yaxshilikni topgan G'arib, uquvsizlikning natijasidan yomonlikning bolalab ketishidan aziyat chekadi. Adol opa ana shu sifatlarni o'g'lining ichida yashab kelayotganidan qattiq iztirobga tushadi. G'arib – o'zga sayyoralik odamdek fikrlashi yoki uning ruhiy borlig'ini tushunadigan qalbning yo'qligini anglash esa bu boshqa masala. Faqat tog'asi unga katta-katta umidlar bildirib, so'z bilan yelkasiga qoqib, rag'batlantirib turadi. Qissada G'arib yetimlik vajidan sira nolimaydi. Yetimlik mening peshona yozig'im ekan, deb taqdirga jimgina ko'nikib yashashida ham bir ramziy ifoda mustahkam o'rin olgan. Asarning tafakkurga yetaklaydigan ana shu jihatlari o'quvchining ko'proq mutolaa bilan shug'ullanishiga katta impuls beradi.

Ma'lumki, badiiy asar matni tadqiq etilganda, undagi barcha unsurlarning o'zaro o'yg'unligini hisobga olish to'g'ri ilmiy xulosalarga kelish uchun imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan, romanda syujet va psixologizm munosabatini

¹³⁹ Кўрсатилган адабиёт, -Б.64.

o'rganish ham muayyan yozuvchining individual uslubi va mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. Syujet badiiy asarda voqealar zanjiri, personajlarning makon va zamondagi o'zgarishlar, bir-biri bilan almashinib turadigan vaziyat va holatlardagi hayotini badiiy psixologizm yordamida tasvirlar ekan, adabiy qahramonning ruhiy olami, his-tuyg'u va kechinmalari syujet voqealari rivojida o'z ifodasini topadi. Yozuvchi tasvirlaydigan voqealar asarning predmet dunyosini tashkil qilsa, personajlar ruhiyatining tasviri romanda badiiy psixologizmni tashkil etuvchi ibtido sanaladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasida qahramon tabiatidagi yolg'izlik bilan umr kechirishni xush ko'radi. U bolalikdan boshlangan botinidagi sira tinchlik bermas g'alayonlarga yolg'izlik tamoyili asosida borishni xush ko'radi. Ayniqsa, qahramon tunda o'zini yolg'iz tasavvur va tafakkur qilish maydoniga boshlab borarkan, Olamning menga bilintirmaydigan sirlar silsilasida hech qanday qarshiligi yo'q, deb tushunadi. Ulug'bek Hamdamning ham "Yolg'izlik" qissasi qahramoni – ruhiy sog'lom, jismoniy betob obrazdir. Ruhining tirikligidan atrofdagi daraxtlarning xuddi oyatlarni shivirlab tushuntirib berayotgandek shitirlashidan bir hikmat uqadi. U o'zini shu tabiat va jamiyat oralig'idan izlab, sohir kelajakni kutib umri kurashlar iskanjasida o'tayotgan obrazni yodimizga soladi. Isajon Sultonning "Munojot" qissasi qahramoni G'arib ham tabiatdan uqqan hikmatlari izmida ulg'ayadi. U qanchalik tez suratda hikmatlar mag'zini chaqsa, shunchalar baxtli bo'lajagini, yolg'izlik unga ko'pgina olam sirlaridan xabar berishini tasvirlar ekan, peyzajga badiiy zalvor yuklab, o'zining falsafiy-ruhiy dunyosini tahlil qilib boradi.

Umuman, Isajon Sultonning "Munojot" qissasida peyzaj ruhiy tahlil qamrovini kengaytiribgina qolmay, badiiy obrazning xilma-xil epizodlarda o'sish sur'atlarini asoslashga yo'naltiriladi. G'arib – hayot haqiqatini bilish jarayonida oddiy maysalarning shiviridan uqqan hikmatlarining mag'zi deb biladi. Hayotning ikir-chikirlarigacha, Adol opaning o'g'liga va ko'ngliga qarashlari, onaizorning ham shafqat bobida samimiyligini dalolatlaydi. Negaki, ona o'z farzandining dilini og'ritishni istamaganidek, tafakkur qilish san'atini ko'krak suti bilan berganligi,

G'arib ana shu ne'matning qadrini "Bilish" orqali o'zlashtirishi o'quvchini o'ylashga undaydi hamda undan tayinli xulosalar chiqarib yashashga da'vat qiladi.

3.3.8. Ruhiiy tahlil va polifonik nutq sintaksisi

XX asr ibtidosida maydonga chiqqan qator yozuvchilar ijodiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, polifonik nutq (ko'p ovozlilik)ning o'ziga xos qirralari mavjudligini ko'ramiz. Polifonik nuqt tabiati shunday murakkabki, roviy-qahramon-yozuvchi bir butun nuqtni hosil qilib, murakkab vaziyatlarga, tushuniksiz bir olamga bizni yetaklashda davom etadi. Yangi davr noan'anaviy qissalarda polifonik nutq har qachongidan murakkab fragmentlarda barqarorlashdi. Tadrijiy rivojlanishlar sari o'zining namoyon bo'lish maydonini "aniqlab", shu zaylda o'quvchi tafakkuriga ta'sir ko'rsata boshladi. Nutqiy munosabat haqida so'z borganda, avvalo, o'quvchi bilan qahramon orasidagi muloqot tushuniladi. Qaysi yo'sindan turib baholaganimizda masala mohiyatiga teran kirib borish mumkinligi ayonlashadi.

Ma'lumki, *polifonik nutq* tushunchasi adabiyotshunosligimizda ma'lum ma'noda, professor Y.Solijonov tomonidan 80-90 yillar nasri asosida maxsus tadqiq qilingan¹⁴⁰. Tarixga e'tibor beraylik, Dostoyevskiy asarlarida polifonik nutq erkin, keng qamrovli, xarakter xatti-harakatlari, dramatik vaziyat negizida reallashadi. A.Qodiriyning "O'tgan kunlar"ida Otabek, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida Miryoqublar nutqi mustaqil ovozlardan tarkib topgan. Aslida, polifonik nutq tabiatida yozuvchi aytolmagan sir, mushohada, chorlov, ishora, belgi kabi o'nlab unsurlar akslanadi. Busiz yozuvchi o'z maqsad-muddaosiga erishishi qiyin. Badiiylik qonuniyatlari asarni ayni ushbu jihatlar bilan o'rganishni taqozolaydi. Aslida, o'zbek adabiyotida bu nutq turi Ahmad Yassaviy hikmatlari orqali boshlangan (I.Haqqul) bo'lsa, roman poetikasida rus adibi F.M.Dostoyevskiy ijodi ma'lum ma'noda o'z ta'sirini o'tkazdi. Uslubiy-shakliy izlanishlar esa fanda talqin o'lchamini tubdan o'zgartirdi. Poetik idrokni murakkab

¹⁴⁰ Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Фил. фан. док. ... дис. – Т.: ТАИ, 2002, -Б.302.

va ko‘ptarkibli jarayon sifatida taraqqiy toptirish an‘anasi adabiy jamoatchilikda kuchli taassurot qoldirdi¹⁴¹. Binobarin, qissa poetikasida polifonik nutq shamoyili asrlardan buyon rivojlanib kelmoqda. “Qissasi Rabg‘uziy”dagi hikoyat va rivoyatlarda Rabg‘uziy nutqi bilan uyg‘unlashib, hayotning diniy-ma‘rifiy qatlamlarini aks ettirishga asoslanadi. XV asr Alisher Navoiy ijodida polifonizm hodisasi alohida o‘rganilishi muhim bo‘lgan tadqiqotni taqozo etadi. Bu borada badiiy xronotop poetikasi bilan monografiq tadqiqot olib borgan professor U.Jo‘raqulov har bir asarning polifonik miqyoslarini alohida predmet sifatida tadqiq qilib, ilmiy xulosalarini bayon qiladi.

“Polifoniya (yun. polys – ko‘p, phone – ovoz) – musiqashunoslikdan o‘zlashgan termin, M.Baxtinning “Dostoyevskiy ijodi muammolari” (1929) asarida ilk bor adabiyotga tatbiqan ishlatilgan. Mazkur asarida olim F.Dostoyevskiy romanning yangi tipi – “polifonik roman” yaratganini asoslab berdi. M.Baxtin talqinlariga ko‘ra, Dostoyevskiyga qadar yaratilgan romanlarda muallif ongi ustuvor bo‘lib, qolgan hamma narsa, jumladan, qahramon shunga to‘la bo‘ysundirilgan. Olim buni “romanning monologik tipi”, deb ataydi va undan farqli ravishda, polifonik romanning asosiy belgisi sifatida muallifning qahramonlarga nisbatan dialogik mavqeda turishi, ya‘ni ularning har biri olam haqidagi o‘z nuqtayi nazariga egaligi va bu nuqtayi nazarlarning har biri mustaqil holda (muallif nuqtayi nazari bilan parallel tarzda, unga bo‘ysundirilmagan holda) yashashini ko‘rsatadi”¹⁴². Darhaqiqat, polifonik nutq yozuvchining murakkab tizimli voqelikni idrok etishda qahramon va syujet liniyalarida harakatlanuvchi xarakterlar jipsiligining o‘zaro yaxlitlik mezonida yuzaga chiqishini taqozolaydi. Mustaqil ovozlarning qo‘shilib, bir necha teng huquqli ovozlarning uyg‘unlashuvini yuzaga chiqaradi:

“...Sen, qorong‘i kechani Oy yoritgani kabi, mening qalbimni yoritib turibsan. Bu dunyoning yovuzliklaridan meni faqat sen qutqarishing mumkin. Faqat sen meni munofiqlikdan saqlashing mumkin. Sensiz bu dunyo – zindon.

¹⁴¹ Тулибаев Х. Ҳозирги ўзбек романчилигида бадий услуб ва жанрий-композицион яхлитлик синтези. Филол.фан.фалсафа док.дисс. (PhD) –Фарғона. 2018. –Б.38.

¹⁴² Куронов Д. ва бошқ., Адабиётшунослик терминлари изоҳли луғати. –Т.: “Академнашр”, 2010. –Б.164-165.

Sensiz zulmat bu dunyo. Sensiz bu dunyo qafas. Sensiz bo‘m-bo‘sh bu dunyo. Sen nuri a‘losan. Sen shafqat-u muruvvatsan. Sensiz qalbimni yirtqich tuyg‘ular makon qiladi – xuddi kimsasiz sahroni jondorlar makon qilgandek. Sensiz mening hayvondan, hashoratdan farqim yo‘q. Sensiz hamma narsa harom-harish, telbateskari. Sen mening yo‘limdagi mayoqsan. Sen men izlab ketayotgan shaffof manzilsan...”

Sen ulug‘ va mukarramsan. Sen yashash va kurashish uchun boqiy da‘vatsan.

Sen bizdan yuz o‘girib ketib boryapsan. Sen xuddi bahor kabi ketib boryapsan. Izingdan esa xazonlik, chirish, qovjirash boshlanadi. Sen o‘tgan yo‘laklarda tiriklik gullari to‘kilib boradi. Ortingda aql va idrokning bepoyon xarobalari tutab yotadi. Men seni har kecha tushlarimda ko‘raman. Senga men bilan birga qol deb yalinib-yolvoraman. Sen esa mening ohim yetmas yuksak-yuksaklarda uchib boryapsan”

Bilaman, bu yozayotganlarimning hammasi behuda narsalar. Qani edi xayolning jilvalari haqida yozsang yoki jilvalanayotgan xayol yozsang. Xayol esa tabiatning eng go‘zal in‘omidir. Hechqursa, odam xayolan baxtiyor bo‘lsa, shu ham ulkan saodat”¹⁴³.

Nazar Eshonqul “Tun panjaralari” qissasida uchta mustaqil ovoz uyg‘unlashib ketganki, uni ko‘p ovozli nutq sifatida idrok etish lozim. *Birinchisi* – robiyaga bo‘lgan xotirasida (ong osti hislari) qayta tiklangan qissa qahramonining nutqi, *ikkinchisi* – qissa qahramonini mustaqil boshqarib turgan roviy, yozuvchi Nazar Eshonqulning o‘zining nutqi, *uchinchisi* – jamiyatda o‘z o‘rnini topolmay qiynalib yurgan maktub egasi, jurnalistning nutqi. Mana shu ovozlilar birlashib, ko‘p ovozlilikning yuzaga chiqishida, o‘quvchiga bir vaqtning o‘zida ham maktub, ham qahramon tuyg‘ularining o‘tmishdagi ahvol-ruhiyatini, ham jamiyatda mavjudlik jumbog‘ining nechog‘li murakkab xilqat ekanligini tushunib yetishida seziladi. Bu nutq hodisasi F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy singari yozuvchilarda juda murakkab segmentlarni qayta idrok etishga keng yo‘l ochib berganki, ular yaratgan qahramonlar *kecha-bugun-ertaga* tarzida hayot kechirishi, jamiyatning ikir-

¹⁴³ Назар Эшонқул. Сайланма. 2-жилд. –Т.: “Акадeмнaшр”. 2022. –Б.505-506.

chikirlarigacha qaygʻurishi, davrning ogʻriqlariga vaqtida javob topishi, “men nima uchun yashayapman?” qabilidagi savollarga munosib javob topishi hayratlantiradi. Demak, hayotning har bir inʼomi ortida yashiringan hikmatni uqish va undan tayinli xulosalar chiqarish ham qahramonni maʼnan oʻstiradi, ham xatolaridan saboq olishga yetaklaydi.

“Polifoniyadagi har bir ovoz mustaqil odamni bildiradi. U muallif ovozinig takrori yoki aks-sadosi emas. Bu ovoz polifoniya deb atalgan maydonaro muallif va boshqa qahramonlar ovozi bilan bir qatorda harakatlanishi, oʻzga ovozlar bilan qoʻshilishi, ulardan ajralib chiqishi, ularni tasdiq yoki inkor etishi, hatto oʻzga ovozlariga qarshi isyon koʻtarishi mumkin. Har bir ovozning oʻz dunyosi, nuqtayi nazari, gʻoyasi bor. U bularning barchasini himoya qilishi, polifoniya doirasida namoyon etish va bu maydonda gʻolib yoki magʻlub boʻlish huquqiga ega. Qizigʻi shundaki, hatto muallif ovozinig toʻla maʼnodagi magʻlubiyati ham boshqa ovozlar faoliyatining oʻzgarishi va soʻnishiga olib kelmaydi. Shunga koʻra, polifoniya, baʼzi oʻzbek adabiyotshunoslari qayd etganlaridek, maʼno serqatlamligi, koʻpmaʼnolilik emas. Undagi har bir ovoz bir mustaqil olam, ulkan dunyo ichidagi dunyochadir”¹⁴⁴. Noanʼanaviy qissalar badiiyatida syujet va kompozitsion uygʻunligini taʼminlashda psixologizm qanday oʻrin tutsa, polifonizm hodisasi ham shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Unda bir vaqtning oʻzida qahramonning ikkilanishlari, ogʻriqlari va yozuvchi anglamlarining nechogʻli muhimligini tushunib yetamiz. Nazar Eshonqulning aksariyat qissalari muallif tomonidan hikoya qilingani bilan, unda xarakter va muhit suratini oʻz holicha mustaqil inkishof qiladi. Uning qahramonlari chirkin, badboʻy, tashlandiq bir joyda harakatlanib, dunyo va oxirat azoblarini Shaytonning qutqusi evaziga koʻrishni xush koʻradi. “Tun panjaralari”da ham Shayton obrazi mavjud boʻlib, qahramonning botinidagi sirlardan voqif boʻladi. Demak, *yozuvchi-qahramon-shayton* birligi polifonizmning joriy modusini namoyish etib, ramzlar va metaforalar yaxlitligida mavjudlik jumbogʻini anglashga, absurddan maʼno izlashga olib boruvchi yoʻllarni sarhisob qiladi. Oʻtmishdan qon-qonimizga sinib

¹⁴⁴ Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Ғ.Ғулом нашриёти. 2015, –Б.48.

kelayotgan adashishlar va yo‘qotishlar yozuvchi qahramonlarining nutqida ertangi kunga kuchli ishonch paydo qiladi.

Polifonik nutq xususida fikr yuritgan munaqqid Y.Solijonov qayd etishicha: “Polifonik roman avtor bayonidan boshlab, personajlar nutqiga qadar dialoglashgan tarzda qurilmog‘i shart. Dialog bunday asarning qoni va joni sifatidagi eng zarur moddasidir. Dialogsiz polifonik romanni tasavvur etib bo‘lmaydi. Syujet va kompozitsion qurilishi jihatdan ham polifonik romanlar an’anaviy prozaik asarlardan farq qiladi. Unda keskin va shiddatli to‘qnashuvlar, kutilmagan assotsiativ hodisalar, sarguzasht va fantastik epizodlar, avantyuristik voqealar aralash ifodalanishi, asar qahramoni qattiq sinovlardan o‘tishi lozim”¹⁴⁵. Haqiqatdan ham, roman yoki qissa, hikoya yoki dramatik asar bo‘lsin, polifonik nutq qahramon intellektual xarakterining puchmoqlarigacha qamrab oladi. Shuning uchun ham M.M.Baxtin muammoning ildizini antik yunon dramalaridan bejiz izlamadi. Mazkur atamani XX asr boshlaridagina musiqadan o‘zlashtirilgan termin sifatida adabiyotshunoslikda sinovdan o‘tkazdi. Inson o‘y-xayollari, orzu-umidlari ichki nutqida qanday sodir bo‘lsa, tashqi muhit bilan murosaga kirishgan qahramon ana shu muhitning tasvirini chuqur o‘zlashtiradi. Ayni chog‘da muallif ham ruhiyatni, ham qahramon nutqini nazorat qilib, undan voqelikning yanada jadal sur‘atlarda namoyon bo‘lishida maksimal darajada foydalanadi.

Noan’anaviy qissada polifonik nutq va badiiy yaxlitlik sintezi. Qissaning epik ko‘lami yozuvchining ijodiy konsepsiyasi bilan belgilanadi. Chunki unda g‘oyaviy-badiiy chiziqlar – qahramon ruhiyatini yanada kashf qilishga, undagi olam-olam tagma’nolarni anglashga keng yo‘l ochadi. Keyingi yillar qissachiligida polifonizm kuchayib, uch o‘lchamli olam sirlarini teranroq istifoda qilishga e’tibor berilayotir. Mavjud andozalarni sindirish, yangidan yangi tasvir fragmentlarini joriy qilish bugungi o‘zbek qissachiligida ayol obrazini boshqacha rakursdan “kashf” qilishga zamin yaratmoqda. Jahon adabiyotining zabardast yozuvchilari boshlab bergan – polifonizm hodisasi ruhiy-falsafiy talqin tig‘izligini ham taqozo

¹⁴⁵ Солижонов Й. XX асринг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. док.диссертацияси автореферати. –Т.: 2002. –Б.36.

etadi. Shuni qayd etish joizki, qissalarda inson ruhiyati birinchi planga ko'tarildi. Undagi ijtimoiy-maishiy muammolar hamda obrazlar sistemasi badiiy kommunikatsiya butunligini namoyon qildi. Ya'ni yozuvchi endilikda monodialogik nutq emas, polifonik nutq negizida mavjud voqelikni qora ranglarda – modernistik yo'sinda inkishof qilayotgani fikrimiz yorqin dalilidir.

Isajon Sulton – sermahsul ijodkor. U davrning og'riqlariga shu qadar teran yondashadiki, uning zamirida inson ruhiyati chigalliklardan iborat bir olam ekanligini bilish mumkin. Iste'dod davr va yosh bilan belgilansa, muallif 23 yoshida yozgan "Munojot" qissasida G'arib obrazini yaratadi. Qissa ona va bola o'rtasida kechgan suhbat asosida talqin qilinadi. Qissadagi polifonik nutq va ruhiy tahlil o'ziga xosligiga e'tibor beradigan bo'lsak, o'ziga xos kartina ko'z o'ngimizda jonlanadi. Shuni qayd etish joizki, "Polifonik tafakkur inson ruhiyatida kechadigan har xil rakurs jarayonlarini bevosita, haqqoniy tasvirlashga intilgan ijod namunalariga nisbatan qo'llanadi. "Ong oqimi" shartli atamasi XIX asr oxirlaridayoq amerikalik faylasuf U.Jemsning inson ongida daryo oqimiga monandlikni ko'rish bilan bog'liq qarashlari asosida ommalasha boshlagandi. Jahon adabiyotining V.Vulf, M.Prust, J.Joys, E.Xeminguey, U.Folkner kabi mashhur yozuvchilari inson ongidagi his-tuyg'ular, o'y-fikrlar, kutilmaganda paydo bo'luvchi assosiatsiyalarning bir-biri bilan betartib almashinib turishi, mazkur chatishuvni mantiqan izohlash mushkulligiga e'tibor qaratishgan. Bunday izlanishlar keyinchalik syurrealizm, ya'ni yangi romanchilik namoyandalari izlanishlarida davom ettirildi. Inson ongidagi jarayonlar voqelik bilan bog'lab tasvirlandi. Natijada, ong oqimi badiiy idrok etish vositalaridan biri sifatida ham talqin etila boshlandi".¹⁴⁶ Haqiqatdan ham, polifonizm hodisasi "ong oqimi" bilan bog'liq bo'lgani bois unda ham qahramon, ham yozuvchi, ham roviy nutqi aralashib – asarning umumiy pafosi, obrazlar sistemasini tartiblashtiradi. Natijada, yozuvchining botiniy olamidagi hali zabt etilmagan cho'qqilarni, sir-u asrorlarni anglab olish imkonini beradi.

¹⁴⁶ Авезова Г. Полифоник тафаккур типи бадий яхлитликни таъминлайдиган омил сифатида//International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada. <https://econferencezone.org> 27th Oct. 2022

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Munojot” qissasida mazkur nutq tipi nafaqat obrazlarni, balki qissa voqeligidagi psixologizmni, qahramonlarning turmush tarzini, davrni, mavjudlikni, Allohni tanishni, e’tiqodsizlik qanday oqibatlariga olib kelishini bir nuqtaga jamlashga xizmat qiladi. Mazkur muammo yuzasidan ilk bor shug‘ullangan olim A.Nurmatovning “Badiiy asarda polifonizm”¹⁴⁷ nomli nomzodlik dissertatsiyasida polifonik nutqning o‘ziga xosligi xususida to‘xtalib o‘tadi¹⁴⁸. Professor Y.Solijonov ushbu masalaga yozuvchilardan M.M.Do‘st, O.Muxtor, O‘.Hoshimov romanlarini tahlili orqali yondashadi. Aynan tasvir polifoniyasi ushbu adiblarning asarlarida qay darajada ishlanganligini mantiqiy asoslaydi. Shunday ekan, polifonizm hodisasi nihoyatda keng va serqatlam soha ekanligi ayonlashadi.

Munaqqid I.G‘afurov: “Ekzistensializm yo‘llari va falsafasiga shaydo bo‘lgan Isajon Sultonning yuragi va ong tasavvuri shunday larzali kechinmalardan dunyo va tabiatning kelib chiqishiga nazar tashlamoqchi bo‘ladi. Har narsalarning ibtido manshaalariga qarashga urinadi”.¹⁴⁹ Haqiqatdan ham, O‘zbekiston Qahramoni, munaqqid I.G‘afurovning ushbu mulohazalari yozuvchi ijodini to‘laqonli anglashga keng yo‘l ochadi. Adibning jahon va o‘zbek adabiyotini teran idroklay olishi – ayollar obrazini o‘ziga xos tarzda tasvirlash manerasi yuqoridagi fikr-mulohazalarni to‘laqonli quvvatlaydi. Insonning hayot yo‘li murakkab va jigalliklardan iborat. Negaki, u o‘zi yashab turgan davrning og‘riqlariga bardosh berolmaydi. Agar u yozuvchi yoki shoir bo‘lsa, juda murakkab kechadi. O‘tish davrining og‘riqlari har bir ziyoli qalbida aks-sado berdi, ularni jiddiy sinovdan o‘tkazdi, dunyoni anglash mexanizmiga tamomila yangi “to‘n” kiygizdi. Shuning uchun ham har bir ziyoli o‘zining ijtimoiy-maishiy muammolarini emas, falsafiy-psixologik talqin qamrovini ham kengaytirishga harakat qilib yashaydi. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Bog‘i Eram”, “Onaizorim”, “Munojot” kabi roman va qissalarida tafakkur qilishga shoshilayotgan, DUNYO bilan

¹⁴⁷ Nurmatov A. Badiiy asarda полифонизм. фил.фан.. номзоди диссертацияси автореферати. –Т.1996. –Б.3.

¹⁴⁸ Тўлибоев Х. Ҳозирги ўзбек романчилигида бадий услуб ва жанрий-композицион яхлитлик синтези. Филол.фан.фалсафа.док.дисс. –Фарғона. 2018. –Б.40-41.

¹⁴⁹ Гафуров И. Ёзувчи, табиат ва тиббиёт. Исажон Султон насри бадийяти. –Т.: “Turon zamin ziyo”. 2017. – Б.19.

ziddiyatlarga kirishayotgan qahramonlar sistemasining estetik butunligini ko‘ramiz. Yozuvchi an‘analarni parchaladi, yangiliklarning izidan ergashdi, dunyo adabiyotidagi modernizm, postmodernizm singari oqimlarni milliy yo‘sinda idroklash tizimni yaratdi. U o‘zining betakror, shaloladek uslubi bilan o‘zbek adabiyotida “yangi to‘lqin”ning paydo bo‘lishiga hissasini qo‘shib kelmoqda.

Bu haqda aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak: “Munojot”ni, umuman, Isajonning barcha asarlarini boshdan-oyoq diqqat bilan o‘qishni tavsiya qilardim. Chunki yozuvchi har bir jumлага, jumлада aks etgan u yoki bu tabiat hodisasiga qandaydir ramz-ma‘no joylab ketgan bo‘ladi. Isajonning ijodiy dunyosi go‘zalliklari, nafosatidan bahra olmoqchi bo‘lgan o‘quvchi birinchi bo‘lib “Munojot”ni o‘qishi va chuqur his qilishi lozim. Uning qolgan asarlarida dunyoqarashi, tafakkur ko‘lami kengayib, butun olam miqyosida tiriklik sir-sinoatini tushunmoqchi bo‘layotgan G‘aribning turli nom va ko‘rinishdagi qiyofasi namoyon bo‘ladi. Aytmoqchimanki, Isajonning barcha asarlarining bosh qahramoni “Munojot”dagi G‘aribdir. Faqat nom va muhit o‘zga. Balki Isajon kitobini G‘arib deb nomlaganda ma‘qul bo‘larmidi, deb o‘yladim”.¹⁵⁰ Binobarin, qissachilikning xilma-xil ifoda vositalari Isajon Sulton asarlarida yanada tiniqroq namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, “Onaizorim” qissasida AYOL obrazining hali biz anglab yetmagan mungli iztiroblaridan voqif bo‘lamiz:

Sovchilar yana kelishdi. Endi ularga beriladigan javob aniq edi.

– Sahar kelib ko‘changizni supurib ketay desam, zamon boshqa, ammo shu qizingiz uchun yil bo‘yi har kuni supurishgayam roziman, – deya avradi kuyovning ammasi, semiz xotin.

O‘z amma-xolalari ham shunda edilar.

– Sizday xushmuomala, har narsani o‘ylab ish tutadigan oilaga bermasak, kimgayam berardik, – dedi ona. – Qoshimni ostida, kiprigimni ustida avaylab o‘stirgan qizimga o‘zimdan ham afzal ona bo‘lasiz-ku, sizniyam, avlod-ajdodingizni ham yaxshi bilaman.

¹⁵⁰ Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Бокий дарбадар”гача. Исажон Султон насри бадиияти. –Т.: “Турон замин зиё”. –Б. 93.

Bu bir ishora, zamirida o'ksikroq hayiqish sezilar, ya'ni berishga berarmiz-u ammo shuncha yil zahmatlar bilan katta qilgan qizimga o'z bolangizday qararmikansiz degan ilg'ar-ilg'anmas bir o'tinch ham bor edi.

Non sindirildi, oqlik berildi. Kelganlarning erkaklariga belbog', ayollariga ro'mol, dasturxonlariga non va qand-qurs solindi. Sovchilar xushhol, yuz-ko'zlari sevinch-u mamnuniyatdan porlab, xayr-xo'shlashib jo'nashdi.

“Xudo xohlasa, endi qarindosh bo'ldik”, deyishdi ketar oldidan.

“Oqlik ham berildi, endi bu yog'i to'y, qiz o'lgur”, dedi xolasi, Ra'noning biqinini chimdib, sevib-suyib.

“Hoy qiz, endi ko'chaga chiqqaningda qarindosh-urug'laridan birontasi o'tib qolsa qochgin, – dedi ona. – Yo'ling o'sha tomonga tushsa, u ko'chadan yurmagin.

Gapirishsa gapirmaysan, ko'rishaman desa-yu qochgani ilojing qolmasa, yerga qarab turasan.

Ening ko'zi senda bo'ladi, bularning bari sening hayo-odobingni ko'rsatadigan narsalar, hushyor bo'lasan”.

Qo'ni-qo'shnilar – keng-mo'l guldor ko'ylak kiygan shaddod-shaddod xotinlar ko'rpa-to'shak qavigani chiqishdi.

Qoq yerga kattakon palos solindi. Qo'shnilar u yoq-bu yoqdan gaplashib, to'shak qavir edilar.

– Qiz tushmagur, choy-poy damlab kelsang-chi, senga ko'rpa qaviymiz deb bellarimiz qotib ketdi-ku, – deb ham qo'yishardi.

– Kerak bo'lsa o'zingiz damlab olavering, – der edi Ra'no.

– Zarda qilmay qol, – deb kular edilar qo'shnilar.

Ra'no odamlar ko'zidan ham qochar bo'ldi. Chunki nafaqat teng-to'shlari, hatto kichkina bolalar ham “Kelin! Kelin!” deya mazaxlar edilar¹⁵¹.

Keltirilgan lavhada qissaning kulminatsion nuqtasi boshlanadi. Ayni shu tasvir Ra'noning iztirobli, ikkinchi umrning nechog'li murakkabliklarga to'la ekanligini namoyon qiladi. Ayniqsa, sovchilarning “non sindirishi” Ra'noning

¹⁵¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

ko'nglini sindirishdek tuyuladi. Sobiq ittifoq davridan, umuman, bizdagi udumlardan o'tib kelayotgan "odat"lar kelinni cho'ridek qilib ishlatish, uning qalbi, og'riqlari, sog'ligi bilan hisoblashmaslik bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Kelin – o'zbek oilasida xizmat qiluvchi, bola tug'ib beruvchi xizmatkor. Bu xizmatkorning oilada gapirishga umuman haqqi yo'q degan eskilik tushunchalar kunimizda qanchadan qancha oilalarning sababsiz, oddiy masalalar yuzasidan ajrashib, bolalarning tirik yetim bo'lishiga olib kelmoqda. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) kelinlarga o'z qizlaringiz kabi munosabatda bo'ling degan muqaddas hadislariga amal qilish u yoqda tursin, iymon, e'tiqodini unutgan qaynona, qaynotalar ko'payib ketgan. Qissada aynan oiladagi ijtimoiy-maishiy muammolarning kelib chiqish ildizlari va sabablari ochiqdanib, Ra'no timsolida butun o'zbek xalqining ayollariga haykal qo'yadi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Professor D.Quronov: "Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy".¹⁵² Ko'rinadiki, Ra'no obrazi qissaning o'q ildizi. Uning xatti-harakatisiz biror voqelik sodir bo'lmaydi. Onalarning bir-birini to'ldirib turuvchi – Yaratuvchanlik xislati, oilaparvarligi, nasldan naslga ko'chib kelayotgan mungli iztiroblar, maishiy turmush fragmentlarini yanada jilvalantirishga keng yo'l ochadi. Demak, yozuvchining asl maqsadi ham polifonik nutq oraqali psixologik vaziyatni yumshatishga qaratilganligi bilan o'lchanadi. Mavjud muammo ko'lami qissa badiiyatidagi so'z o'yinlari, tasvir serqatlamligini, ijodkor "men"ini yanada tartiblantirishga keng imkon beradi. Shuni qayd etish lozimki, Isajon Sulton qissa nomini "Onaizorim" deb qo'yishida ham ramziy ma'no bor. Chunki qizaloq yoshligidan Onasining og'ir mashaqqatli mehnatlar evaziga katta qilganini o'z

¹⁵² Куронов Д. Чўлпон настри поэтикаси. –Т.: "Шарк". 2004. –Б.59-60.

ko'zi bilan ko'rib voyaga yetadi. Shuncha tarbiya, bilim va tajriba o'zga uyga kelin bo'lib tushgandagi unga bo'lgan munosabatlar butun o'zbek ayollarining boshiga yog'ilgan og'ir mehnat turmushini yodimizga soladi. Quyidagi lavhada buning yorqin guvohi bo'lamiz:

“Qaynona zorilladi.

– Kelin degan o'tiravermaydi bolaga qarab. Chiqib ishingizni qilsangiz bo'lmaydimi? Biz ham bola tuqqanmiz, nechtasini katta qilganmiz, ishimiz o'lda-jo'lda qolib ketmagan.

Ra'no uning ko'nglini olishga chandon urindi, qaynona sira tinchimadi. O'tirsa o'poq, tursa so'poq deyaverdi.

– Hoy, qo'ysang-chi, – dedi qaynота.

Qaynona uniyam jerkib tashladi.

Shunda eri oraga kirdi.

– Nima deysan, ona? – dedi jahli chiqib. – Qo'li olti, oyog'i yetti bo'lib xizmatingni qilyapti-ku?

– Sigirga suv bermapti, – dedi qaynona. – Shu yoshga kirib onam suv tashisin desang, o'l sen ham.

– O'zim tashiyman sigiringga suvni, – dedi er.

– Erkak bo'lmay qol, endi sigirga qarab yursang, – dedi qaynona. – Erkak degan ko'chadan rizq tashib keladi, uyda nima bor ekan?

– Unaqa dema, ona, – dedi o'g'il. – Jonimni ikki tomonida ikkalang turibsan. Bir qo'limni tishlasam, boshqasi og'risa? Axir, tushungin-da, ona. U boshimni ustida bo'lsa, sen ko'zimni ustida. Sen norozi bo'lsang ko'zim og'riydi, u xafa bo'lsa boshim.

Qaynona to'ng'illab-to'ng'illab nari ketdi.

Shunda Ra'no er kishining nima uchun ustun ekanini tushunganday bo'ldi. Erning erligi kelbatida, kuch-quvvatida emas ekan, deb o'yladi. Erni er qiladigan adolati ekan. Ichida eridan minnatdor bo'ldi, birdaniga yaxshi ko'rdi. Undan faxrlandi, bolajonim, boshqalarning otasi sirayam bunaqa emas, xudoyim

ikkovimizning boshimizga baxt qushini qo'ndirdi, deya sevindi. Bola to'shagi ustida chiroyli ko'zchalarini unga tikib, bir nimalar deb chug'urlar edi.

“Qara-ya, qanday otang bor”, -dedi sevinib.

Nazarida, eri boshqa qiyofa oldi. Haybati oshdi, uyini to'ldirdi.

“Sen sabr qiptur, uylarni top-toza qilay”, dedi.

Bola qo'l-oyoqchalarini o'ynatib chug'urlab yotaverdi. Ra'no hammayoqni qaytadan tartibga keltirdi, yangi to'shaklardan soldi, o'ziga oro berdi, ko'rpa qatiga yashirib qo'ygan atirdan seydi.

Bir qarasa, o'g'lon yangi atlas to'shaklarga chuvillatib siyib qo'yipti.

O'rgilay bolajonimdan-a, dedi mehri tovlanib”¹⁵³.

Ushbu lavhada qaynonaning kelinga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ozorlaridan bittasi edi. Mana shu yerdan boshlab Ra'noning hayotida alg'ov-dalg'ov kunlar boshlanadi. Negaki, hech narsadan ko'ngli to'lmagan qaynonaning kelini qilgan ishlaridan noroziligi, doim “nimadir” o'ylab topib, yo'q joydan janjal ko'tarib, oilaning barakasini uchiradigan darajaga olib keladi. Biroq kelin indamasdan chidadi. Bilgani ichida, bilmagani esa tashida bo'lgan Ra'noning ruhiyatida ajib o'zgarishlar ro'y beradi. Qissadagi ruhiy talqin ayni shu maqsadda chuqurlashtirilgan. Onaizorning zorlanishlari va iztiroblarini chuqur idroklash mavjud konsepsiyaning to'laqonli yuzaga chiqishiga keng imkon berganligida qabarib ko'rinadi.

Tadqiqotchi M.Boboxonov: “Yozuvchi mavjud voqelikni, hayotdagi hodisalarni badiiy talqin etar ekan, o'z g'oyaviy maqsadini anglatish, asar markazidagi asosiy qahramonlar tiynat va siyratini namoyish etish uchun turli adabiy usullarni ishga soladi. Ba'zida bosh qahramonning o'zini so'ylatib, o'zini ko'rsatadi, ba'zan esa butun borlig'idan naqs yog'ilib turgan kimsalarga yoki qalbi toza, iymoni pok kishilarga duch qiladi. To'qnashuvlar, suhbatlar, tabiat manzaralari, munozaralar yoki lirik kechinmalar orqali voqealar rivoji yechimga qarab siljiydi, qahramonlarning ichki va tashqi dunyosi ochiladi”¹⁵⁴. Haqiqatdan

¹⁵³ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasi/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

¹⁵⁴ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. –Т.: “Баёз”. 2014. –Б.108.

ham, M.Boboxonov to'g'ri ta'kidlaydi. Polifonizmning yuksak namunalarini yaratgan F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy poetik izlanishlarida ham butun jamiyat hayotining ikir-chikrlarigacha inkishof qilinardi. Ayniqsa, *qahramon-muhit-jamiyat* birligi asar poetikasida yagona estetik mezonga borib tutashadi. Ayni shu jarayon – qahramonlar psixologiyasini rang-barang rakurslarda idroklashga keng sharoit yaratadi:

“Ra’no yana ko’k kiydi.

Qisqa vaqt ichida ota-onasidan ayrildi.

Har ikkovlon kasal bo’lmasdan, farishtalarday jon bergani yurakni yanada ezar edi.

O’lim haq! Har kim ham bir kuni bu olamdan ketadi.

Yana bir haqiqat shuki, ketganlar siz-u biz boradigan joyga bizlardan avvalroq borib turadilar.

O’zingniki yomon bo’lar ekan. Ra’no yomon kuydi. O’zini har tomon urdi. Ota izlari qolgan tuproqlarga o’zini otib yig’ladi, u qurgan imoratlarga yuzini bosib yig’ladi.

“Voy otam, hamma narsalaringiz o’z joyida turibdi-ku, o’zingiz qaydasiz?” deb bo’zladi.

“Uyingizga kirsam, isingiz dimog’imga urilyapti-ku, jon otam?”

Kasal bo’lganlarida “Jonim qizim” deya, u yog’ini ayta olmay yutinganlarigacha xayolida jonlandi.

Aytib-aytib yig’ladi. Shunday yig’lasa, yuragining ichidagi tafti bosilganday bo’ldi.

Qator-qator uy solgan,

Devoriga gul solgan,

Solgan guli bitmasdan

Go’ristonga yo’l olgan,

Etigiga, belbog’iga, to’niga yuzini bosib-bosib yig’ladi Ra’no qiz.

Ha, qizning kuyishi yomon bo’lar ekan. Qiz o’z-o’zini yeb qo’yar ekan. Jonini ayamas ekan, qushday potirlab o’zini har yon urar ekan.

Na qaynona yupata oldi uni, na er, na bolasi.

Bittasigayam quloq solmadi. Bolasini bag'riga mahkam bosib, dard-u armonlarini aytib bo'zlayverdi, bo'zlayverdi"¹⁵⁵.

Muallif va qahramon ruhiyatidagi ko'povozlilik "inkor va tasdiq" orasida maromiga yetadi. Ra'noning ruhiyatidagi o'sish-o'zgarishlarni izohlar ekan, bevosita yozuvchi qahramon hayotiga aralashib ketadi. Voqelikni o'zi yaratar ekan, unga munosabatli nutqni tanqidiy ko'rib chiqishga, mavjudlarini idroklashga o'zini mas'ul sanaydi. Shuning barobarida, inson fe'l-atvoridagi situatsiyalar yozuvchi nigohi bilan dalolatlanib boradi. Demak, bunday nutq zamirida insonning maqsad-intilishlari turadi. Biografik metodga xos xususiyatlar yozuvchi Isajon Sultonning juda ko'pchilik asarlarida yagona estetik markazni dalolatlaydi. Natijada insonning maishiy turmush sarzanishlarida o'sish-o'zgarishlar yanada tiniqroq ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi D.Toshpo'latovanning qayd etishicha: "Isajon Sulton asarlarining ko'pchiligida psixologik tasvir xarakter individualligini ta'minlash barobarida yozuvchi dunyoqarashini teran va falsafiy uyg'unlikda inkishof qilishga qaratiladi. Badiiy psixologizm har bir asar arxitektonikasida mavjud ijodiy konsepsiyani takomillashtiradi, syujetni jadallashtiradi, xarakterni to'laqonli ochib beradi. Shuningdek, unda qahramonlar o'z dunyosini qurayotgan xilma-xil voqelik negizida borliqdagi yashash tarzi qanday kechishini ham anglay boradi"¹⁵⁶. Darhaqiqat, bu holat "Onaizorim" qissasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning psixologik tarang talqini Ra'no va jamiyat birligida ochib beriladi. Ra'no – jamiyatning eng faol, aql-zakovatli, iboli-hayoli, mehr va shafqatli vakili. Bu ideallik qissa konsepsiyasida muhim rol tutadi.

Ra'no – tanholikka, bir o'zi o'y-xayollari bilan yashashga o'rgangan obraz. Bu haqda so'z borganda muammoning jahoniy kontekstiga e'tibor qaratish muhim deb o'ylaymiz: "Ekzistensializm shaxsni tanholikka mahkum deydi. Bu yo'nalishda bitilgan asarlar syujetida atrof-muhitdan, jamiyatdan, hatto o'z-o'zidan

¹⁵⁵ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

¹⁵⁶ Тошпулатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари. Филол.фан.фалсафа.док.дисс. –Жиззах. 2021. –Б.73.

ham begonalashgan personajlar ko‘p uchraydi. Inson hayoti naqadar nisbiy va omonat ekanini, biz ishongan, tayangan, ko‘nikkan tartib-qoidalar istalgan vaqtda yer bilan yakson bo‘lib, izmimizga bo‘ysunmaydigan va vaqti kelib hammamizni domiga tortadigan tabiat qarshisida yolg‘iz qolajagimizni ko‘rsatish uchun muallif odatda personajni mushkul ahvolga soladi. Misol uchun Albert Kamyu qahramonlari o‘ta tang holatda tasvirlangan. “Begona” qissasida bosh qahramon sababsiz odam o‘ldiradi. “Vabo” romanida zamonaviy shaharda o‘lat tarqab, odamlar kalamushlardek qirila boshlaydi”.¹⁵⁷ Darvoqe, hissiy idrok va aqliy shuur yozuvchi ijodiy konsepsiyasida psixologik tasvir imkoniyatlarining teranlashuviga xizmat qilsa, falsafiy-estetik qamrov tugal natijaga imkon beradi. Qissadagi ekzistensial kayfiyat – jamiyat og‘riqlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Ota va ona siymosi negizida Ra‘noning butun hayoti akslantiriladi. U kelinlik libosini kiygan kunidan boshlab, mas‘uliyatni zimmasiga olgan bo‘lsa, jamiyatda bo‘layotgan katta-kichik ishlarda o‘zini ham aybdor sanaydi. Yoshi o‘tgan sayin qizning ko‘nglida katta orzular barq uradi. Mehnat va uning tagi rohat ekanligini bosh qahramon tushunib yetadi:

“Endi Ra‘no ota uyiga borganida tomorqa aylanar, ariqcha kichrayib qolgan, tubida ozgina suv oqar edi, xolos.

Qizgina endi ota ekib ketgan behi bilan so‘zlashar edi.

“Otamning behisi, o‘syapsanmi?”

“O‘shish qayda, ona qizim. Bir amallab jon saqlab turibman. Ko‘ryapsanmi, madorim quridi. Mayda shoxchalarimning uchlari ham qurib bormoqda”¹⁵⁸.

Umr – Ra‘no hayoti timsolida juda katta falsafiy-estetik qamrovni yaxlitlashtirishga qaratiladi. “Otamning behisi, o‘syapsanmi?” ritorik savolida butun hayoti ko‘z o‘ngida jonlantiriladi. Qissadagi syujetni bir-biriga payvandlovchi poetik talqin ruhiy tahlil qarovini ham kengaytirib, obrazlilikni oshiradi.

¹⁵⁷ Отабоев А. Экзистенциализм // Жаҳон адабиёти. 2015. №1. –Б.111.

¹⁵⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida psixologik taranglikni quyidagi tavsiflarga ajratishni ma’qul ko’rdik:

1) Yozuvchi ijodiy konsepsiyasida tabiat-jamiyat-inson birligi yaxlitlik kasb etib, umuminsoniy bog‘lamni hosil qilishga qaratiladi;

2) Mavjud muammo – XX asrning 60-yillaridagi “ilmiliq” kunlarning mantiqiy davomi paxta yakkahokimligining SHAXS ruhiyatini jiddiy sinovdan o‘tkazib, mafkura negizida hayotini ta’minlashga qaratilgan tuzum kirdikorlarining asoratlarini majoziy tarzda ko’rsatish;

3) Ra’no timsolida butun ayollar obraziga teran baho berish, jamiyatdagi monopolistik kayfiyatning zararli oqibatlarini tahlillash;

4) Onaizorning bir umr bolam deb, dunyoni paxtazordan boshqa yerda tasavvur qila olmasligini talqin qilish;

5) Nasldan-naslga o‘tib kelayotgan “Bemaza qadriyat”larning SHAXS rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishini asoslash;

6) Ra’no – mehnatkash va jabrdiyda ayol obrazining bugun yaratilmagani, u o‘tmish va kelajak orasida muallaq turgan savol ekanligini o‘quvchilarga tushuntirishdan iborat.

Professor H.Umurov: “Yozuvchi har bir qahramonning ovozini, yuz ifodasini, kechinmasini, so‘zlash uslubini berish uchun, uning xatti-harakatini, iroda yo‘nalishini asoslash uchun, albatta, o‘sha qahramonlarning qiyofasiga kirishini shart qilib qo‘yadi. Busiz yozuvchi qahramonning o‘sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o‘ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o‘rtasida o‘xshashlik bor...”¹⁵⁹. Deylik, har bir asar konsepsiyasida mavjud holat bo‘lishi tabiiy. Professor H.Umurov ana shu narsani nazarda tutgan. I.Sultonning qahramonlari ko‘pincha ismsiz. Bosh qahramon atrofida jipslashuvchi obrazlar yozuvchining o‘ziga xos uslub manerasini namoyon qiladi. Qissadagi polifonik nuqtning xilma-xil ko‘rinishlari Onaizorning monolog, dialog, polilog ko‘rinishdagi qaytarmalariga

¹⁵⁹ Umurov X. Бадий ижод асослари. –Т: “Ўзбекистон”, 2007. –Б. 91

monand idroklanadi. Ba'zi o'rinlarda Ra'no tinib-tinchimas, oila va kelajak uchun mas'ul obraz sifatida o'zining "men"ini namoyon qiladi:

"O'sha tongda zilzila ro'y berdi.

Zilziladan bir necha soniya avval Ra'no to'satdan uyg'onib ketdi. Shu mahal yer ostidan juda qudratli bir gulduros eshitildi. Hayal o'tmay hammayoq silkindi. Devorlar qarsilladi, bir nima taraqlab tushdi, mollar bo'kirib, itlar angillay ketishdi, Ra'no jon holatida sapchib, kalima qaytara-qaytara, bir qo'liga qizchasi yotgan beshikni, boshqa qo'liga ikkala o'g'ilchasini ko'targancha tashqariga otildi.

Valishlar ham silkinar edi.

Havoda qizg'ish tuman suzar, bunaqa g'alati tumanni sira ko'rmagan edi Ra'no. Yoz kunida bunaqa tuman paydo bo'lishi qo'rqinchli edi, hozir yer yuzi yonib ketsa-ya, deb qo'rqdi.

– Xudoyo, o'zing saqla! Subhonolloh!

Tinmay shu so'zlarni takrorlar edi.

Er ham otilib chiqdi, shu falokat vaqtida haliyam qarsillab chayqalayotgan imoratlariga ola-kula ko'zlarini tikib u bir yon, uch bolasini bag'riga bosib, tili kalimaga kelmay turgan Ra'no bir yon... shu ikki jon, er-u xotin.

Saldan keyin zilzila tindi. Odamlarning qichqirig'i, mol-qo'ylarning ma'rashi hanuz eshitilar edi.

– Qanaqa qilib opchiqding bularni? – dedi er hayron bo'lib.

Ra'no o'ziyam bilmadi.

– Bilmasam, – dedi hayron bo'lib.

Haqiqatan ham, kap-katta yigitga qo'shib qizaloqni va beshikni bir vaqtning o'zida uydan olib chiqish aqlga sig'mas edi.

Ko'cha to'la odam edi. Hamma to'zg'ib, uylaridan tashqariga otilib chiqishgan edi.

– Tinchmisizlar, tuzukmisizlar? – der edi hamma bir-biriga.

– Shukur-shukur, – der edilar qolganlar ham.

Hamma bir-biridan hol so'rar edi.

Qishloq vahimaga to'lib ketgan edi. Kimningdir sigir-qo'yi bostirma tagida qolibdi. Pastroqda, ayniqsa, shovur kuchli edi. Ko'zi yomon qora kishi bultur qo'shnisi bilan devor talashib urishgan ekan, zilzilada uni o'sha devor bosib qolibdi.

*– Tavba, Xudoyim tinchlikning qadrini ko'rsatib qo'ydi-ya, – dedi Ra'no*¹⁶⁰.

Ushbu lavhada Ra'noning bolalari uchun jonini fido qilishga tayyorligi, mudhish falokat ro'y berganini ham ishonarli qilib tasvirlaydi. Er-xotinning ahilinoqligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qarabsizki, Ra'no bolalarini, hatto beshikdagi yotgan kenjatoyini ham tashqariga olib chiqishga o'zida bir vaqtning o'zida kuch topa olgan. Ra'no xarakterini roviy obrazi to'ldirib boradi. Bu to'ldiruvchi komponentlar badiiy psixologizmning o'ziga xosligini dalolatlaydi.

“Ro'zg'or yupun, yeb yotaversangiz tog' ham chidamaydi, – dedi qaynona. – Hammaning kelini-yu qizi dalaga o'toqqa chiqadi, yer chopadi, mehnat qiladi. Biz ham shunaqa edik, mehnat o'ldirmagan odamni”.

“Yegan nonimni minnat qilyaptimi? – dedi og'rinib Ra'no. – Yarimta non yeymanmi-yo'qmi? Eshigida bitta xizmatkori bo'lsayam mendan ko'ra ko'proq non yeydi”.

“Jon bolam, sabr qil, – dedi onaizori. – Otang bilmasin, ko'naqol. Ular ham tuppa-tuzuk odam, hali oldinda qancha tashvishi bor, shunga kuyinadi-da, seni yomon ko'rarmidi? Joningni jinday koyitsang, bir nima bo'lib qolmaysan, ko'naqol, bolam”.

“Xo'p”, -dedi.

Ketmonini ko'tarib dalaga chiqdi. Qarasa, o'zi singarilar ko'p ekan. Hamma boshiga-yu og'ziga oq ro'mol o'rab olgan. Oyog'iga etik kiydi, og'iz-burnini ro'mol bilan boyladi. Pahlavonini ikki tol orasidagi belanchakka yotqizdi, yaxshilab emizdi. Shu yerdagi barvasta semiz xotinga “Bolamga yaxshilab qarang,

¹⁶⁰ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

opajon, oyligim chiqsa, sizga yangi ro‘mol olib beraman”, deya yalindi. Ortiga qaray-qaray, chopiqqa yo‘l oldi.”¹⁶¹

Lavhada matonatli o‘zbek ayolining sabr-u toqatliligi, chidamliligi va mehnatsevarligi qalamga olinadi. Ayniqsa, qaynonaning o‘rinli-o‘rinsiz koyishlari Ra‘noni yanada kuchli bo‘lishga undaydi. U yoshlikdan olgan bilim va ko‘nikmalari, Onasining, Otasining ko‘rsatmalari, mehr-u shafqati bilan ma‘nan va ruhan kuchli SHAXS bo‘lib kamolga yetdi. Buni hech kim inkor qilolmasa kerak. Shuning barobarida, polifonik nutq tabiati ham qaynona, ham kelin, ham jamiyat maishiy muammolarini uyg‘unlikda aks ettiradi. Mana shu poetik talqin ijodkorning boshqa asarlarida ham o‘ziga xos tarzda idroklangan. Demak, Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasida uch o‘lchamli olam: materiya va moddiyat bir nuqtada akslanadi. Sobiq ittifoq davridan buyon asorat bo‘lib kelayotgan xalq xo‘jaligining barcha sohalarida faol ishchi – ayol obrazini og‘ir sanoat zonalarida ham ishlagani ko‘plab irsiy kasalliklarning bolalab ketishiga olib keldi. Bunday mehnatning faqat ikki-uch shaxslarning manfaati uchun qilinishini tarix hali unutgani yo‘q. Chunonchi badiiy adabiyotdagi mana shunday mavzularning arxitektonikasida psixologik tahlilning yo‘nalishlari rang-baranglashuviga olib keldi. Jahon adabiyotidagi tragik talqin va kinoyaviy-parodik usul psixologizmning o‘ziga xos tabiatini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Inson va tabiat birligini o‘zaro qorishiq tarzda tasvirlash orqali Isajon Sulton badiiy adabiyotimizga o‘zining shaxsiy tashvishlaridan ko‘ra ko‘proq umumbashariy masalalar bilan band bo‘lgan yangicha tafakkurdagi shaxs obrazini olib kirdi.¹⁶² Zero, I.Sulton har bir asarida – ruhiyatning ko‘z ilg‘amas qirralariga e‘tiborni jalb qilganligi bilan ham boshqa yozuvchilardan jiddiy tafovutlanadi. Shu asnod, ijodkorning badiiy tafakkuri ham polifonik nutq yaxlitligini mustahkamlashga xizmat qilayotgani fikrimiz yorqin isbotidir.

¹⁶¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

¹⁶² Солижонов Й. Нияти улуг адиб. –Т.: “Турон замин зиё”. 2017. –Б.55.

Bob bo'yicha xulosa

1. Badiiy psixologizm muammosi noan'anaviy qissalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning zamirida qahramon va muhit suvrati yangicha inkishof etilarkan, hayot haqiqatidan sira uzoqlashmagan holda tadrijiy takomillashib, "xarakterning" ichki olamiga kirishga undaydi. Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik" qissasida ana shu takomilni chuqur anglagan holda ijodiy niyatini amalga oshirgani fikrimiz yorqin dalildir.

2. "Yolg'izlik" qissasida ruhiy talqin kundalikda elas-elas quloqqa chalinib turadigan, doimiy o'z oqimida kechayotgan umrning ovozi kabi namoyon bo'ladi. Daraxtzor ham bir ramziy funksiyani bajaradiki, u qahramon o'y-xayollarining muvozanatini tutib turadi. Iltijo va isyon motivi ijodkor fe'l-atvori bilan birlashib, zamon matlabiga qarab singib ketadi. Mana shu jihatlar yozuvchi poetik mahoratida ruhiy talqinning teranligini taqozolaydi.

3. Nazar Eshonqul "Qora kitob" va "Tun panjaralari" qissasida Shayton obrazini ruhiy talqin qilarkan, qahramonning maqsad va intilishlari uning ijrosini ta'minlashga vosita deb qaraladi. Aksincha, Shayton obrazi alohida bir fenomen bo'lib, qahramonning adashishlarini, o'tmishini va kelajagini belgilab beruvchi eng muhim fragmentlardan biri sanaladi.

4. Isajon Sultonning "Munojot" qissasida ramzlar va metaforalar mavjudlik jumbog'ini anglashga intilgan obraz tadrijini dalolatlaydi. Shuningdek, inson maishiy turmushida uchraydigan muammolar keyinchalik shaxsning taqdirini belgilab beruvchi mayoq kabidir. Mana shu jihatdan olib qaralsa G'arib fenomeni o'zbek adabiyotida yangilik sanaladi.

5. "Onaizorim" qissasida polifonik nutq sobiq ittifoq davrida oila boshiga tushgan mislsiz kulfatlarning hali hamon davom etayotganidan dalolat beradi. Yozuvchi har bir dialogga polifonik nuqtning misli ko'rilmagan jihatlarini singdirishga harakat qilgan. Bu esa ijodkorlar izlanishlarining takomillashib borayotganini yuzaga chiqaradi.

IV BOB. NOAN'ANAVIY QISSALARDA YOZUVCHI KONSEPSIYASI VA BADIY XRONOTOPNING ZUHUR ETILISHI

4.1.§. Yozuvchi ijodiy konsepsiyasida xronotop shakllari talqini

Yangi davr nasri, xususan, o'zbek adabiyotining "o'tish davri" deb nomlangan hayot mundarijasi bu o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan adabiy hodisa emas! Adabiyot, u hikoya, ikki misra she'r, katta bir qissa yoki roman badiiyatida yozuvchi o'z botinidagi o'quvchidan pinhon tutgan dard-u iztiroblarini turli xil shakllarda, usullarda ifodalaydi. Taniqli yozuvchi Ulug'bek Hamdam bundan yigirma yillar ilgari hech kimning e'tiboriga tushmagan, hamma o'z-o'zi bilan ovora bo'lib hayot kechirayotgan bir paytda "Yolg'izlik" nomli kundaliklarga o'xshash qissasini oz sonli nusxada o'quvchilar e'tiboriga havola etadi. Asarga munosabat bildirgan aksariyat ommaga xos kitoblarni tahlil-u tadqiq qilib yurgan adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar bu asar haqida jo'yali bir fikr bildira olganini kam uchratamiz. Qissa haqida jahon adabiyotida kuzatilayotgan shakl-u shamoyil, uslub va ifoda tarzi xususida adabiyotshunos Rahimjon Rahmat shunday fikrlarni keltiradi: *"Yolg'izlik"ning ismsiz, qiyofasiz, makon va zamonsiz qahramoni balchiqqa tushib qolgan katta baliqqa o'xshaydi. Bechora suzay desa, suzolmaydi, o'lay desa, buning ham iloji yo'q. Arosat! U ayoli va farzandini qattiq yaxshi ko'radi, ularning baxtsiz bo'lishini mutlaqo istamaydi. Oila – hayot dengizidagi yolg'iz kemasi. Undan ayrilish halokat ekanligini anglaydi. Lekin shunga qaramay, begona go'zal ayollarni sog'inadi, ularga nisbatan nafaqat shahvoniy, balki ruhiy sog'inch ham his etadi*¹⁶³. Ko'rinadiki, "makon va zamonsiz" qahramoni haqida so'z borarkan yozuvchi bu qissadagi asosiy voqelik, ya'ni syujet ikkinchi qismda ro'y beradi. Badiiy asarni endilikda qism va bo'laklarga, syujeti, kompozitsiyasi va uning turli xil ifoda vositalari negizida emas, qaysi makonda, qaysi zamonda (xronotop) ro'y berishi bilan ham talqin qilish muhimligi ayonlashdi. Rus munaqqidi M.M.Baxtin "xrontop poetikasi"ni tahlil qilar ekan, u Aristoteldan o'zigacha bo'lgan davr adabiy qarashlarini yangicha ifodalab,

¹⁶³ Раҳимжон Раҳмат. Бир ёруғлик излаймиз ҳамон. Сўз боши. –Т.: "Академнашр". 2010. –Б.5.

F.Dostoyevskiy va shu kabi qator rus klassiklari yaratgan durdonalar asosida tahlil qiladi. Biz olib borgan tadqiqotimizda o‘zbek nasri timsolida shakllanayotgan adabiy tafakkur sarhadlarini kengayishiga zamin bo‘lib qo‘shilgan U.Hamdami nasri muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvchi qissada o‘z-o‘zi bilan juda ko‘p tillashadi, hasratlashadi. Asarning o‘nlab o‘rinlarida Biru Bor – Allohga iltijo qiladi. Bunday xususiyat yuz yil oldin yaratilgan Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asarida, yozuvchi bilan zamondosh adib N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida uchraydi. U.Hamdami esa qissada tafakkur yuritadi. Nega? Nima uchun shunday? Qachon men boshqalar kabi baxtli yashayman? Qachon men boshqalar kabi ko‘chaga muhim yumush bilan otilib chiqaman? degan falsafiy-psixologik savollarni o‘quvchiga tushuntirmoqchi bo‘ladi. Inson-biologik mavjudot! Uning botinidagi tizginsiz iztiroblar tashqariga so‘z bo‘lib ko‘cha boshlarkan, o‘zini hammadan ham yupun va yolg‘iz sezadi, o‘zi kabi bir habibni, do‘stni, maslakdoshni topolmaganidan hijolat chekadi:

“Men ana shunday baxtning temir ihotasida qoim edim go‘yo. Nazarimda ihota hech qachon parchalanmasligi kerak edi. Axir aql insonga nimaga berilgan? Undan foydalana bilgan zot o‘z tole qushini qo‘ldan chiqarmaydi. Aksincha, tadbir va harakat bilan uning muqim bo‘lishini ta‘min etadi. Men ham ana shundaylar xilidanman...

...Qulog‘imga birdan daraxtning olis shovullashi kirdi va barchasi sob bo‘ldi: “kayfim” tarqadi!.. Xuddi hech kim bilmaydigan jinoiy ish qilib qo‘yganman-uyuyusdan vijdonim bosh ko‘targandek g‘alati bir qaynoqqa qoldim. Xotinim uchinchi bor ovqatga chaqirib keldiyamki, o‘rnimdan qo‘zg‘alolmayman. Ichimda nimadir qars singan. Hatto uning nimaligini ham biladigandekman: FAROG‘AT!..”¹⁶⁴

Yozuvchi inson botinidagi xotirjamlikning sinishi va u o‘z tafakkurida, ongida, yuragida parcha-parcha bo‘lib, sochilib ketishga asos bo‘lgan mazmunni butlamoqchi bo‘ladi. Jamiyatdagi har qanday katta-kichik ishlar, baxt va omad, shaxsiy yo‘qotishlar asar qahramonini bezovtalay boshlaydi. Mana shu yerda

¹⁶⁴ Хамдамов У. Узокдаги Дилнур. –Т.: “Аkademnashr”. 2010. –Б.7.

yozuvchining o‘z o‘quvchisiga aytmoqchi bo‘lgan muhim – iltijosi yuzaga chiqadi. Xronotop nazariyasida asardagi syujet va kompozitsiyaga oid juda ko‘plab komponentlar o‘zaro birlashadi. Yozuvchi U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida *tafakkur xronotopi* asarning boshdan oxirigacha o‘z qarashlari, hayotning, yashashning, tiriklikning ma‘nisi nima degan mangu savolga javob topish uchun inkishof qilinadi. Muqaddas Qur‘oni Karimda tafakkur so‘zi 18 marta zikr qilingan bo‘lib, *“U erni cho‘zib, unda baland tog‘lar va anhorlar qilgan, har xil mevalardan juft-juft qilgan zotdir. U kechani kunduzga o‘ratadir. Bunda, albatta, tafakkur qiluvchi qavmlar uchun oyat-belgilar bordir”* (“Ra‘d” surasi 3-oyat) deyilgan¹⁶⁵. Haqiqatdan ham, yozuvchi qissada oila va bola-chaqa, jamiyat va ishxona, ota-ona va do‘stlik, qarindoshlik va begonalik kabi juda ko‘plab masalalarga o‘z tushuncha va anglamlari negizida munosabat bildiradi. Bunday og‘riqli mulohazalar qarshisida ba‘zan ojiz qoladi, ba‘zan yana o‘z yolg‘izligi bilan yashashga mahkum ekanligini anglab etadi.

Professor U.Jo‘raqulov qayd etishicha: “M.Baxtin XX asrning 30-yillarida xronotop tushunchasini bevosita adabiyotshunoslikka olib kirar ekan, uning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamonni uyg‘un aks ettirishni hisobga oladi. Chunki badiiy asar, undagi har bir poetik qism xronotop negizida o‘rganilmas ekan, muayyan asarni mustaqil badiiy hodisa sifatida talqin etish murakkablashadi”¹⁶⁶. Munaqqid ta‘kidlayotgan mulohazalarda ikki jihat qabarib ko‘rinadi: birinchisi, janrning qissa yoki romanga xos qiymatini belgilab olish, ikkinchisi har qanday asar ma‘lum bir makonda, zamonda ro‘y berishi, o‘sha makon (voqelik)ning yozuvchi tomonidan qanday amalga oshirilishi haqidadir. Demak, U.Hamdam yashagan davr mamlakatimiz endigina mustaqil bo‘lib, odamlar ruhiyatida “yangi davr boshlanishi”, “o‘z kuningni o‘zing ko‘rasan” qabilida bo‘layotgan islohotchilik kayfiyati bilan yashayotgan kunlardir. Bu jarayonda o‘sha makonda yozuvchi jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilarkan,

¹⁶⁵ <https://www.bukhari.uz/?p=4854>

¹⁶⁶ Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т.: “Ф.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. 2015. –Б.89.

hech qanday sabab inson ruhiyatini tushurishga arzimasligini tafakkur qilishga intiladi. Uning botinidagi sohir orzular ham o'sha tafakkur bilan uyg'unlashib, sobiq ittifoq davrining soxta shiorlarini inkor qilishga jazm qiladi. Qissa boshidan oxirigacha ramziy idroklanadi. Bemorga shifo topishi uchun kapsula beriladi. O'sha kapsulaning ichida nima borligini bilish qiyin. Qissadagi tartibsiz syujet qismlari o'quvchini murakkab ifodalar bag'rida imtihon qilishga, mulohaza yuritishga chaqiradi:

“Moddiy dunyodagi muvaffaqiyatsizligim ko'nglimdan – Ichki Mendan. Ishq yo'lida devona Mashrabdek darveshlik yo'lini tutmasligim, omadsizligim Tashqi Mendan – moddiyat ham inson uchun, tirik jon uchun zarur deb hisoblovchi Mendandir. Men zohidlik yo'lini tutmadim. Hatto junbushga kelganimda hech kimni tanimasam-da, dunyoni sariq chaqaga olmasam-da, g'aroyib olam to'lg'inida tebransam-da, qaygadir, kimgadir tiyiqsiz va o'ta kuchli istak-la, sog'inch-la, iztirob-la talpinsam-da, so'ngida baribir zamanga qaytishimni bilganimdanmi, jarayon kechishi bilan hushimni sekin-asta to'play boshlayman. Bu karaxtlik davridir, bir olamdan o'zgasiga kechish paytidir”¹⁶⁷.

Inson nimagadir qattiq bel bog'lasa o'sha narsa Allohdan o'zgasi bo'lsa uni taqdir nasib qilmaydi, degan hikmat mavjud. Bu dunyoda har qanday zohid ham, orif ham, oshiq ham, mazlum ham faqatgina bir maqsad sari – Allohni tanishga intilishadi. Bu yo'lda inson o'z muvozanatini ushlamasa yoki vaqtida tadbir bilan harakat qilmasa, topganidan yo'qotgani ko'proq bo'ladi. Asar qahramoni ana shu muhim masalalar kesimida iztirob chekadi, tafakkur qiladi. E'tibor berilsa, voqelik, makon va zamon yozuvchining ko'z o'ngida, tafakkurida sodir bo'lib, uni qiyoslash orqali, solishtirish negizida tabiatdagi – daraxt tebranishlari bilan uyg'un holda idrok qila boradi.

Tadqiqotchi O'.Nazarov yozishicha: “Har bir ijodkorning o'ziga xos dunyoqarashi, adabiy-estetik konsepsiyasi, badiiy asar oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, matn xronotopi o'zgacha, alohida shakliy-mazmuniy struktura va badiiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda yozuvchining ma'lumoti,

¹⁶⁷ Кўрсатилган адабиёт. —Б.9.

intellektual-madaniy saviyasi, u yashagan muhit, tarixiy shart-sharoit, mavjud ta'limot va nazariyalar, mayl va qiziqish, intilish, kitobxonlar ehtiyoji, davr, jamiyat taraqqiyoti, ijod ahli oldiga qo'yilgan talablar, adabiy-badiiy jarayondagi oqim va metodlar, tamoyillar ham muhim o'rin tutadi"¹⁶⁸. Darhaqiqat, talqinga e'tibor berilsa, U.Hamdani ayni shu qissa yozilgan davrda juda ko'plab kitoblar mutolaasi bilan shug'ullangani sir emas. Jumladan, J.Rumiyning "Ichindagi ichindadir" nomli mo'jazgina kitobini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, tafakkurni yuksaltiradigan "Borliq" bilan tillashayotgan Mavlono olamini idrok etib ulgurgan edi. Mana shu jihatlar ham "Yolg'izlik" qissasida ma'lum ma'noda o'z ta'sirini ifodalab turibdi. Qissadagi ramzlar asli kim va nima degan tabiiy savol tug'iladi. Ramz, timsol, obraz, xarakter bularning barchasi insonni o'ylashga, o'z olamini qayta "kashf qilish"ga, ommaga xos bo'lgan adabiyotdan yanada sermazmunroq, chuqurroq ifodalarga boy asarlarni qayta inkishof qilishga katta yo'l ko'rsatib beradi. Shu ma'noda, ramzlar o'z-o'zidan tug'ilmaydi. Uni yozuvchi qaysidir ma'noda ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'z yuragidan o'tkazgandagina "Yolg'izlik" kabi asarlar dunyoga kelishi shubhasiz. Muqaddas o'gitlarda "*Tafakkur Allohning roziligi va muhabbatiga olib boruvchi yo'ldir*",¹⁶⁹ – deyishadi. Demak, yozuvchi U.Hamdani qissaning ko'plab o'rinlarida ruhiy sokinlik va hayotda yashash muvozanati xususida qator misollarni o'z qahramoni bilan bo'lishadi.

Qissada yozuvchi ijodiy konsepsiyasi bir butun sistematik tarzda ro'y bermaydi. Yozuvchi real va noreal zamon o'lchovlarini o'quvchiga timsollar, ramzlar tilida tushuntirishga harakat qiladi. Badiiy xronotop ayni shu tariqa ochiqлана boradi. Har bir detal, tasvir yoki voqelik ma'lum ma'noda bitta vazifani bajarishga yo'naltiriladi. O'g'lining vafot etishi, ishdan ayrilishi, turmush o'rtog'i bilan chiqisha olmasligi, adabiy minbarlarga sig'masligi ana shular jumlasidandir. Qissa qahramoni qaysi voqelik haqida so'z yuritmasin, o'z botiniy olamidagi asl MAQSADdan sira uzoqlashmaydi. Inson tug'ilishining o'zi muammo, deya

¹⁶⁸ Назаров Ў. Омон Мухтор романларида бадий хронотоп муаммоси. Филол.фан.фалсафа.док(PhD). Автореф. –Қарши. 2018. –Б.13.

¹⁶⁹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тазкия дарслари. Рухий тарбия. манба: www.islom.uz

ta'kidlaydi roviy. Uning jamiyatdagi aralashib, yashab ketish maslagi ko'pincha oila va o'zining istak-irodasiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Mana shu jihatlar, haqiqatdan ham, tafakkur xronotopini tartiblashtiradi. Qissada ma'naviy tuban, oq-qoraning farqini bilmaydigan, atrofida qilarga o'rinsiz ozor beradigan, o'z manfaati yo'lida razil ishlarni qilishdan tiyilmaydigan juda ko'plab odamlarga shtrix tortadi. Natijada, qahramon o'z-o'zining xatolarini, ko'nglini, qalbini, botinini tarbiyalab boradi. Qancha narsalardan mosuvo bo'lsa ham – qalbidagi ruhiy muvozanatning marom bilan borliqqa qo'shib ketishini ta'min etadi. Ana shu jihatlar qissa arixtekonikasida o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi.

U.Hamdamning "Yolg'izlik" qissasida tun, kunduz va oila xronotoplari ham muayyan syujet qismlarining yaxlitlashuviga xizmat qiladi. Tafakkur qilishga undovchi asarning mohiyatida ham ayni shu masalalar kompozitsion tarqoqlikni bir-biriga payvandlashda zamin yaratadi. Ayniqsa, kundalikning ikkinchi qismida sodir bo'layotgan jami voqelik qahramonning butun umr boshidan kechirgan o'ylari, kechinmalari va pinhon iztiroblari desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Zero, falsafiy-psixologik jihatdan tafakkur qilishga undovchi qissaning poetik qiymati ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Yo'l xronotopi va uning badiiy funksiyasi. Badiiy xronotop (makon va zamon)da kechuvchi har qanday voqelik syujet va kompozitsiyaning muvofiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson ruhiyatidagi har qanday kechinma u sodir bo'lgan vaqtdan boshlab harakatga keladi. Har bir predmet, obyekt (hayot)dagi ma'lum bir missiyani bajarishga qaratiladi. Iste'dodli yozuvchi U.Hamdamning aksariyat hikoya, qissa va romanlarida – yo'l, yo'lovchi, safar qiluvchi obrazlarga duch kelamiz. "Muvozanat" romanida Yusuf Andijon va Toshkent oralig'idagi hayot ziddiyatlarini boshidan kechiradi. "Isyon va itoat"da Akbar Toshkent va Rossiya o'lkalaridagi savdo-sotiq va boshqa tijoriy ishlar bilan o'zining hayot yo'lini tanlaydi. "Sabo va Samandar"dagi Samandar obrazi institut domlasi bo'lib muhabbat yo'li, ishq yo'lining azim savdo ekanligini umri oxirigacha sarhisob qiladi. "Tosh" hikoyasida qahramon ayolga muhabbatning, insoniy fazilatlar Allohning ojiz bir yaratig'i oldida hech ekanligini namoyon qiladi. Ko'pchilik

qahramonlarning qiziqarli va kolliziyali sarguzashtlari Andijon, Toshkent va uzoq-yaqin o'lkalarda, yo'llarda sodir bo'ladi. Bunday tasvir predmeti U.Hamdamning uslubiga xos an'anani yodimizga soladi. Masalan, Ovrupo "Aqlar hukmdori" deya tan olingan Albert Kamyu o'z qahramonlarini ham yo'lovchi sifatida "qayta kashf" qiladi. Safar – insonning manzil-u makonlarda, muhit va jamiyatda adashishlarini, xatolarni, ulardan har bir qahramon tayinli xulosalar chiqarib yashashi muhimligini taqozo etadi. Shuning uchun ham bunday usul yozuvchining individual uslubiy izlanishlari bo'lib, mavjud voqelikni katta bir masshtabda o'quvchi oldida tushuntirib berishga zamin yaratadi.

"Tosh" ramziy-falsafiy hikoya. Hikoyaning syujeti haqida so'z borganda qahramonning ismi ham tayinli manzili ham ko'rsatilmaydi. Ishsiz, uysiz va mazmunsiz o'z yog'iga o'zi qovurilib, hayotning mantig'ini izlab yurgan qahramon birdaniga o'zini ichkaridan tashqariga uradi! Ichidagi isyondan forig' bo'lish uchun ko'ksidagi mehr-muhabbatning o'rnini egallab kelayotgan bir jism – toshni aritmoq uchun odamlar qatoriga, yaqin joydagi xiyobonga yetaklaydi. U daraxtlar qo'shig'ini tinglamoqchi bo'lib chiqqandi va shu tariqa vujudini simobdek kemirayotgan TOSHdan xalos bo'lmoqchi edi. Afsus, voqelik boshqacha tus oladi:

"Odatdagidek, katta ko'chaga yondosh yo'lkaga tushib oldim, maqsadim yaqindagi parkka kirish va daraxtlarning kuzgi qo'shig'ini birrov tinglab qaytish edi... Men juda ohista odimlab borardim. Shu payt orqamdan qadam tovushi eshitildi. Zum o'tmay yonginamdan muattar bo'y taratib, allaqanday yaltiroq libosga chulg'angan notanish ayol o'tib qoldi. Kayfiyatim ta'siridami, bilmadim, unga berilibroq e'tibor qildim. Hammasidan oldin uning xush bo'yi allaqachon dimog'imni qitiqlab ulgurgandi, ayni chog'da ayolning qaddi-qomatiga ko'z soldim: entiktiradigan darajada go'zal! Odimlarim beixtiyor tezlashib, ayolga mos yura ketdim. Ancha muddat shu ko'yi yo'l bosdik. Sekin-asta vujudimni yoqimli titroq qamray boshladi. Yurak... yurak o'lgurning "taka-puka"si birpasda

shunchalar bo'ldiki, endi qadamimni sekinlatishga va shu yo'sin hayajonimning ayol qulog'iga yetmasligiga tirishdim"¹⁷⁰.

Hikoyaning ushbu parchasi qahramon ruhiyatidagi yovuzlikning toshga aylanib borishidan qaytmoqchi bo'lgan – birinchi safaridir. F.Dostoyevskiy “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” deb, bejiz aytmagan. Chunki hikoya qahramoni uyida yotgan va botinida ulg‘ayib kelayotgan: mehr-muhabbat o‘rnida go‘zallik, or-nomus, ishqning joyini zil-zambil qilayotgan TOSHni daf qilmoqchi bo‘lib tashlagan qadamidir. Bu qadam esa ayolga ro‘baro‘ qildi. Qahramonning TOSH bag‘ridagi kayfiyatini sohir orzular va muattar bo‘y taratib ketayotgan AYOLga muhabbati, go‘zallikka intilishi egallay boshladi. Hikoyadagi boshqa tasvirlar ham ayni shu GO‘ZALLIK qarshisida sodir bo‘ladi. Buni qahramon darajama-daraja tasvirlab boradi. Demak, yozuvchi nihoyatda go‘zal bir manzarani tartiblashtirmoqda. TOSHning inson asliyatiga aloqasi yo‘qligini tushuntirmoqchi. Har qanday yovuzlik – muhit va insonning o‘z qo‘lida bino bo‘lishini ta’kidlayapti. Bu dunyodagi qirg‘inbarotlar, katta-kichik davlatlar orasidagi o‘zaro nizolar, ziddiyatlarning barchasi insonning atrof-javonibdan olgan ta’siri sababli ro‘y berishiga ishora qilinmoqda. Odam birdaniga o‘z-o‘zidan yovuz bir maxluqqa aylanib qolmaydi. Aksincha, uni tarbiyalab yetishtiradigan atrofidagi borliq: odamlar bo‘ladi. Yozuvchi qahramonining go‘zallik qarshisida entikib qolishi tabiiy. U hali go‘zallikning ichkarisini bilmaydi. U botiniy go‘zallikka intilyapti. Surat – aldanchidir, deydi Jaloliddin Rumi.

Munaqqid A.Rasulov qayd etishicha: “Shakllar, qiyofalar, g‘oyalar va obrazlar yaratilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqea va hodisalarni oldindan jonlantirib ko‘rish deganidir. Butun olamda adabiyot Yangi Yo‘l izlay boshladi. O‘tgan yuz yil ichida insoniyat Dostoyevskiyni, Tolstoyni, Kamyuni, Borxesni, Shopengauerni va Ortega-i-Gassetni “hazm qilib” ulgurdi. Dostoyevskiy va Tolstoy asarlarining yozilish vaqtidagi ijtimoiy hodisalarga e’tibor bering. Dunyo

¹⁷⁰ Хамдамов У. Узокдаги Дилнура. –Т.: “Академнашр”, 2010. –Б.97.

jahon urushi arafasida edi. Insoniyat o'z boshidan kechirgan falokatlar ustiga kelayotgan boshqa bir baloning ma'naviyatdagi akslari tahliliga, boshqacha tafakkurga, ya'ni Yangi Yo'lga zor edi. Bu o'rinda gap narsalarga, hodisalarga va dunyoga inson bolasi berayotgan qiymat hamda inson qadr-qimmatini haqida ketmoqda. Zotan, ro'y berayotgan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar, texnologik portlashlar va krizislar ichida inson juda maydalashib ketganday, uning ruhiy vaziyatlari hech kimni qiziqitirmayotganday tuyula boshladi".¹⁷¹ Haqiqatdan ham, A.Rasulovning mulohazalariga qo'shimcha shuni keltirish mumkinki, munaqqid ikki jihatga alohida urg'u bermoqda. Birinchi va ikkinchi jahon urushini boshidan kechirgan dunyoning qiyofasi va odamlar ruhiyati, olomonchilik, zulm va yovuzlikning haddan ziyoda urchib hamma yoqni bosib ketishi katta falokatlarga, ekologik, ruhiy fojealarga olib keldi. Yozuvchi U.Hamdani qahramoni mana shu muhitning bir hujayrasi, xolos. Yovuzlik va ezgulik orasidagi mangu kurash Odam Ato va Momo Havvo jannatdan quvilganidan boshlab to'xtovsiz davom etib kelmoqda. Endilikda insoniy tortishuvlar emas, odamning o'zi bilan o'zi kurashishi dolzarb bo'lib qoldi. Yozuvchi har birimizni ana shu hayqiriqdan ramzlar tilida ogoh etmoqda. Hikoyadagi TOSH ham ramz. Shayton insonga go'zallik timsolida ko'rinmoqda. Alaloqibat qahramon o'sha xiyobon (bog')dagi GO'ZALLIKning aslida kim va nima ekanligini tushunib yetadi. Bu yo'l xronotopida sodir bo'ladi. Hikoyaning ikkinchi asosiy epizodi quyidagicha:

“Daraxtzor tugab, biz yana katta yo'l yoqasiga chiqib qoldik. Ayol chapda ko'ringan bozor tomon yurdi. Men unga ergashdim. Keyin u odamlar to'planib turgan joyda to'xtadi. Men ham yaqinlashib oyoq ildim, uzoqroqda emas, yo'q-yo'q, ayolning shundoq biqinida. Xush bo'ylari arimasdan ufurib turadigan masofada to'xtagandim. Qanday bunga jur'at etdim – o'zim ham bilmayman. Bilib-sezib turganim: ayol o'z borlig'i bilan meni tobora mahv etib borar, men esa shamdek erib bitayotgandim...”

Shu asno ayol yon tomonga bir-ikki odim tashlab, nimagadir qiziqsinib qaray boshladi. Shunda men uning to'lin oydek yuzini, uzun kipriklarini, kamon

¹⁷¹ Rasulov A. Akslar falsafasi. IsaJon Sulton nasri badiiyati. –T.: “Muxarrip”. 2017. –B.30-31.

qoshlarini, g'uncha lablarini ko'rdim. Hayajonimga chegara yo'q edi. Beixtiyor ikkala qo'lim bilan ko'kragimni changalladim: nazarimda yurak o'lgur qafasni yorib chiqqudek talvasada qolgandi..."¹⁷²

Hikoyaning ikkinchi epizodi yozuvchi qahramonining botinidagi – isyon va yovuzlikdan bir lahzada forig' bo'lib, qalbini go'zallik va yaxshilik egallab borayotganiga ishora qiladi. Bu ulkan bozor edi. Aslida, qahramon ta'rif qilayotgan Go'zal – hikoya ekspozitsiyasida – yaltiroq kiyingan degan ta'rif bilan boshlanadi. Go'zallik – Shaytoniy bir qiyofadagi ODAMning farishtadek tovlanishi edi. Bu yerda yozuvchi ikkinchi nozik epizodda qahramon mulohazalarining nechog'li aldamchi, ya'ni TASHQI suratning mohiyatdan yiroqligini dalolatlaydi. Shubhasiz, qahramon uning go'zalligiga oshiq bo'ldi. Atir bo'yidan mast-u alast kezishlar, uni to'xtab-to'xtab kuzatishlar ikki qaro ko'zini bog'ladi. Nafs – yovuzlikning ustidan bir vaqtning o'zida ham g'alaba qozonishni, ham mag'lub bo'lishni isbotladi. Qahramon o'z nafsining ketidan ergashdi. Albatta, tashqarining “yaltir-yultir”i natijasida qahramonning ichkarisi o'zgardi. Bu degani mutlaq haqiqatga keldi degani emas!

Yozuvchi Nazar Eshonqul shunday yozadi: “Keyingi yuz yillikning adabiy haqiqati shundaki, so'zning buyuk qudratini, so'zning yaratuvchilik xususiyatini, so'zning sehrini, so'zning ilohiyligini namoyish etgan har qanday asar hissiyot va idrokka turtki beradi va adib ko'zda tutgan, tutmaganidan qat'i nazar, abadiylik fazosidagi badiiy tafakkur mahsuliga aylanadi. Badiiy tafakkur azaldan abadga qadar olam va odam uyg'unligini muhokama qiladi, insonni ilohiy uyg'unlik rishtalari bilan bog'lab turadi. Badiiy tafakkur esa o'zining maqomiga chiqa olgan asarni o'zining aql o'yiniga – idrok tegirmoniga tashlaydi – aynan ana shu tasavvur va tafakkur o'yiniga erishish bugungi asl adabiyotning orzusidir”¹⁷³. Binobarin, yozuvchi U.Hamdanning “Tosh” hikoyasidagi – yo'l xronotopi ham N.Eshonqul munosabatlarini asoslashga xizmat qiladi. So'zning qiymati esa butun bir jamiyatni yaxshi tomonga yoki alg'ov-dalg'ov bir makon, muhitga aylantirib yuborishi

¹⁷² Kўrsatilgan adabiyot: U.Хамдам. –Б.99.

¹⁷³ Эшонкулов Н. Ижод фалсафаси. –Т.: “Академнашр”. 2018. –Б.243.

muqarrar degan xulosaga kelinmoqda. Hikoyadagi azal va abad orasidagi mangu kurash ham, aslida qahramonning har qanday go‘zallik qarshisida – qalam ojizligini dalolatlab turibdi. Hikoyadagi eng muhim epizod:

“Ayol sotuvchiga nimadir dedi. Sotuvchi esa javoban ikkita kattagina baliqni olib taroziga qo‘ydi va ko‘rsatkichga qaradi. Shu asno palladagi baliqlardan biri dumini “tap-tap” etib pallaga urdi. Ayolning ko‘zlari yiltillab, damodam yutindi. Sotuvchi esa baliqni barmoqlari bilan bosdi, tinchlangandek bo‘lgach, yana ko‘rsatkichga qaradi. Baliq yana potradi. Tarozi ko‘rsatkichi yana o‘ynadi. Sotuvchining sabri toshdi, baliqni palladan stol ustiga oldi-da, tarozi toshi bilan – xuddi pachaqroq odamning kallasidek keladigan dumaloq, qop-qora tosh bilan naq boshiga jiqqillatib tushirdi...

...Bilmadim ko‘nglim aynidi, ich-ichimdan nimadir otilib keldi. Men o‘zimni chetga olishga ulgurmadim, ayolning shundoq oyoqlari ostiga qayt qildim. Baliqqa navbatga turganlar xuddi vabodan qochgandek o‘zlarini chetga oldilar, jumladan ayol ham...”¹⁷⁴.

Insoniy munosabatlar hali muloqotga kirishmasidanoq qahramonning ko‘nglidagi – botinida sodir bo‘ldi. Mana shu jihatlar har bir SHAXSni parchalab tashlashi mumkin degan xulosa kelib chiqmoqda. Yozuvchi tushuntirmoqchi bo‘lgan vaziyat, holat ham aslida shunday bo‘lishi kerak. Negaki, jamiyatning yaxshi va yomoni ham, oluvchisi ham, sotuvchisi ham – bozorga to‘planishgan. Odamlarning ruhiyatidagi NAFS va OCHLIK olomonning asl basharasini namoyish qilib turibdi. Odamlarni munosabatlar tabaqaga, mehr-shafqatga, manfaatga ajratib, har kim o‘z OLAMining quliga aylantirilishi muhitning asl ravishini belgilab bermoqda. Bu yerda NAFSning hayvoniylashuvi ham, go‘zallikning SHAYTONIY qiyofasi ham yuksak farosat bilan talqin qilinmoqda. Qahramon o‘z-o‘zini kechira olmaydi. Yana o‘sha olamiga qaytishga majbur. Butun boshli jamiyatni aqlsiz va farosatsiz odamlar emas, tafakkur sohiblarigina o‘zgartirishga qodir degan azaliy aqida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotchi D.Toshpo‘latova olib borgan izlanishlarida shunday yozadi: “F.Kafka

¹⁷⁴ Кўрсатилган адабиёт: У.Хамдам. –Б.100.

va A.Kamyu ijodining o‘zbek adabiyotining 90-yillarida kirib kelgan vakillariga ta’siri natijasida bugun qanday asarlarning dunyoga kelganligini vaqtning o‘zi isbotlab turibdi. J.Joysni – *darbadarlik*, U.Folknerni mutassil – *ozodlik*, F.Kafkani – *ijtimoiy-siyosiy tuzum aldovlari*, A.Kamyuni – *mantiqsizlik, ijtimoiy tengsizlik* hamisha ta’qib qildi. Va bu muammo sifatida ondan – badiiy asarga, tafakkur, falsafaga, mantiqqa ko‘chib o‘tdi. O‘zbek nasri arxetiplardan ma’lum ma’noda oziqlandi. Xalq og‘zaki ijodi va mifopoetik tafakkur shaklini ustalik bilan o‘zlashtirgan adiblarimiz xilma-xil ifoda uslublarda asarlar yaratdilar”¹⁷⁵. Haqiqatdan ham, o‘zbek adabiyotida bunday -ta’bir bilan aytish joiz bo‘lsa, U.Hamdamning muvozanatsizlik mantig‘i yozishga undaydi. U har qanday vaziyatni MUVOZANAT mantig‘i bilan baholashni xush ko‘radi. “Tosh” hikoyasidagi ayol, bozor, sotuvchi va baliq obrazlari hammasi RAMZlar yig‘indisidir. Bu yerda nafsni tarbiya qilish usullari ko‘z va so‘z zinosi, qalb va iymon birligi masalasi ham yuksak saviyada talqin etilgan degan o‘tkir haqiqatan unutmashimiz kerak. Zero, hikoyadagi TOSH aslida botiniy NAFSning aksi ekanligi *yo‘l xrotonopining* yuzaga chiqishiga bir vosita, xolos!

Poetik talqinda maktub xronotopi va uning vazifadoshligi. Mumtoz badiiy asarlarda, ijtimoiy-publisistik yo‘sinda bo‘lsin, maktub janr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Eng qadimgi (folklor) asarlarda ham maktublar syujet voqeligini payvandlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuni qayd etish lozimki, unda muallifning “men”i bilan yozuvchi (shoir)ning “men”i uyg‘unlashib, juda go‘zal konseptual qarashlarni namoyish etishga qaratiladi. E’tibor beradigan bo‘lsak, romanchiligimiz asoschisi A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida maktub xronotopni o‘ta sirli tarzda, o‘ta muhim komponent sifatida yuzaga chiqaradi. Masalan, Otabek va Kumushning o‘zaro maktublari, Ota va O‘g‘il orasidagi yozishmalarda syujetning maqsadi va yuzaga chiqarishga olib keluvchi masalalar namoyon bo‘ladi. Agar romanda A.Qodiriy maktub janrini qo‘llamaganida romandagi ba’zi o‘rinlarda kemptiklik qabarib ko‘rinardi. Yozuvchi ayni paytda,

¹⁷⁵ Тошпулатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари. Фил.фан.фал.док. Диссертация ва автореферати. Жиззах. 2022. –Б.16.

ijodiy konsepsiya ruhiyati, voqelik kayfiyatidan kelib chiqib, ba'zi mulohazalarini qahramon ruhiyatini, Toshkent va Marg'ilon orasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jihatlarni ochiqlab oladi. Demak, maktub roman badiiyatini to'ldiruvchi komponentlardan biri sifatida alohida mavqe kasb etadi. Romanning syujetida o'n yettita maktub qo'llaniladi. Professor U. Jo'raqulov roman tabiatida "maktub" janri qo'llanilishiga doir maqolasida quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi: "O'zbek adabiyoti tarixida maktub (noma) janrida yozilgan asarlar, she'riy maktublar, maktub-she'rlar uchraydi. Shuningdek, folklor asarlari, mumtoz xamsachilik va dostonchilikdan e'tiboran maktub "asar ichida asar" o'laroq umummatn harakatining muhim uzvi bo'lib keladi. Milliy adabiyotimiz va Sharq mumtoz badiiyatini mukammal bilgan, "suv qilib ichib olgan" Abdulla Qodiriy o'z maktublarini shu an'analar negizida shakllantirganiga shubha yo'q. Ayniqsa, Navoiy "Xamsa"sidagi maktublar unga poetik asos va ilhom manbayi bo'lib xizmat qilgani shubhasiz. Ayni paytda, "O'tkan kunlar"dagi maktublar Qodiriy iste'dodi va mahoratini yaqqol namoyon etadigan badiiy dalillardir"¹⁷⁶. Haqiqatdan ham, A. Qodiriyning ushbu romanida ikki manzil orasidagi yo'lda voqelikni mustahkamlovchi, syujetni bir-biriga uzviy uyg'unlashtiruvchi maktublar davrning haqqoniy manzarasini yanada tiniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Shuningdek, yangi o'zbek romanchiligida barakali ijod qilayotgan Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida ham maktub janrining yangicha ifodasini ko'rshimiz mumkin. Bu romanda ham o'nga yaqin maktublar, (sms, she'riy tabriklar) syujet liniyalarining, bir-biriga ulanishida muhim funksiyani bajaradi. Qahramonlar xarakteri, maqsad-muddaosi ochiladi.

Yozuvchi "Sabo va Samandar" romanida tush va o'ng aro kechayotgan Samandar ruhiyatini ana shunday chigalliklardan – maktub orqali qutqarishga harakat qiladi. Maktub asar arxitektonikasida umumiy voqelik ruhiyatini teranroq anglash uchun "ochqich" vazifasini ham o'taydi:

¹⁷⁶ Жўрақулов Узоқ. "Тошканд устида конлиқ булутлар" – "Ўткан кунлар"ни очувчи ва хулосаловчи мактублар хусусида. Манба: www.oyina.uz

“Tushida qor yog‘ayotgan emish. Judayam chiroyli qor. Samandar uni kuzatib turarkan, bir qor uchquni aylanib kelib kaftiga qo‘nibdi. Samandar unga qaragani asnoda qor parchasi Saboning qiyofasiga kirib, “Seni sog‘indim!” debdi va shu lahzadayoq erib, Samandarning kaftiga singib yo‘q bo‘lib ketibdi. Samandar unga qarab hayqiribdi: “Sabo, Sa-booo!.. To‘xta, ketib qolma!..”

Keyin... keyin uni Soliha uyg‘otib yuboribdi...

*Ming qilsa ham Samandarning kiprigiga qaytib uyqu qo‘nmadi. Qalqib xobxonadan chiqdi va balkonga o‘tib, uyulib yotgan kitob-u daftarlar orasidan “Egasiga yuborilmagan maktublar”ni topdi. Negadir uni ohista varaqlab o‘qiy boshladi”.*¹⁷⁷

Romandagi voqelik tushda sodir bo‘lib, Samandarning o‘ngidagi hayotiga ko‘chib o‘tadi. U yuragidagi olov kabi alangasi battar kuchayib borayotgan ishqiy tug‘yonlarini marom bilan davom etishini istaydi. Aynan shu ish Samandarni yerdagi, maishiy hayotga tutib ham turadi. Buni Saboning o‘ziga ham goh pinhon, goh oshkor, yashirmasdan aytib beradi. Romanda Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriylarga ergashish, ularning botiniy va zohiriy ishq haqidagi tushunchalariga “yangicha shaklda ma’no va tus” berish asosiy maqsad sifatida ko‘rildi. Maktub – tush va o‘ng orasida (ruhiy katarsis) negizida sodir bo‘ladi. “Adabiy zamon va makon tushunchalari badiiy asarning poetik talqini uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda “xronotop” atamasi bilan yuritiladigan ayni tushunchalarning qamrovi ham, badiiy asar qurilmasiga, mazmun-mohiyatiga oid turli nazariy unsurlar bilan bog‘lanish nuqtalari ham juda keng. Taassufki, bizda mazkur poetik unurni batafsil tushunib olish uchun ilmiy adabiyotlar yetarli emas. Holbuki, badiiy asar ichkarisida voqealar yuz beradigan, qahramonlar o‘zaro to‘qnashadigan, uchrashib ajrashadigan adabiy makon va zamon chinakam san’atkor ijodida poetik qator, immanent tizim holatiga kelgan bo‘ladi. Bu ijodkorning iste’dodi, san’atkorligi, fahm-farosati, uslubi, voqelikni “yurgizish” manerasiga ham daxldor masala, albatta”¹⁷⁸. Munaqqid B.Karimning haqli

¹⁷⁷ Улуғбек Ҳамдам. Сабо ва Самандар. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2022. –Б.263.

¹⁷⁸ Каримов Б. Қодирий насри – нафосат қасри. –Т.: “Ўзбекистон”. 2014. –Б.23.

ravishda ta'kidlaganidek, roman ichidagi zamon: syujet va kompozitsiya tig'izligini, roman arxitektonikasini, voqelik izchilligini, komponentlar modifikatsiyasini uzviylashtiradi:

“Qani endi sendan bir mujda kelsa. Qani endi hayotim davomida sen ila ko‘rishish saodati yana bo‘lsa!.. Uchrashuv, mayli, bir yil o‘n yil keyin bo‘lsin. Hatto umrimning adog‘ida seni ko‘rsam ham roziman. Faqat u bor bo‘lsin! Uning oldinda mavjud ekanini bilib yashay, eshityapsanmi?.. Chunki shugina narsa meni o‘ziga, oldinga chorlaydi. Men esa turmushning bir maromda takrorlanib borayotgan ikir-chikirlarining to‘rida ayanchli ravishda halok bo‘lishdan xayolan qutulib, hov o‘sha olis kelajak sari talpina boshlayman...”¹⁷⁹.

“Egasiga yuborilmagan maktublar” turkumidan Samandarning yarim kechasi o‘z-o‘ziga, xayollari bilan xayolan Sabo ishqida sog‘inch alangasini bosish uchun qilgan suhbatini ifodalaydi. Samandar har qanday vaziyatda ham o‘zining bilganidan qolmaydigan, halol va to‘g‘riso‘z, iymon-e’tiqodli bo‘lib o‘sadi. U zamonning chig‘iriqlarida obdon toblangan hayotini qandaydir muhim bir maqsadlari sari o‘nglamoqchi, iziga tushirmoqchi bo‘ladi. Ko‘ngil kishisiga bunday ishq muvozanatida yashash oson kechmasligini yuqoridagi maktubda ham bilib olamiz. Demak, idrok qilinayotgan har qanday voqelik yozuvchi badiiy qarashlarida Samandarning ruhiy olamini “qayta kashf” qilishga yo‘naltiriladi. Sabo – bu yerda xayolan yordamga kelib, uni zaminga bog‘lab turishda katta mavqe egallaydi.

Roman Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi ishq pafosi bilan to‘yintiriladiki, har ikki romanda visol va mavjudlik ilohiy qudrat bilan sodir bo‘lishiga mantiqiy urg‘u beriladi. Hatto uzundan-uzun dostonning eng xarakterli nuqtalari lirik kechinma tarzida asar to‘qimalariga singdirib yuboriladi.

Romanni bugun dunyo moli izidan quvayotgan zamondoshga, zamonasini moddiylik bilan o‘lchayotgan yosh-yosh oshiq-ma’shuqqa yuborilgan mungli va qayg‘uli maktub deb tan olamiz. Negaki, bu maktub harorati pasaymaydigan olov – ishq haqida bo‘lgani uchun. Buni qayidagi tasvirlarda Navoiy tasvir qilayotgan

¹⁷⁹ Кўрсатилган асар, -Б.265.

voqelikka ham uzviylikni, ya'ni ruh va olam ichida ro'y berish mumkin bo'lgan holatni tushunib yetamiz:

“Samandar o'sha kuni televideniye binosini tark etib, to'g'ri anhor bo'yiga bordi: suv bo'ylab uzoq, juda uzoq yurdi. Shu darajada uzoqqaki, shahardan tashqariga chiqib ketdi: anhorning ikki yuziga chaplangan makiyaj – betonlar tugab, uning aslini, o'zligini yodga soladigan maysalar-u turfa o't-o'lanlar shiviri boshlandi. Shuning barobarida Samandarning xayoliga o'qiyverib yod bo'lib ketgan “Layli va Majnun” dostonidan parchalar quyilib keldi. Ayniqsa, nazarlarida ishq xarob aylayotgan Majnunga yordam berishni istab, ming bor o'y-fikrdan keyin o'zaro kengashib, haj mavsumida o'g'illarini Ka'baga eltish tadbirini olgan ota-ona bayonidan ibtidolangan juz'ni yodaki o'qishni sevardi Samandar. Lekin shuncha chekib rag'bati keltirilgan Qaysning tilidan o'zga duolarga aylangandi dostonida...”¹⁸⁰

Mana shu asar parchasining o'ziyiq Samandarning ruhiy iztiroblari aks etgan sahnani ifodalab bermoqda. Majnunning Ka'baga borib ham Layi vaslini tilashligi Navoiy talqinida yuraklarimizni junbushga keltiradi. Samandarning ham “Sevgi nima, birodar?” deb, o'zini tushunguvchi bir habibga muhtojligi zamonaviy oshiqning qalbidagi azim muhabbatni anglashga turtki beradi. Samandar roman voqeligida shu qadar ko'p iztirob bilan umr kechiradiki, yurakning bu savdoni ko'tarib keta olishiga o'zini ishontirib yashaydi. Afsuski, asardagi maktublarning aksariyatida polifonik nutqni yaxlitlashtiradi. Polifonizm (ko'p ovozlilik) yozuvchining bevosita asar ruhiyatiga aralashib, roviy va qahramon nutqining tipiklashuviga zamon tayyorlaydi. Dunyo g'am-anduh tortishga arzimaydi, degan Sherdilning qarashlariga tamomila zid, “Dunyoda ishqdan katta maqsad yo'q” qabilidagi Samandar tuyg'ularini *kontrast* asosida inkishof qilib berganligida yanada real mohiyat kasb etadi.

Romandagi maktubning asosiy maqsadni bir-biriga mustahkam bog'lab ko'rsatishda qo'llanilishi va tush motivining kompozitsion pafos darajasida talqin qilinishi badiiy talqinning quyushuviga yetaklagan. Demak, maktub va tush

¹⁸⁰ Хамдамов У. Сабо ва Самандар. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2022. –Б.146-147.

uyg'un ravishda yozuvchining ba'zan lirik kiritma she'rlarida, Samandar monologida yanada reallashadi. Saboning xayolidan bir dam olis yashamaydigan o'ngida ham, tushida ham uning vasl sog'inchida hayot kechirishi maktublarning badiiy saviyasini hamda romandagi voqelik moduslarini teranroq anglashga imkon beradi. Natijada, ishq haqidagi asarda bosh qahramon tushunchasi aslida yozuvchining ham shunday xulosaviy qarashlari bilan uyg'unlashib ketishini idroklaydi. Dunyo molidan balandda turgan Samandar uchun ishqning o'lchovi va qadri buyukroq maqsadni ifodalaydi.

Ulug'bek Hamdam "Sabo va Samandar" romanida badiiy xronotop, xususan, maktublarni shunchaki "izhor" qilish funksiyasi tarzida qo'llamaydi. Maktub yozuvchi asaridagi asl g'oyani tashishda va syujet qismlarini mustahkam bog'lashda, eng muhimi qahramon tushunchasidagi ishq o'lchovining benihoya kengligini ko'rsatishda muhim vazifani bajarishga yo'naltirilgan. Dunyodagi moddiy va ma'naviy o'lchovning chegarasida hamisha ishq va muhabbat tushunchasi mavjud bo'lgan. Asar qahramonlari ham ishqning o'ziga xos mavqe va maqsadlarini teran anglagan falsafiy bilimlarga ega personajlardir. Bu personajlarning har biri dunyoni o'z "qarichi" bilan o'lchaydi. Samandar esa har ikki dunyo orasida mustahkam ko'prik ishqni birlamchi deb bilganligidadir. Uning uchun eng muhim xilqat muhabbat va uning o'z orzulari ro'yobini ta'minlashga qaratilgan ko'rinishlaridir.

Fasl xronotopi va uning badiiy in'ikosi. Yangi o'zbek romanchiligini bir-biridan shakliy-uslubiy, janriy-kompozitsion yaxlitlik jihatidan boyishiga xizmat qilib kelayotgan yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanida syujet qismlarini, asar voqeligini, qahramon ruhiyatini yanada teranroq ochish maqsadida turli xil tasviriy vositalardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Unda jamiyatda urchib borayotgan fikrsizlik va ma'naviy-ruhiy qashshoqlik bilan mehr-shafqatning nechog'lik kamayib borayotganligi turli xil kasb egalari timsolida ochiqlashga harakat qilingan. Masalan, romanda lirik kechinma (she'riy qaytariq)lar alohida syujet jilvalanishga yorqinlik baxsh etsa, uning o'ziga xosligini ta'minlashga qaratilgan – fasllar xronotopi ham shunday

o‘rin egallaydi. Bahor, kuz va qish xronotopidan shu qadar unumli foydalanadiki, yozuvchi bu o‘rinda qahramonning ruhiy-falsafiy olamini qayta idrok etishga keng yo‘l ochadi. Jumladan, kuz va qish xronotopi qahramonning intellektual olamini qayta kashf etishga imkon beradi.

Badiiy xronotopning shakl va usullari haqida so‘z borganda, avvalo, M.Baxtinning roman nazariyasiga oid tadqiqotlari ko‘z o‘ngimizga keladi. Rus munaqqidi bu haqda tahlilni antik yunon adabiyoti negizida ochib berishga harakat qiladi. M.Baxtin bu tipni *energetik tip* deydi. Ya‘ni “uning mohiyatida energiyani aristotelcha tushunish yotadi. Insonning tom ma‘nodagi mavjudligi va mohiyati vaziyat emas, balki harakat, harakatdagi kuch (“energiya”)dir. Ushbu “energiya” qaror va ifoda jarayonlarida xarakterning kelib chiqishidir. Bunday harakatlar davomida insonning so‘zi va boshqa ifoda yo‘sinlari faqat zohiriy (begona, “uchinchi” uchun) ko‘rinish sifatida emas, balki xarakterning qandaydir botiniy mazmuniga ko‘ra goh botiniy ko‘rinishlar bilan, goh ularsiz namoyon bo‘ladi. Xarakter o‘zining zohiriyliги, ifodaviyligi, komilligi va eshutilish darajasi bilan bir qatorda bo‘lishiga qaramay, to‘lg‘in harakat, tugal mavjudlikka erisha olmaydi. Harakat tugal bo‘lsa, mavjudlik ham shunchalik to‘liq bo‘ladi”¹⁸¹. Haqiqatdan ham, U.Hamdamning “Sabo va Samandar” romanida Sabo va Samandarning xarakteri fasllar kabi turlanib, tuslanib, o‘zgarib, ulg‘ayib, yangilanib va kuchli drammatizmga yo‘g‘rilib boradi. Bu xronotop – kuz va qish oralig‘ida boshqacha shaklda namoyon bo‘ladi. Odatiy muloqotlar, xayoliy-hissiy uchrashuvlar har ikki qalb egasini jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Ayniqsa, Saboning kasb tanlashi, bir katta shaharda yashab Samandar bilan diydor ko‘rish olmasligi, uchrashishning benasibliги, xayoliy ziddiyatlar: tush va o‘ng aro kechayotgan umrning bebaqoligi ikkala qahramonga juda qimmatga tushadi. Ayni shu damda fasllarning almashinuvi bir-biriga ulkan muhabbat qo‘ygan ikkala oshiqning qalbiga katta anglash tuyg‘usini bandi qiladi:

“Samandar to‘xtash yeridan mashinasini uchirib chiqdi, kayfiyati yo‘q edi. Odatda shunday: dunyo ko‘ziga qorong‘i kelganda mashinani jadal haydaydi.

¹⁸¹ Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Т.: “Академнашр”. 2015. –Б. 112-113.

*Go'yo alamini temirdan olabiladigandek hadeb gazni bosaveradi. Bir-ikki qizil chiroqdayam to'xtamadi: atrofdagi mashinalarni baqirtirgancha orasidan g'izillab o'tib ketdi. Ammo navbatdagi qizil chiroqda chorrahadan o'tolmay qoldi: old qatorlar band edi, noiloj tormozni bosdi. Ochiq oynadan qo'shni mashina radiosining baland ovozi kirib, Samandarning g'ashiga tegdi. Bu ham unga o'chakishib radio qulog'ini buradi. Buradi-yu qotdi: to'lqinlarda Saboning ovozi yangrardi. Samandar orqadagi mashinalar signalidan cho'chib hushini to'pladi va rulni asta burib chetga o'tib to'xtadi. radio murvatini aylantirib ovozini balandlatgancha Saboning har bir so'ziga, eshitilmas-eshitilmas nafasiga jon qulog'i bilan talpindi...*¹⁸²

Mana shu lavhada rus munaqqidi M.Baxtin tavsiya va tahlil qilgan – **energetik tip** qahramon taqdirini bir-biriga yanada yaqinlashtiradi. Savol tug'iladi: Samandar ko'pincha Sabo bilan qayerda va qanday holatda suhbat qiladi? Javob esa ikki xil yo'sinda yangraydi. Birinchisi, tushda, ya'ni inson tush ko'rarkan, o'zganing xayollari bilan kelajagini qurmoqchi bo'lgan shaxs ruhiyatini sinovdan o'tkazadi. Ikkinchisi, yo'lda. Samandar ko'pincha yo'lda Sabo xayollariga g'arq bo'ladi. Mana shu jihat Ulug'bek Hamdamning uslubiga xos moduslarni yangilashga olib kelgan, deyishimiz mumkin. Yuqoridagi lavhada Samandarning xayolini bandi qilgan eng muhim jihat: radio va yo'l vositasi. Axir, radiodan taralayotgan sohir ovoz sohibi Sabo emasmi? Uni bir muddat yo'lda to'xtatib, uginaning xayoli bilan bandi qilib, ichki iztiroblariga malhami-dori bo'lgan ovozning egasi Sabo ekanligi, qahramonning botiniy iztiroblarini bir lahza bo'lsa-da, aritmoq payida bo'ladi. Mana shu jihat Sabo va Samandarning oralaridagi pok va insoniy-xayoliy muhabbatning yanada mustahkamlanishiga imkon beradi.

Romanga so'z boshi yozgan munaqqid Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagi mulohazalarni ilgari suradi: "Asarda Saboning tuyg'ulari, tushunchalari, sezimlari g'oyat nozik va go'zal ekani ishonarli ko'rsatilgan. Uning har bir xatti-harakatida o'zini kimlargadir baxshida qilib yashaydigan, o'zidan kechish va o'zini qurbon qilishga kuch topadigan o'zbek qizi tabiati yaqqol namoyon bo'ladi. Uning o'zi

¹⁸² Хамдамов У. Сабо ва Самандар. –Т.: "Ўзбекистон". 2011. –Б. 282-283.

ixtiyorsiz ravishda domiga tushgan ilohiy muhabbat tuygʻusiga loyiq pokiza shaxs ekani otasining xorlanishini istamasligida, chegarasiz imkoniyatlaridan ustamonlik bilan foydalanishga urinmasligida, beaded ogʻriqlarga chidab boʻlsa ham ixtiyorini olib qoʻygan yuksak tuygʻudan oʻz xohishi bilan voz kecha bilishida namoyon boʻladi. Shuningdek, oʻzi bilan oʻzi kurashaverib yuragi tamom boʻlgan Saboning donor yurakda Samandarga boʻlgan tuygʻular saqlanib qolmasligidan xavotirlanib, uni olishni istamasligi kabi oʻrinlar qiz tabiatiga xos ezgu qirralarni aks ettirgani bilan diqqatga loyiqdir”¹⁸³. Darhaqiqat, munaqqidning mulohazalari juda oʻrinlidir. Ayniqsa, Saboning yuragini almashtirmasdan, Samandarga boʻlgan muhabbati bilan birga qolishi va u dunyoga ham birga ketishini xohlab umr kechirishida ramziy maʼno mujassam. Negaki, Sabo har qanday vaziyatda ham tashqi olam qonunlariga ichki, botiniy-ruhiy olamining istaklari bilan javob berib yashashda davom etadi. Ruh har qanday vaziyatda uning botiniy istaklarini bajo keltirishdan sira tinim bilmaydi. Ayni paytda, Samandarga boʻlgan dil-izhorini radio yoki sheʼr mutolaasi, xat-maktub shaklida yetkazib turishni oʻziga goʻzal yumush deb biladi:

“Inson oʻzi yoqtirgan, yaxshi koʻrgan va sevgan kishilarini doimo sogʻinib yashaydi, – derdi Saboning xushxon ovozi. – Lekin hayotimiz aksariyat shunday kechadiki, yuragimizda shu sogʻinchni olib yuraveramiz-yuraveramiz. Garchi oʻsha qalbimizdan joy olgan yaqin insonimizni koʻrgimiz kelib qiynalsak ham koʻpincha uni koʻrmaymiz, koʻrolmaymiz. Keraksiz va baʼzan oʻzimiz gʻanim boʻlib qoladigan gʻururni, hech qachon tugamaydigan kundalik tashvishni va yana koʻp-koʻp vajni roʻkach qilamiz-da, umrimizni suvga oqizib ketaveramiz. Xoʻsh, aslida qanday boʻlishi lozim? Qaysi yoʻl odamlarni, ularning koʻngillarini xushnud etadi? Albatta, diydorlashuv, koʻrishuv, suhbatlashuv. Janob paygʻambarimiz Muhammad alayhissalom ham yaxshi koʻrgan kishilaringizga oʻz muhabbatingizni vaqti-vaqti bilan bildirib turing, deb oʻgit bergan ekanlar”¹⁸⁴.

Romandagi mana shu lavha Saboning har qanday vaziyatda ham *“Inson oʻzi yoqtirgan, yaxshi koʻrgan va sevgan kishilarini doimo sogʻinib yashaydi”* –

¹⁸³ Йўлдошев Қ. Ёник сўз. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2016. –Б.9

¹⁸⁴ Хамдамов У. Сабо ва Самандар. –Т.: “Ўзбекистон”. 2011. –Б.283.

jumlasi bilan Samandarning yurak-yuragini timdalayotgan ISHQ og‘riqlariga malham bo‘ladi. Bunday vaziyatda Samandar o‘zida qandaydir kuch topadi. Hali Saboning undan ko‘ngil uzib ketmaganligidan xavotir olgan lahzalarini xotirjamlik tuyg‘usi kelib egallaydi. Bu tuyg‘u Samandarning yanada kuchliroq bo‘lishiga, hayotga muhabbat bilan qarashiga kuch beradi. Imkon va ishtiyoqni hosil qiladi. Fasl xronotopi romanda juda katta mavqe bajaradi. Unda Saboning o‘y-xayollari bilan yonib umr kechirayotgan Samandar odamlarni teranroq kashf etadi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zidagi ilohiy bir muhabbat bilan qorishib ketgan Saboning xayollarini bir dam bo‘lsin tark etishni hech qachon xohlamaydi. Yozuvchi fasl xronotopiga alohida mantiqiy urg‘u berarkan, jamiyatning o‘sish-o‘zgarishlari naqadar turlanib borayotganidan xavotir olayotgan qahramonlar toifasini ikki guruhga ajratib tashlaydi: birinchi toifa ko‘ngil kishilari, ikkinchi qatlam esa zamonning taraqqiyoti bilan birga baqamti yuradigan toifadir. Mana shu yerda ikki guruhning tanlovi yuzaga chiqadi. Bular muhabbatga turli tomondan (manfaat va istak, chin va yolg‘on, haqiqat va adolat) nuqtayi nazaridan baho berishga shoshiladilar. Demak, Ulug‘bek Hamdam romanning syujet qismlarida aniq bir mantiqni muhabbat mavzusi bilan belgilab olishga erishgan. Faslning o‘zgarishi qahramon badiiy dunyosining ham o‘sish-o‘zgarishini taqozo etmoqda.

Umuman, U.Hamdamning “Sabo va Samandar” romani badiiy xronotop shakllarining turli xil variantlarini sinovdan o‘tkazishga imkon beradi. Xususan, fasl xronotopi qahramon badiiy olamini o‘quvchiga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Eng asosiysi, xarakter va vaziyat taqozosi bilan ro‘y berayotgan har qanday voqelik o‘quvchini mudhish ishq ko‘rguliklaridan befarq qoldirmaydi.

4.2.§.Ijodiy konsepsiya evolyutsiyasi va talqin ranginligi

Badiiy xronotopning eng muhim belgilaridan biri shuki, unda ijodkor va davr fitrati uyg‘unlashib, muayyan ijodiy konsepsiyani oydinlashtiradi. Bizni o‘rab turgan bu olamda san’atdan, ijodkorning dunyoni anglash manerasidan kelib chiqqan badiiy uslub, eng avvalo, g‘oyaviy mazmuni anglatishga qaratiladi. XX asrning ibtidosidan idroklangan badiiy xronotop nihoyatda xilma-xilligi, ijodkor

ma'naviy-falsafiy-ruhiy olamining eng muhim kriteriyalaridan biri ekanligi ayonlashadi. Shuni qayd etish joizki, uslublar rang-barang, xuddi xarakterlar singari alohidalik kasb etadi. Insonning tabiatga taqlidi, borliqqa taqlidi ham uslubning jozibadorligini namoyon etishga keng imkon beradi. Chah-chah urib sayrayotgan qushlarning, shamollar allasida tebranayotgan yaproqlarning ham muztar, sho'x-shodon ohangi uslublar xilma-xilligini taqozo etadi. Axir, dunyoda qancha rang mavjud. Inson aqli yetmagan qanchadan qancha ranglar simfoniyasi mavjud. Kuylarniku xilma-xilligining oxiriga etish mumkin emas. Shunday ekan, uslubning global sferada ranginlashuvi va o'ziga xoslik kasb etishi, avvalo, yozuvchi (san'atkor)ning badiiy mahorati, hayot ichkarisiga teran kirib bora olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Jumladan, qissalar poetikasida badiiy-falsafiy-ruhiy takomil ko'zga ko'ringani kabi uslublar xilma-xilligi ham alohida mavqe kasb etadi.

Davrlar ham xuddi fasllar o'zgarganidek, turli xil xronotopni o'zida sinovdan o'tkazadi. Eksperiment tariqasida uslublarning xilma-xilligi 60-yillarda boshqacha jaranglasa, 70-90-yillarda yana o'ziga xos ahamiyatda yuzaga chiqadi. Shu ma'noda, professor A.Rasulov: "Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o'zi. Uslub – yozuvchi falsafasi in'ikosi. San'atkor falsafasi bus-butun, teran namoyon bo'ladigan janr esa, roman. Boshqacha aytganda, roman – yozuvchining olam va odam, zamon va makon haqidagi falsafasi, ijodkor borlig'idagi rosa yetilgan tafakkur, dunyoni anglash konsepsiyasi ko'rsatkichi"¹⁸⁵. Yozuvchi roman haqidagi qarashlarining uslubiy alohidalik, dominant belgilarni ifodalar ekan, buni shartli ravishda ikki jihatda talqin qilish mumkin: yozuvchi hikoya, qissa, roman yozarkan, o'zining individual uslubini yaratmasa, boshqalarga haddidan ortiq darajada taqlid qilsa, masalan, jahon adabiyotiga, unda o'zligini, qiyofasini yo'qotgan hisoblanadi. Shuning uchun ham yozuvchi, avvalo, o'z uslubiga ega bo'lishi lozim. Masalan, 70-yillarda qissachilikda kinoyaviy-parodik usul yetakchilik qilsa, 90-yillarda falsafiy-ramziy talqin yetakchi tasvir uslubiga evrildi. Professor Y.Solijonov talqinicha: "Uslub tilda namoyon bo'ladi.

¹⁸⁵ Rasulov A. Бадийлик – безавол янгилик. -Т.: "Шарк". 2007. –Б.70.

Har bir mahoratli yozuvchining shaxsiy uslubi bayonning dastlabki iboralaridayoq ko‘zga tashlanadi”¹⁸⁶. Darhaqiqat, ijodkor borliqdagi zardan zarragacha anglab yetishi qiyin. Bu yerda o‘sha holat yana tafakkur balandligiga borib tutashadi. Agar tafakkur chiqqan balandlik (zamon va makon)da aks etsa yozuvchi o‘z ifoda yo‘sinini topgan, deyishimiz mumkin.

“Badiiy uslubning umumiylik va xususiylik fenomenida u yoki bu me‘yorning mutanosibligiga qarab uni shartli ravishda tarixiy, ulkan, davriy yoki aksincha, shaxsiy singari tasniflar bilan belgilash mumkin. Ammo bunday tasniflash nihoyatda shartlidir, negaki u ma‘lum ijodkor ijodining faqat shaxsiy ijod darajasida namoyon bo‘lib, o‘zida – davr uslubi xususiyatlarini jamlaydi. Uslub – bu ijodkor va tomoshabin tomonidan tarixiy vaqt va makonda badiiy shakl hosil qilish jarayonining keng qamrovli yaxlitligini his qilinishidir”¹⁸⁷. Binobarin, badiiy uslubning umumiy va xususiy jihati, u qanday san’atda aks etishidan qat’i nazar, ijodkor (san’atkor) tomonidan “davr”ning kayfiyatini, uning haqqoniy manzarasini, muhitini, qiyofa va shakligacha to‘laqonli ifodalash imkonini beradi. Deylik, har qanday obrazning yuzaga kelishi yozuvchi ijodiy konsepsiyasida maromiga yetadi. Tarixiy qissalarda ayollar (mumtoz) obrazini gavdalantirish borasida juda katta ijodiy tajriba yuzaga keldi. Tarix – unitilmas jarayon. Unda millat sajiyasi o‘z muhrini qoldiradi:

“Olimxonning kichik saroyida bo‘lib o‘tadigan mashvaratga xonning validasi Xonoyimning tashrif buyurishi a‘yonlar ko‘nglida xavotir uyg‘otdi. Baland bo‘yli, kulcha yuzlari oq sariqdan kelgan Xonoyim mashvaratlarga har-har zamonda, davlat yoki saltanat yumushlariga oid biror-bir muhim tadbir bo‘lgandagina qatnashar, ko‘pincha, vaziri a‘zam o‘zi aytishdan istihola qilgan, jur‘ati yetmagan fikrlarni Xonoyim orqali xonning e‘tiboriga havola etardi. Bodom qovoqlari salqiy boshlagan Xonoyim ellikdan oshgan bo‘lsa ham hamon durkun ko‘rinar, yuzlari ajinsiz, hamrohiga yer ostidan xiyol shubha aralash, jiddiy boquvchi qo‘y ko‘zlari

¹⁸⁶ Солижонов Й. XX асринг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. док.дисс автореферати. – Т. 2002. –Б.16.

¹⁸⁷ Суннатов Т. Бадий услуб, ғоялар қарама-қаршилигининг маҳсули сифатида. // Google Scholar indexed. National University of Uzbekistan. 2022 7-сон. –Б.1-6.

o'tkir edi. U so'zamol, aqlli va bir so'zli ayol bo'lsa-da, o'g'lining saltanat ishlariga ko'pam aralashmas, malika kelinlariga ham mayda-chuyda dedi-qo'dilar bilan o'g'lining boshini qotirishiga yo'l bermasdi. Shu boisdanmi, Olimxon aksariyat hollarda volidasining maslahatiga quloq tutar edi”¹⁸⁸.

Keltirilgan lavha iste'dodli yozuvchi Sh.Isaxanovning qalamiga mansub “Nodirayi davron” tarixiy romanidan oldindi. Yozuvchi Nodiraning iztirobli kunlarini, shoh va shoir qismati, Qo‘qon xonligining yutuqlari va tajribalari, fojeasi va yo‘otishlari, murakkab bir vaziyat, davrda yashab ijod qilgan shoirlar, ayollar, otinlar, ma‘rifatparvar ojizalarning hayotidan xabar beradi. Yozuvchi davrning haqqoniy manzarasini badiiy to‘qimaga aylantirar ekan, tarixiy haqiqatni qayta idrok etishga harakat qiladi. Romanning mohiyatida bosh qahramon Qo‘qon xonligi va saroy a‘yonlari, oilaviy nizolar, ziddiyatlar, vodiyning so‘lim go‘shalarida kechgan she‘riyat kechalari borasida aniq-tiniq ma‘lumotlar olishingiz mumkin. Romanda ba‘zi o‘rinlar qissa talabiga javob bersa-da, yozuvchi uni roman deya e‘lon qiladi. Chunki voqelik (romaniy tafakkur) mavjud qarashlarni inkor qiladi. Bu yerda bizni qiziqtirgan jihat – yozuvchining individual uslubi bo‘ldi. Masalan, bu haqda P.Qodirovni ham tahlil qilib ko‘rdik. Badiiy to‘qima va hayotiy voqelik bir-biridan tamomila boshqa-boshqa masala bo‘lgani bois, shunday qarorga kelishga muayyan asoslarni topdik. Shuning uchun, badiiy tafakkur har bir yozuvchida alohida o‘rin egallaydi. U xoh tarixiy, zamonaviy bo‘lsin, yagona estetik kategoriya – **uslubda** jilvalanadi.

Munaqqid H.Umurov yozishicha: “Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi – butun borlig‘ini namoyon etuvchi hodisa, vositadir”¹⁸⁹. Uslubning ta‘rif-u tavsiflari har bir “shunos”da turli xildir. U badiiylik kategoriyasi sifatida o‘zgarib, takomillashib, rivojlanib boradi. Insonning har qanday davrdagi badiiy izlanishga moyilligi, “ilk ijod” pallalaridan tubdan farq qiladi. Shuni qayd etish kerakki, insonning badiiy asardagi ruhiy holati, mimikalari, qiyofasi, hatto imo-ishoralari

¹⁸⁸ Исaxонова Ш. Нодираи даврон. Тарихий роман. –Т: “Маърифат битиклари”. 2022. –Б.13-14.

¹⁸⁹ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. –Т.: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 2004. –Б. 284.

personajlar bilan aloqaga kirishishi uslubda gavdalanadi. Uslub – ijodiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lganligi bois ham, ayni paytda, milliy o‘ziga xoslikka ham tutashadi. Chunki jahon adabiyotidan olgan tajribalar, izlanishlar, uslubning badiiy qiyofasi yanada yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

So‘zni tejash orqali, dialog, monolog, polilog va nutqiy birliklar negizida ham ijodkorning individual uslubi yuzaga chiqadi. Masalan, N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida uslub siqiq bir holatda tasvirlanganining guvohi bo‘lamiz. “Har bir yozuvchining uslubi, uning qalbida nima borligiga shu daraja chambarchas bog‘liqki, tajribali kishi avtor qalbini uning uslubidan bilishi, shaklni o‘rganish orqali mazmunning eng teran mag‘ziga kirib borishi mumkin”¹⁹⁰, –deya yozadi A.Blok. Darhaqiqat, yangi davr qissachiligida ayollar obrazini yaratishda o‘z hayotiy tasvirlash prinsiplariga tanyagan holda, botiniy go‘zallikni, mehrni-muhabbatni sharaflab yozayotgan, gohida alam, o‘ksik ruhiyatini “qayta kashf” qilayotgan ijodkorlar ham ko‘plab uchraydi.

“ Ammo men qachon o‘sha oltin yelkanli kemadagi qizni xayolan tasavvur qilsam, u hamisha Hosiladan boshqa qiz bo‘lib chiqadi. Yuz tuzilishlari, kulgulari, tabassumi, hatto ko‘zlari ham mening xotiramda qotib qolgan ilk uchrashuvdagi Hosilanikiday, biroq u boshqa qiz bo‘ladi. Balki, u bu dunyoda Hosila degan qiz borligini bilmas va mening u haqidagi hikoyamni berilib eshitar?! Balkim Hosiladan endi butkul umid uzganim uchun ham shunday xayol qilarman. Balki Hosila bilan kechgan kunlarim bir vaqtlar kezib chiqqan o‘rmon kabi olislarda qolgani uchun ham uni o‘zim bilan yonma-yon turishini tasavvur qilolmasman. Lekin har qalay, u qiz boshqa bo‘ladi. Balkim, meni tushunadigan yolg‘iz qiz bo‘lar?! Men o‘ttiz bir yil davomida bironta sodiq do‘st orttirolmagan bo‘lsam ham, odamning odamga do‘st bo‘lishini e‘tirof etaman. Hatto o‘rtada sadoqat ham bo‘lishi mumkin ”¹⁹¹.

Modernistik yo‘sinda yozilgan mazkur qissa “Tun panjaralari” deb nomlanib, Frans Kafka, Zigmund Freyd, Albert Kamyu yo‘nalishini yodimizga soladi.

¹⁹⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/zhanrovo-stilevye-osobennosti-liricheskoy-publitsistiki-a-bloka>

¹⁹¹ Эшонкул Н. Ялпиз хиди. –Т.: Шарк. 2007. –Б.167.

Yozuvchi G‘arb an‘analarini sintezlaydiki, unda Freydizm qarashlari – tush tarzida qissada aks etadi. Bu yangicha usul N.Eshonqulning o‘zbek modern qissachiligida ayol obrazini gavdalantirishda ramziy-majoziy usulni tiniqlashtiradi. Yozuvchi tush va o‘ng aro kechayotgan – tundagi o‘y-xayollarini o‘quvchiga taqdim qilarkan, qorong‘ulikdan – zulmatni yorib o‘tuvchi ilohiy nurning shaytonga hay berolmay, arosatda qolgan damlaridan o‘kinayotganini yuzaga chiqaradi. Shaytonga aldanish va insonlik martabasini yo‘qotib borish, o‘tgan zulmat kechalaridagi OLIY NURga intilish katarsis (poklanish) jarayonini idroklashga yo‘l ochadi. Qissaning uslubiy moduslari badiiy psixologizm qirralarini yanada teranlashtiradi. Badiiy uslub yozuvchining ko‘proq falsafiy-psixologik kayfiyatini teranroq anglashga imkon tug‘diradi. “Globallashuv biz yashab turgan dunyoning yalpi holati ekan, u ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta’sir o‘tkazgani singari, badiiy adabiyotimiz, uning tur va janrlariga ham muayyan o‘zarishlar, o‘zgacha ruh hamda yangi talqin va ohanglar olib kirdi. Jahon tamaddunida bo‘layotgan o‘zgarish va rivojlanish bizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Chunki hech bir xalq, mamlakat yoki millat o‘z qobig‘iga o‘ralib yashay olmasligi biz uchun sir emas”¹⁹², – deya e’tirof etarkan, badiiy adabiyotda yuzaga chiqayotgan yangilanishlar haqida to‘xtaladi. (Kim to‘xtaladi?) Deylik, ijtimoiy hayotni ramziy-majoziy yo‘sinda “qayta idrok, kashf qilish”ga e’tibor kuchaygan bir davrda qissalardagi ayollar obrazini badiiy talqin etish muammoni teran ilg‘ashimizga imkon beradi. Dunyodagi globallashuv jarayoni “izm”larning, “uslub”larning yanada taraqqiy topishiga zamin yaratmoqda. Mana shu jihatlar yozish san‘atini ham keng qamrovli yangilashga, uslubning alifbosini o‘zgartirishga intilayotgan yozuvchilar borligini kuzatish mumkin. Dunyo shunday dunyoki, uning mag‘zida hayotiy haqiqat turli shakllarda aylanadi, ayol ruhiyatini ramzlar sintezida qayta kashf etish ijodkorga cheksiz mkoniyatlarni tuhfa qiladi.

¹⁹² Глобаллашув: бадий талкин, замон ва қаҳрамон. –Т.: “Фан”.2018. –Б.259.

“Falsafiy teranlik, mantiqan asoslanganlik hayotiy tajriba hosilasidir. Uslub – yangi so‘z, yangi matal qo‘llash demak, ijodkor badiiy salohiyati ko‘zgusi demak. Adiblar obraz yaratishda har bir detalga ahamiyat berib, obrazning to‘laonli va haqqoniy tasvirlanishiga erishadilar. Hayotiy kuzatish, tajriba, voqelikni tasavvurda puxta pishitib olish, unga estetik qarashlarini singdirish adibga obraz chizgilarini izchil yoritishda madad bo‘ladi. Ayni shu his qilish, dardni tuyish, real hayotni badiiy talqin qilish imkonini beradi. Yozuvchi kishilarda tashqi ko‘rinishni emas, balki tiyatrdagi poklikni, ma’naviy qiyofa go‘zalligini ustun qo‘yadi. Bu uning estetik qarashi, didi, yaratgan qahramonlarida ham ayni shu individual xususiyatlarga urg‘u beriladi”¹⁹³, – deya yozadi U.Rasulova. Haqiqatdan ham, “uslub – yangi so‘z va matal qo‘llash” bo‘lsa, N.Eshonqul asarlarida mifologik talqin – yangi mif yaratishga asoslanadi. Adib asarlaridagi tun – obrazi o‘sha mifologik yangilanishning sintezidir:

“Olti oycha oldin men hayotning o‘zi uzundan-uzoq davom etuvchi, ham be‘mani, ham eng go‘zal tush deb o‘ylar edim. Shuning uchun ham tush haqidagi hikoyalarimga ham “Tun ertaklari” deb nom qo‘ygandim. Men bunda hech qanday maqsadni ko‘zlaganim yo‘q yoki sarlavha ostiga biron o‘tkir tashbeh ham yashirganim yo‘q, faqat o‘z kuchimni sinab ko‘rmoqchi, men his etgan narsalarni boshqalar ham his etarmikin, mendayin betayin xayollarga boshqalar ham borarmikin, ular meni tushunarmikin deb o‘ylagan edi. Biroq muharrir uni tushunmadi. Hikoya unchalik murakkab emas edi. Lekin u tushunmadi. Hozir hikoyani keltirish maqsadga muvofiqmi yoki yo‘qmi, bilmayman. Lekin keltirish zarur deb, bilaman. Balki shu yo‘l lekin men nima uchun bu arzi holni “Tun panjaralari” deb ataganimni tushuntirib berarman”¹⁹⁴.

Mana shu talqinda N.Eshonqul o‘zi yaratgan mifni o‘quvchiga ramziy uslubda tushuntirmoqda. Frans Kafka ham “qaysidir asarim bir kecha ko‘rgan tushimdir” degandi. N.Eshonqul qahramoni tush ko‘radi. Umuman, adibning ko‘pgina asarlarida tush motivi orqali ayol obrazini, hayot mohiyatini, personajlar

¹⁹³ Rasulova U. XX asr ўzbek qissachiligi. (poetika izlanişlar va taraqqiёт tamoyillari). Filol.fan.dok.diss. –T.: 2020. –B.228.

¹⁹⁴ Эшонқул Н.: Тун панжаралари. -Б.174.

ruhiyatini ochib berish usuli qabarib ko‘rinadi. Har qanday obraz uning ko‘zi o‘ngida g‘alati va sirli bir tush singari namoyon bo‘ladi. Qorong‘ulikda adashib qolgan odamning yorug‘lik tomon shoshilishi bor gap. Nazar Eshonqul qahramonlari tun, zulmat va qorong‘ulikda adashish va daydishlar, Shayton va uning malayiga aylanishi, jamiyatda muqim sanalgan e‘tiqodlarning oyoq osti bo‘lishini o‘z ko‘zlari, boshlari, yuraklari, qismatlaridan birin-ketin o‘tkazishadi. Shunday vaziyatda N.Eshonqulning badiiy uslubida yakranglik bo‘lib turgan savollar – mif bo‘lib sistemalashadi. “Har qanday ijodkorning xarakter yaratish uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, muallif nutqi bilan qahramonlar nutqining chambarchas bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Bu xil ko‘rinishlar, albatta, har bir yozuvchining uslubiga bog‘liq ba’zi bir yozuvchilar asarlarida bayonni muallif nomidan olib borsa, ba’zi asarlarda qahramon nomidan olib boriladi”¹⁹⁵. Darhaqiqat, mif va badiiy uslub psixologik vaziyatni taranglashtiradi. “Tun panjaralari” qissasida yozuvchi Hosila obrazining ikkinchi prototipini izlab ko‘radi. Biroq u ro‘yo bo‘lib ko‘rinadi. Haqiqiy nusxani esa hech Hosilaga o‘xshata olmaydi. Uning orasiga juda katta jarlik yukini (makonni) tashlagan Shayton bilan ham suhbat qiladi. Suhbat davomida qissadagi mifologik tabdil ochila boradi. Buni tahlil qilishda quyidagi jihatlarga e‘tibor berish lozim. Yaratgan jannatda Odam Ato Momo Havoga ta’qiqlangan mevani yemaslik majburiyatini yuklaydi. Momo Havo esa Shaytonning “hech narsa qilmaydi, bir tatib ko‘r”, – degan nayranglariga ishonib, mevani tanovul qiladi. “Tun panjaralari” qissasida ushbu mifologiyaga ramziy “to‘n kiygizilgan”. Professor I.Haqqul ta’biricha: “Ma’lumki, inson ham ilohiy, ham bashariy, ham mutlaq, ham muvaqqat bir mavjudlikdir. Uning to‘rt unsur – tuproq, suv, havo va olovdan yaratilganligi hisobga olinmaganda ham o‘zaro qarama-qarshi ikki kuchdan tarkib topgandir. Shuning uchun bashariy his, mayl, ehtiyojlar girdobiga tushib, ruh va ruhiy hayot bilan chuqur qiziqilmasa, nafs g‘alayoni va isyonidan vujudagi

¹⁹⁵ Имомова Г. Миллийлик ва бадий нутк. Монография. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2004. –Б.73.

musaffo fazilatlar yo majruhlanadi yoki butunlay barham topadi. Suratdan – siyratga borish, siyratga suyanib suratni tasvirlash bu – ma’rifat belgisi, ya’ni basirat ochiqligi”¹⁹⁶ ekanligiga ishora qilinadi. Munaqqidning Inson mayl va istaklari hamisha nafsning yonida yashashi, agar uni yenga bilsa, siyratni pokiza saqlay olishiga olib boruvchi yo’llarga diqqatimizni tortmoqda. N.Eshonqulning mana shu tamoyil – Shaytonga aldanish, uning nayranglarini yengib o’ta bilmaslik Ayol va Erkakni jannatdan quvib chiqarilishiga kafolat berilgani “Tun panjaralari” qissasida qovurg‘aning chap tarafidan Yaratilgan Momo Havoning mudomi xato qilib, aziyat tortishini tahlil qilganligida seziladi. Biz ayni paytda, qissa qahramonining – tun (qorong‘ulik)da nimalar qilib qo‘yishi, XX asrda sobiq ittifoq davrining o‘tkinchi havaslari ham shunday gunohlarning takrorlanib surunkali davom etaverishini sira to‘xtatib bo‘lmay qolganini obrazli tarzda ifodalagan bir necha o‘rinlarni ko‘ramiz:

“Men u bilan tezda aloqani uzdim. Hozir ba’zi-ba’zida ko‘rishib qolsak, u o‘zining badbo‘y falsafasini tinimsiz chaynaydi. Uni eshitib, qon bo‘lib ketasan. U bilan uchrashib qolgandan so‘ng men ikki-uch hafta zaharlanib qolgan vujudimni tozalash bilan ovvora bo‘laman. G‘aroyib qismat. Uch kun o‘tirib gaplashsang, to‘rtinchi kuni tomirlaring yorilib o‘lishing hech gap emas. Bularning zahri qora qurtnikidan ham kuchliroq. Bular hayot mevasining aynib, sasiy boshlagan qismi. Bular ketayotgan ko‘chaning boshi berk. Men keyinchalik unga o‘xshash odamlarning o‘sha – menikiga kelib turadigan shaytondan hech qanday farqlari yo‘qligini anglardim. Aksincha, garchi yozdig‘i yovuzlik bo‘lsa ham, shayton ularga qaraganda faoliyatliroq edi”¹⁹⁷.

Qissadan olingan ushbu lavhada yozuvchi Shayton va Odam qismatining o‘xshash va farqli jihatlarini mantiqiy dalolatlaydi. Suratidan ham, siyratidan ham Shaytonnikidan battar yovuzlik va ko‘rimsizlik anqib turuvchi ba’zi odamlarni chamalaydi. Aslida qahramon – Ayoldan ham, Muhabbatidan ham judo bo‘lgan, Shaytonga taslim bo‘lgan odam. U ayrilgan vujudni, bir paytlardagi kabi ruhi bilan

¹⁹⁶ Хаққулов И. Рухоният ва нафсоният тазод.// Жаҳон адабиёти. 2015. №.10. –Б.97.

¹⁹⁷ Кўрсатилган кисса: -Б.179.

bir butun holatga kelishini xohlaydi. Shuning uchun ham “Tun zulmati”dan taskin topadi. Mamlakatimiz boshiga tushgan “qora kunlar”ni yozuvchi shunday ramzlarga burkab tasvirlaydiki, bitta millat hayotining izdan chiqib, mutelarcha kun ko‘rishini jiddiy tanqid ham qiladi. Yovuzlikning haddan tashqari urchib ketishi asl haqiqatlarni to‘laqonli kashf etishda sinovli lahzalarni oldimizga qo‘yadi. Mana shu qismat qarshisida yozuvchi ko‘pgina masalalarni “Bir ipga tizilgan marjon”dek dalolatlaydi. “Istiqlol arafasida yozilgan qissalarda inson kechinmalari va o‘y-fikrlari o‘ziga xos “quyqa” sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Bu qissalar zamonaviy milliy realistik nasrimizning yetakchi janr ko‘rinishlaridan biri bo‘lib qoldi. 80-90 yillarning eng yaxshi qissalarida hayotiy hodisalar qamrovi kengaydi, konfliktning chuqurlashuvi, shaxs muammosiga, uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatiga qiziqish, ma’naviy-ruhiy tahlilga moyillik kuchaydi. Bu tendensiya qissa janrining barcha ko‘rinishlarida namoyon bo‘ldi, desak aslo xato hisoblanmaydi”¹⁹⁸. Adabiyotshunos M.Boboxonov masalaning ikki jihatini mantiqiy urg‘ulaydi: birinchisi, konfliktning chuqurlashuvi, ikkinchisi, jamiyat va shaxs muammosining birinchi planga chiqishi. Bular ramziy-metaforik yo‘sinda zamonaviy qissalarda ayol obrazining qiyosiy-tipologik ustqurmasiga alohida e’tibor kuchaymoqda. Chunki yangi davr qissalari mifologik obrazlar bilan ancha boyib, davrning muhim masalalarini, maishiy turmushni yanada balandlikka olib chiqa oldi. Qissadagi ayollar obrazi Sh.Hamroning “Qaqnus qanotidagi umr”, U.Hamdamning “Yolg‘izlik” asaridagi ba’zi tasviriy jihatlarni yodimizga soladi. Professor U.Jo‘raqulov qayd etishicha: “Jamiyat kishisining ko‘z o‘ngida xaosga aylangan dunyo, insonning toptalgan qadr-qimmati ma’lum kishilarda umuman hayotning bo‘lishi shu degan qarashni qat’iylashtirgan edi. Ammo aql yurgizib qaralsa, vahshiylar to‘dasiga kirib qolgan Odam bolasi inson bo‘lib qolishi uchun o‘zining insoniyligidan emas, balki shu vahshiy to‘dadan “Begonalashuvi” lozim emasmi?! Achinarli jihati shuki, modernizm jamiyat va insoniy qadriyatlardan “Begonalashgan”, o‘z hayotiga nafrat bilan qaraydigan inson obrazini

¹⁹⁸ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. –Т.: “Баёз”. 2014. –Б.61.

ideallashtiradi”¹⁹⁹. Ko‘rinadiki, vahshiylik va yovuzlikning izidan ergashish Shaytondan ekanligi, XXI asr kishisi atrofidagi turli-tuman hodisotlardan qo‘lini tortib olmayotgani, ba’zi “kuchlar” urushning oloviga o‘t qalayotgani ayni haqiqat. Qiyomatga qadar inson o‘z gunohini “yuvish”, “tavba” qilishga shoshilmog‘i lozim. Qarabsizki, ibodat va e’tiqoddan kelayotgan savob ham turli xil balolarning urchimasligi kafolatidir. Ayol obrazi “Qora kitob”da ham, “Tun panjaralari”da ham obrazlar kulminatsiyasida kitobxonni o‘ylantirib qo‘yadi. Bu mifologik kiritmalar haqiqatdan ham qanday paydo bo‘lmoqda? Jamiyatning taraqqiyotidagi odamlar fe‘l-atvoridagi yovuzlik qay tariqa kundan kun bolalamoqda? Bu savollar asar moduslarini yaxlitlashtirib, badiiy uslub va psixologizmni chuqurlashtiradi. Natijada, yozuvchi talqinlarini diqqat bilan mutolaa qilish muhimligi ayonlashadi.

Taniqli yozuvchi Shoyim Bo‘tayeving ko‘pchilik asarida inson ruhiyatini zamon va makon konsepsiyasida qayta gavdalantiradi. Adibning “Kayvonining mangu makoni” ertak-qissasida kampir obrazi uchraydi. Bu qissada tasvirlangan kampir va kayvoni erkak kinoyaviy nigoh bilan yaratilgan. Adib “Kayvoni” nomiga teskari ma’no yuklaydi. Bu elning oldi bo‘lgan kayvoni og‘zi tinmay qarg‘aydigan, kuchugini qarg‘ab, uyidan quvib solgan, so‘ngra ko‘ziga Oqtosh (kuchugining oti) ko‘rinib, uyiga qaytarib kelishga jahd qilgan ajabtovur fe‘lli, fikrlashi, dunyoqarashi nihoyatda haminqadar bir kishi hisoblanadi. “Kayvonining mangu makoni”da ham folklor stilizatsiyasi, afsonalarga ramziy badiiy-shartli ma’nolar yuklash kuzatiladi. Yozuvchi qissa janrini “ertak-qissa” deb belgilagan. Asarga Rumiyaning quyidagi misra epigraf sifatida olingan: “Tez oching zindonnikim, zulmat bosibdur beomon!”²⁰⁰. Qissada Rumiyaning misrasida ifodalangan johillik, johilona munosabatlar Beshkapa nomli qishloq va u yerda yashovchi odamlar hayotidan hikoya etiladi. Qissa xalq ertaklari singari zachin bilan (ammo bu zachin Shoyim Bo‘tayeving xos adabiy zachin –boshlanma) bilan boshlanadi: *“Yumaloq yer ustida, osmon gumbazi ostida bir qishloq bo‘lgan ekan.*

“Tog‘ning shundoqqina etagida ekan.

¹⁹⁹ Жўрақулов У. Худудсиз жилва. –Т.: Фан. 2006. –Б.26.

²⁰⁰ Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 263.

Ko'chki xafvi ostida qolgan ekan.

Qadimda bu qishloqda besh tom bo'lgan ekan, shundan uning Beshkapa nomi qolgan ekan.

Ko'chki xafvi tug'ilganida tomlar ko'paygan ekan.

Odamlarning fe'li o'sha-o'sha ekan: qadimgidek.

Qayerdan bir katta chiqsa o'shaning tomirini o'zlariga olib kelib bog'lashar ekan: qadimgidek.

Haminqadar qarindoshni tan olgilari kelmay, ko'rib ko'rmaslikka olib o'tishar ekan: qadimgidek.

*Qadimda undoq edi. Qadimda bundoq edi deb, o'z kemtiklarini xaspo'shlab qo'yishar ekan*²⁰¹.

Kayvonining qissaga olib kirilishidayoq Shoyim Bo'tayevga xos kinoya, o'tkir satira, kesatiq, istehzolar ko'zga tashlanadi: *"Shu qishloqda bir kayvoni bor ekan.*

Tovuqning kataginiyam buzib bo'lmaydi, deb aytib yurguvchi ekan.

Suygan matali shu ekan.

*Ana shu kayvoniyam... o'pkasi to'lganicha uy tomiga chiqib sardevorga ketmon uripti*²⁰².

Ko'chki xavfi tug'ilib, Beshkapaliklar boshqa joyga ko'chib ketishga majbur bo'lishadi. Kayvonining o'y-xayollari, o'zini tutishi, yuz ifodasi adibning kinoyaviy nigohi orqali chiziladi: *"Kayvoni ancha fursat mutafakkirona o'y suripti.*

Ikki qoshi o'rtasini bodomchaday tugun qilipti.

U yoq-bu yoqqa qadam tashlapti.

Xayol bilan bo'lib, yupqa lablarini chapillatib ham qo'yipti. Aslida, uning bundaychangi odati yo'q ekan. Yana u yoqqa-bu yoqqa qadam tashlapti-da, bir yerda to'xtab, barcha jumboqlarni bir himo bilan yechib yuboradigandek, ha-a, deya xitop qilibdi. So'ngra dunyoda tovuqning ham katagini buzib bo'lmasligi

²⁰¹ Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 263.

²⁰² Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 264.

haqida shunaqa dono gaplarni aytiptiki, bunday gaplarni uloqib ketgan matal to'qigich ham harchand aytolmaskan; juda qoyil-maqom hikmatlar ekan, ularni eshitgandan keyin dunyodagi barcha xumboshlarning tovuqboqar bo'lganiga hech qanday shubha qolmaskan"²⁰³. Qissa matnida og'zaki so'zlashuv nutqiga xos uslub saqlanib qolgan. Nazarimizda, bu yozuvchining ertak stilizatsiyasini to'la ifodalash uchun qilgan ijodiy tajribasi mahsulidir. Yozuvchi ataylab, adabiy til me'yorlariga amal qilmaydi.

Shoyim Bo'tayevning Kayvoni obrazini yaratishdagi kinoyasi hatto bora-bora masxaraomuz darajaga chiqadi. Shu paytgacha boshqa qissalarida qo'llamagan masxaraomuz kinoya "Kayvonining mangu makoni"da kuzatiladi. Hatto kayvoni oldiniga erkalab, so'ngra esa qarg'ab yurgan iti haqidagi lavhalarda kinoyaviy nigoh bilan satirik uslub qorishib ketadi. Qissada kayvoni obrazidan tashqari Maston kampir obrazi ham bor. Maston kampir o'lgudek xasis, ziqna bir ayol. Och qolib ketgan mardikorlar uning shaparagini yegach, battar ichlari siyrilib ketardi. Adib Maston buvi qiyofasida birovga xayri tegmaydigan ayollar timsolini mujassamlashtiradi.

Bu qissada shunday ifodalanadi:

"Maston buvi deganlari kuvada ayron pishirgan, bir tuyur yog'ni chalpakka o'rab tushirgan, tishdan qolsa ham gapdan qolmagan, ko'zdan qolsa ham gapdan qolmagan, yetti mahallani kezib gap izlagan bir kampir ekan.

U non so'rab borgan quruvchilarga bitta qotgan shaparak beripti. Keyin u yoqqa o'tsa ham shuni gapiripti, bu yoqqa o'tsa ham shuni gapiripti.

– Hammaning ham non yeydigan tishi bor, – derkan u gapni uzoqdan boshlab. – O'l qo'y-da! Biz bechoralardan non so'rab kepti. O'zi qishga g'amlab qo'yganim ikki qop bug'doy bo'lsa, uni tishimning kavagida asrab, yesammi-yemasammi, deb yurgan bo'lsam-u, yana mendan non so'rab kelsa-ya! Mollollarimiz o'tlaydigan joylarni egallab olib, qavat-qavat imoratlar solib yotishi-

²⁰³ Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 279.

yu, yana yeyishga nonlari yo‘q emish. Imoratga pul topishar emish-u, non yeyishga kelganda... Bir g‘arib kampirga kunlari qopti!

Maston buvi o‘zini g‘arib deb atapti.

Keyin ko‘ngli to‘liqib yig‘lab ham yuboribdi’’²⁰⁴.

Yozuvchi qissada Maston kampirning dardi holini berish orqali ikki yoqlama kinoyaviy munosabat hosil qiladi. Birinchidan, yozuvchining Maston kampirga kinoyasi, ikkinchi tomondan esa, qahramon, Maston kampirning dachalar qurib, ustalarining qornini to‘ydira olmaydigan zamonaviy “yangi boylar”ga kinoyasi anglashiladi. “Kayvonining mangu makoni” qissasida o‘tish davri odamlarining qiynchiliklari, pulsizlik, ishsizlik, kamdaromadlilik kabi qator ijtimoiy, maishiy muammolar qalamga olingan. Ochlikdan sillasi qurigan Quruvchilar kayvonining kuchugini so‘yib yeyishadi. Kayvoni qish kunida, qor gupillab yog‘ib turgan pallada kuchugi Oqtoshni izlab, topib beringlar, deb akasi Avaz podachining uyiga boradi. Avaz podachi kuchukni izlab yurib, uning to‘kilib yotgan junini, qon tomchilarini topadi. Kayvoni Avaz podachi bilan ukasini kuta-kuta o‘zi yo‘lga tushadi. Bu qissada shunday tasvirlanadi: *“Kayvoni yo‘lga tushipti.*

Kayvoni qiyamalik ostiga yetgach, tepaga qarapti: hammayoqni qor bosgan, bilmagan odam qayoqdan yurishga ham hayron bo‘lar ekan. Kayvoniga bo‘lsa... Bu yerlar qadrdon joylar ekan, qanchalik qalin qor ostida qolgan esa-da, yo‘lni iskab bo‘lsayam topa olar ekan – o‘ziga-o‘zi shunday deпти; bundan tashqari daraxatlar, na‘matakalar bor ekan, kayvoniga yo‘l ko‘rsatib turishar ekan...’’²⁰⁵.

Qissa kayvonining fojiasi bilan yakunlanadi. Yo‘qolgan kuchugini izlab, yo‘lga chiqqan kayvoni qor ko‘chib, chuqurlikda oyoqlari sinib halok bo‘ladi. Uni aka-ukalari topib olib ketishadi. “Kayvoni” so‘zi odatda, Ayollarga nisbatan ishlatiladi. Shoyim Bo‘tayev bu qissada elning kayvonisi bo‘lgan kishi (musofir odam) haqida ertaknamo asar bitadi. Qissa yakunidagina Kayvonining ayol emas, erkak ekanini anglab yetasiz. Qissaga asosiy syujet sifatida tanlangan voqea, kayvonining kuchugini quvib solishi, so‘ngra uni izlab yo‘lga chiqishi, aka-

²⁰⁴ Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 311.

²⁰⁵ Бўтаев Ш. Кайвонининг мангу макони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 321.

ukalaridan yordam so‘rashi, o‘zi ham Oqtoshni izlab, chuqurga tushib ketib halok bo‘lishi satirik va tragik lavhalar yaratilishiga asos bo‘lgan. Kayvoni o‘zini juda aqlli qilib ko‘rsatishga urinadi. Og‘zi tinmay yig‘laydigan o‘g‘lini kelajakda buyuk shaxs chiqadi, deb bashorat qiladi. U o‘zini salkam bir bashoratgo‘y, avliyo odamdek tutadi. Yozuvchi ayollar ruhiyatining nihoyatda nozikligiga urg‘u berib, ular hayotidagi dramatism va tragik holatlar sababini ochishga harakat qiladi. Jumladan, Buvish kampir, nazoratchining ayoli farzand dog‘ida kuyib vafot etgan ona taqdiri sabablari aslida ularni qurshab turgan yaqinlari, hamkasblarining loqaydligi, yordamga muhtoj odamlarga beparvo kuzatuvchi bo‘lib yashaganliklari oqibati ekanini haqqoniy yoritadi.

Inson ruhiyatining chuqur tahlili, uning ong osti, yashirin sir-sinoatlarini yanada mukammal tushunish va tasvirlash doimo, eng qadimgi davrlardan boshlab adabiyotning eng asosiy muammosi bo‘lib kelgan. Shu bois badiiy asarda inson ruhiyatining chuqur va batafsil tahlilini adabiyotning sifat belgisini ko‘rsatuvchi xususiyat deyish mumkin. Ruhiyat tasviri muammosi jahon ilm-fanidagi kabi o‘zbek adabiyotshunosligida ham doimo muhim va dolzarb tadqiqot muammosiga aylanib kelgan.

Yozuvchi Shodiqul Hamroning “Muazzam” asarida syujetning kutilmagan burilishlari ayollar obrazi, aniqrog‘i ayol obrazining o‘ziga xos ifodasini ko‘ramiz:

“Aka, men Muazzamga uylanganimga o‘shanda ham, hozir ham sira afsus qilmayman. Axir, nega pushaymon bo‘lay, Muazzamdek oqila qiz bilan taqdirim qo‘shilganiga doimo shukur qilaman. To‘yimiz o‘tgach, bunga qayta-qayta ishonch hosil qildim. Faqat to‘ydan so‘ng qishloqdagilarning ishqilib, kuyovning aql-u hushi joyida ekanmi yoki u ham jinnimi, degandek menga qattiq qiziqib qolishgani, hatto darvoza-yu devor tirqishlaridan tinimsiz poylashgacha borishganiga sira ko‘nikolmay yurdim. O‘sha kunlari uydan tashqariga chiqishga yuragim bezillab qolgandi, har qadamda odamlar nigohi bilan tinimsiz ta‘qib qilayotgani, ko‘chada to‘qnash kelib qolganda, surbetlarcha aft-angorimga qarashlari, turli kesatiq gap-so‘zlari, ba‘zan ochiq-oydin kulishlari jonimdan to‘ydirib yuborardi. Ammo men ko‘nglimga qanchalik og‘ir botmasin, bariga

chidadim, ustimdan kulgan, hatto masxara qilganlarga ham qattiq gapirmadim, shunchaki indamay qo‘ya qoldim. Keyin-keyin hammasi iziga tushib ketdi.

Odamlar meni jinni emas, to‘rt mucham soppa-sog‘, aql-u hushim joyida ekanimga ishonishdi, Muazzamga mehrim balandligi uchun bu yerga kelib qolganimni ham tushunib yetishdi. Shuning uchun ko‘pchilik hurmat bilan qaray boshladi.

Hozir qishloqda hech kim bizning ustimizdan kulmaydi, masxara-yu mayna qilishni xayollariga ham keltirishmaydi, faqat bizga rahmlari kelibmi, achinib qarab qo‘yishadi. Ko‘pincha esa, yaxshi gapirib, ko‘nglimizni ko‘tarishga harakat qilishadi”²⁰⁶.

Qariyb o‘n besh yillar ijod maydonida ko‘rinmay ketgan Shodiqul Hamro 2019-yil “Yoshlik” jurnalida “Muazzam” nomli qissasini e‘lon qildi. Qissa syujetida oddiy Polvontepalik odamlar hayoti hikoya qilinadi. Ota-onasiz yetimlik azobini totgan Ibrohim va Muazzam qismati hikoyachi tilidan ifodalab beriladi. Qissada juda ko‘p modernistik ifodalar yoyinlanadi. Qissa – N.Eshonqul, U.Hamdamning ifoda usuli kabi ramziy-polifonik tafakkur sarhadlarini tiniqlashtiradi. Qishloqdagi jinni deb, atalgan Muazzamning oilasini hech kim odam o‘rnida ko‘rmasligi tasvirlangan. Mahmud aka bolalarining taqdiri, aqli noqisligidan aziyat chekib, odamlar ularga shunday kamsitishlarni qo‘yganidan Ibrohim ham iztirob tortadi. Qissa qahramoni “yolg‘izning yori Xudo” degan naqlga amal qilib, bilganidan sira tonmaydi. Qo‘shni qishloqdagi qassobga oshino tushib, Muazzamga uylanadi. Ana shundan keyin ularning haqiqiy hayot sinovlari boshlanadi. Qissadagi o‘nlab tasvir yo‘sinida badiiy uslubning bitta davr umumiy xususiyatlarini o‘zida namoyon etganligining tirik guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, N.Eshonqulning “Qora kitob” asridagi Shayton obrazi hamda U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasidagi olomon obrazlari istiqloq davri modern qissalarida, aniqrog‘i ayollar obrazini gavdalantirishda muhim uyg‘unlikni yuzaga

²⁰⁶ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shodiqul-hamro/shodiqul-hamro-muazzam-qissa/>

chiqaradi. Shuni qayd etish lozimki, qissa qahramonlari oddiy qishloq odamlari bo'lgani bilan dunyoni tanigan tafakkur egalari. Bu qadriyatlarni aks ettirishda yozuvchilar G'arb adabiy-badiiy tafakkuridan sezilarli darajada istifoda etgani ayonlashadi.

Yuqoridagi qissalarda ruhiy tushkunlik nafaqat ayollar obrazini tasvirlashda ko'zga tashlanadi. G'amgin inson hamisha yo telbalarcha fikrlaydi, yoki o'zidagi o'sha kayfiyatni chiqarib tashlash ilinjida hayot kechiradi. "Fojiadan – yaxshilik qidirish" tamoyili hamma individ uchun, ayniqsa, modernizm yo'nalishida ijod qiluvchilar uchun muhimdir. Shuni qayd etish lozim: "Fridrix Nitshe bir emas, bir necha o'rinda Osiyoning Ovrupo uchun namuna vazifasini o'tab kelganini aytib o'tadi. Yunonlarning buyuk madaniyat sohiblari bo'lishlariga asosiy sabablardan biri ularning Osiyoga iqtido qilganliklarida, undan o'rganganliklarida deb biladi. Hatto ayollar, hozirgi zamon tili bilan aytganda feminizm masalalarida ham osiyoliklar namuna bo'lganlar. Bunga Homer davridan Periklgacha o'tgan vaqt mobaynida yunonlarning ayolga munosabatlari qadamba-qadam osiyolashib borganini misol qilib keltiradi. U yunonlarni Osiyoning eng yaxshi merosxo'rlari va shogirdlari deb ataydi"²⁰⁷. Ko'rinadiki, G'arb falsafiy-badiiy tafakkuri Fridrix Nitshe ijodida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday tafakkur o'zbek adabiyotida yangi davr qissalarida ham ifodada, uslubda va talqin o'ziga xosligida sezilishi tabiiy bir holdir. Albert Kamyuning badiiy tafakkurida ham Nitshe qarashlari (erkinlik va ozodlik) ko'pincha insoniy iroda o'laroq namoyon bo'lishi kuzatiladi.

N.Eshonqul, U.Hamdam, Sh.Hamro qissalarida detallar naturalistik tasvirlar hisobiga emas, individning ichki kechinmalari hisobiga boyib, kengayib boradi. Individ bu – yozuvchining o'zi bo'lishi mumkin: shuning uchun ham jumllalarda "ichki men"ni kuchli yoki joizligi haqqoniy ifodasini topadi. Ichki monolog, ichki nutq bu yozuvchilarning uslubiy-badiiy yaqinlashuvini idroklashga yo'l ochadi. Sh.Hamroning "Muazzam" qissasida ham badiiy uslubning falsafiy-psixologik vaziyatni taranglashtirganini sezamiz:

²⁰⁷ Қаранг: Нитше Ф. Сочинения в. 2 т. Т., 2. С.356.

“Bilasizmi, aka, men uylangach, shuni anglab yetgandimki, Muazzam akalari singari butkul aql-u hushidan ayrilgan, na xatti-harakati, na gap-so‘zlarini idora qilolmaydigan jinni emasdi. Ishonsangiz, uning to‘rt muchasi soppa-sog‘, aql-u hushi ham joyida, hamma-hamma narsani tabiiy va to‘g‘ri idrok etadi. Faqat bilasizmi, qishloqdagilarning oilasi ustidan ochiq-oshkor kulishi, ko‘cha-ko‘yda “jinni, jinni” deya masxara-yu mayna qilishi, ochiq jirkanib qarashi, hatto bir lagandan osh yeyishdan or qilishi uning hali bolaligidan qalbini butkul qabartirib, zada qilib tashlagan edi. U odamlarning ana shunday ko‘z ochirmay qo‘ygan ta‘qib-u malomatlarini eshitaverib, hech kimga ishonmay qo‘ygan, hamma narsaga hadik va qo‘rquv bilan qarar, ko‘cha-ko‘yda o‘zini savdoyidek tutar, o‘rni kelganda og‘zidan tupuk sachratib bobillagancha, shallaqilik qilish, hatto o‘g‘il bolalar bilan ham teppa-teng yulishishdan tap tortmasdi. U hayotda oddiygina mehr, andisha, hayo borligini allaqachon esidan chiqarib yuborgan, doimo odamlardan qochib yurar, hech kimga ishonmas, hamma narsani yomon ko‘rardi. Baxtsizlikni qarangki, u onadan soppa-sog‘, aql-u hushi joyida tug‘ilgan, ammo qattol qismat boshiga ayovsiz yog‘dirgan ko‘rgiliklarni ko‘raverib, og‘ziga kuchi yetmagan odamlarning ta‘na-dashnomi, malomatlarini eshitaverib, aqldan ozishiga, jinni bo‘lib qolishga bir baxya qolgandi.

To‘g‘risi, to‘yimizdan so‘ng dastlabki kezlarda Muazzamning hurkak va yovvoyiligiga, arzimagan narsalarga ham baqirib tashlashiga, ba‘zan kurakda turmaydigan qarg‘ishlariga ko‘nikolmay rosa qiynalganman. Hatto o‘shanda asablarim qaqshab, yuragim siqilib ketganidan bu hovlidan bosh olib ketish haqida ham o‘ylaganman. Ammo darrov fikrimdan qaytganman. Axir, men ketib qolsam, Muazzam butkul aqlini yo‘qotib, rostdan ham jinni bo‘lib qolishi tayin edi. O‘shanda Muazzamni o‘ylab turib, bunga hech qachon jazm qilolmasligimni tushunib etganman”²⁰⁸.

Tashqi baholar insonning ruhiy hayotiga zarb berishdan boshqa narsaga yaramaydi. Insonni tashqi baholar bilan kashf qilish, uning jism va ruhiy kayfiyatining “erta nobud” bo‘lishi (sinishi)ga olib keladi. Ibtidoiy odamning ishi

²⁰⁸ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shodiqul-hamro/shodiqul-hamro-muazzam-qissa/>

ham shu qadar jirkanch va ayanchli bo‘lmasa kerak. Sh.Hamro ayol zotining bu qadar o‘tkir qalbini, botinini Kafka yoki Kamyu, Prust singari tasvirlashi, ularning ifoda manerasidan oziqlanishi ayni haqiqat. Qissani hikoya qiluvchi boshdan-oyoq SHAXSni taftish qilish mobaynida o‘zini ham kashf qilishi ayni haqiqat. Qissada umidvorlik ilinjida yashayotgan o‘zbek ayolining butun jamiyat tomonidan erki va haq-huquqi toptalishi, yerga urilishi syujetning asosiy g‘oyasidir. Mana shu jihatlar modern qissalarni talqin qilganimizda ayonlashadi. Bu haqda batafsilroq keyingi fasllarda to‘xtalamiz.

Qissalarda axloqiy kategoriya butun syujet liniyalarida fojeaviylik asosiga qurilgan. Bu haqda so‘z yuritganda: “Axloqiy kategoriyalarning barchasini ezgulik va yovuzlikka bog‘lash mumkin bo‘lganidek, estetik kategoriyalarni ham go‘zallik va xunuklikka bog‘lash mumkin. Haqiqiy tragik (fojiaviy) asar insonning yuksak tuyg‘ularini, sof, olijanob qalbini, ulug‘ niyati va fidoyiligini ko‘rsatadi. Qahramon har xil sabablarga ko‘ra o‘z maqsadlariga yeta olmaydi. Qahramonning halokati tomoshabin, o‘quvchi qalbini iztirobga soladi, mayda bachkana narsalardan hasad – amalparsatlik, molparastlik hirsidan tozalanishga yordam beradi. Fojiaviy asar qahramoni jamiyatning yuksak ideallarini ifodalaydi. Yuksak ideallar esa o‘z mohiyat-mazmuniga ko‘ra go‘zaldir, ular insonda insoniylik, mehr-oqibatni, adolat va haqiqatga tashnalikni tarbiyalaydi. Shunday qilib fojiaviylik go‘zallikning o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqishidir. Va, aksincha hayotdagi bachkana tuyg‘ular va ehtiroslardan, tuban kamchiliklardan qutulishida komediyaviylik yordam beradi”²⁰⁹, – deya yozadi A.Erkayev. A.Erkayev talqinida ikki jihatni e‘tirof etish lozim: birinchidan, fojiaviylik negizida yuksak tuyg‘ular tarannumi aks etsa, komiklik tuban kamchiliklarni o‘zida namoyon qiladi. Mana shu jihat “Muazzam” qissasida Muazzamning fojiaviy hayoti, bir oilada butun jamiyat timsolining namoyon bo‘lishi, muhabbatning qadrsizligi, tabaqalashuv, yo‘qsillarning bebaxtligi, sobiq ittifoq davridan kelayotgan sinfiylik, insonning mayib-majruh

²⁰⁹ Эркаев А. Эстетик онг ва бадий билиш//Жаҳон адабиёти. 2015. №.11. –Б.135.

qilinishi, estetik tanlovning faqat amaldorlar qo‘lida bo‘lishi millat fojiasining yuzaga chiqishida ko‘rinmayaptimi? Yetimlikning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi, urushda vafot etgan ota, onaning betob bo‘lib o‘tishi, qishloqdagilarning umumiy kayfiyatsizligi asardagi ideal orzuni istashlikdir. Yozuvchi ana shu qatlamni ochib berishga harakat qilganligida yaqqol seziladi.

Sh.Bo‘tayev, N.Eshonqul, Sh.Hamro, U.Hamdam, I.Sulton badiiy izlanishlarida *noan’anaviy* obrazga alohida tizimli yondashish hamda G‘arb-u Sharq an‘analarining sintez qilinishi yuqoridagi tahlillarimizni to‘laligicha quvvatlaydi. Negaki, uslub ham shaklda, ham mazmunda, ham mavzuda, ham ijodiy konsepsiyada aks etarkan, uni qayta ishlash, saralash, tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligi ayonlashadi. Shuning uchun ham uslubda jamiyat hayoti in‘ikosi aks etadi, u o‘tmish va kelajak orasida “qaysi usul” muhimligini to‘laligicha ifodalashga keng imkon beradi. Zero, falsafiy-estetik kategoriya asar go‘zalligini namoyon qilib, ijodkorning olam va odam sirlaridan voqif qilib turuvchi yagona tasvir eskizlarini qayta kashf etishga zamin yaratadi. Dunyodagi G‘arb an‘analari umrboqiyliigi (uslub)da sayqallansa, Sharq an‘analari moddiy va ma‘naviy olam o‘lchovida chuqurlashadi. Mavjud an‘analar har ikki jihatda ham inson ruhiy olamini o‘quvchiga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

4.3.§. O‘zbek noan’anaviy qissalarida G‘arb badiiy tafakkuri sintezining roli

Ayonki, badiiylilikni ta‘minlovchi muhim komponentlardan biri – psixologizmdir. Inson ruhiyati, uning borlig‘i, nasl-nasabi, kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o‘rni ko‘p hollarda ruhiyat bilan bog‘liq holda ochiqlana boradi. XX asr boshlarida bu haqda katta tadqiqotlar olib borgan Z.Freyd, K.Gustav Yung, E.Fromm kabi G‘arb psixoanalitiklari o‘zlarining barcha tadqiqotlarida ruhshunoslik bilan bog‘liq juda katta monografik tadqiqotlarni olib borganlar. Psixoanaliz murakkab sohalardan biri. U din, san‘at, adabiyot, falsafa va tarix kabi o‘nlab sohalarni umumlashtirib turuvchi umumestetik kategoriyadir. Birinchi jahon

urushini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan va undan tayinli xulosalar chiqargan **G‘arb odamlari Sharq xalqlariga qaraganda hayotga progmatik yondashuvni, “vaqt bu - pul” degan tamoyil asosida hayot kechirishni birlamchi deb bildilar.** Mana shu jarayonda insonning aqliy kapitali hamisha g‘olib kelib, jamiyatni tez suratlarda rivojlanib ketishiga olib keldi. Rus adabiyotida F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, A.Chexov, G‘arb yozuvchilaridan A.Kamyu, F.Kafka, J.Joys, M.Prsut singari yozuvchilar dunyoni boshqacha ko‘rish ehtiyoji o‘laroq qator mavzularda rang-barang qissalar, romanlar, esselar yaratdilar. Mavjud qoliplarni “Buzib”, uni mutassil yangilab turish hamisha iste’dodli kishilar qo‘lidan kelgan. Chunki iste’dod – ixtiroga, ixtiro esa jamiyatning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo‘lgan. Shu ma’noda, XX asr ibtidosidagi iste’dodlar boshlab bergan an’analar vaqti kelib, jamiyatning faol va kurashuvchan a’zolari sifatida nom qozongani hech kimga sir emas.

Ko‘p hollarda *badiiy xronotop* ruhiy talqin bilan qorishiq holda keladi. Shuning uchun ham badiiy talqinda ruhiy tahlil birlamchi va yetakchi tasvir prinsiplaridan biriga aylanib borayotgani yuqoridagi mulohazalarimizni to‘laqonli quvvatlaydi. “Asarda psixologik tahlilning paydo bo‘lishi uning shakli va tipologiyasi ko‘pincha yozuvchi dunyoqarashiga, maqsadiga, iste’dodi va shaxsiy fazilatlarining xarakteriga, asardagi vaziyatga qaramdir. Ayni chog‘da, aftidan, psixologik tahlilni onglilikka asoslangan estetik prinsip sifatida baholay turib, uning u yoki bu xususiyatlari so‘z rassomi tomonidan atay tanlanganligini nisbiylashtirish shart emas”.²¹⁰ Ko‘rinadiki, rus olimi V.V.Kompaneyesning ushbu mulohazalari fikr-mulohazalarimizni yanada rivojlantirishga qaratilgani bilan tahsinga loyiqdir. Davrning maishiy-ijtimoiy muammolari, inson psixikasi va shart-sharoit nuqtayi nazaridan o‘zgarish xossalari ham muammoning ildiziga teran kirib borishga kalit vazifasini o‘taydi.

Professor H.Umurov yozishicha: “Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati – adabiyotning tub mohiyatiini belgilovchi

²¹⁰ Компанеец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) – Л.: Наука, 1980. С 47.

xususiyatlardan biri darajasiga ko‘tarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning rivojlanish bosqichlarida bu muammo turlicha tushunilgan. Jumladan, Aristotelning “Poetika” asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi – tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir”. Agar ijodiy metodlar va ularning estetikasi nuqtayi nazaridan psixologizm problemasiga yondashsak, bu masalaning zamon va davr talabiga muvofiq yanada ko‘proq, yanada qabariqroq bo‘lib borganligining guvohi bo‘lamiz”²¹¹. Haqiqatdan ham, inson ruhiy olamiga teran kirib borish, ularni to‘g‘ri tahlil va talqin qilish, hozirgi o‘zbek qissachiligining dolzarb masalalaridan biriga aylanib borayotgani fikrimizni quvvatlaydi. Chunki XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ruhshunoslik bilan bog‘liq tadqiqotlar salmog‘i ortdi. Bu jarayon biz yashab turgan global dunyoning asosiy va yetakchi tamoyillarining biriga aylanib bo‘lgani bilan ham belgilanadi. Masalan, o‘tgan asrning fojealari, shodliklari, kulfatlari har bir millat taqdirini yaxshi va yomon tomonga o‘zgartirib yuborgani, inson qaysi sohada bo‘lmasin, o‘z yashash maydonidan nari chiqolmaydigan “Biqiq” bir olamga tushib qolayotgani, tobora mutelik, qaramlik, yovuzlik shiddatli tus olayotgani badiiy shakl (qissa)larga ham ko‘chib o‘tmoqda. XX asrning 60-yillaridan keyin yaratilgan juda ko‘plab asarlarda ruhiyat bilan bog‘liq masalalar yetakchi tasvir usuli sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Mehnatdan qo‘llari qavargan ONAning, egat boshida ham bolasini, ham dehqonchiligini qilayotgan onaning siymosi hech qachon ko‘z o‘ngimizdan nari ketmasligi ayon.

Yozuvchi N.Eshonqul qayd etishicha: “Inson adabiyot uchun ham, psixologiya uchun ham jumboq edi. Har ikkisi ham bu jumboqni ochishga harakat qilardi. XX asr boshiga kelib adabiyot ham, Freyd ham “Inson kim? Qanday mavjudot? Mohiyatida nima yotibdi? Uning istak-xohishlarining manbayi qayerda?!” degan savollarga javob izlashga kirishdi. Freyd o‘z fikrlarini asoslash uchun Aristotel, Shopengauer, Gyote, Shekspir kabi o‘nlab adiblarning asarlarini chuqur o‘rgandi, bu asarlardagi inson haqidagi qarashlarga, obrazlarga, adabiy

²¹¹ Умуров Х. Рисолалар.1–жилд. –Т.: “ФАН”. 2007. –Б.12.

majozlarga tayandi. Tabiiyki, adabiyot ham Freydga tayanib inson jumbog‘iga javob topishga urindi”²¹². Darhaqiqat, Freyd inson qalbiga kirib borishga harakat qilar ekan, uning tahlillarida biologik mavjudotni mayllar boshqaradi degan xulosaga keladi. Natijada o‘zini jamiyatdagi sog‘lom va kasal odamlar ruhiyatida kechayotgan depressiyalar, o‘zgarishlar sintezi bilan javob topishga urinadi.

O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasi keyingi o‘n yilliklarda yaratilgan qissalar ichida eng yaxshisi deya e’tirof etildi. O‘zbek adabiyotida qalbining butun tovlanishlarini-yu, mangu iztiroblarining asl mohiyatini O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan keyin bu asarda ko‘ramiz. “Dunyoning ishlari” qissasidagi Ona obrazi bilan Isajon Sultonning “Onaizorim” asaridagi ruhiy olamini qiyoslab tahlil qilsak, masala mohiyati chandon oydinlashadi. “Dunyoning ishlari” qissasida yozuvchi Ona siymosiga shu qadar tiniq ruh bilan kirib boradiki, o‘qigan o‘quvchi xuddi o‘z Onasini bag‘riga bosib, yum-yum yig‘lagisi keladi. Aslida Ona haqidagi barcha go‘zal asarlardagi umumiy dard pafosi o‘quvchilar ko‘nglini birdek o‘ziga jalb qilishining sababi ham mohiyatning bir ma’noni kashf etishga qaratilgani bilan belgilanadi:

“Bolaligimni eslasam, ilk yoz kechalari ko‘z oldimga kelardi. Hovlimizda bir tup bodom bo‘lardi. Erta bahorda qiyg‘os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: “Bodom yolg‘iz bo‘lgani uchun meva qilmaydi”, deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko‘loblatib suv separ, kun bo‘yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo‘shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jim-jit bo‘lib qolar edi.

Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib:

*Oymomoxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subhon allo sizga,
Umr bersin bizga...*

²¹² Эшонкулов Н. Ижод фалсафаси. –Т.: “Академнашр”. 2018. –Б.38.

Shunday deb boshimni silardi. Oymomo esa bu sehrli qo'shig'ini yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi. Toshlar orasiga kirib g'oyib bo'lgan baxtsiz qizcha yig'lab-yig'lab qo'shiq aytardi:

Ochil ochil oq toshlar-a,

Men onamni ko'rayin-a,

Diydoriga to'yayin-a.

– Men osmondan yulduzlarni tanladim. Qarang oyi, Yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz meniki... ”²¹³

Qissaning muqaddimasidan olingan ushbu parcha “Oq oydin kechalar” deb nomlanadi. Yozuvchining avtobiografik ruhdagi kayfiyati – xotirada yana qayta inkishof qilinadi. Oldin bosib o'tilgan bolalik so'qmoqlaridagi unutilmas lahzalar epik qahramonning ko'ngliga tasalli beradi. Aslida ham shunday. Bolalikning rangin va beg'am orzulari insonni buguni va ertasi bilan tutib turuvchi noyob bir xilqatdir. Undagi jami iztiroblari bilan quvonchlari, qayg'ulari shaxsning ruhiy olamida katta bir o'zgarishlar eshigini ochib beradi. Shaxs o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Qaysidir ma'noda baxtsiz bolaligi uning yorug' va omadli kelajagini ham murakkab yo'sinda kamolot pillapoyalariga chiqishga katta zamin hozirlaydi. Qissadagi Ona obrazini gavdalantirar ekan, qisqa muddatdagi Ona va bola suhbatini o'quvchini asar ichkarisidagi keyingi tafsilotlar sinteziga jalb qilishda davom etadi.

Ruhiy tahlilga oid tadqiqotlarga mana bu qaydlar ham misol bo'la oladi: “O'rtacha amerikaliklar ommasi qo'rquv va ojizlik hissi bilan qanchalar to'lib-toshganligini Mikki Maus haqidagi multfilmlarning keng ommalashganligidan ham bilsa bo'ladi. O'zining xilma-xil variantlari bilan bu filmdagi birgina syujet shundan iboratki, qandaydir qudratli kuch kichkina, murg'ak bolani o'ldirish yoki yutish bilan tahdid etadi. Bola qochadi va oxir-oqibat undan qutilib qoladi va hatto dushmaniga qandaydir jarohat ham etkazadi. Agar shu syujet odamlarning eng yaqin emotsional hayotini larzaga solmaganida, har safar turli variatsiyalardagi

²¹³ Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. –Т.: “Ёшлар нашриёт уйи”. 2018. –Б.3-4.

mazkur syujetni takror va takror tomosha qilmas edilar. Bizning davrimizda individ duch kelgan holatni o'tgan asrning uzoqni ko'ruvchi mutafakkirlari oldindan bashorat qilganlar"²¹⁴. Bolalik bu – qaytmas orzular shahri. U beg'amlik bilan shodlikni tuhfa qiluvchi yagona borlik. O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari"dagi Ona borazi bilan Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasida folklor motivi va psixoanalitik tafakkur qahramon intellektini jiddiy sinovdan o'tkazadi. O'.Hoshimov Onaning naqadar ulug'ligini, naqadar muqaddasligini shu darajadaiki, hayotiy misollar bilan "kashf" qiladiki, beixtiyor kitobxon undan bir lahza ayro tasavvur eta olmay qoladi. Qissadagi umumiy pafos og'ushida oylab birga yashashda davom etadi. Yuqoridagi E.Frommning talqini ham xuddi shunday. Bolalik inson psixikasini tartiblashtiradi. Unga yangi mazmun berishi bilan bir qatorda hissiy idrok ta'sirlaridan ham boxabar qiladi. "Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g'oyaviy-ruhiy izlanishlarini o'zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarni adabiyot tomonidan o'zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma'rifiy-muammoviy va badiiy qimmatini, eng avvalo, shunda ko'rinadi".²¹⁵ Binobarin, har bir inson o'z olamining kashfiyotchisi sifatida mutassil izlanib yashaydi. Ayniqsa, bolalikning sohir orzulari uni kelajakka sari tayyorlaydi. O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida Ona obrazining ijtimoiy-ruhiy olami o'zbekona milliy g'ururni har bir murg'ak qalbida azaldan yashab kelayotgan "ong osti tuyg'ulari"mizni qayta uyg'otadi. Bu uyg'oqlik o'z onasining ilk bergan tarbiya-saboqlari yanglig' boshqacha ahamiyat kasb etadi. Asarda ertakka xos, ya'ni folklor motivlar shu qadar ko'p qo'llanilganki, yozuvchi o'sha motivlarni keyinchalik "qayta tiriltiradi". Bu tirilish zamirida juda ko'plab sirlar, bilimlar, tasavvurlar kitobxon ko'zi oldida qaytadan jonlanish beradi. Mana shu o'tkir falsafiy-psixologik idrok I.Sulton qahramonlariga ham ko'chib o'tganligida real mohiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, inson har qanday davrda

²¹⁴ Эрих Фромм. Озодликдан кочиш. –Т.: "Янги аср авлоди". 2021. –Б.164/

²¹⁵ Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.,1988. С 176.

milliy g‘urur va iftixor tushunchasi atrofida yashaydi. Bu ulug‘lik uning botinida go‘zal bir qo‘shiq (ohang)ni jilvalantiradi:

– *Ha ariqcha oqyapsanmi?*

– *Oqyapman.*

– *Bugun ukam o‘lib qoldi.*

– *Oy, nima bo‘ldi?*

– *Bilmadim... Qo‘rqib ketyapman, ariqcha.*

– *Qo‘rqma...*

– *Yaxshi bolacha edi. Qo‘lchalarini o‘ynatib, chug‘urlab yotar edi. Iljayib turib, chuvillatib siyib ham qo‘yar edi.*

– *Ha, ukang yaxshi bola edi.*

– *Onam nima qiladi endi?*

– *Bechoraga qiyin bo‘pti.*

– *Yupataman deb: “Onajon, xafa bo‘lmang, yana bitta ukacha tug‘ib olasiz”,*
– *desam, rosa yig‘ladi.*

– *Endi sen unga mador bo‘l, xini chalg‘it.*

– *Otam-chi?*

– *Otang nima qilyapti?*

– *U ham yig‘layapti. Ammo onamga o‘xshab emas. Tomorqalarni aylanib yuradi-da, keyin boshini daraxtlarga, guvalak devorlarga urib-urib yig‘laydi”²¹⁶.*

Qissadan keltirilgan dialogik nutqda Ra‘no va uning sirdosh do‘sti ariqcha haqida so‘z boradi. Syujetning folklor tasviri negizida yozuvchi Ra‘noning bolalik damlarini shunday tasvirlar bilan boyitib, qizchanning nihoyatda beozor, mehnatkash, tabiat va odamlar bilan munosabatida samimiy bo‘lib voyaga yetganini ich-ichidan turib tasvirlaydi. Ariqcha – bu umr. Oqar suv – hayot. Ra‘no shunday tez voyaga yetadiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi qizlar obrazini yodimizga soladi. Dostonona epik kayfiyat mahsuli Ra‘no timsolida mujassamlashadi. Qahramonning ba‘zan shod, ba‘zan g‘am-qayg‘udan boshi chiqmay hayotga, katta umr so‘qmoqlariga tayyorlanib borishi o‘quvchini diqqatini

²¹⁶ Исажон Султон. Онаизорим. –Т.: “Шарк”. 2015. –Б.17.

o'ziga jalb qilmay qo'yamaydi. Mana shu munosabatli nutq yaxshi oilaning farzandi ham yaxshi bo'lib ulg'ayishini to'laqonli idroklaydi. Ra'noning onasi ham xuddi O'.Hoshim qissasi qahramoni kabi iztirobgo'y va bolajon bo'lib gavdalanadi. Tasvirlardagi bolalik va ulg'ayish orasida kechadigan tafsilotlar yig'indisi qissa poetikasida psixologik tasvir elementlarini quyuqlashtiradi. "Dunyoning ishlari" qissasida Ona obrazi nihoyatda mukammal bo'lib ko'z o'ngimizda gavdalansa-da, yozuvchi ko'proq o'z shaxsiy tuyg'ularini matn qa'riga singdirib yuborganini sezamiz. Har qanday voqelik asar hikoyachisi-roviy obrazi bilan uyg'unlik kasb etib, o'ziga xos psixologik kartinani namoyish qiladi.

Yozuvchi Jon Golsuorsining ushbu mulohazalari diqqatga sazovordir: "Insoniyat bag'oyat g'alati, uqubatli davrni boshidan kechiryapti. Bizga o'tmishdagi eng qo'rqinchli davrlarda ham ko'rinmagan juda dahshatli va o'ta ayovsiz xavf tahdid solib turibti. Ammo shunga qaramay, g'ayrishuuriy tarzda insoniylikka intilish jihatidan, odamlarga tengsiz azob-uqubatlar keltiradigan illatlar va kulfatlarni tag-tomiri bilan yulib tashlashga bo'lgan samimiy ishtiyoqi jihatidan bizning asrimizga teng keladigan boshqa biron asrni topib bo'lmaydi. Biz har qachon bo'lganidan ko'ra ortiqroq darajada bilim, iqtidor va insonparvarlik bilan xastaliklarni davolamoqdamiz, garchi o'zimiz xohlaganCHA yetarli darajada bo'lmasa hamki, jinoyatchilarga va jonivorlarga ilmiy asosda, adolat yuzasidan, mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lmoqdamiz, biz har qachongidan ham ortiqroq darajada ijtimoiy va iqtisodiy illatlardan xalos bo'lish yo'lida tashvish chekmoqdamiz."²¹⁷ Darhaqiqat, Jon Golsuorsining ushbu bitiklari kunimizda bo'layotgan voqea-hodisalarni teran mushohada qilish imkonini beradi. Jahonning ilg'or adabiy-madaniy hayotida insonshunoslik borasida qator tadqiqotlar, qissalar, romanlar yozilgan bo'lsa-da, hali o'z yechimiga yetib kelgani yo'q. Tinchlik bugun suv va havodek zarur. Bugunning yozuvchilari bugunda turib – o'tmishni ta'riflamoqda. O'tmishning sarqiti – sobiq ittifoq davridan qolgan monopolistik dunyoqarash "Onaizorim"ning dunyoga kelishiga zamin yaratdi. Davrning ochiq ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, paxta yakkahokimligining chirkin sarqitlari

²¹⁷ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Т.: "Маънавият". 2010. –Б.79.

istiqlolning dastlabki yillarida odamlarimizni ruhan, ma'nan va jismonan mayib-majruh bo'lib kamol topishida ham sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shuning barobarida odamlar o'z olamini to'g'ri anglay olmay, "nima uchun yashayotganini" bilmasdan ham o'tib ketishdi. Sobiq ittifoq parchalangandan keyin o'z taqdirini o'zi belgilab, o'z hayot yo'lini o'zi tashkil qilishda ham ko'plab xatolarga yo'l qo'yishdi. Mana shu jihatlar bugungi kun qissalaridagi obrazining alamli va og'riqli ruhiyatini to'laqonli gavdalantirish imkonini berishga zamin yaratdi.

O'.Hoshimovning asarida "Surat" nomli bobida quyidagi tasvir o'quvchini juda hayratga soladi:

"Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim. Onam odatdagidek qistardi:

– O'tirchang-chi, bolam. Bir pas o'tirgin.

– Bo'ldi ketdim.

– Shoshma bolam. – Onam ko'zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mung bilan termuldi: – Gap bor.

– Tipirchilab soatga qaradim: hali benzin olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o'tish kerak...

– Nima edi?

Onam ko'zimga hamon ma'yus termulib o'tirardi.

– Suratga tushaylik, – dedi to'satdan.

Ajablandim.

– Nega?

– Yaqinda men o'laman...

Onam xuddi bu gapni "Qo'shninikiga chiqib kelaman", degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim.

– Qo'ysangiz-chi oyi. Shunday dedim-da, chiqib ketdim.

Oradan ikki hafta o'tdi-yu... Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman: sen nomard, sen axmoq nimaga o'shanda kuldung? Suratga tushishga vaqt yo'qmidi? Kerak bo'lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida,

*bog'da, ko'chada... Nima sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana. Bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q!*²¹⁸

Bu qissada o'g'lining monologik o'z-o'zini tergashlari, vaqtda ko'rsata olmagan mehr-muhabbati kabi bir iltimosini bajo keltira olmagan, keyinchalik bu armon bo'lib qolgan iztiroblari talqin qilinadi. Bir kam dunyoning g'avg'olari orasida qahramon Ona sog'inchini xotiralarida qayta tiriltiradi. So'nggi pushaymon o'ziga dushman ekanligini anglab yetganidan hech qanday foyda yo'qligini o'z-o'zini tergov qilish bilan kifoyalanadi. "Onaizorim"da esa Ra'noning balog'otga yetib, o'z ona uyidan ajralib, o'zga bir uyga kelin bo'lib tushganidan keyingi ijtimoiy hayoti, yo'qotishlari-yu, topishlari, qaynota-qaynonasidan eshitgan tanbehleri mungli bir tarzda hikoya qilinadi. Qissa o'zbek adabiyotining tarixiy rivojlanish jarayonida yozuvchilar tomonidan eng ko'p qo'l urilgan janrlardan biri bo'lib kelmoqda. "Tadqiqotlarda aytilganidek, qissa davr talablariga javob berish barobarida ma'rifiy-tahliliy sifatlarni o'zida jamlash va janr tizimi tarkibidagi turli-tuman munosabatlar: voqealar bayonidagi qat'iy aniqlik va hujjatlilikka intilish, inson tasvirida roman va hatto epopeya amalga oshiradigan vazifalarni ham zimmasiga olmoqda. Mohir so'z san'atkori qo'lida qissa o'ziga xos, mustaqil, original darajada mazmundor va murakkab tarkibli, ammo o'z tabiatiga sodiq – kitobxonni hikoya qilinayotgan voqeaning chinligiga ishontirish barobarida insonni bilish, anglash, anglatish odatini ham tark etgani yo'q"²¹⁹. Darhaqiqat, XX asrning ibtidosidan to shu choqqacha bosib o'tilgan "izlanishlar" yo'lida qissa poetik jihatdan ancha baquvvatlashdi. Isajon Sultonning "Munojot" qissasidagi G'arib obrazining yetakchi g'oyasi ham Ona siymosini o'ziga xos tarzda gavdalantirish, "Onaizorim"da Ra'no timsolida yanada boyitish nazarda tutilgan. Har ikki qissadagi Ona bittadir! Yozuvchi qissadagi voqelikni Farg'onaning rishton tumani Avazboy qishlog'idagi Ota uyida kechgan lahzalarni qayta talqin qilish, uni badiiyat maromida idroklash bilan to'yintiradi. Qissalar ham essselashuv

²¹⁸ Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. –Т.: "Ёшлар нашриёти уйи". 2018. –Б.28.

²¹⁹ Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадий психологим. Филол.фан.дисс. –Т.: 2012. –Б.30-31.

jarayonini boshidan kechirayotgani tahsinga sazovordir. Negaki, “Dunyoning ishlari” qissasidagi voqelikning bosh qahramoni O‘tkir Hoshimovning o‘zi. Qahramonning yozuvchiligi, olimligi, ziyoliligi hammasi qanday yuzaga keldi. Muhit va davr, odamlar, oila, aka-uka munosabati bosh qahramon sajiyasini to‘ldiruvchi personajlar hisoblanadi. Demak, har qanday voqelik (g‘oya)ni badiiy syujetga aylantirish uchun yozuvchidagi badiiy tafakkur salmog‘i ham shunga mos bo‘lishi lozim ekanligi ayonlashadi.

Professor D.Quronov bu haqda shunday yozadi: “Badiiy asarni GAPga qiyoslaganda ayon bo‘ldiki, muayyan nutqiy situatsiyada aytilgan gap fenomenal hodisa bo‘lganidek, muayyan sharoitda yaratilgan asar ham betakror hodisadir. Zero, har ikkisini yuzaga keltirgan obyektiv va subyektiv omillarning o‘zi betakror (konkret nutqiy sharoit, so‘zlovchining ruhiy holati)dirki, shunga ko‘ra “Bir daryoga ikki bora sho‘ng‘ib bo‘lmaydi” degan qoida bu o‘rinda to‘la amal qiladi. Modomiki badiiy asarda ijodiy jarayon aks etar ekan, o‘sha ijodiy jarayon kechgan konkret sharoit va shu sharoitdagi ijodkor subyektini uning tuzilishiga ta‘sir qilmasligi mumkin emas. Demak, konkret asarning poetik xususiyatlari haqida fikr yuritganda uni yuzaga keltirgan obyektiv va subyektiv omillarni nazardan qochirmaslik lozim bo‘ladi”.²²⁰ Haqiqatdan ham, yozuvchi ijod qilish jarayonida vaqtni, muhitni, vaziyatni, holatni, jamiki turmush maishiy hayotini ham diqqat markazidan sira bee’tibor qoldirmaydi. Chunki insonning istak-mayllari o‘zgaruvchandir. Sobiq ittifoq davrida yaratilgan ko‘pgina qissalarda o‘sha davrning manzarasini, unda ham asosiy jihat, “ijobiy va salbiy” qahramonlarni ajratib, ko‘z o‘ngimizda gavdalantirishi lozim bo‘lgan. Shunday ekan, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida ikkinchi jahon urushidan keyingi “ilmiliq” kunlar manzarasi ko‘proq davr nafasini berish aks ettirilsa, I.Sultonning “Onaizorim” qissasida o‘sha davrdan qolgan asorat – xastalik (paxta yakkahokimligi)ning keyingi avlod boshiga solgan tashvishlari hikoya qilinadi. Masalan, Ra’no obrazini olaylik. Ra’no obrazi yashagan makon va zamonning aniq chegarasi yo‘q. U bir o‘zbek xalqining jabrdiydasi. Nega qissada “*Ariqcha*

²²⁰ Кронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: “Шарк”. 2004. –Б.130.

oqayapsanmi?” deya yozuvchi bot-bot Ra’noni suv bo‘yidagi o‘simliklar, qushlar-u mayda hashorotlar bilan gaplashtirishga chorlayveradi. Bu tasvir usuli folklorda mavjud. Sehrli-maishiy ertaklardagi Zumradga butun o‘rmon qushlari hamrohlik qilgani, gullarning egilib salom berishlari, daraxtlarning soya tashlashlari barchasida qahramonga xizmat qildiriladi. I.Sulton “Onaizorim”da Ra’no timsolida poetik talqin va ruhiy idrok masalasi shu mantiq chegarasida evrilsa, O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida Ona obrazi atrofida uyushadi. I.Sultonning “Onaizorim”i yaratilgan davr bilan O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” yozilgan vaqt orasida qirq yil mavjud. Bu qirq yillik ijodiy tajriba yozuvchi fenomenida alohida bir sahifani tashkil qilgani fikrimiz yorqin dalilidir:

“– Oy qizim, er ishiga doim xotinlar qarab kelishgan, – dedi. – Hamma ishni otang qilaversa, charchab qoladi-ku? Birlikda baraka bor, deyishadi. O‘sha-chun kuch-quvvat kerak bo‘ladigan ishlarga otang, maydalariga sen bilan men qaraymiz. Otang saharlab uydan chiqib ketib kechgacha mehnat qiladi, shom mahali horib-charchab qaytadi, shu ishlarni bajarib qo‘ysak, xursand bo‘ladi. Jonim qizim, buni ro‘zg‘or deydilar. Hamma baravariga urinib-tirishmasa, ro‘zg‘or bo‘larmidi? Qara, ekkani yerlarimiz saronjom-sarishta, hovlimiz top-toza. Ozigina bo‘sh yer qolgan bo‘lsa, darrov gul-u rayhon qadab qo‘yamiz. Oqila shunaqa bo‘ladi, qizim. Hali katta bo‘lgin, o‘zingning ro‘zg‘oring bo‘ladi, o‘shanda sen ham shunaqa qilasan.

– Ha, shunaqa qilaman, – dedi Ra’no, ishonch bilan. Ona qizini bag‘riga bosib, o‘pib-o‘pib oldi.

Behi ostidagi ariqcha hanuz jildirab, sho‘x-shan oqar edi. Tegrasidagi o‘tlar baland o‘sibdi, ajriqlar uchta yoki to‘rtta ko‘kish gul ochibdi, kurmaklar esa gullamabdi, pechaklar oppoq, mayda, bangidevona to‘q naparmon hoshiyali katta karnaysimon gul yozibdi. Yana allaqancha otini bilmaydigan o‘tlar ham bor ekan, suv to‘la turli o‘tlarning urug‘i edi’²²¹.

Ushbu manzarada Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasidagi Ona va Qiz o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qisqa muloqot aks etadi. Yozuvchi Ra’noni psixologik

²²¹ Кўрсатилган адабиёт: И.Султон. –Б.23.

jihattan katta hayotga tayyorlanib kelayotgani, uni ham kelajakda og‘ir mehnatlar kutib turganiga ishora tarzida keltiriladi. Masalan, Onaning qiziga aytgan birgina jumlasini: *“Hali katta bo‘lgini, o‘zingni ro‘zg‘oring bo‘ladi, o‘shanda sen ham shunaqa qilasan”* deganida syujetning qolgan ruhiy holatiga yetaklovchi *“ishora”*lar o‘z ifodasini topgan. Bu Ra‘noning yoshlik yillari, aniqrog‘i bolaligida bo‘lib o‘tgan voqelik bo‘lsa, demak, 80-yillar boshida ro‘y berdi, deb hisoblaymiz. Ayniqsa, paxta siyosatining avj pallalariga chiqqan davrlarga borib tutashadi. Buning natijasida xalq xo‘jaligida odamlar og‘ir mehnati, hatto bola-chaqasi bilan tun-u kun daladan chiqmasligi, ko‘z ochib ko‘rgani dala ekanligi ayonlashadi. Shunday qaltis vaziyatda inson ruhiyatidagi o‘shish-o‘zgarishlar, hayotning achchiq sinovlari har qanday insonning-millatning qaddini bukib qo‘yishi hech gap emas. Ayollarning daladan chiqmasdan hayot kechirishi, ularning kelajakdagi ahvol-ruhiyasini to‘laqonli ko‘z o‘ngimizda gavdalantirib turibdi.

“Badiiy xarakter – bu individual belgilarni ham o‘z ichiga olgan holda ma‘lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo‘lgan, ijtimoiy ma‘no kasb qilgan shaxs iroda yo‘nalishi va bu iroda yo‘nalishining asardagi badiiy ifodasidan iboratdir. Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g‘oyaviy negizini ta‘min etadi...”²²². Binobarin, Akademik M.Qo‘shjonov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, I.Sultonning *“Onaizorim”* qissasidagi qahramonlar ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqanligi sezilib turibdi. Asarda yozuvchining avtobiografik talqinlari ham matn tarkibiga singib ketgan. Ba‘zan yozuvchi o‘z munosabatini bildirib, personajlar hayotini oldindan *“yashirib”* o‘tirmasdan, *“shunday bo‘ladi”* tarzida ifodalab yuboradi. Mana shu yerda maishiy muammoning ildizi ko‘rinib qoladi. Aslida, yozuvchi bunday vaziyatlarda *“o‘rab”* so‘z aytishi lozim. Bir tomonda, *“Ariqcha oqayapsanmi?”*, deb ta‘kidlasa, buni o‘tayotgan umrning g‘animat ekanligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan *“Ha, oqayapman”* deb Ra‘noga javob berishi psixologik vaziyatni barqarorlashtiradi. Ba‘zi o‘rinlarda syujet voqeligida Ona va Qiz orasida kechayotgan muloqotni

²²² Қўошжонов М. Ойбек маҳорати. –Т.: 1965. –Б.5-6.

to'g'ridan to'g'ri tasdiqlab yuborish holatlari kuzatiladi. Bular qissaning badiiy qiymatiga putur yetkazishga olib kelgan degan xulosa kelib chiqishi tayin.

“Yana shuni ta'kidlash lozimki, xarakter va uning ichki plani va programmasini belgilovchi psixikasini bir butunlikni, yaxlit bir organizmni tashkil etadi. Psixik hodisalar faoliyatining boshqaruvchisidir... xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligi va to'laqonliligini ta'minlaydi, uni reallashtiradi, ta'sirchanligini oshiradi. Shu sabab, agar analogik fikrlaydigan bo'lsak, xarakter va uning psixikasi o'rtasidagi munosabatni mazmun va forma o'rtasidagi dialektik aloqaga o'xshatmoq zarur”²²³. Darhaqiqat, I.Sultonning “Onaizorim” qissasida Ra'noning ruhiy olami va uning iztiroblari ikki jihatda qabarib ko'rinadi: birinchidan, Ra'no yoshlikdan qo'li mehnatda qotgan oqila qiz bo'lib voyaga etadi, ikkinchidan, uning qaynona va qaynotasidan chekkan jabr-u zulmlari irodasini va qaddini bukib, hayotning achchiq qismati deb atalmish vodiya uloqtirib yuboradi. Hatto tug'ilgan chaqalog'ini paxta egati oldida emizib katta qilgan lahzalarni eslaganingizda o'quvchi tabiiy ko'ziga yosh oladi. Buni O'zbekistondagi butun onalar boshidan o'tkazgan desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

“Onaizorim” qissasini janr talablaridan kelib chiqib falsafiy-psixologik qissa deyishimiz mumkin. Qissada talqin va tasvir idrokiga qarab biografik metod ham aralash holda zuhur etilishi ayni haqiqatdir:

“Boqqa kirsam, bir olma rosa qizarib pishibdi. – dedi ona kulib. – Bozorga olib chiqib sotib yubora qolsammikin?”

Haqiqatdan ham bog'ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg'ish, boshqa tarafi och-yashil bo'lib etilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar, shirin isiyam gurkirab turardi.

Ra'no endi aytilgan gapning tagida boshqa gap bo'lishini bilib olgan edi.

– Sotib nima qilasiz, – dedi g'ashi kelib. – Zarari tegyaptimi, bechoraning?”

– Voy, nimaga zarari tegar ekan? – dedi ona. – Meva yetilsa uzib egasiga berasan-da! Yerga to'p etib tushsunmi bo'lmasa?”

²²³ Умуров Х. Рисолалар. 1-жилд. –Т.: “ФАН”. 2007. –Б.23.

– *Tushsa tushaversin, – dedi Ra’no zarda qilib.*

– *Qo’yarmidim? – deb kuldi ona. – Xalqning ko’ziga katta to’y qilamiz hali.*

– *Xalqingiz bilan nima ishim bor? – deya lab burdi Ra’no*²²⁴.

Ona va Qizning qisqagina muloqoti syujet vaqtini tezlashtiradi. Ya’ni Ra’noning bo’yi yetilib. Sovchilar surishtirib kelmoqdaligidan dalolat bermoqda. Qiz ham o’zini kattayib qolgandek his etarkan, avvalgi bola tasavvurdan asar ham sezilmaydi. Yozuvchi qissaning uchinchi qismida psixologik kartinani jadallashtiradi. Tabiatning o’sish-o’zgarishi kabi Ra’noni ham o’zga uyga uzatishga tayyorligini anglatuvchi ishoralarni talqin qiladi. Biroq Ra’no esa o’zini hali mustaqil hayotga tayyor deb, hisoblamaydi. Aksincha, kunora ariq bo’yiga chiqib, eski “qadrdonlari” bilan uzundan uzun suhbat qurishni go’zal ish deb biladi. Qissadagi voqelik bir oila timsolida gavdalantirar ekan, yozuvchi poetik maqsadni ikki davr hayotini muqoyasa qilish orqali ochib beradi. Shu ma’noda, insonning istak-mayllari, nasl-nasabi, mental xarakterlari, yashash tarzi, e’tiqodi, dini va qator masalalar syujetda folklor motivlari singari yuzaga chiqadi. Onaning kuyunchakligi, farzandi uchun “o’lib-tirilishi “otaning pand-nasihatlari” yuqoridagi mulohazalarimizni to’laqonli tasdiqlaydi.

“Badiiyat talablari deganda biz shuni nazarda tutamizki, asar g’oyasini chuqur yoritish uchun talab qilingan barcha voqealar, fikrlar, tuyg’ular, kuzatishlar, tafsilotlar bir nuqtaga yig’ilib berilishi kerak... Hayot taraqqiyoti taqozosi deganda shuni anglaymizki, asar voqealarining ishtirokchilari qilib olingan shaxslar ham, kitobxonlar ham shiddatli, jonli, real tuyg’ular, kechinmalar, haqqoniy mulohazalar dunyosida yashaydi, kurashadi”²²⁵. Binobarin, badiiyat talabini hayotning o’zidek qilib yozish, uning ikir-chikirlarigacha to’laqonli tasvirlash, qahramonlarning maqsad-muddaosi ham, orzulari, intilishlari ham, yelkasiga yuklangan insoniy vazifasi ham bir-birini yaxlitlashuviga xizmat qilishi tayin. Shundagina yozuvchi ijodiy konsepsiyasidagi ko’zlangan maqsadga erishish mumkin. O’Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida ko’proq bayon-ifoda va tasdiq formulasi ko’zga

²²⁴ Кўрсатилган адабиёт: И.Султон. –Б.36.

²²⁵ Худойбергенов Н. Парвоз давом этади. Тошкент. Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. – Б.134-135.

tashlanadi. Shunday bo'lsa-da, Onaizorning "o'g'illarim" deb yonishlari, kuyinishlari o'quvchi ruhiyatini bezovtalaydi:

"Onam aytganidek, o'sha kunlar unut bo'ldi. Turmush iziga tushib ketdi. Kunlardan birida oppoqqina, do'mboqqina notanish bir xotin bir narsadan qo'rqqandek hurkib darvozadan kirib keldi. Oyim aylanib-o'rgilib unga peshvoz chiqdi. Notanish xotin oyim bilan ko'risha turib hiqillab yig'lab yubordi.

– Kuyovingiz yana urdi – dedi sekin. Uning chap yuzini momataloq bo'lib ketganini endi ko'rdim.

– Kunora uradi. "Qisir sigirsan", deydi. Bo'yimda bo'lmasa nima qilay, opajon. "Seni ming taloq qilib onasi o'pmagan qizni olaman", deydi. – Notanish xotin ho'ng-ho'ng yig'lar, o'pkasini tutib ololmasdi. "Seni deb odamlarga yomon ko'rindim" deydi. Nimani qoyil qilipti? Topganini ichadi? Kecha mast bo'lib sizni gapirdi. "Shuyam qarg'agan edi", deydi. Mahallaga qo'shilolmasam, birovga hasratimni ayto'lmasam. Burchak jinnisi bo'lib o'tiribman. Kimga dardimni aytsam kuladi. Ta'nadan boshim chiqmay qoldi opajon.

Bu – Dalavoyning xotini ekanini endi tushundim. Hayron bo'lib goh onamga, goh Dalavoyning xotiniga qarab turardim"²²⁶.

"Dunyoning ishlari" qissasidagi "Pistachi" bobida Dalavoy nalugchi haqida batafsil yoritiladi. Mana shu keltirilgan lavha ham o'sha faslda keltirilgan. Yer va mol-mulk solig'i deb, davlatni yomonotliq ko'rsatib, o'zining nafsi yo'lida har qanday "qing'ir" ishni qilishdan toymaydigan qahramonni fosh qiladi. Bu nusxa hammani hayotiga aralashib, zulmning orqasidan kun ko'ruvchi – tekintomoq obrazi sifatida gavdalanadi. Aslida u bozor oldida pista va qurt sotuvchi bo'lib, bir amallab xalqning xaloskori bo'lish istagida o'zining "qabih" ishlarini amalga oshira boradi. Bu oxir-oqibat o'zini xorlik sari yetaklaydi. Natijada ko'p oilalar bu nusxadan jabr ko'radi: kimi molidan, kimi buyumidan ajraladi. Yozuvchi bunday obrazlarni qissada bolalik xotiralarining puchmoqlarida yashayotganini idroklar ekan, Onaizorining azob-uqubat tortganlarini ko'rsatishga, achchiq-alam bilan

²²⁶ Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. –Т.: "Янги нашриёт уйи". 2018. Б.182-183.

eslaydi. Qissada bunday tafsilotlar maishiy turmush oqovalarida sarson-sargardon kezayotgan personajlar qiyofasida ham real mohiyat kasb etadi.

“Ayol bo‘lmasa, adabiyot bo‘lmas edi. Adabiyot, avvalo, ayolga atab, uning uchun, uning ko‘nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o‘zi – shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. O‘z san’ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzusidir.

Ilgarigi ko‘p asardarda kishi shaxs, ya’ni o‘z ichki olamiga ega bo‘lgan odam sifatida teran ochilgan emas. Hatto o‘z davrida obrazining xiyla mukammal bir namunasi bo‘lgan Ofeliya (Shekspir “Hamlet”i) ham, garchi sevgan va sevilgan bo‘lsa-da, zamona. Muhit an’analari iskanjasida bo‘g‘ilgan pokiza bir qiz, ko‘ngil sirlarini tomoshabinlar oldida, hissiyot to‘la monologlar bilan teran ifodalasa-da, hali mustaqil shaxs emas (mustaqil shaxs obrazi deganda hukmdorlar tasviri emas, balki bu obrazni yaratishdagi psixologik tahlil teranligi ko‘zda tutiladi)²²⁷ – deya yozadi. Munaqqid Z.Isomiddinov. Munaqqid juda to‘g‘ri talqin qilgan. Haqiqatdan ham, kishi badiiy asarda ko‘p qo‘llanilgan, ko‘p tasvirlangan, ko‘p madh etilgan obrazdir. Xoh u she’riy, xoh nasriy, xoh dramatik bo‘lsin, ayolning latofati, mehnatkashligi, jasorati, go‘zalligi, muhabbati qarshisida qahramon-shahzodalar boshini xam qilib. Taslim bo‘lganliklari bor gap. XX asrning 60-yillaridagi qissalarning aksariyati ayolni madh etishga, ularning go‘zalligini kashf etishga qaratilgan. O‘.Umarbekovning “Sevgim, sevgilim”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, Sh.Xolmirzayevning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” qissalarida ayni shu ayol siymosi ishonarli va turli xil kechmishlar, maishiy-ijtimoiy mavzular negizida talqin qilingan. Bularning mohiyatida – o‘zbek xalqining jafokash ayollariga haykal qo‘yilgan. Isajon Sulton o‘sha davrning ikkinchi hayotga aylanib borayotgan (muhit va davr manzarasi) paytlarini quyidagi shaklda idroklaydi:

“– Ariqcha, oqayapsanmi?”

– Ha, qizgina, oqyapman.

²²⁷ Ишомиддинов З. Икки . –Т.: Турон-Иқбол. 2011. –Б.374-375.

– *Otam erga beraman deyapti, nima qilsam ekan?*

– *Hammaning boshida bor bir qismat-da, ko'nmay qayga borarding?*

– *Qaydam... Qanday odam ekan, qanaqa xonadon bo'lar ekan, o'ylab o'yimga etolmayapman.*

– *Tashvish qilma, Xudo senday qizni yaratadi-yu baxtingni bermaydimi? Xudo xohlasa, ajoyib hayot kechirasan, bir etak bolalaring ham bo'ladi*"²²⁸

Qissadan olingan mana shu lavhada yozuvchi roviy nutqini qo'llaydi. Ra'noning o'ziga xos tarzda har doimgidek – dugonasi bo'lib qolgan "ariqcha" bilan muloqoti polifonik nutq tabiatini uyg'unlashtiradi. Negaki, qissa qahramoni bolaligidan, ya'ni esini taniganidan buyon ariqcha bilan muloqot qiladi. O'sha sohr bolalikni orqada qoldirib, oqayotgan ariqcha – umrdir. Bu umr Ra'noning o'zi. Ulg'ayish, hayotni anglash, past-u balandlariga, og'riqlariga, iztiroblariga va qayg'ulariga bardosh berishga tayyorlash maqsadida yozuvchi mana shu usuldan unumli foydalangan. Folklor motivi qissaga o'zgacha shukuh bag'ishlab, ijodkorning badiiy psixologizmni teranroq kashf qilishiga zamin hozirlay olgan. Darvoqe, "zamonaviy adabiyotda badiiy komponentlarning modifikatsiyaga uchrashi bevosita qandaydir badiiy an'analar bilan bog'liq. Zamonaviy estetik talab va ehtiyojlar, muallif laboratoriyasi, g'oyaviy maqsadiga ko'ra modifikatsiya xilma-xil komponentlar kesimida namoyon bo'lishi yoki bu jarayon ko'lamdor tarzda yuzaga chiqishi, bir emas, bir nechta badiiy komponentlar doirasida yuz berishi, natijada janr modifikatsiyasidek ko'lamdor hodisalar maydonga chiqishi mumkin"²²⁹. Darhaqiqat, badiiy psixologizm yozuvchi dunyoqarashining in'ikosi. Unda syujet ham, kompozitsiya ham maromiga yetadi. Ijodiy konsepsiya turli xil burilishlar, o'zgarshilar negizida yanada tiniqlashadi. Badiiy psixologizmning shartli refleksi yuzaga keladi. Aynan shu munosabatli nutq – personajalar ruhiyatidagi keskin ziddiyatlarni yagona estetik markazda uyushtira olish qobiliyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Mashhur psixoanalitik Erix Fromm XX asr insoniyat taqdirida muhim va hal qiluvchi misli ko'rilmagan kashfiyotlarni

²²⁸ Kўрсатилган адабиёт: И.Султон. –Б.41.

²²⁹ Султонова Н. Исажон Султон романларида бадий компонентлар модификацияси. Фил.фалсафа.доктори (PhD) дисс.яси. –Қарши. 2020. –Б.43.

boshidan o'tkazayotgani haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Aqlli inson hayratlanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shu gap rost bo'lsa, hozirgi zamon odamining aqliy holatiga achinsa bo'ladi. Yuksak darajada ma'lumotli va bilimli bo'lishimizga qaramasdan, Xudo bergan bu ne'matni – hayratlanish qobiliyatini yo'qotib qo'ydik. Go'yo hamma narsa ma'lum, biz bilmagan narsalarni esa ayrim mutaxassislar bilishi shart. Haqiqatdan ham hayratlanish noqulaylik tug'diradi. Atrofdagilar bunday odamni aql-idroki past deb o'ylaydilar. Hatto bolalar ham kamroq hayratga tushishadi, hech bo'lmaganda, buni namoyish qilgisi kelmaydi, vaqt o'tgani sari esa bunday qobiliyat yo'qola boradi"²³⁰. Erix Fromm XX asrda insoniyatni o'rab turgan dahshatli ruhiy "kechinma"lar o'z ravishini ko'rsatishini idroklar ekan, insonni muhit o'zgartirishiga olib keladi. Jumladan, sobiq ittifoq yakkahokimligi davrida – monopoliya, byurokratik tizim ko'plab sohalarni izdan chiqardi. Xalq xo'jaligidan boshqa narsani bilmaydigan olomonchilik kayfiyati "siquq bir muhit"da ushlab turildi. Buning og'riqli manzaralari yuqorida tahlil qilingan qissalar timsolida ham ayonlashadi. Garchi I.Sulton qissasi yaqin yillarda yozilgan bo'lsa-da, asl yozuvchining asl g'oyasi ancha ilgari bezovta qilib kelayotgan voqelik sifatida namoyon bo'ladi.

Bob bo'yicha xulosa

Noan'anaviy qissalarda yozuvchi konsepsiyasi va badiiy xronotopning zuhur etilishi haqida olib borgan nazariy-ilmiiy mulohazalarimizni umumlashtirib quyidagi xulosaga keldik:

1. Badiiy xronotop U.Hamdami ijodida tafakkur va aql idrok zamzamalaridan oziqlanadi. Uning qahramonlari hayot haqiqatini ba'zi hollarda mensimaslik darajasida kibrli. Bunday hodisa insonning Shaytoniy fazilatlarini bosim ekanligini dalolatlaydi. Chunonchi "Yolg'izlik"dagi daftar o'qiyotgan qahramon (daraxtlar shovullashining) tun va kun almashinuvining mezonini yodidan chiqaradi. Dunyo aslida, bir yurib ketiladigan yo'l bo'lgani bilan, hayotning ba'zi anglashilmovchiklari o'z-o'zidan ayonlashadi. Ana shu jabhada qahramon

²³⁰ Эрих Фромм. Инсон қалби. –Т: "Ўзбекистон". 2016. –Б.38.

ikkilanishlari sodir bo'lgan. Yozuvchi bor kuchi va idroki bilan o'zligini namoyon qilishga erishgan, ammo, bu tushuncha keyinchalik sinovga yo'g'g'ila boshlangan.

2. Ijodiy konsepsiya tig'izligida badiiy xronop o'z-o'zidan ravshanlasha boradi. Shuni qayd etish joizki, Ijodkor har qanday sharoitda xoh u vaqtni va makonni tasvirlamasin, kompozitsion ustqurma mezonlariga ham qarashi lozim bo'ladi. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi davr noan'anaviy qissalarida hayot haqiqatining rangin jilvalari aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

3. O'zbek noan'anaviy qissalarida G'arb badiiy tafakkuri sintezining roli haqida so'z borganda hayotning turli xil paradigmalari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Birinchi jahon urushini o'z ko'zlari bilan ko'rgan va undan tayinli xulosalar chiqargan G'arb odamlari Sharq xalqlariga qaraganda hayotga pragmatik yondashuvni, "vaqt bu - pul" degan tamoyil asosida hayot kechirishni birlamchi deb bildilar. Mana shu jarayonda insonning aqliy kapitali hamisha g'olib kelib, jamiyatni tez sur'atlarda rivojlanib ketishga olib keldi. Ana shu mezon keyingi yillar noan'anaviy qissalar estetikasida yagona bir bosqich yuzaga kelganligini taqozo etdi. Umuman olganda, hozirgi o'zbek noan'anaviy qissachiligida badiiy uslub, janr va xronotop uyg'unligi ijodkor fitratining evolyutsion intilishlarning mahsuli ekanligi ayonlashdi.

UMUMIY XULOSA

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Noan'anaviy qissalar zamonaviy adabiy jarayonning dinamik va o'zgaruvchan sohalaridan biri sifatida, globalizatsiya va madaniy xilma-xillik sharoitida, yangi hikoya qilish usullari va shakllarini taklif qilmoqda. Mazkur janr tasavvur, mifologiya va absurd elementlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yozuvchilarga an'anaviy realizm chegaralaridan chiqish va badiiy ifodaning yangi ufqlarini ochish imkonini beradi.

2. Zamonaviy mualliflar fantaziya, surrealizm va postmodernizm uslublaridan foydalangan holda insoniy mavjudlik, ijtimoiy tuzilma va falsafiy tushunchalar haqida chuqur mulohaza yuritishga undovchi asarlar yaratmoqda. Ushbu asarlar o'quvchilar uchun muqobil voqelik va dunyoni idrok qilishning turli usullarini o'rganishga imkon yaratib, adabiyotshunoslar hamda keng jamoatchilik uchun qadrli bo'lmoqda.

3. Noan'anaviy qissalar giperbolizatsiya, paradoks va simvolizm kabi stilistik vositalar bilan ajralib turadi. Bu uslublar orqali mualliflar noyob badiiy dunyo yaratib, nostandart hikoya tuzilmalari orqali murakkab falsafiy g'oyalarni ifodalashga muvaffaq bo'ladi. Janrning ko'p qatlamli va dinamik xususiyatlari fantaziya, tasavvuf va absurd unsurlarining o'zaro uyg'unligida aks etadi.

4. Noan'anaviy qissalardagi xronotop an'anaviy idrok chegaralarini kengaytirib, vaqt va makonning yangi konsepsiyalarini kashf etishga imkon yaratadi. Ushbu asarlar o'quvchilarga haqiqat va san'at haqidagi odatiy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqish uchun yangi estetik va hissiy tajribalarni taklif etadi.

5. Tanlangan asarlar tahlili ularning insonning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular insonning ichki nizolari va tajribalari haqida yangi tushuncha va hal qilish usullarini taqdim etadi.

6. Noan'anaviy qissalarda syujet va kompozitsion yaxlitlik chet ellik adabiyotshunoslar tomonidan XX asrning 30-yillarida e'tirof etilgan bo'lsa, o'zbek

adabiyotiga bu uslub 1990-yillardan boshlab kirib keldi. Masalan, Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida din, falsafa va mantiq uyg‘unlashib, mavjudlikning ma’no bilan boyitilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” asari esa ekzistensial falsafani anglash orqali o‘quvchi tafakkurini o‘stiradi.

7. Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasidagi qahramon obrazida, o‘zligiga isyon ko‘targan ziyolining jamiyat bilan ziddiyati aks etgan. Jamiyatdagi ma’nisiz hayot alg‘ov-dalg‘ovlari orasida insonning yo‘qotilgan mohiyatini qayta izlashga undaydi.

8. XX-asr boshida G‘arb badiiy-estetik tafakkurida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Urush, ijtimoiy inqiloblar va falsafiy o‘zgarishlar badiiy asarlarning psixologik chuqurligini oshirishga olib keldi.

9. Badiiy obrazlilik va xronotop elementlari hayot haqiqatlarini insoniyatning ekzistensial izlanishlari bilan bog‘lab tasvirleydi. Bu jarayon o‘zbek adabiyotida insonga xos ziddiyat va anglashilmovchiliklarni chuqur yoritish orqali yangi asarlarga ijodiy ruh bag‘ishlaydi.

10. Noan’anaviy qissalar inson hayoti va madaniyatining murakkab qirralarini tadqiq qilish orqali zamonaviy adabiy kontekstda dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu asarlar yangi yo‘nalishlar va oqimlarning paydo bo‘lishiga xizmat qilib, adabiy maydonni boyitadi va yangi ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantiradi.

11. O‘zbek noan’anaviy nasrida g‘arb badiiy tafakkuri sintezining o‘rni turli hayotiy paradigmalarning namoyon bo‘lishi orqali yaqqol ko‘rinadi. Birinchi jahon urushini boshidan kechirgan va o‘z tajribalaridan saboq olgan g‘arb mutafakkirlari “vaqt – pul” degan tamoyilga asoslanib, hayotga pragmatik yondashuvni ishlab chiqdilar. Bunday sharoitda inson intellektual kapitali jamiyatning jadal rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omilga aylandi. Bu yondashuv badiiy uslub, janr va xronotop evolyutsiyasini aks ettira boshlagan noan’anaviy nasr estetikasida yangi bosqich shakllanishiga asos bo‘ldi.

12. Zamonaviy o‘zbek noan’anaviy nasrida G‘arb badiiy tafakkuri va an’anaviy Sharq unsurlari sintezi o‘ziga xos badiiy uslub yaratilishiga sabab

bo'lganini ko'rsatadi. Asarlardagi uslub, janr va xronotopning bunday uyg'unligi mualliflarning yangilik kiritish va o'zgaruvchan madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashishga bo'lgan evolyutsion intilishlari natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik

ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltrishning mustahkam poydevori // Xalq so‘zi. – 2017. 4-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi // Xalq so‘zi. 2018-yil, 8-avgust.
4. Андреев А. Методология литературоведения. – М.: Дизайн-ПРО, 2000.

II. Ilmiy–nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar

5. Abdulla Sher. Abadiyat va umr. –T: Faylasuflar, 2017.
6. Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T: Akademnashr, 2015.
7. Boboxonov M. O‘zbek qissalarida badiiy psixologizm. –T.: Bayoz, 2014.
8. Dag Sulstad. Norveg nasri – Ovrupo modernizmi. –T: Maʼnaviyat, 2010.
9. Doniyorova Sh. Omon Muxtor ijodida yangicha talqinlar. –T.: Turon zamin ziyo, 2017.
10. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi, Nasaf, 1999.
11. Epshteyn M.N. Yuksak poeziya va Alpodam. Faxriyor tarjimasini. –T.: Akademnashr, 2020.
12. Hamroqulova X. Adabiyotda hayot-mamot muammosi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
13. Jabbor Eshonqul. Fol`klor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999.
14. Jo‘raev T. Ong oqimi modern. –Farg‘ona, 2009.

15. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Fan. 2006.
16. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: G'.G'ulom nashriyoti. 2015.
17. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir, 2011;
18. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2018.
19. Karimov B. Qodiriy nasri – nafosat qasri. –T.: O'zbekiston, 2014.
20. Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: Fan, 2016.
21. Karimov H. Kechagi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson kontseptsiyasi (70-80 yillar). –T.: Yangi nashr, 2018.
22. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – T.: Fan, 2008.
23. Nazar Eshonqul. "Hech"ning hechligi haqida. –T.: Akademnashr, 2019.
24. Nazar Eshonqul. "Men"dan "men" gacha. –T.: Akademnashr, 2015.
25. Nosirov O'. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –T.: Fan, 1981.
26. Paranovskiy Yan. So'z kimyosi. –T.: Ma'naviyat, 2010.
27. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri –T.: Sano standart, 2019.
28. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr. 2013.
29. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2013.
30. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakuri ocherklari. –T.: Fan, 2008.
31. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004.
32. Quronov D. Nazariy qaydlar. –T.: Akademnashr, 2018.
33. Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. – T.: O'qituvchi, 1997
34. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. –T.: O'zMU kutubxonasi nashriyoti, 2008.
35. Qo'shjonov M. Oybek mahorati. –T., 1965.
36. Qo'shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.

37. Qo‘shjonov M. Ijod mas‘uliyati, – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
38. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: Sharq, 2007.
39. Rahimov A. Roman san‘ati. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2015.
40. Rahimjonov N. Badiiyat – bosh mezon. – T.: Akademnashr, 2016.
41. Rahimjonov N. Adib estetikasi. – T.: Fan, 2017.
42. Rahimjon Rahmat. Bir yorug‘lik izlaymiz hamon. –T: Akademnashr, 2010.
43. Rahimjon Rahmat. “Munojot”dan “Boqiy darbadar”gacha. Isajon Sulton nasri badiiyati. –T.: Turon zamin ziyo, 2017.
44. Rasulov A. Akslar falsafasi. Isajon Sulton nasri badiiyati. –T.: Muharrir, 2017.
45. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Sharq, 2004.
46. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
47. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. O‘zbek adabiy tanqidi. –T.: Turon-iqbol, 2011.
48. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1986.
49. To‘raev D. Rangin tasvirlar jilosi. –T: Akademnashr 2014.
50. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
51. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T: O‘zbekiston, 2007.
52. Yoqubov I. Yurak po‘rtanalaridan bahs etuvchi asar. –T.: Muharrir, 2017.
53. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016.
54. G‘afurov I. Yozuvchi, tabiat va tibbiyot. Isajon Sulton nasri badiiyati. –T.: Turon zamin ziyo, 2017.
55. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T: Sharq, 2004.
56. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tazkiya darslari. Ruhiy tarbiya. manba: www.islom.uz

2. Xorijiy nashrlar

57. Акимова Г.Н. Выразительные свойства синтаксической структуры // Изложение и текст: семантика, прагматика и синтаксис. –Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1988.
58. Андреев А.Н. Селостный анализ литературного произведения: учеб. пособие на уч. Вузов. – Минск: НМЦентр, 1995.
59. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975.
60. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. –М.: Искусство, 1979.
61. Бахтин М. Эпос и Роман. – СПб.: Азбука, 2000.
62. Белый А. Ибсен и Достоевский// Белый А. Символизм и миропонимия. –М., 1994. –С. 196-198.
63. Бочаров С.Г. Л.Н. Толстой и новое понимание человека // Литература и новый человек. –М., 1963. –С.
64. Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статус. Эссе. –М., 1987. –С. 407.
65. . Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – 616 с.
66. Бочаров С.Г. Пруст и «поток сознания»// Критический реализм XX века и модернизм. –М.: 1967. –С. 196.
67. Бочаров С. Г. О художественных мирах. –М., 1985.
68. Фрейд З. Психология бессознательного. –М.: Просвещение, 1989.
69. Фрейд З. Толкование сновидений. – Мн.: Поппурри, 1997.
70. Фрейд З. Сын и сновидение. –М.: Олимп, 1997.
71. Фромм Эрих. Душа – человек. –М.: Республика, 1992.
72. Гегель. Эстетика. В 4-х т. –М.: Искусство, 1971, т.3.
73. Гениева Е.Ю. Джеймс Джойс // Дублиниси. Портрет художника в юности / – М.: Прогресс, 1982. – С. 36.
74. Гете И.В. Об искусстве. – М.: Искусство, 1978.

75. Гинзбург Л.Я. Психологическая проза. –Л.: Советский писатель, 1971.
76. Гудонене В. Искусство психологического повествования (от Тургеневой к Бунину). – Вильнюс: Изд. Вильнюс. Мистер. мука, 1998.
77. Греймас А. К теории интерпретации мифологического нарратива / Пер. французский. // Зарубежные исследования по семиотическому фольклору. Сб. состояние. –М., 1985. –С. 112.
78. Бройтман С.Н. Историческая поэтика: учебное пособие. – М.: РГГУ, 2001.
79. Джойс Дж. Улисс. – М.: Эксмо, 2009.
80. Добин Е. С. Сюжет и действительность. Художественная деталь. –Л.: Сов. Писатель (Ленингр. отд.), 1981.
81. Эткинд Е. Г. "Внутренний человек" и внешняя речь. Очерки психопэтики русской литературы. XVII-XIX вв. –М.: Языки русской культуры, 1998.
82. Иезуитов А.Н. Проблемы психологизма и эстетики в литературе. // Проблемный психологизм в советской литературе. –Л., 1970. –С. 18.
83. Колобаева Л. «Никакой психологии», или психологии фантазии? (О перспективах психологизма в русской литературе нашего века). – Вопросы лит. 1999. –№2. – С. 8.
84. Рикёр П. Интерпретационный конфликт: Очерк герменевтики. – М., 1995.
85. Рубинштейн С. Л. Основы общественной психологии. – СПб.: Издательство «Питер», 2000.
86. Лейтес Н. С. Конечное и бесконечное. Развитие о литературе XX в.: Мирозрение и поэтика: учеб. пособие по спецкурсу. –Пермь: Издательство Пермского университета, 1993.
87. Маслова В. А. Лингвистический анализ экспрессивности художественного текста. –Минск, 1997.
88. Маслова В. А. Языковая культура. –М: Академия, 2001.
89. Михайлов А.В. Судьба классического наследия на рубеже XVIII-XIX вв. // Классика и современность. –М., 1991. –С. 160.

90. Манн Ю. В. Автор и повествование // Историческая поэтика. Литературные эпоксида и типы художественного сознания. –М., 1994
91. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –М.: Высшая школа, 1989.
92. Выготский Л.С. Искусство психологии. – СПб.: Азбука, 2000.
93. Есин, А. Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя А.Б. Есин. –М.: Просвещение, 1988.
94. Хализев В.Е. Теоретическая литература. – Москва: «Высшая школа», 1999.
95. Хоружий С. Место послесловия // Djoys Dj. Улисс. – М., 1993. –С. 552.
96. Есин А.Б. Принципы и принимаем анализ литературного произведения: учебное пособие. –М: Флинта, 2003. –248 с
97. Юнг К. Г. Феномен духа в искусстве и науке // Собр. волосы Т. 15. –М., 1992.
98. Юнг К. Г. Человек и символ Эго. –М.: Серебряные нити, 1997.
99. Юнг К. Г. Аналитическая психология. – М.: Мартис, 1995.
100. Якимович А. Магическая вселенная. Очерки по искусству, философии и литературе XX века –М.: Галарт, 1995.
101. Ярошенко Л.В. Жанр роман-миф в творчестве А. Платонова: Монография. –Гродно: ГрГУ, 2004.
102. Забабурова Н.В. Стендаль и проблемы психологического анализа. –Ростов-на-Дону.: Изд-во Ростова. Ун-та, 1982.
103. Зелинский С. А. Творчество и психоанализ. Адрес электронного ресурса: http://zhurnal/lib/ru/z/zelinskij_serzej_alekseewich/tytyt.shtml.
104. Шабловская И. В. История зарубежной литературы (первая половина XX века). –Минск, 1998.
105. Шмид В. Нарратология. – М., 2003.

III. Badiiy adabiyotlar

106. Arastu. Poetika. –Т: Yangi asr avlodi, 2018.
107. Bahriev K. Jeym Joys. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. –Т: Asaxiyuz, 2023.

108. Bo‘taev Sh. Kayvonining mangu makoni. – T.: O‘zbekiston, 2011.
109. Erix Fromm. Ozodlikdan qochish. –T.: Yangi asr avlodi, 2021.
110. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
111. Isajon Sulton. Onaizorim. –T.: Sharq, 2015.
112. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. Turk tilidan Ulug‘bek Hamdam tarjimasini. –T.: Yangi asr avlodi, 2022.
113. Jeyms Joys. Musavvirning yoshlikdagi shamoyili. –T: Akademnashr, 2021.
114. Lev Tolstoy. Iqronoma. –T.: Yangi asr avlodi, 2022.
115. Murod Chovush. Hech. – T.: Akademnashr, 2019.
116. Nazar Eshonqul. Tun panjaralari. –T., 1988.
117. Nazar Eshonqul. Saylanma. 2 jildlik. –T: Akademnashr, 2022.
118. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. –T: Sharq, 2007.
119. Sultonov I. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010;
120. Sultonov I. Munojot. –T.: O‘zbekiston, 2010.
121. Ulug‘bek Hamdam. Yolg‘izlik. –T: Akademnashr, 2010.
122. Ulug‘bek Hamdam. Uzoqdagi Dilnura. –T.: Akademnashr, 2010.
123. Ulug‘bek Hamdam. Oydinbuloq oydinligi. –T.: Muharrir, 2017.
124. Ulug‘bek Hamdam. Sabo va Samandar. –T.: Yangi asr avlodi, 2022.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

125. Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Filol.fan.nomzodi diss. –T.: Fan, 2012.
126. Imomova G. Milliylik va badiiy nutq. Monografiya. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
127. Nazarov O‘. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi. Filol.fan.falsafa.dok(PhD). Avtoref. –Qarshi, 2018.
128. Nurmatov A. Badiiy asarda polifonizm. fil.fan.. nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 1996.
129. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an’ana, vorisiylik, o‘ziga xoslik. Fil.f.d.disser.avtoref. – T., 2020.

130. Qo'chqorova M. O'zbek nasrida badiiy shartlilik. Filologiya fand.dok.diss. –T., 2020.
131. Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Fil. fan. dok. ... dis. – T.: TAI, 2002,
132. Sultonova N. Isajon Sulton romanlarida badiiy komponentlar modifikatsiyasi. Fil.falsafa.doktori (PhD) diss.yasi. –Qarshi, 2020.
133. To'liboev X. Hozirgi o'zbek romanchiligida badiiy uslub va janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezi. Filol.fan.falsafa.dok.diss. –Farg'ona,. 2018.
134. Xasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser.avtoreferati. – Samarqand, 2018.
135. Xoldorov D. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi. Filol. fan.falsafa.dok.avtoref. –T., 2017.
136. Хун Е. Ю. Проблема художественного психологизма в русскоязычных романах Владимира Набокова: автореф. дис... канд. Филол. Наук: 10.01.01; М. Мистер. ун-т. – М., 2001.
137. Xo'jayev T. XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor: f.f.n. disser. –T., 1996.

V. Ilmiy to'plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

138. Avezova G. Polifonik tafakkur tipi badiiy yaxlitlikni ta'minlaydigan omil sifatida//International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada. <https://econferencezone.org> 27th Oct. 2022.
139. Erkaev A. Estetik ong va badiiy bilish//Jahon adabiyoti. 2015. – №.11. –B.135.
140. Haqqulov I. Ruhoniyat va nafsoniyat tazod.// Jahon adabiyoti. 2015. №.10.
141. Otaboev A. Ekzistentsializm // Jahon adabiyoti, 2015. –№1. –B.111.
142. Rasulov A. Shafoat yog'dusidan bahramandlik. // Sharq yulduzi, 1991. –№.4. –B.128.
143. Xolmirzaev Sh. Kechirasiz Janob Karpenter vaqtim ziqroq // O'zAS. 2000. –№.25. –B.3-6.
144. Yo'ldoshev Q. Tishing o'tmasa tosh chaynama // O'zAS. 2004. –№.8.

145. Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas. // O‘zAS. 2002. –№.22-23.

Internet saytlari

146. <http://lingvisticheskiy-slovar.ru/>

147. <https://www.psu.edu/>

148. <https://www.berkeley.edu/>

149. <http://new.huji.ac.il/en>

150. <https://www.unhas.ac.id/en>

151. <https://um-surabaya.ac.id/ums/>

152. <http://www.zhsust.edu.bd/>

153. www.msu.ru

154. <http://www.psu.ru/>

155. www.csu.ru

156. www.spbu.ru

157. www.gsu.bl

158. www.vu.lt

159. www.samdu.uz

160. www.ziyonet.uz

161. www.ziyouz.com

162. www.lgz.ru